ARP

Academic research publisher



INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

# SCIENCE AND HUMAN PROGRESS: CONTEMPORARY CHALLENGES, RESEARCH AND PROMISING SOLUTIONS

**AUGUST 12, 2026**

TASHKENT — LONDON

Official website: https://academscience.com/

zenodo | OpenAIRE

**Academic Research Publisher (United Kingdom)**

**UniScience journal (Republic of Uzbekistan)**

**Hamroh books (Uzbekistan)**

**********

# MATERIALS

## The international scientific-practical conference

# «SCIENCE AND HUMAN PROGRESS: CONTEMPORARY CHALLENGES, RESEARCH AND PROMISING SOLUTIONS»

**Tashkent, London**

**August 12, 2026**

**********

**Science and human progress: contemporary challenges, research and promising solutions** // Materials International Scientific-Practical Conference. Tashkent-London. August 18, 2026.

## Editorial board of the conference

**Temnova L.V. -** DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N. -** PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D. -** DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V. -** PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A. -** PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M. -** DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo‘shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

The event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the conference framework, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research findings, exchange scientific ideas, and expand international collaboration.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (August 11, 2026, Protocol No. 30).

# CONTENTS

**1. CURRENT ISSUES IN NATURAL AND EXACT SCIENCES** ..... 10

YUPQA DEVORLI SILINDRIK QOBIQLARDA TO‘LQINLAR TARQALISHINING NAZARIY VA SONLI TAHLILI ..... 11

LAZER PARAMETRLARINING METALL SIRT QAYTARUVCHANLIGIGA TA'SIRINI OPTIK MODELLASHTIRISH..... 17

MIS SIRTINING NANOSEKUNDLI LAZER ABLATSIYASI YORDAMIDA QORAYTIRILISHIDA CuO NANOSTRUKTURASINING ROLI ..... 21

**2. GEOGRAPHY, GEOLOGY, ECOLOGY, AND EARTH SCIENCES**. 25

КАРТИРОВАНИЕ ВЕЩЕСТВЕННОГО СОСТАВА ЛЕВОБЕРЕЖЬЯ Р. АХАНГАРАН С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ ЗЕМЛИ..... 26

**3. INFORMATION TECHNOLOGY AND DIGITAL INNOVATION** ..... 34

VIRTUAL REALLIKDA HOLISTIK HARAKATNI QO‘LGA KIRITISH KONVEYERINI BARMOQ BO‘G‘INLARI VA YUZ MIMIKASINI RETARGETING QILISH ORQALI KENGAYTIRISH..... 35

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 46

IMPROVING ELECTRONIC HEALTH RECORD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN THROUGH AUTOMATIC SPEECH RECOGNITION..... 55

KIBERXAVFSIZLIKDA TARMOQ HUJUMLARINI ANIQLASH UCHUN MASHINALI O‘QITISH ALGORITMLARINI TADQIQ QILISH..... 60

KAM RESURSLI O‘ZBEK VA TURKIY TILLAR UCHUN AVTOMATIK NUTQNI TANISH MUAMMOLARI ..... 67

**4. ENGINEERING, TECHNOLOGY, AND INDUSTRIAL SCIENCES**. 70

EFFECT OF ELECTROPULSE TREATMENT ON THE CORROSION RESISTANCE OF COMMERCIALLY PURE NICKEL NP1..... 71

QURILISH MATERIALLARINI YONG‘INDAN HIMOYALOVCHI KOMPOZITSIYA ASOSIDA OLISH USULI..... 74

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA ELEKTR ENERGETIKASIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA YONDASHUVLARI ..... 82

**5. MEDICINE, PHARMACY, AND HEALTHCARE** ..... 87

QANDLI DIABET II TIP HAMDA SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA BUYRAKLAR FUNKSIONAL HOLATINI BAXOLASH ..... 88

QANDLI DIABET II TIP HAMDA SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA BUYRAKLAR DISFUNKSIYASI DARAJASIGA QARAB YURAK REMODELLANISH JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH ..... 90

MITOCHONDRIAL TRANSPLANTATION: A NOVEL THERAPEUTIC APPROACH FOR PATHOLOGIES ASSOCIATED WITH CELLULAR ENERGY DEFICIENCY ..... 92

QORINCHALARARO TO‘SIQ NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA CHAK MIKROBITSENOZINING METABOLIK SALOHIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 96

METABOLIK SINDROMLI ONADAN TUG‘ILGAN CHAQALOQLARDA SARIQLIKNING KLINIK VA BIOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI. (Adabiyotlar sharhi) ..... 98

CLINICAL AND IMMUNOLOGICAL EFFICACY OF A NON-TOXIC ELIMINATION METHOD IN THE TREATMENT OF TAENIA SAGINATA INVASION UNDER THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN ..... 100

ZAMONAVIY JAMIYATDA GIPODINAMIYA MUAMMOSI: FIZIOLOGIK O‘QIBATLARI, XAVF OMILLARI VA OLDINI OLISHNING TIBBIY-IJTIMOIY MEXANIZMLARI ..... 103

HARBIY XIZMATCHILAR VA FUQAROLARDA YELKA SUYAGI PROKSIMAL QISMI SINISHLARINING KLINIK-DEMOGRAFIK VA TRAVMATOLOGIK XUSUSIYATLARI ..... 107

СТРУКТУРА ОСЛОЖНЕНИЙ И ПОВТОРНЫХ ХИРУРГИЧЕСКИХ ВМЕШАТЕЛЬСТВ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ПЕРЕЛОМОВ ПРОКСИМАЛЬНОГО ОТДЕЛА ПЛЕЧЕВОЙ КОСТИ ..... 109

**6. AGRICULTURE, VETERINARY MEDICINE, AND FOOD TECHNOLOGY** ..... 111

CURRENT STATE AND PROBLEMS OF GRAIN PRODUCTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: A REGIONAL ANALYSIS FOR 2020-2024 ..... 112

TENSION ИНФИЛЬТРОМЕТР ЁРДАМИДА ТУПРОҚ СУВ ЎТҚАЗУВЧАНЛИГИНИ АНИҚЛАШНИНГ ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ МЕЪЁРИНИ ҲИСОБЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ ..... 120

THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC ROLE OF GREENHOUSE FARMING IN FOOD SECURITY UNDER CLIMATE AND RESOURCE CONSTRAINTS: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND IMPLICATIONS FOR UZBEKISTAN ..... 133

TOMCHILATIB SUG‘ORISH TIZIMLARIDAGI SILINDRSIMON IN-LINE TIPLI EMITTERLAR ORQALI BOSIM YO‘QOTISHLARINI CFD TAHLILI YORDAMIDA ANIQLASH TAHLILLARI ..... 138

EKISH MUDDATLARI VA ME'YORLARINI SOYANING “SEVINCH” VA “MADAD” NAVLARINI UNIB CHIQISH DINAMIKASIGA TA'SIRI ..... 145

SUSTAINABLE AGRICULTURAL GROWTH AND FOOD SECURITY THROUGH INTEGRATED CLIMATE ADAPTATION STRATEGIES ..... 151

FACTORS INFLUENCING THE ADOPTION OF RESOURCE-SAVING TECHNOLOGIES IN GRAIN PRODUCTION ..... 162

EKISH MUDDATLARI VA ME'YORLARINI SOY NAVLARINING KO‘CHAT QALINLIGIGA TA'SIRI ..... 172

UZUM BOSHLARINI QOPLASHNING XUSAYNE BELIY NAVI UZUM G‘UJUMLARI SIFATIGA TA’SIRINING KORRELYATSION BOG‘LIQLIGI .. 177

**7. EDUCATION, PSYCHOLOGY, AND LEARNING TECHNOLOGIES** ..... 182

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ..... 183

OLIY TA’LIMDA JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-DIDAKTIK IMKONIYATLARI ..... 190

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ELECTRICAL ENGINEERING STUDENTS ..... 196

WRITING COMPETENCE OF PRE-SERVICE ENGLISH TEACHERS: STRUCTURAL COMPONENTS AND THEIR FUNCTIONAL INTERRELATION ..... 200

SHAXS XULQ-ATVORI DESTRUKTIV VA DEVIANT SHAKLLARINING OLDINI OLISHDA O‘Z-O‘ZINI NAZORAT QILISH FUNKSIYALARI VA ULARNING GENDER XUSUSIYATLARI ..... 207

DIDACTIC POTENTIAL OF LINGUOSTYLISTIC DEVICES IN DEVELOPING STUDENTS' SPEECH COMPETENCE ..... 214

MAKTABLARDA O'QUVCHILARINING FIZIKA FANIDAN TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 218

IMPROVING THE METHODS FOR DEVELOPING BASIC PHYSICS COMPETENCIES OF STUDENTS IN GENERAL SECONDARY EDUCATION SCHOOLS ..... 225

FORMATION AND EVOLUTIONARY DEVELOPMENT OF WOMEN'S CYCLING WITHIN THE OLYMPIC GAMES SYSTEM ..... 231

THE ROLE OF THE MOTIVATION FACTOR IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE ..... 237

ЗНАЧЕНИЕ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ КУРСАНТОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОМУ ПРОЦЕССУ ..... 241

TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ..... 248

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSH MUTAXASSISLARNI SHAKLLANTIRISHDA LIDERLIK TAMOYILLARI ..... 252

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND EDUCATION: OPTIMIZING COGNITIVE LOAD IN MATHEMATICAL BIOLOGY AND BIOINFORMATICS USING ALPHAPOLD AND LLMS ..... 256

**8. PHILOLOGY, ARTS, AND CULTURAL STUDIES** ..... 264

BADIIY MATNNI ANGLASH VA TALQIN QILISHDA OLAM MANZARASINING AHAMIYATI ..... 265

CULTURAL DIFFUSION IN THE AGE OF GLOBALIZATION ..... 269

NUTQIY BUZILISHLARINING LINGVISTIK JIHATLARINI O'RGANISH ..... 281

INGLIZ TILI TA'SIRIDAGI GRAMMATIK MODELLARNING SOTSIOLINGVISTIK FAOLLASHUVI ..... 288

TILAK JO'RA IJODIDA SINONIMLARNING QO'LLANILISHI ..... 297

NAMANGAN XALQARO GULLAR FESTIVALI TADQIQI: OMMAVIY BAYRAMLARNI TASHKIL ETISHDA XORIJIY TAJRIBA ..... 302

FORMAL REPRESENTATION OF METAPHORS IN THE FRAMEWORK OF A COGNITIVE APPROACH ..... 308

ALISHER NAVAI'S NOBLE HUMAN VIRTUES IN “MAKARIM UL-AKHLAQ” ..... 316

ANDIJON VILOYATIDA RADIO TIZIMI 1965–1985-YILLARDA: TARMOQ VA DASTURLAR ..... 321

JADIDCHILIK HARAKATINING ADABIYOT VA TEATRGA OID MA’RIFIY QARASHLARI ..... 329

**9. ECONOMICS, FINANCE, MANAGEMENT, AND SERVICES** ..... 336

PROSPECTS FOR DEVELOPING BUSINESS TOURISM IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL MARKETING TECHNOLOGIES ..... 337

MINTAQADA TARMOQLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI ..... 345

ENHANCING THE COMPETITIVENESS OF GREENHOUSE PRODUCTS UNDER WTO CONDITIONS: ORGANIZATIONAL, MARKETING, AND INVESTMENT MECHANISMS ..... 349

ГЕОЛОГИЯ-ҚИДИРУВ ИШЛАРИДА ХАРАЖАТЛАРНИ ТУРКУМЛАШ ВА ТАННАРХ КАЛЬКУЛЯЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ..... 353

TURKIY SAVDO-SANOAT PALATASI ITTIFOQINING O‘ZBEKISTON IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARIDA TUTGAN O‘RNI ..... 369

HUDUDIY NEFT BAZALARI FAOLIYATIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI HAMDA XUSUSIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI ..... 374

MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH STRATEGIYASI ..... 383

**10. SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES, LAW, AND POLITICAL SCIENCE** ..... 402

ADVOKATLAR FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ..... 403

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO BARQARORLIKNI TA’MINLASH VA ETNIK NIZOLAR PROFILAKTIKASIDA SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA MEXANIZMLARI ..... 411

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSIY XULQ-ATVORINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI ..... 425

ГАРМОНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ГРАЖДАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ ..... 433

JINOYAT PROTSESSIDA SUD MUHOKAMASI BOSQICHIDA JABRLANUVCHI VA FUQAROVIY DA'VOGARLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH UCHUN MALAKALI YURIDIK YORDAM KO'RSATISH KAFOLATLARI ..... 438

IJTIMOIY ADOLAT VA NOGIRONLAR: YANGI YONDASHUV, YANGI IMKONIYATLAR ..... 451

REASSESSING LIBERAL POLITICAL ECONOMY: DIVERGENT POLITICAL AND ECONOMIC LIBERALISATION IN KYRGYZSTAN AND UZBEKISTAN ..... 455

TRANSFORMATIONS IN THE LOCAL JUDICIAL SYSTEM OF TURKESTAN IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES ..... 469

O‘ZBEKISTON SSRDA TOVAR TANQISLIGI (DEFITSID) VA AHOLIDA KUZATILGAN IQTISODIY YETISHMOVCHILIKLAR (1980-yillar) ..... 471

ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОБРАЗОВАНИЯ ТАДЖИКСКОЙ АССР В СОСТАВЕ УЗБЕКСКОЙ ССР .... 475

УГЛУБЛЕНИЕ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОЙ РЕГИОНАЛИЗАЦИИ: ОЦЕНКА РОЛИ УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА. ..... 487

NODAVLAT SUD-EKSPERTIZA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI ..... 495

ЦИФРОВАЯ СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ: НАУЧНО-ТЕОРЕТИЕСКИЙ АНАЛИЗ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРАКТИКИ ..... 499

ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ИНТЕГРАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ДЕТЕРМИНАНТ РАЗВОДА ..... 507

# 1. CURRENT ISSUES IN NATURAL AND EXACT SCIENCES

# YUPQA DEVORLI SILINDRIK QOBIQLARDA TO‘LQINLAR TARQALISHINING NAZARIY VA SONLI TAHLILI

Xolyigitova Mohigul Naim qizi
*Jizzax davlat pedagogika universiteti,*
*Jizzax shahri, O'zbekiston*
*E-mail:mohigulxolyigitova@gmail.com*

***ANNOTATSIYA:****Ushbu maqolada yupqa devorli silindrik qobiqlarda elastik to‘lqinlarning tarqalish jarayoni nazariy va sonli usullar asosida tahlil qilingan. Klassik Lyav (Love) qobiqlar nazariyasi va Flyugge (Flügge) tenglamalari asosida harakat tenglamalari tuzilgan, ularning dispersiya tenglamasi analitik yo‘l bilan chiqarilgan. Olingan analitik natijalar chekli elementlar usuli (ChEU) yordamida sonli modellashtirish natijalari bilan solishtirilgan. Tadqiqot davomida qobiq qalinligi, materialning elastik xossalari va to‘lqin chastotasining fazaviy va guruh tezliklariga ta’siri o‘rganilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, past chastotalar sohasida analitik va sonli natijalar orasidagi farq 3%dan oshmaydi, yuqori chastotalarda esa qobiqning egilish deformatsiyalari hisobiga farq ortib boradi. Olingan natijalar aerokosmik, mashinasozlik va quvur konstruksiyalarini akustik diagnostika qilishda qo‘llanilishi mumkin.*

***Kalit so‘zlar:*** *silindrik qobiq, to‘lqinlar tarqalishi, dispersiya tenglamasi, Lyav nazariyasi, chekli elementlar usuli, fazaviy tezlik, guruh tezligi.*

***ABSTRACT:****This paper presents a theoretical and numerical analysis of elastic wave propagation in thin-walled cylindrical shells. The governing equations of motion are derived on the basis of the classical Love shell theory and the Flügge equations, and the corresponding dispersion equation is obtained analytically. The analytical results are compared with numerical simulations performed using the finite element method (FEM). The influence of shell thickness, elastic material properties, and wave frequency on the phase and group velocities is investigated. The results show that at low frequencies the discrepancy between analytical and numerical results does not exceed 3%, while at higher frequencies the difference increases due to bending deformation effects. The obtained results can be applied in acoustic diagnostics of aerospace, mechanical engineering, and pipeline structures.*

*Keywords: cylindrical shell, wave propagation, dispersion equation, Love theory, finite element method, phase velocity, group velocity.*

## KIRISH

Yupqa devorli silindrik qobiqlar aerokosmik texnika, quvur transporti, energetika inshootlari va mashinasozlikda keng qo‘llaniladigan konstruktiv elementlardir. Bunday konstruksiyalarning mustahkamligi, dinamik barqarorligi va nosozliklarini aniqlash masalalari ularda to‘lqinlarning tarqalish qonuniyatlarini chuqur bilishni talab qiladi. To‘lqinlarning dispersiya xususiyatlarini o‘rganish nafaqat konstruksiyaning dinamik xarakteristikalarini baholashda, balki akustik emissiya usullari yordamida nosozliklarni erta aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Silindrik qobiqlardagi to‘lqinlar tarqalishi masalasi bilan ko‘plab tadqiqotchilar shug‘ullangan. Klassik yondashuvlar orasida Lyav (Love), Donnell, Flyugge (Flügge) va Sanders qobiq nazariyalari alohida o‘rin tutadi. Ushbu nazariyalarning har biri qobiqning egilish va cho‘zilish deformatsiyalarini turlicha yaqinlashish darajasida hisobga oladi, natijada dispersiya egri chiziqlarida farqlar yuzaga keladi. So‘nggi yillarda hisoblash texnikasining rivojlanishi bilan analitik natijalarni sonli usullar, xususan chekli elementlar usuli (ChEU) va chekli ayirmalar usuli bilan tekshirish imkoniyati kengaydi.

Ushbu ishning maqsadi — yupqa devorli izotrop silindrik qobiqda erkin to‘lqinlar tarqalishining matematik modelini tuzish, dispersiya tenglamasini analitik yo‘l bilan olish va uni ChEU asosidagi sonli modellashtirish natijalari bilan solishtirib, model aniqligini baholashdan iborat.

Ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Lyav nazariyasi asosida silindrik qobiqning harakat tenglamalarini tuzish;
2. Garmonik to‘lqin yechimini qo‘llab dispersiya tenglamasini chiqarish;
3. Fazaviy va guruh tezliklarining chastotaga bog‘liqligini analitik hisoblash;
4. ChEU asosida sonli model yaratish va natijalarni analitik yechim bilan solishtirish;
5. Qobiq qalinligi va material parametrlarining dispersiya xarakteristikalariga ta’sirini tahlil qilish.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

### 1. Nazariy model

Radiusi R, qalinligi h (h ≪ R) bo‘lgan izotrop, elastik, bir jinsli yupqa devorli silindrik qobiq qaraladi. Qobiq materiali zichligi ρ, Yung moduli E, Puasson koeffitsiyenti ν bilan tavsiflanadi. Silindrik koordinatalar sistemasida o‘rta sirt harakati uch komponentali siljish vektori bilan aniqlanadi: o‘qi bo‘ylab u(x,θ,t), aylana bo‘ylab v(x,θ,t) va radial yo‘nalishda w(x,θ,t).

Lyav nazariyasiga asoslangan qobiq harakatining differensial tenglamalari quyidagi umumiy ko‘rinishda yoziladi:

$$L_{11}u + L_{12}v + L_{13}w = \rho h\, \partial^2 u/\partial t^2$$
$$L_{21}u + L_{22}v + L_{23}w = \rho h\, \partial^2 v/\partial t^2$$
$$L_{31}u + L_{32}v + L_{33}w + D\nabla^4 w = \rho h\, \partial^2 w/\partial t^2$$

bu yerda $L_{ij}$ — chiziqli differensial operatorlar, $D = Eh^3 / [12(1-\nu^2)]$ — qobiqning egiluvchanlik qattiqligi, $\nabla^4$ — Laplas operatorining kvadrati (biggarmonik operator).

**2. Dispersiya tenglamasini chiqarish**

Yechim garmonik to‘lqin ko‘rinishida izlanadi:

$$(u, v, w) = (U, V, W)\cdot exp[i(kx + n\theta - \omega t)]$$

bu yerda k — o‘qiy to‘lqin soni, n — aylana bo‘ylab garmonika tartibi (butun son), ω — dumaloq chastota, U, V, W — amplituda konstantalari. Bu ifodani harakat tenglamalariga qo‘yish natijasida amplitudalarga nisbatan bir jinsli chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi hosil bo‘ladi. Nolga teng bo‘lmagan yechim mavjud bo‘lishi uchun koeffitsiyentlar matritsasining determinanti nolga teng bo‘lishi shart:

$$det[A(k, n, \omega)] = 0$$

Bu shart uchinchi tartibli dispersiya tenglamasini beradi, uning yechimi ω ni k va n orqali aniqlaydi hamda uch xil to‘lqin tipiga (asosan cho‘zilish, aylanma va egilish to‘lqinlari) mos keluvchi uchta tarmoqni beradi. Fazaviy va guruh tezliklari mos ravishda quyidagicha aniqlanadi:

$$cph = \omega / k, \qquad cgr = d\omega / dk$$

**3. Sonli model (chekli elementlar usuli)**

Analitik natijalarni tekshirish uchun uzunligi L = 2 m, radiusi R = 0,1 m, qalinligi h = 0,003 m bo‘lgan po‘lat silindrik qobiq (E = 210 GPa, ν = 0,3, ρ = 7850 kg/m³) modellashtirildi. Qobiq to‘rt tugunli qobiq chekli elementlari (shell elements) bilan diskretizatsiya qilindi, tugunlar soni taxminan 24000 ta, element o‘lchami to‘lqin uzunligining kamida 1/12 qismini tashkil etadigan qilib tanlandi (yuqori chastotali to‘lqinlarni to‘g‘ri tasvirlash uchun).

Chegaraviy shartlar sifatida ikki uchi erkin (free-free) holat qabul qilindi, tashqi ta’sir sifatida qobiqning bir uchiga radial yo‘nalishda impuls tipidagi yuklama qo‘llanildi. Vaqt bo‘yicha integrallash aniq markaziy ayirmalar sxemasi (explicit

central difference) yordamida amalga oshirildi, vaqt qadami Kuran (Courant) barqarorlik shartidan kelib chiqib tanlandi:

$$\Delta t \leq \Delta x_min / c_max$$

Signalning vaqt bo‘yicha tarixi bir nechta nazorat nuqtalarida qayd etilib, keyinchalik Fure (Fourier) tez almashtirish usuli (FFT) va vaqt-chastota (wavelet) tahlili yordamida fazaviy va guruh tezliklari qayta tiklandi.

**NATIJALAR**

1-jadvalda n = 0 (aylanaviy simmetrik) va n = 1 garmonikalar uchun turli chastotalarda analitik va sonli usullar bilan hisoblangan fazaviy tezlik qiymatlari keltirilgan.

| Chastota f, kGts | Garmonika n | cph analitik, m/s | cph ChEU, m/s | Farq, % | To‘lqin turi |
|---|---|---|---|---|---|
| 5 | 0 | 5230 | 5198 | 0,6 | cho‘zilish |
| 20 | 0 | 5180 | 5142 | 0,7 | cho‘zilish |
| 50 | 0 | 4890 | 4795 | 1,9 | egilish |
| 100 | 1 | 3120 | 2985 | 4,3 | egilish |
| 150 | 1 | 2540 | 2361 | 7,0 | egilish |

*1-jadval. Fazaviy tezliklarning analitik va sonli (ChEU) natijalari solishtirmasi*

Olingan natijalarga ko‘ra, past chastotalar (f ≤ 20 kGts) sohasida analitik va sonli natijalar orasidagi farq 1%dan oshmaydi — bu sohada asosan cho‘zilish (membrana) to‘lqinlari ustunlik qiladi va Lyav nazariyasining asosiy taxminlari (yupqa qobiq, kichik egilish) to‘liq bajariladi. Chastota ortishi bilan (f > 50 kGts) egilish to‘lqinlarining ulushi kuchayadi, natijada farq 4–7% gacha ortadi. Bu holat qobiq qalinligi bo‘yicha deformatsiyaning notekisligi hisobga olinmasligi bilan izohlanadi — bunday effektlar faqat Mindlin tipidagi yoki uch o‘lchamli elastiklik nazariyasi asosidagi modellarda to‘liq hisobga olinadi.

Qobiq qalinligining ta’sirini o‘rganish natijasida shu narsa aniqlandiki, h/R nisbati ortishi bilan (masalan, 0,01 dan 0,05 gacha) egilish to‘lqinlarining dispersiya egri chizig‘i sezilarli darajada yuqoriga siljiydi, ya’ni bir xil chastotada fazaviy tezlik ortadi. Bu, o‘z navbatida, qalinroq qobiqlarning egilishga nisbatan qattiqroq bo‘lishi bilan bog‘liq. Material qattiqligi (Yung moduli) ortishi barcha to‘lqin tiplarining fazaviy tezligini bir xil nisbatda oshiradi, chunki cph ~ √(E/ρ) bog‘lanish saqlanib qoladi.

Guruh tezligining chastotaga bog‘liqligi tahlili shuni ko‘rsatdiki, egilish to‘lqinlari uchun guruh tezligi past chastotalarda nolga intiladi va chastota ortishi bilan monoton o‘sib, cho‘zilish to‘lqinlarining tezligiga asimptotik yaqinlashadi. Bu xususiyat qobiqlarda impuls signallarining tarqalishida signal shaklining chastotaga bog‘liq ravishda buzilishiga (dispersiv tarqalishga) olib keladi, bu esa akustik-emissiya diagnostikasida signalni sharhlashda hisobga olinishi zarur.

**MUHOKAMA**

Olingan natijalar klassik qobiq nazariyalarining qo‘llanish chegaralarini aniq ko‘rsatadi. Lyav nazariyasi past va o‘rta chastotalar sohasida (to‘lqin uzunligi qobiq qalinligidan sezilarli darajada katta bo‘lganda) yetarlicha aniq natijalar beradi, biroq yuqori chastotali egilish to‘lqinlari uchun aniqlik pasayadi. Bu, adabiyotlarda keltirilgan boshqa tadqiqotlarning xulosalari bilan mos keladi, ularda ham xuddi shunday tendensiya — chastota ortishi bilan klassik va uch o‘lchamli modellar orasidagi farqning kuchayishi — qayd etilgan.

Amaliy nuqtai nazardan, olingan dispersiya munosabatlari akustik-emissiya va gid nosozliklarini aniqlash usullarida quvur va idishlarning devor qalinligini nazorat qilish, shuningdek nosozlik joylashuvini signal kelish vaqti farqiga asoslanib aniqlashda qo‘llanilishi mumkin. Sonli model, o‘z navbatida, murakkab geometriyali (teshiklar, qo‘shilma choklar, qalinlik o‘zgarishi mavjud) konstruksiyalar uchun analitik yechim mavjud bo‘lmagan hollarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ishonchli asos yaratadi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni ta’kidlash lozim: model izotrop va bir jinsli materialga asoslangan, temperatura va oldindan kuchlanish (prestress) ta’sirlari hisobga olinmagan, shuningdek qobiqning geometrik nosimmetrikligi (masalan, tayanchlar yoki qo‘shilmalar) ko‘rib chiqilmagan. Kelgusi tadqiqotlarda kompozit qatlamli qobiqlar, funksional-gradiyentli materiallar (FGM) hamda tashqi muhit (masalan, suyuqlik bilan to‘ldirilgan quvurlar) ta’sirini hisobga oluvchi modellarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

**XULOSA**

Ushbu tadqiqot doirasida yupqa devorli izotrop silindrik qobiqda elastik to‘lqinlar tarqalishining nazariy modeli Lyav nazariyasi asosida qurildi va dispersiya tenglamasi analitik yo‘l bilan olindi. Model chekli elementlar usuli asosidagi sonli simulyatsiya natijalari bilan solishtirildi va quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Past chastotalar ($f \leq 20$ kGts) sohasida analitik va sonli natijalar orasidagi farq 1%dan oshmaydi, bu Lyav nazariyasining bu sohada yuqori aniqlikka egaligini tasdiqlaydi;

2.Chastota ortishi bilan (f > 50 kGts) egilish to‘lqinlarining hissasi kuchayadi va farq 4–7% gacha yetadi, bu esa yuqori chastotalarda aniqroq (masalan, Mindlin tipidagi) modellarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi;

3.Qobiq qalinligi va material qattiqligi dispersiya xarakteristikalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi: h/R nisbati ortishi fazaviy tezlikni oshiradi, Yung moduli esa barcha to‘lqin tezliklarini bir xil nisbatda kattalashtiradi;

4.Ishlab chiqilgan analitik-sonli yondashuv silindrik konstruksiyalarni akustik diagnostika qilish, nosozliklarni aniqlash va dinamik loyihalashda amaliy qo‘llanish imkoniga ega.

Kelgusi tadqiqotlar kompozit va funksional-gradiyentli materiallardan tayyorlangan qobiqlarda, shuningdek suyuqlik bilan o‘zaro ta’sir sharoitida to‘lqinlar tarqalishini o‘rganishga qaratilishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Po‘latov A., Abdullayev R. Elastiklik nazariyasi asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. — 312 b.

2.Karimov Sh., Ergashev B. Qobiq va plastinkalar mexanikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 284 b.

3.Raxmatov U., Xudoyberdiyev N. Mexanik tebranishlar nazariyasi. — Toshkent: Tafakkur, 2019. — 296 b.

4.Qodirov A., To‘xtayev S. Viskoelastik materiallar mexanikasi. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. — 258 b.

5.Tursunov X., Jo‘rayev M. Anizotrop jismlar elastiklik nazariyasi. — Toshkent: Fan, 2018. — 330 b.

6.Sultonov B., Xolmurodov A. Qovurg‘ali qobiqlar nazariyasi va hisoblash usullari. — Toshkent: Muharrir, 2021. — 270 b.

7.Hasanov M.M., Yusupova M.A. Silindrik qobiqlarda viskoelastik muhitda to‘lqinlarning tarqalishi // O‘zbekiston fizika jurnali. — 2023. — №4. — B. 31–38.

8.Xolyigitova M. N., Suyarov A. O. BIR JINSLI BOLMAGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SITEMASINI “REZONANS” VA “REZONANS” BOLMAGAN HOLLAR UCHUN YECHIMLARINI TUZISH //Экономика и социум. – 2024. – №. 10 (125). – C. 413-416.

9.Nazarov I.A., Karimov O.X. Suyuqlik bilan to‘ldirilgan silindrik qobiqlarda to‘lqin jarayonlarini modellashtirish // O‘zbekiston matematika va mexanika jurnali. — 2022. — №2. — B. 45–57.

# LAZER PARAMETRLARINING METALL SIRT QAYTARUVCHANLIGIGA TA'SIRINI OPTIK MODELLASHTIRISH

Shamuratov Shuhrat Baxtiyar o‘g‘li
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*
*e-mail: shuhratbek7434@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu tezisda mis sirti misolida optik qaytaruvchanlikni tavsiflovchi ikki fizik model - soddalashtirilgan analitik model va chekli farqlar vaqt sohasi (FDTD) simulyatsiyasi - ko'rib chiqilgan hamda lazer parametrlari (to'lqin uzunligi, fluens) o'zgarganda natijaga ta'siri tahlil qilingan. Ikkala model ham o'zaro mos natijalar berib, samarali qoraytirish uchun taxminan 1 mkm qalinlikdagi nanostrukturali CuO qatlami yetarli ekanligini ko'rsatdi.*

***Kalit so'zlar:*** *optik modellashtirish, Ber-Lambert qonuni, Frenel qaytishi, FDTD, sirt qaytaruvchanligi, CuO qatlami, lazer parametrlari.*

***Аннотация.*** *В данных тезисах на примере поверхности меди рассмотрены две физические модели, описывающие оптическую отражательную способность - упрощённая аналитическая модель и моделирование методом конечных разностей во временной области (FDTD), - а также проанализировано влияние изменения параметров лазера (длина волны, флюенс) на результат. Обе модели дали согласующиеся результаты, показав, что для эффективного почернения достаточно наноструктурированного слоя CuO толщиной около 1 мкм.*

***Ключевые слова:*** *оптическое моделирование, закон Бера–Ламберта, отражение Френеля, FDTD, отражательная способность поверхности, слой CuO, параметры лазера.*

***Abstract.*** *This thesis examines two physical models describing optical reflectivity using the copper surface as an example - a simplified analytical model and a finite-difference time-domain (FDTD) simulation - and analyzes how changes in laser parameters (wavelength, fluence) affect the outcome. Both models produced consistent results, showing that a nanostructured CuO layer about 1 μm thick is sufficient for effective darkening.*

***Keywords:*** *optical modeling, Beer–Lambert law, Fresnel reflection, FDTD, surface reflectivity, CuO layer, laser parameters.*

## Kirish

Lazer bilan qoraytirilgan metall sirtlarning amaliy qo'llanilishi (quyosh kollektorlari, lazer nur to'sqichlari, termal boshqaruv qurilmalari) uchun qaytaruvchanlikning lazer parametrlariga (to'lqin uzunligi, fluens, skanerlash qadami) qanday bog'liqligini oldindan bashorat qila olish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi - tajriba o'tkazmasdan turib natijani baholash imkonini beruvchi fizik modellashtirish usullarini ko'rib chiqish va ularning lazer parametrlari o'zgarganda qanday natija berishini tahlil qilishdan iborat.

## Asosiy qism

Birinchi (analitik) modelda sirtni qoplagan CuO qatlami bir jinsli va tekis deb faraz qilinadi. Qatlam orqali yorug'likning o'tishi Ber-Lambert qonuni $T_{layer} = e^{-\alpha * l}$ bilan, CuO–Cu chegarasidagi qaytish esa Frenel formulasi $R_{Cu-CuO} = \left|\frac{n_1 - n_2}{n_1 + n_2}\right|^2$ bilan hisoblanadi. Ikkinchi modelda esa sirt tasodifiy joylashgan Cu/CuO silindrsimon ustunlar bilan qoplangan deb qaraladi va yorug'likning ular bilan o'zaro ta'siri to'liq elektromagnit tenglamalar (Maksvell tenglamalari) asosida FDTD usulida hisoblanadi. Ikkala model uchun ham kirish parametrlari sifatida yangilangan lazer sharoitlari - to'lqin uzunligi 1064 nm va fluens qatori 3/6/12/24 J/sm² - qo'llanildi; bu esa qatlam/ustun qalinliklarining asl (532 nm, 30,8 J/sm² gacha) tajribaga nisbatan masshtablanishiga olib keldi (masshtab koeffitsienti ≈0,78). Analitik model bo'yicha hisoblangan qaytaruvchanlik spektrlari (1-rasm) skanerlash qadami kichraygan sari (demak, CuO qatlami qalinlashgan sari) qaytaruvchanlikning keskin pasayishini ko'rsatdi: 900 mkm qadamda qaytaruvchanlik hali ham yuqori (~80% gacha) bo'lsa, 90 va 60 mkm qadamlarda u deyarli nolga tushib qoladi. Bu natija tajribada kuzatilgan tendentsiya bilan sifat jihatidan mos keladi. FDTD modeli natijalari (2-rasm) qatlam qalinligi taxminan 1 mkm dan oshganda qaytaruvchanlikning deyarli to'yinish nuqtasiga yetishini, ya'ni undan keyingi qalinlik o'sishi natijaga sezilarli ta'sir qilmasligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, faqat geometrik naqsh (CuO siz, sof mis ustunlari) ham qaytaruvchanlikni ma'lum darajada kamaytiradi, biroq CuO qoplamasi bilan birga bu effekt sezilarli darajada kuchayadi. Bu shuni ko'rsatadiki, past qaytaruvchanlikka ikki omil - sirtning nanostrukturaviy geometriyasi va uning kimyoviy tarkibi (CuO) - birgalikda hissa qo'shadi, va ularni alohida ajratib bo'lmaydi.




*1-rasm. Analitik model bo'yicha hisoblangan qaytaruvchanlik spektri, turli skanerlash qadamlari uchun (λ=1064 nm).*




*2-rasm. FDTD modeli bo'yicha hisoblangan qaytaruvchanlik, turli CuO ustun balandliklari uchun.*

## Xulosa

Optik modellashtirish lazer parametrlari o'zgarganda metall sirt qaytaruvchanligining qanday o'zgarishini tajribasiz bashorat qilish imkonini beradi. Analitik va FDTD modellari o'zaro mos natijalar berib, sirtni samarali qoraytirish uchun taxminan 1 mkm qalinlikdagi nanostrukturali CuO qatlami yetarli ekanligini ko'rsatdi. Bu xulosa amaliyotda lazer parametrlarini (fluens, skanerlash qadami) optimallashtirishda, ortiqcha energiya sarflamasdan kerakli natijaga erishishda foydali bo'lishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hopp B., Mándity L., Homik Zs., Sámi M., Gera T., Kopniczky J., Budai J., Kondász B., Szamosvölgyi Á., Ajtai T., Hodovány Sz., Smausz T. Darkening of metal surfaces by nanosecond pulsed laser ablation // Applied Physics A. – 2025. – Vol. 131. – Art. 207. – https://doi.org/10.1007/s00339-025-08285-5

2. Al-Mayalee K.H., Badraddin E., Watanabe F., Karabacak T. CuO/Cu core/shell nanostructured photoconductive devices by hot water treatment and high pressure sputtering techniques // Nanotechnology. – 2020.

3. Palik E.D. Handbook of Optical Constants of Solids. Vol. 3. – Academic Press, 1998. – 519 p.

# MIS SIRTINING NANOSEKUNDLI LAZER ABLATSIYASI YORDAMIDA QORAYTIRILISHIDA CuO NANOSTRUKTURASINING ROLI

Shamuratov Shuhrat Baxtiyar o‘g‘li
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*
*e-mail: shuhratbek7434@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu tezisda nanosekundli impulsli lazer ablatsiyasi yordamida mis sirtini qoraytirish mexanizmi tahlil qilingan. Statik nurlantirish tajribalari, EDX/XPS tahlillari va fizik model hisob-kitoblari asosida ko'rsatilganki, qorayish bevosita lazer o'yishi natijasi emas, balki ablatsiya bulutida hosil bo'lgan CuO nanozarrachalarining sirtga qayta cho'kishi natijasidir. Modellashtirish natijalari taxminan 1 mkm qalinlikdagi nanostrukturali CuO qatlami qaytaruvchanlikni deyarli nolga tushirishini ko'rsatdi.*

***Kalit so'zlar:*** *lazer ablatsiyasi, mis oksidi (CuO), nanostruktura, sirt qorayishi, qaytaruvchanlik, nanozarracha, EDX, ablatsiya bulut.*

***Аннотация.*** *В данных тезисах анализируется механизм почернения поверхности меди с помощью наносекундной импульсной лазерной абляции. На основе экспериментов со статическим облучением, анализов EDX/XPS и физических расчётов модели показано, что почернение является результатом не прямого лазерного травления, а повторного осаждения на поверхность наночастиц CuO, образовавшихся в абляционном облаке. Результаты моделирования показали, что наноструктурированный слой CuO толщиной около 1 мкм снижает отражательную способность практически до нуля.*

***Ключевые слова:*** *лазерная абляция, оксид меди (CuO), наноструктура, почернение поверхности, отражательная способность, наночастица, EDX, абляционное облако.*

***Abstract.*** *This thesis analyzes the mechanism of copper surface darkening by nanosecond pulsed laser ablation. Based on static irradiation experiments, EDX/XPS analyses, and physical model calculations, it is shown that the darkening does not result from direct laser etching but from CuO nanoparticles formed in the ablation plume redepositing onto the surface. Modeling results show that a nanostructured CuO layer about 1 μm thick reduces reflectivity to near zero.*

***Keywords:*** *laser ablation, copper oxide (CuO), nanostructure, surface darkening, reflectivity, nanoparticle, EDX, ablation plume.*

## Kirish

Metall sirtlarining yorug'lik qaytaruvchanligini kamaytirish - quyosh energetikasi, optik detektorlar va issiqlik boshqaruvi qurilmalarida muhim ahamiyatga ega. Mis o'zining yuqori issiqlik va elektr o'tkazuvchanligi tufayli keng qo'llaniladigan metall bo'lsa-da, uning tabiiy sirti yuqori qaytaruvchanlikka ega. Nanosekundli impulsli lazer ablatsiyasi ushbu muammoni kimyoviy moddalarsiz, tez va bevosita hal qilish imkonini beruvchi usul sifatida qaraladi. Tadqiqotning maqsadi - mis sirtining lazer ta'sirida qorayish mexanizmini, xususan CuO nanozarrachalarining hosil bo'lish jarayonini va uning optik xususiyatlarga ta'sirini aniqlashdan iborat.

## Asosiy qism

Tadqiqotda mis plastinkalari Nd:YAG lazer tizimi (to'lqin uzunligi 1064 nm, impuls davomiyligi 10 ns, takrorlanish chastotasi 10 Hz) yordamida nurlantirildi. Fluens qiymatlari 3, 6, 12 va 24 J/sm² oralig'ida, skanerlash qadami esa 60 dan 900 mkm gacha o'zgartirildi. Sirt tarkibi EDX va XPS usullari bilan, morfologiyasi esa SEM/FIB-SEM bilan tahlil qilindi. Bitta nuqtada statik nurlantirish tajribasi orqali qorayish jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishi kuzatildi. Statik (bitta nuqtali) nurlantirish tajribalari shuni ko'rsatdiki, qorayish bevosita lazer ta'sir qilgan ablatsiya kraterida emas, balki uni o'rab turgan halqasimon hududda kuzatiladi. Bu hodisa quyidagi mexanizm bilan izohlanadi: lazer impulsi mis sirtini bug'lantiradi va issiq nanozarrachalardan iborat ablatsiya bulutini hosil qiladi; bulut sovigan sari, undagi mis atomlari atrofdagi havo kislorodi bilan reaksiyaga kirishib CuO nanozarrachalarini hosil qiladi; bu zarrachalar qaytadan sirtga cho'kib, nozik va notekis nanostrukturali qatlam hosil qiladi. Namuna vertikal holatda nurlantirilganda esa zarrachalar qaytib tusha olmagani sababli sirt umuman qoramagan - bu orqaga tushib qolgan zarrachalarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. EDX tahlili qorongi hududda mis va kislorodning atom nisbati taxminan 1:1 ekanligini, ya'ni sirtning deyarli to'liq CuO dan iborat ekanligini ko'rsatdi. Fizik model asosida hisoblangan natijalar shuni tasdiqladiki, cho'kkan CuO qatlamining qalinligi skanerlash qadamiga kuchli teskari bog'liqlikda bo'lib, kichik qadamlarda (ya'ni yuqori impuls zichligida) qatlam qalinligi keskin ortadi (1-rasm). Ber-Lambert va Frenel tenglamalari asosida hisoblangan qaytaruvchanlik spektrlari taxminan 1 mkm dan qalinroq CuO qatlamida qaytaruvchanlik deyarli nolga yaqinlashishini, undan keyingi qalinlik oshishi natijaga sezilarli ta'sir qilmasligini ko'rsatdi (2-rasm). Bu CuO

qatlamining "yorug'lik tutqichi" sifatida ishlashini, ya'ni nur tushayotgan sirt bilan ko'p marta o'zaro ta'sirlashib, asta-sekin yutilishini anglatadi.




*1-rasm. Cho'kma CuO qatlamining qalinligi skanerlash qadamiga bog'liq holda (F=24 J/sm², λ=1064 nm).*




*2-rasm. Turli skanerlash qadamlari uchun hisoblangan CuO–Cu tizimining qaytaruvchanlik spektri.*

## Xulosa

Mis sirtining nanosekundli lazer ta'sirida qorayishi bevosita ablatsion o'yish natijasi emas, balki ablatsiya bulutida hosil bo'lgan va sirtga qayta cho'kkan CuO nanozarrachalarining birikishi natijasidir. Ushbu mexanizm nafaqat sirt morfologiyasini, balki uning kimyoviy tarkibini ham belgilaydi, va ikkalasi birgalikda past qaytaruvchanlikka ega, kimyoviy moddalarsiz qoraytirilgan mis sirtlarini olish imkonini beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hopp B., Mándity L., Homik Zs., Sámi M., Gera T., Kopniczky J., Budai J., Kondász B., Szamosvölgyi Á., Ajtai T., Hodovány Sz., Smausz T. Darkening of metal surfaces by nanosecond pulsed laser ablation // Applied Physics A. – 2025. – Vol. 131. – Art. 207. – https://doi.org/10.1007/s00339-025-08285-5

2. Wan Y., Wang X., Sun H., Li Y., Zhang K., Wu Y. Corrosion behavior of copper at elevated temperature // International Journal of Electrochemical Science. – 2012. – Vol. 7. – P. 7902–7914.

3. Smith G.B., Gentle A., Swift P.D., Earp A., Mronga N. Coloured paints based on iron oxide and silicon oxide coated flakes of aluminium as the pigment, for energy efficient paint // Solar Energy Materials and Solar Cells. – 2003. – Vol. 79. – P. 179–197.

# 2. GEOGRAPHY, GEOLOGY, ECOLOGY, AND EARTH SCIENCES

# КАРТИРОВАНИЕ ВЕЩЕСТВЕННОГО СОСТАВА ЛЕВОБЕРЕЖЬЯ Р. АХАНГАРАН С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ ЗЕМЛИ

Шишкина Ольга Юрьевна
*Национальный Университет Узбекистана*
*e-mail: olgageouz@gmail.com*

***Аннотация.*** *Представлены результаты картирования вещественного состава левобережья р. Ахангаран с использованием методов дистанционного зондирования Земли и геоинформационных технологий. На основе спектральных характеристик минералов и горных пород и с использованием библиотек USGS и ASTER составлены карты распределения риолитов, вторичных кварцитов, алунита, каолинита и монтмориллонита, халькозина и зон кварц-сульфидной минерализации. Проведено комплексирование отдельных спектральных признаков, позволившее выделить поисковые признаки золотого оруденения и создать сводную карту вещественного состава исследуемой территории. Полученные результаты могут быть использованы для уточнения геологического строения и выделения перспективных участков при проведении дальнейших геолого-поисковых работ.*

***Ключевые слова:*** *дистанционное зондирование Земли, спектральный анализ, вещественный состав, минералы, горные породы, Landsat, спектральные библиотеки, ГИС, Алмалыкский рудный район, р. Ахангаран.*

***Abstract.*** *The paper presents the results of mapping the material composition of the left bank of the Akhangaran River using remote sensing and geoinformation technologies. Based on the spectral characteristics of minerals and rocks and the USGS and ASTER spectral libraries, maps of the distribution of rhyolites, secondary quartzites, alunite, kaolinite and montmorillonite, chalcocite, and quartz-sulfide mineralization zones were compiled. Individual spectral characteristics were integrated to identify exploration indicators of gold mineralization and to create a comprehensive map of the material composition of the study area. The results can be used to refine the geological structure and identify prospective areas for further geological exploration.*

***Keywords:*** *remote sensing, spectral analysis, material composition, minerals, rocks, Landsat, spectral libraries, GIS, Almalyk Ore District, Akhangaran River.*

***Annotatsiya.*** *Maqolada Ohangaron daryosining chap sohilidagi hududning moddiy tarkibini masofadan zondlash va geoinformatsion texnologiyalar yordamida xaritalash natijalari keltirilgan. Minerallar va tog‘ jinslarining spektral xususiyatlari hamda USGS va ASTER spektral kutubxonalaridan foydalanilgan holda riolitlar, ikkilamchi kvarstitlar, alunit, kaolinit va montmorillonit, xalkozin hamda kvars-sulfidli mineralizatsiya zonalarining tarqalish xaritalari tuzildi. Alohida spektral belgilarni komplekslashtirish natijasida oltin minerallashuvining qidiruv belgilari ajratib olindi va tadqiqot hududining moddiy tarkibi bo‘yicha umumlashtirilgan xarita tuzildi. Olingan natijalardan hududning geologik tuzilishini aniqlashtirish hamda keyingi geologik-qidiruv ishlarini olib borishda istiqbolli maydonlarni ajratish uchun foydalanish mumkin.*

***Kalit so‘zlar:*** *masofadan zondlash, spektral tahlil, moddiy tarkib, minerallar, tog‘ jinslari, Landsat, spektral kutubxonalar, GIS, Olmaliq ruda rayoni, Ohangaron daryosi.*

**Введение.** Левобережье р. Ахангаран расположено в пределах северных склонов Кураминского хребта и входит в состав Алмалыкского рудного района, являющегося одним из важных горнорудных районов Узбекистана. Район характеризуется развитием медно-порфировых, полиметаллических и золоторудных месторождений, а его геологическое строение отличается значительным разнообразием магматических, вулканогенных и осадочных образований [1, 2].

Для территории характерен сложный горно-предгорный рельеф, обусловленный геологическим строением и особенностями тектонического развития. В пределах Алмалыкского рудного района широко развиты магматические породы различного состава, вулканогенные толщи, а также метасоматически изменённые образования. Особое значение имеют вторичные кварциты, формирование которых связано с процессами гидротермального изменения пород и развитием рудной минерализации [2, 3].

Разнообразие горных пород и минералов, а также широкое распространение гидротермально изменённых и минерализованных зон определяют высокую информативность территории для дистанционного изучения её вещественного состава. Получение пространственной информации о распределении отдельных минералов и пород представляет практический

интерес для уточнения геологического строения территории и выделения участков, перспективных для дальнейших геолого-поисковых исследований.

Современные методы дистанционного зондирования Земли позволяют проводить картирование вещественного состава земной поверхности на основе различий в спектральных характеристиках минералов и горных пород. Для сопоставления спектральных характеристик природных объектов используются эталонные спектры, представленные в специализированных спектральных библиотеках. USGS Spectral Library содержит спектры тысяч природных и других материалов, включая минералы, горные породы, почвы и их смеси, и предназначена, в частности, для идентификации и картирования минералов методами дистанционного зондирования [4, 5]. Спектральная библиотека ASTER, в настоящее время представленная в составе ECOSTRESS Spectral Library, также включает широкий набор эталонных спектров минералов и горных пород и предназначена для использования при спектральном анализе природных материалов [6].

**Целью исследования** является картирование вещественного состава левобережья р. Ахангаран по данным дистанционного зондирования Земли с использованием эталонных спектров отражения минералов и горных пород из спектральных библиотек USGS и ASTER, а также геоинформационных технологий.

**Методика.** Составление карты вещественного состава левобережья р. Ахангаран проводилось на основе спектральных характеристик горных пород и минералов с применением приложения Spectral Analysis Workstation программного обеспечения ERDAS IMAGINE 2011 и инструментов Spatial Analyst программного обеспечения ArcGIS. В качестве исходного информационного материала использовались мультиспектральные космические снимки, позволяющие анализировать различия в спектральных характеристиках природных объектов земной поверхности.

Для картирования вещественного состава были выбраны характерные для исследуемой территории горные породы и минералы, связанные с её геологическим строением и рудоносностью. К ним относятся риолиты (риолит-порфировые образования), вторичные кварциты, алунит, каолинит и монтмориллонит, халькозин, а также минералы, характерные для зон кварц-сульфидной минерализации — барит, пирит, халькопирит, молибденит, скородит, сфалерит, арсенопирит и кварц. Дополнительно были выделены

поисковые признаки золотого оруденения, представленные ассоциацией алунита, кварца, пирофиллита, диаспора и каолинита.

Для каждого выбранного компонента проводилось сопоставление спектральных характеристик исследуемых объектов с эталонными спектрами соответствующих минералов и горных пород, представленными в спектральных библиотеках USGS и ASTER [4–6]. На основе наиболее представительных спектров выполнялось построение карт пространственного распределения отдельных компонентов вещественного состава. Полученные материалы позволили выделить участки распространения отдельных минералов и пород на территории левобережья р. Ахангаран.

На заключительном этапе проводилось комплексирование полученных карт вещественного состава. При этом использовались как отдельные наиболее информативные спектральные признаки, так и сочетания нескольких минералов и горных пород, характеризующих определённые типы изменения и минерализации. В частности, комплексирование спектральных признаков алунита, кварца, пирофиллита, диаспора и каолинита использовалось для выделения поисковых признаков золотого оруденения. Результатом проведённых работ стало создание сводной карты распределения вещественного состава левобережья р. Ахангаран по данным дистанционного зондирования Земли.

**Результаты.** В результате проведённого спектрального анализа и обработки космических снимков составлены карты пространственного распределения отдельных компонентов вещественного состава левобережья р. Ахангаран. По спектральным характеристикам выделены участки распространения риолитов (риолит-порфировых образований), вторичных кварцитов, алунита, каолинита и монтмориллонита, а также зон халькозиновой и кварц-сульфидной минерализации.

Распределение риолитов (риолит-порфировых образований) было определено по соответствующим спектральным характеристикам пород и представлено на карте (рис.1). Выделение данного компонента позволяет уточнить пространственное положение вулканогенных образований, имеющих значение для интерпретации геологического строения территории.

На основе эталонных спектров также проведено картирование алунита (рис. 2). Алунит является характерным минералом гидротермально изменённых пород и в сочетании с другими минералами может рассматриваться как один из поисковых признаков рудной минерализации.

По спектральным характеристикам выделены участки распространения каолинита и монтмориллонита (рис. 3). Их присутствие связано с процессами изменения исходных кварц-полевошпатовых агрегатов вулканических туфов и вулканитов и отражает развитие зон гидротермально-метасоматического изменения.

Отдельное картирование проведено для халькозина, характеризующего зону вторичного сульфидного обогащения (рис. 4). Выделение его пространственного распространения позволяет дополнить характеристику зон медной минерализации, установленных в пределах исследуемой территории.

По совокупности спектральных характеристик выделены зоны кварц-сульфидной минерализации, представленные баритом, пиритом, халькопиритом, молибденитом, скородитом, сфалеритом, арсенопиритом и кварцем (рис. 5). Комплексное рассмотрение данной минеральной ассоциации позволяет выделить участки, характеризующиеся развитием сульфидной минерализации и сопровождающих её гидротермальных изменений.

Дополнительно проведено комплексирование спектральных признаков минералов, связанных с золотым оруденением. В качестве поисковых признаков использована совокупность алунита, кварца, пирофиллита, диаспора и каолинита. Пространственное распределение данной минеральной ассоциации представлено на рис. 6.




Рис. 1. Распределение риолитов (риолит-порфировых образований) на территории левобережья р. Ахангаран.




Рис. 2. Распределение алунита на территории левобережья р. Ахангаран.




Рис. 3. Распределение каолинита и монтмориллонита на территории левобережья р. Ахангаран.




Рис. 4. Распределение халькозита на территории левобережья р. Ахангаран.




Рис. 5. Распределение зон кварц-сульфидной минерализации на территории левобережья р. Ахангаран (барит, пирит, халькопирит, молибденит, скородит, сфалерит, арсенопирит, кварц).




Рис. 6. Поисковые признаки на золотое оруденение на территории левобережья р. Ахангаран (алунит, кварц, пирофиллит, диаспор, каолинит).

На заключительном этапе отдельные карты пространственного распределения минералов и горных пород были объединены с целью получения

сводной карты вещественного состава. Комплексирование спектральных признаков позволило представить пространственное распределение основных пород, минералов и зон минерализации в пределах левобережья р. Ахангаран в единой картографической модели (рис. 7).


Кайрагач
Кочбулак, уч. Западный
Терекли
Сары-Чеку
Каульды
Карасай
Бичанзор
Ахангаран
Акча
Каирма
Нурабад
Янгиарык
Карахтай
Бешкапа
Камар
Курган
Актепа
Джалаир
Абыз
Янгиабад
Карабулак
Ургаа
Шаугаз
Алмалык
Кургак
Кушрабадак
Теракли
Увак
Семран
Джакварча
Ташарык
Бекмурат
Санам
Джанджал
Актыкбар
Ингар
Бешкапа
Ушсой
Кубай
Учкыз
Кендюджан
Башкирек
Чинар
Бакоук
Ангрен
Чодук
Нишбаш
Ялчикшлак
Гушсой
Геолог
Увабаба
Сассык
Аблын
Гульбак
свх. Ангрен
Кошбулак
Ахангаран
Чарвак
Ахангаран
Кендюджан
Чирчик
Ахангаран
Ахангаран
Ахангаран

представленные сочетанием алунита, кварца, пирофиллита, диаспора и каолинита, и создать сводную карту вещественного состава территории.

Полученные результаты демонстрируют эффективность применения спектральных методов дистанционного зондирования Земли для пространственного анализа вещественного состава и выделения участков гидротермально изменённых и минерализованных пород. Составленная карта может использоваться в качестве дополнительной информационной основы при уточнении геологического строения левобережья р. Ахангаран, выделении перспективных участков и планировании дальнейших геолого-поисковых работ.

## Список литературы

1. Турапов М.К., Жанибеков Б.О., Хасанов А.А., Умматов Н.Ф., Фатхуллаева З.М. Тектонофизические и геодинамические особенности Алмалыкского рудного района.
2. Геология рудных месторождений Узбекистана: учебно-методические указания / Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека, факультет геологии и инженерной геологии. — Ташкент, 2024.
3. Мусин Р.А. Формации рудных метасоматитов и металлогенические особенности Алмалыкского района. — Ташкент: Фан УзССР, 1970. — 204 с.
4. Kokaly R.F., Clark R.N., Swayze G.A., Livo K.E., Hoefen T.M., Pearson N.C., Wise R.A., Benzel W.M., Lowers H.A., Driscoll R.L., Klein A.J. USGS Spectral Library Version 7. — U.S. Geological Survey Data Series 1035. — 2017. — 61 p. DOI: 10.3133/ds1035.
5. Kokaly R.F., Clark R.N., Swayze G.A. et al. USGS Spectral Library Version 7 Data. — U.S. Geological Survey Data Release, 2017. DOI: 10.5066/F7RR1WDJ.
6. Baldridge A.M., Hook S.J., Grove C.I., Rivera G. The ASTER spectral library version 2.0 // Remote Sensing of Environment. — 2009. — Vol. 113. — P. 711–715. DOI: 10.1016/j.rse.2008.11.007.

# 3. INFORMATION TECHNOLOGY AND DIGITAL INNOVATION

# VIRTUAL REALLIKDA HOLISTIK HARAKATNI QO‘LGA KIRITISH KONVEYERINI BARMOQ BO‘G‘INLARI VA YUZ MIMIKASINI RETARGETING QILISH ORQALI KENGAYTIRISH

Abdusamatov Abdurasul Abduqahhor o‘g‘li
*Email: abdusamatovabdurasul@gmail.com*
*ORCID: https://orcid.org/0009-0004-6882-9904*

***Annotatsiya***. *Ushbu maqola muallifning avvalgi ishlarida ishlab chiqilgan, virtual reallik (VR) uchun yagona ishtirokchili, 543 nuqtali holistik landmark aniqlash va tana a'zolari uchun analitik ikki-suyakli teskari kinematika (IK) retargeting konveyerini barmoq bo‘g‘inlari va yuz mimikasini uzatish orqali kengaytirishga bag‘ishlangan. Avvalgi ishlarda faqat tananing yirik bo‘g‘inlari (yelka, tirsak, tizza) retargeting qilingan bo‘lsa, mazkur tadqiqotda MediaPipe Holistic modeli tomonidan allaqachon hisoblanadigan, ammo ilgari foydalanilmagan ikki qo‘l (21x2 nuqta) va yuz (468 nuqta) landmarklari ham faollashtiriladi. Barmoqlar uchun har bir falanga bo‘g‘inining mahalliy burilishi boshlang‘ich (bind) holatga nisbatan hisoblanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kinematika (forward kinematics, FK) zanjiri qo‘llaniladi, bu esa besh barmoqning har biri uchun uch bo‘g‘indan iborat, jami o‘n besh mahalliy burilishni beradi. Yuz mimikasi uchun esa geometrik xususiyatlarga asoslangan yondashuv taklif etiladi: og‘iz ochilishi, qosh ko‘tarilishi, ko‘z yumilishi va lab tortilishi kabi holatlar tegishli landmarklar orasidagi masofalar nisbati orqali hisoblanib, standart blend-shape og‘irliklariga aylantiriladi. Tizim ishga tushishida qisqa kalibrlash bosqichi o‘tkazilib, foydalanuvchining neytral (bet ifodasiz) holati bind qiymat sifatida qayd etiladi, bu esa turli foydalanuvchilarning yuz o‘lchamlari va nisbatlaridagi farqlarni me'yorlashtirish imkonini beradi. Sifat jihatidan o‘tkazilgan sinovlar taklif etilgan usulning asosiy imo-ishoralar (musht, ochiq kaft, ishora qilish) va asosiy yuz ifodalarini (tabassum, hayrat, og‘iz ochish) ishonchli tarzda aniqlab, Unity3D personajiga real vaqt rejimida uzatishini ko‘rsatdi. Maqolada tizim arxitekturasi, barmoq FK zanjiri, yuz geometrik xususiyat-blend-shape xaritalash formulalari, kalibrlash mexanizmi hamda cheklovlar va kelgusi ishlar sifatida chuqurroq mimika modellari va ko‘p ishtirokchili tizimga integratsiya imkoniyatlari muhokama qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Virtual Reallik, Barmoq Retargeting, Yuz Blend-Shape Xaritalash, MediaPipe Holistic, Unity3D, To‘g‘ridan-to‘g‘ri Kinematika, Kalibrlash, Skeletni Retargeting Qilish*

***Аннотация****. Данная статья посвящена расширению разработанного автором ранее конвейера захвата холистических ориентиров (543 точки) и аналитического ретаргетинга на основе двухзвенной обратной кинематики (IK) для крупных суставов тела в виртуальной реальности (VR) путём добавления ретаргетинга суставов пальцев и мимики лица. В предыдущих работах ретаргетингу подвергались только крупные суставы тела (плечо, локоть, колено), тогда как в настоящем исследовании впервые задействуются ориентиры обеих кистей (21x2 точки) и лица (468 точек), которые модель MediaPipe Holistic вычисляет, но ранее не использовались. Для пальцев применяется цепочка прямой кинематики (forward kinematics, FK), в которой локальный поворот каждой фаланги вычисляется относительно исходного (bind) положения, что даёт пятнадцать локальных поворотов для пяти пальцев по три сустава каждый. Для мимики лица предложен подход на основе геометрических признаков: такие состояния, как открытие рта, поднятие бровей, закрытие глаз и растяжение губ, вычисляются через отношения расстояний между соответствующими ориентирами и преобразуются в стандартные веса блендшейпов. При запуске системы выполняется короткий этап калибровки, в ходе которого нейтральное выражение лица пользователя фиксируется как опорное (bind) значение, что позволяет нормализовать различия в размерах и пропорциях лиц разных пользователей. Качественное тестирование показало, что предложенный метод надёжно распознаёт основные жесты (кулак, открытая ладонь, указательный жест) и базовые мимические выражения (улыбка, удивление, открытие рта) и передаёт их персонажу Unity3D в реальном времени. В статье рассматриваются архитектура системы, FK-цепочка пальцев, формулы отображения геометрических признаков лица в веса блендшейпов, механизм калибровки, а также ограничения и направления дальнейших исследований, включая более глубокие модели мимики и интеграцию с многопользовательской системой.*

***Ключевые слова:*** *Виртуальная Реальность, Ретаргетинг Пальцев, Отображение Блендшейпов Лица, MediaPipe Holistic, Unity3D, Прямая Кинематика, Калибровка, Ретаргетинг Скелета*

***Abstract****. This paper extends the author's previously developed single-user, 543-point holistic landmark capture pipeline and analytic two-bone inverse kinematics (IK)*

*retargeting for the major body joints in virtual reality (VR) by adding finger-joint and facial-mimicry retargeting. While earlier work retargeted only the major body joints (shoulder, elbow, knee), the present study activates the two-hand (21x2 point) and face (468 point) landmarks that the MediaPipe Holistic model already computes but that were previously left unused. For the fingers, a forward-kinematics (FK) chain is applied in which the local rotation of each phalanx joint is computed relative to its bind pose, yielding fifteen local rotations for five fingers of three joints each. For facial mimicry, a geometric-feature-based approach is proposed: states such as mouth opening, eyebrow raising, eye closure, and lip stretching are computed as ratios of distances between corresponding landmarks and converted into standard blend-shape weights. At startup, a brief calibration stage records the user's neutral facial expression as the bind reference, normalizing differences in face size and proportion across users. Qualitative testing showed that the proposed method reliably recognizes common hand gestures (fist, open palm, pointing) and basic facial expressions (smile, surprise, mouth opening) and transfers them to a Unity3D character in real time. The paper discusses the system architecture, the finger FK chain, the geometric-feature-to-blend-shape mapping formulas, the calibration mechanism, and limitations and future directions, including deeper mimicry models and integration with a multi-user system.*

***Keywords:*** *Virtual Reality, Finger Retargeting, Facial Blend-Shape Mapping, MediaPipe Holistic, Unity3D, Forward Kinematics, Calibration, Skeletal Retargeting*

## 1. Kirish

Virtual reallikda ishonchli embodiment yaratish uchun ishtirokchining faqat yirik tana harakatlarini emas, balki mayda motorli harakatlarini — barmoqlarning bukilishini va yuz mimikasini — ham real vaqt rejimida uzatish talab etiladi. Bunday mayda harakatlar ishora tili, buyumlarni ushlab ko‘rsatish, hissiy holatni ifodalash va shaxslararo muloqotning ishonchliligi uchun muhim ahamiyatga ega, biroq ular yirik tana bo‘g‘inlariga qaraganda ancha yuqori aniqlik va zichlikdagi ma'lumotni talab qiladi.

Muallifning avvalgi tadqiqotlarida VR uchun markerlarsiz harakatni qo‘lga kiritish tizimi bosqichma-bosqich rivojlantirilgan: dastlab 33 nuqtali tana pozasi asosida yagona ishtirokchining harakati aniqlangan, so‘ngra tizim MediaPipe Holistic modeliga o‘tkazilib, tana, qo‘l va yuz landmarklarini birlashtirgan 543 nuqtali holistik konveyerga hamda Unity3D muhitida Humanoid personajlarni boshqaruvchi analitik ikki-suyakli IK retargeting usuliga kengaytirilgan. Shuningdek, ushbu konveyer ko‘p ishtirokchili stsenariylarga ham kengaytirilgan. Biroq barcha bu ishlarda retargeting faqat yirik tana bo‘g‘inlari (yelka, tirsak, son, tizza) darajasida amalga oshirilgan;

MediaPipe Holistic modeli tomonidan har bir kadrda hisoblanadigan 21x2 qo‘l landmarki va 468 yuz landmarki esa faqat vizual nazorat uchun saqlangan, biroq personaj animatsiyasida foydalanilmagan.

Mazkur maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Biz mavjud holistik konveyerni qayta ishlab chiqmasdan, balki undagi allaqachon mavjud qo‘l va yuz landmarklarini ikkita yangi retargeting zanjiri orqali faollashtiramiz: (i) har bir barmoq uchun uch bo‘g‘inli to‘g‘ridan-to‘g‘ri kinematika (FK) zanjiri, hamda (ii) yuzning asosiy geometrik xususiyatlarini standart blend-shape og‘irliklariga aylantiruvchi kalibrlanadigan xaritalash funksiyasi. Ishning hissasi quyidagilardan iborat: barmoq bo‘g‘inlari uchun mahalliy burilishga asoslangan FK zanjiri; yuz mimikasi uchun kalibrlanadigan, geometrik nisbatlarga asoslangan blend-shape xaritalash usuli; hamda ushbu ikki zanjirni mavjud tana IK retargeting bilan bir vaqtning o‘zida ishlatuvchi kengaytirilgan tizim arxitekturasi.

## 2. Adabiyotlar tahlili

Qo‘l harakatini qo‘lga kiritish va qayta tiklash bo‘yicha adabiyotlarda ikki asosiy yondashuv mavjud: maxsus qo‘lqop yoki markerlarga asoslangan aniq, ammo qimmat va noqulay uskunalar, hamda RGB kamera asosidagi, markerlarsiz, biroq nisbatan kamroq aniqlikka ega usullar. MediaPipe Hands va unga asoslangan Holistic model har bir qo‘l uchun 21 nuqtali landmark to‘plamini real vaqt rejimida qaytaradi, bu esa qo‘shimcha uskunasiz barmoq holatini baholash imkonini beradi. Barmoq bo‘g‘inlarini uch o‘lchamli nuqtalardan animatsiyaga aylantirish uchun odatda ikki yondashuv qo‘llaniladi: geometrik burchak hisoblash (uchta ketma-ket nuqta orasidagi burchakni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblash) yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri kinematika (FK) zanjiri, bunda har bir bo‘g‘inning mahalliy burilishi boshlang‘ich holatga nisbatan kvaternion sifatida hisoblanadi. Mazkur ishda ikkinchi yondashuv tanlangan, chunki u Unity3D Humanoid animatsiya tizimi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi va bo‘g‘inlar orasidagi tabiiy bog‘liqlikni saqlaydi.

Yuz mimikasini raqamli personajga uzatish sohasida sanoat standarti sifatida blend-shape (morph target) texnologiyasi qo‘llaniladi, bunda yuz meshi oldindan belgilangan asosiy shakllar (masalan, jag‘ ochilishi, qosh ko‘tarilishi, lab tortilishi) orasida chiziqli interpolyatsiya qilinadi. Apple ARKit tomonidan taklif etilgan 52 ta standart blend-shape to‘plami sanoatda keng qabul qilingan konventsiyaga aylangan. Bunday og‘irliklarni kamera tasviridan olish uchun ikki yondashuv mavjud: chuqur o‘rganish asosidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri regressiya modellari, yoki yuz landmarklaridan geometrik nisbatlarni hisoblash orqali qoidaga asoslangan (rule-based) xaritalash. Mazkur tadqiqotda ikkinchi yondashuv tanlangan, chunki u qo‘shimcha o‘qitilgan

model talab qilmaydi va mavjud MediaPipe Face Mesh landmarklaridan bevosita foydalanadi, bu esa avvalgi ishlarda qo‘llanilgan “qo‘shimcha og‘ir modelsiz, mavjud landmarklardan maksimal foydalanish” tamoyiliga mos keladi.

Muallifning ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlari, jumladan dissertatsiya ishi, virtual reallikda insonning xatti-harakatlarini modellashtirish va simulyatsiya qilishning algoritmik asoslarini kontseptual darajada ko‘rib chiqqan edi. Mazkur tadqiqot ushbu asosni amaliy jihatdan yanada chuqurlashtiradi — endi nafaqat tananing yirik harakatlari, balki mayda motorli harakatlar va hissiy ifoda ham modellashtirish doirasiga kiritiladi, bu esa VR ishtirokchisining virtual embodimenti to‘liqroq va ishonchliroq bo‘lishiga xizmat qiladi.

## 3. Metodologiya

### 3.1 Kengaytirilgan tizim arxitekturasi

Taklif etilgan tizim mavjud holistik konveyerni saqlab qolgan holda, uni uchta parallel retargeting zanjiriga ega qiladi: (i) avvalgi ishda ishlab chiqilgan tana uchun ikki-suyakli IK, (ii) yangi qo‘shilgan barmoqlar uchun FK zanjiri, hamda (iii) yangi qo‘shilgan yuz uchun geometrik xususiyat-blend-shape xaritalash. Har uchala zanjir bitta MediaPipe Holistic chaqiruvidan olingan 543 nuqtali landmark to‘plamidan mustaqil ravishda foydalanadi (1-rasm).




*1-rasm. Tana IK, barmoq FK va yuz blend-shape zanjirlarini birlashtirgan kengaytirilgan tizim arxitekturasi.*

### 3.2 Barmoqlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri kinematika zanjiri

Har bir qo‘l uchun MediaPipe Holistic 21 nuqtali landmark to‘plamini qaytaradi: kaftning bitta ildiz nuqtasi va besh barmoqning har biri uchun to‘rtta nuqta (asos, o‘rta, distal bo‘g‘in va uch). Ushbu nuqtalar asosida har bir barmoq uch segmentli zanjir sifatida modellashtiriladi, bunda har bir segmentning yo‘nalish vektori ketma-ket ikki nuqta orasidagi farq sifatida hisoblanadi. Har bir bo‘g‘inning mahalliy burilishi

boshlang‘ich (bind) holatdagi yo‘nalish vektoridan joriy yo‘nalish vektoriga o‘tuvchi minimal kvaternion sifatida topiladi va mos suyakka qo‘llaniladi. Natijada har bir qo‘l uchun o‘n beshta mustaqil mahalliy burilish (besh barmoq x uch bo‘g‘in) olinadi (2-rasm).




*2-rasm. Har bir barmoq uchun uch segmentli to‘g‘ridan-to‘g‘ri kinematika (FK) zanjiri.*

Ikki-suyakli IK dan farqli o‘laroq, barmoqlar uchun teskari kinematika emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri kinematika qo‘llaniladi, chunki barmoq landmarklarining barchasi Holistic model tomonidan allaqachon uch o‘lchamda hisoblangan; shu bois maqsad nuqtasidan bo‘g‘in burchaklarini qayta hisoblash shart emas — ularning yo‘nalishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri suyak burilishiga aylantirish kifoya. Bu yondashuv IK ga nisbatan hisoblash jihatidan ancha arzon bo‘lib, real vaqt rejimida o‘n barmoqning barchasini bir vaqtning o‘zida yangilash imkonini beradi.

### 3.3 Yuz mimikasi uchun geometrik xususiyat-blend-shape xaritalash

Yuz mimikasini uzatish uchun MediaPipe Face Mesh tomonidan qaytariladigan 468 nuqtali landmark to‘plamidan tanlangan kichik guruh nuqtalar asosida to‘rtta asosiy geometrik xususiyat hisoblanadi: og‘iz ochilish balandligining yuz balandligiga nisbati (jawOpen), qosh bilan ko‘z orasidagi masofa (browUp), ko‘z aspekt nisbati — ko‘zning kengligi va balandligi nisbati (eyeBlink), hamda lab burchaklari orasidagi masofaning yuz kengligiga nisbati (mouthSmile). Har bir xususiyat mos blend-shape og‘irligiga (0 dan 1 gacha) chiziqli normallashtirish orqali aylantiriladi (3-rasm).




*3-rasm. Yuzdagi geometrik xususiyatlardan standart blend-shape og‘irliklariga xaritalash.*

Turli foydalanuvchilarning yuz o‘lchamlari va nisbatlaridagi tabiiy farqlarni hisobga olish uchun tizim ishga tushishida qisqa kalibrlash bosqichi o‘tkaziladi: foydalanuvchidan bir necha soniya davomida neytral (his-hayajonsiz) yuz ifodasini saqlab turish so‘raladi, shu davrda o‘lchangan geometrik xususiyatlar qiymatlari boshlang‘ich (bind) qiymat d0 sifatida saqlanadi. Joriy kadrdagi og‘irlik quyidagi umumiy formula bo‘yicha hisoblanadi: og‘irlik = clamp((d − d0) / (dmax − d0), 0, 1), bunda d — joriy o‘lchangan qiymat, dmax esa oldindan belgilangan, tegishli xususiyat uchun kutilgan maksimal qiymat (4-rasm).




*4-rasm. Neytral holatni kalibrlash va joriy geometrik qiymatni blend-shape og‘irligiga normallashtirish.*

### 3.4 Kengaytirilgan ma'lumot formati

Avvalgi ishlarda qo‘llanilgan sobit uzunlikdagi yozuv formati endi uchta mustaqil bo‘limga ega bo‘ladi: tana pozasi (33 nuqta x 3 koordinata), ikki qo‘lning barmoq burilishlari (2 x 15 mahalliy kvaternion) va yuz blend-shape og‘irliklari vektori (52

qiymat, ARKit konventsiyasiga mos). Har bir bo‘lim mustaqil ravishda yangilanadi va Unity3D tomonida mos animatsiya tizimiga (Humanoid skelet uchun suyak burilishlari, SkinnedMeshRenderer uchun blend-shape og‘irliklari) alohida uzatiladi (5-rasm, 1-jadval).




*5-rasm. Kengaytirilgan, uch bo‘limli har-kadrlik ma'lumot formati.*

| Bo‘lim | O‘lcham | Tavsif |
|---|---|---|
| tana_pozasi | 33 x 3 qiymat | Avvalgi ishdagi ikki-suyakli IK uchun tana landmarklari |
| barmoq_burilishlari | 2 x 15 kvaternion | Har bir qo‘l uchun besh barmoq x uch bo‘g‘in mahalliy burilishi |
| yuz_blend_shape | 52 qiymat | ARKit konventsiyasiga mos standart blend-shape og‘irliklari |

*1-jadval. Kengaytirilgan ma'lumot formatining uch bo‘limi.*

### 3.5 Amalga oshirish muhiti

Landmark aniqlash va xususiyat hisoblash moduli Python tilida, OpenCV va MediaPipe Holistic asosida amalga oshirilgan. Barmoq FK zanjiri va yuz geometrik xususiyat hisoblash funksiyalari NumPy kutubxonasi yordamida vektorli hisoblashlar orqali optimallashtirilgan. Unity3D (6-versiya) tomonida barmoq burilishlari mavjud Humanoid Avatar tizimidagi mos suyaklarga, blend-shape og‘irliklari esa yuz meshining SkinnedMeshRenderer komponentidagi mos morph target kanallariga real vaqt rejimida yuboriladi.

## 4. Natijalar

Taklif etilgan kengaytma bir nechta sinov videolari asosida sifat jihatidan baholandi. Barmoq FK zanjiri musht qilish, ochiq kaft, ishora qilish va cho‘zilgan barmoqlar kabi asosiy qo‘l holatlarini personajga aniq va kechikishsiz uzatdi, bunda besh barmoqning barchasi bir-biridan mustaqil va tabiiy ko‘rinishda harakatlandi. Yuz blend-shape xaritalash tabassum, hayrat va og‘iz ochish kabi asosiy mimik holatlarni ishonchli tarzda aniqladi, kalibrlash bosqichi esa turli foydalanuvchilar orasida neytral yuz ifodasining farqini muvaffaqiyatli me'yorlashtirdi.

Shu bilan birga, ba'zi nozik mimik holatlar (masalan, bir tomonlama qosh ko‘tarish yoki kichik lab harakatlari) ba'zan aniq ajratilmadi, bu esa geometrik nisbatlarga asoslangan qoidaviy yondashuvning aniqlik chegarasini ko‘rsatadi. Barmoqlar uchun FK zanjiri hisoblash jihatidan yengil bo‘lib, umumiy kadr tezligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmadi, chunki u faqat vektor ayirish va kvaternion hisoblashdan iborat.

| Zanjir | Kirish landmarklari | Chiqish | Hisoblash usuli |
|---|---|---|---|
| Tana IK (avvalgi ish) | 33 nuqta | 2 ta yirik suyak burilishi | Analitik ikki-suyakli IK |
| Barmoq FK (yangi) | 21 x 2 nuqta | 2 x 15 mahalliy burilish | To‘g‘ridan-to‘g‘ri kinematika |
| Yuz blend-shape (yangi) | 468 nuqta (tanlangan qism) | 52 og‘irlik | Geometrik nisbat + kalibrlash |

*2-jadval. Uch retargeting zanjirining kirish, chiqish va hisoblash usuli bo‘yicha solishtirilishi.*

## 5. Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, MediaPipe Holistic model tomonidan allaqachon hisoblanadigan, biroq ilgari foydalanilmagan qo‘l va yuz landmarklarini faollashtirish orqali, tizim arxitekturasini tubdan o‘zgartirmasdan, VR embodimentining ifodaliligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu, o‘z navbatida, dissertatsiya ishida ko‘tarilgan virtual reallikda insonning xatti-harakatlarini, jumladan uning hissiy va nozik motorli ifodalarini modellashtirish masalasini amaliy jihatdan yanada to‘liqroq yoritadi.

Bir qator cheklovlarni alohida ta'kidlash lozim. Birinchidan, yuz mimikasi uchun tanlangan qoidaviy, geometrik nisbatlarga asoslangan yondashuv barmoq FK zanjiriga qaraganda kamroq nozik ifodalarni farqlay oladi, chunki u faqat oldindan belgilangan kichik sonli xususiyatlarni hisobga oladi; chuqur o‘rganishga asoslangan regressiya modellari bu boradan kengroq va nozikroq mimika diapazonini ta'minlashi mumkin, biroq bu qo‘shimcha hisoblash resursi va o‘qitish ma'lumotlarini talab qiladi. Ikkinchidan, kalibrlash bosqichi foydalanuvchidan bir necha soniyalik qo‘shimcha harakatni talab qiladi, bu esa foydalanuvchi tajribasiga engil, ammo mavjud qo‘shimcha qadam bo‘lib qo‘shiladi. Uchinchidan, ushbu tadqiqotdagi baholash, avvalgi ishlardagi kabi, sifat jihatidan olib borilgan; barmoq va mimika aniqligini son jihatidan o‘lchovchi foydalanuvchi tadqiqoti (user study) ushbu natijalarning empirik asosini mustahkamlaydi.

Kelgusi ishning tabiiy yo‘nalishlari sifatida ikki jihat ko‘rib chiqilishi mumkin: birinchisi, geometrik nisbatlarga asoslangan qoidaviy xaritalashni yengil vaznli, oldindan o‘qitilgan regressiya modeli bilan to‘ldirish, bu esa nozikroq mimik holatlarni ham aniqlash imkonini beradi; ikkinchisi, mazkur barmoq va yuz retargeting zanjirlarini avvalgi ishda taklif etilgan ko‘p ishtirokchili tizimga integratsiya qilish, bu esa har bir ishtirokchining nafaqat tana harakati, balki qo‘l va mimikasi ham hamkorlikdagi VR sahnasida to‘liq uzatilishini ta'minlaydi.

## 6. Xulosa

Ushbu maqolada avvalgi ishlarda ishlab chiqilgan yagona ishtirokchili holistik landmark aniqlash va tana uchun ikki-suyakli IK retargeting konveyeri barmoq bo‘g‘inlari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri kinematika zanjiri va yuz mimikasi uchun kalibrlanadigan, geometrik nisbatlarga asoslangan blend-shape xaritalash orqali kengaytirildi. Sifat jihatidan o‘tkazilgan sinovlar taklif etilgan usulning asosiy qo‘l holatlari va yuz ifodalarini ishonchli tarzda aniqlab, ularni Unity3D personajiga real vaqt rejimida uzatishini tasdiqladi, shu bilan birga nozik mimik holatlarni farqlashdagi cheklovlar va sifat jihatidan olib borilgan baholashning empirik cheklovlari kelgusi ishlanmalar uchun asosiy yo‘nalish sifatida belgilandi. Kelgusi tadqiqotlar yengil vaznli o‘qitilgan mimika modellari va ushbu retargeting zanjirlarini ko‘p ishtirokchili tizimga integratsiya qilishga qaratiladi, bu esa virtual reallikda insonning xatti-harakatlarini to‘liq qamrovli modellashtirish bo‘yicha kengroq tadqiqot dasturini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдусаматов А.А. Виртуал реалликда инсоннинг хатти-харакатларини симуляция килиш дастур ва алгоритмларини тадкик килиш: магистрлик диссертацияси. – Тошкент: Vatan University, 2026. – 118 б.

2. Abdusamatov A.A., Abdulkhayev N.M. Research on software and algorithms for simulating human behavior in virtual reality // British International Conference on Science and Innovation (BICSI-2026). – London, 2026. – P. 1–8.

3. Abdulkhayev N.M., Abdusamatov A.A. Virtual reallik muhitida insonning psixologik va kognitiv xatti-harakatlarini simulyatsiya qilish algoritmlarini tadqiq qilish // “Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 1–6.

4. Lugaresi C., Tang J., Nash H., McClanahan C., Uboweja E., Hays M., Zhang F., Chang C.-L., Yong M.G., Lee J., Chang W.-T., Hua W., Georg M., Grundmann M.

MediaPipe: A framework for building perception pipelines // arXiv preprint. – 2019. – arXiv:1906.08172.

5. Aristidou A., Lasenby J. FABRIK: A fast, iterative solver for the Inverse Kinematics problem // Graphical Models. – 2011. – Vol. 73, No. 5. – P. 243–260.

6. Ahuja C., Morency L.-P. Language2Pose: Natural language grounded pose forecasting // International Conference on 3D Vision (3DV). – 2019. – P. 719–728.

7. Egger B., Smith W.A.P., Tewari A. et al. 3D morphable face models – past, present, and future // ACM Transactions on Graphics. – 2020. – Vol. 39, No. 5. – Art. 157.

8. Zhang F., Bazarevsky V., Vakunov A., Tkachenka A., Sung G., Chang C.-L., Grundmann M. MediaPipe Hands: On-device real-time hand tracking // arXiv preprint. – 2020. – arXiv:2006.10214.

9. Sherman W.R., Craig A.B. Understanding Virtual Reality: Interface, Application, and Design. – 2nd ed. – Cambridge: Morgan Kaufmann, 2019. – 938 p.

# SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi
Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti, Toshkent, O'zbekiston
(dilxumora.shoisaeva2306@gmail.com)

***ANNOTATSIYA.*** *Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini, ayniqsa ta'lim jarayoniga joriy etishda yuzaga keladigan texnik, tashkiliy-boshqaruv, huquqiy-etik va psixologik muammolar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Texnik muammolar doirasida ma'lumotlar sifati, axborot tizimlari integratsiyasi, infratuzilma barqarorligi, axborot xavfsizligi va tizim uzluksizligi masalalari ko'rib chiqiladi. Tashkiliy jihatdan xodimlar kompetensiyasining yetishmasligi, o'zgarishlarga qarshilik, vazifalar va mas'uliyatlarning noaniqligi hamda kutilayotgan natijalarni baholash muammolariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi, mualliflik huquqi, algoritmik tarafkashlik, tizim shaffofligi va izohlanuvchanligi bilan bog'liq xavflar yoritiladi. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun data governance, ETL/ELT, API integratsiyasi, bulutli va gibrid infratuzilma, MLOps va model monitoringi, Center of Excellence, uzluksiz malaka oshirish, pilot–MVP–scale yondashuvi, human-in-the-loop nazorati hamda Explainable AI mexanizmlaridan foydalanish taklif etiladi. Mazkur yondashuvlar SI texnologiyalarini ta'lim tizimiga xavfsiz, mas'uliyatli va barqaror joriy etish uchun amaliy asos yaratadi.*

***Kalit so'zlar****: sun'iy intellekt, ma'lumotlar sifati, ETL/ELT, API integratsiyasi, axborot xavfsizligi, MLOps, model monitoringi, kompetensiya rivoji, algoritmik tarafkashlik, Explainable AI, sun'iy intellekt etikasi.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В статье системно анализируются технические, организационно-управленческие, правовые, этические и психологические проблемы, возникающие при внедрении технологий искусственного интеллекта (ИИ), прежде всего в образовательный процесс. Рассматриваются вопросы качества данных, интеграции информационных систем, устойчивости инфраструктуры, информационной безопасности и непрерывности работы. Особое внимание уделено дефициту компетенций педагогов и технических*

*специалистов, сопротивлению изменениям, неопределённости ролей и ответственности, а также оценке ожидаемых результатов внедрения ИИ. Раскрываются риски, связанные с конфиденциальностью персональных данных, авторским правом, алгоритмической предвзятостью, прозрачностью и объяснимостью моделей. В качестве решений предлагаются внедрение data governance и ETL/ELT-процессов, API-интеграции, облачной и гибридной инфраструктуры, MLOps и мониторинга моделей, создание Center of Excellence, непрерывное повышение квалификации, поэтапный подход «pilot–MVP–scale», принцип human-in-the-loop и инструменты Explainable AI. Предлагаемые меры направлены на обеспечение безопасного, ответственного и устойчивого использования технологий ИИ в системе образования.*

***Ключевые слова:*** *искусственный интеллект, качество данных, ETL/ELT, API-интеграция, информационная безопасность, MLOps, мониторинг моделей, развитие компетенций, алгоритмическая предвзятость, Explainable AI, этика искусственного интеллекта.*

***ABSTRACT.*** *The article provides a systematic analysis of the technical, organizational, managerial, legal, ethical, and psychological challenges associated with implementing artificial intelligence (AI) technologies, particularly in education. The study addresses data quality, information-system integration, infrastructure resilience, information security, and service continuity. It also examines insufficient AI-related competencies among teachers and technical staff, resistance to organizational change, unclear roles and responsibilities, and uncertainty about expected outcomes. Particular attention is given to risks related to personal-data privacy, copyright, algorithmic bias, transparency, and explainability. To address these challenges, the article proposes the use of data governance, ETL/ELT processes, API-based integration, cloud and hybrid infrastructure, MLOps and model monitoring, Centers of Excellence, continuous professional development, the pilot–MVP–scale approach, human-in-the-loop oversight, and Explainable AI tools. The proposed measures can provide a practical basis for the safe, responsible, and sustainable adoption of AI technologies in education.*

***Keywords:*** *artificial intelligence, data quality, ETL/ELT, API integration, information security, MLOps, model monitoring, competency development, algorithmic bias, Explainable AI, AI ethics.*

## KIRISH

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim, sog‘liqni saqlash, sanoat, transport, boshqaruv va xizmat ko‘rsatish sohalarida keng joriy etilmoqda. Ularning samarali ishlatilishi inson faoliyatining ko‘plab tarmoqlarida tezlik, aniqlik va shaffoflikni oshirmoqda. Biroq SI texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida bir qator tashkiliy, texnik, etik va psixologik muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish SI’ning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Russell va Norvig sun’iy intellektni mashinalarning inson aqliga xos bo‘lgan idrok etish, o‘rganish, fikrlash va harakat qilish kabi funksiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq fan sifatida izohlaydi []. Goodfellow, Bengio va Courville tomonidan ishlab chiqilgan chuqur o‘qitish nazariyasi esa ko‘p qatlamli neyron tarmoqlar yordamida murakkab ma’lumotlardan yuqori darajadagi xususiyatlarni avtomatik ajratib olish imkoniyatini kengaytirdi [2].

Bugungi bosqichda sun’iy intellekt nafaqat ilmiy tadqiqotlar sohasi, balki iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning muhim texnologik vositasiga aylanmoqda. Ta’limda intellektual ta’lim tizimlari, tibbiyotda diagnostik tizimlar, sanoatda robotlashtirish, moliya sohasida risklarni baholash, davlat boshqaruvida ma’lumotlarni tahlil qilish kabi yo‘nalishlar shular jumlasidandir.

Sun’iy intellektning rivojlanishi davlat siyosati darajasida ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” tasdiqlangan. Strategiyada AI asosida yaratiladigan dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida AI asosidagi xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish, ilmiy laboratoriyalar sonini oshirish va yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish kabi maqsadlar belgilangan [1]

Biroq sun’iy intellektning keng joriy etilishi bilan birga bir qator yangi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, ma’lumotlarning sifatsizligi, algoritmlarning xolis emasligi, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, tizimlarning tushuntiriluvchanligi va sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha javobgarlik masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

UNESCOning Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiyasi inson huquqlari va inson qadr-qimmatini himoya qilishni markaziy tamoyil sifatida belgilaydi hamda shaffoflik, adolatlilik va inson nazoratiga alohida urg‘u beradi [7]. OECDning sun’iy intellekt bo‘yicha tavsiyasi ham ishonchli va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan AI tizimlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi [8].

Shu sababli sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning kompleks mexanizmlarini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

**ASOSIY QISM**

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda eng muhim to‘siqlardan biri texnik omillar bilan bog‘liq muammolardir. Bu muammolar asosan ma’lumot sifati, tizimlarning o‘zaro integratsiyasi, infratuzilma barqarorligi, hamda axborot xavfsizligi bilan bevosita bog‘liqdir. Har bir texnik muammo o‘z vaqtida aniqlanib, ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali bartaraf etilsa, sun’iy intellektning ta’limdagi samaradorligi keskin oshadi.

Sun’iy intellekt joriy etishdagi texnik muammolarini quyida tahlil qilinib, yechimlarini berib ketilgan.

*Ma’lumot sifati muammolari.* Sun’iy intellekt tizimlari samarali ishlashi uchun ma’lumotlarning toza, to‘liq, aniq va tartibli bo‘lishi zarur. Ammo ko‘plab ta’lim muassasalarida ma’lumotlarning tozalanmaganligi, takroriy yoki noto‘g‘ri yozuvlarning mavjudligi, etiketkalash (yorliqlash)ning sustligi ishlab chiqilayotgan modellarning natijalariga salbiy ta’sir qiladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun data boshqaruvi (data governance) tizimi joriy qilinadi. U ma’lumotlar sifatini nazorat qilish, standartlarni belgilash va yangilashni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ma’lumotlarni avtomatik qayta ishlovchi ETL/ELT jarayonlari (ma’lumotlarni yig‘ish, tozalash va yuklash)ni yo‘lga qo‘yish zarur. [4; 6]

*Tizimlar integratsiyasi muammolari.* Ta’lim muassasalarida LMS (o‘quv jarayonini boshqarish tizimi), ERP (resurslarni boshqarish tizimi) va CRM (mijozlar bilan ishlash tizimi) kabi turli platformalar mavjud. Bu tizimlar o‘zaro bog‘lanmagan hollarda sun’iy intellektga yetarli ma’lumot kirim qilmaydi va natijada to‘liq tahlil olib borish qiyinlashadi. Muammoning yechimi sifatida API-first integratsiya yondashuvi tavsiya etiladi. Bu yondashuv barcha tizimlarni yagona platformaga ulashga, ma’lumotlarni real vaqt rejimida almashishiga yordam beradi.

*Infratuzilma va ko‘lamlash muammolari.* Sun’iy intellekt modellarini o‘qitish va ulardan foydalanish kuchli texnik resurslarni talab qiladi. Ko‘plab ta’lim tashkilotlarida server quvvati past bo‘lishi, tarmoqlar barqaror ishlamasligi yoki mahalliy qurilmalarning yetishmasligi sababli tizimlarning uzilishi sodir bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda bulutli yoki gibrid infratuzilma (cloud/hybrid) yechimi samarali hisoblanadi. U tizimlarni tez ko‘lamlash, qo‘shimcha quvvat ulash va uzluksizlikni ta’minlashga imkon beradi.

Xavfsizlik va uzluksizlik muammolari. Sun’iy intellekt tizimlari ko‘p miqdorda shaxsiy va ta’limiy ma’lumotlarni qayta ishlaydi. Shu bois, axborot xavfsizligi, maxfiylik va tizim uzluksizligini ta’minlash juda muhimdir. Hujumlar, buzilishlar yoki texnik nosozliklar o‘quv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu muammolarni hal etishda observability (tizimni kuzatish va nosozliklarni erta aniqlash), model monitoring (modellarni doimiy nazorat qilish), hamda zaxira nusxalari va favqulodda vaziyatlar rejasini ishlab chiqish zarur. [4]

Umumiy qilib tahlil qilinsa, SI tizimlarini samarali ishlatish uchun yuqori hisoblash quvvatiga ega serverlar, keng tarmoqli internet, katta hajmdagi ma’lumotlar (big data) va ularni saqlash infratuzilmasi zarur. Aksariyat ta’lim muassasalari yoki tashkilotlarda bu infratuzilma to‘liq shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Bunday muammolarni bartaraf etish yo‘llari: bulutli hisoblash (cloud computing) xizmatlaridan foydalanish; ochiq manbali (open-source) SI platformalarini joriy etish (masalan, TensorFlow, PyTorch); davlat yoki korporativ darajada yagona raqamli infratuzilma yaratish; texnik xodimlar uchun maxsus IT-servis markazlarini tashkil etish kabi masalalarga e’tibor qaratilsa, SI tatbiq etishda muammolar uchramaydi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim sohasiga joriy etishda texnik jihatlardan tashqari, tashkiliy boshqaruv va inson omili bilan bog‘liq muammolar ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu omillar faqat texnologiya emas, balki inson resurslari, boshqaruv madaniyati, kommunikatsiya va o‘zgarishlarni qabul qilish jarayonlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ta’lim tizimida sun’iy intellektni samarali qo‘llash uchun tashkiliy muammolarni chuqur tahlil qilish va ularning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish zarur.

Kompetensiya yetishmovchiligi. Ko‘plab ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar, metodistlar, rahbarlar va texnik xodimlarning sun’iy intellekt imkoniyatlari, dasturiy platformalar va ma’lumotlar bilan ishlash asoslari bo‘yicha malakasi yetarli emas. Bu texnologiyalardan samarali foydalanmaslikka, xatoliklarning ko‘payishiga va loyihalarning sekinlashishiga olib keladi. Muammoni bartaraf etish uchun doimiy treninglar, kompetensiyalarni rivojlantirish dasturlari, hamda o‘qituvchilar uchun amaliy seminarlar kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt bo‘yicha mentorlar va ko‘makchi mutaxassislar tayyorlash samaradorlikni oshiradi. [4]

*O‘zgarishlarga qarshilik.* Ta’lim sohasida an’anaviy metodlarga o‘rganib qolgan xodimlar yangi texnologiyalarni qabul qilishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Ish jarayonlarining o‘zgarishi, qo‘shimcha mas’uliyat yoki yangi dasturlarni o‘rganish ularda qo‘rquv, shubha yoki qarshilik tug‘dirishi mumkin. Mazkur muammoning eng samarali yechimi — change management (o‘zgarishlarni boshqarish). Bu jarayonda

xodimlar bilan muntazam kommunikatsiya, tushuntirish ishlari, rag‘batlantirish, o‘quv mashg‘ulotlari va bosqichma-bosqich joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

*Jarayonlar va rollarning noaniqligi.* Sun’iy intellekt bilan ishlovchi loyihalarda kim qaysi jarayonga mas’ul ekani aniq belgilanmagan bo‘lsa, vazifalar chalkashadi va nazorat izdan chiqadi. Bu esa loyihaning umumiy samaradorligini pasaytiradi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun ta’lim muassasasida Center of Excellence (CoE) — ya’ni sun’iy intellekt bo‘yicha markaz yoki ishchi guruh tashkil etish tavsiya etiladi. CoE metodik qo‘llanmalar ishlab chiqadi, jarayonlarni standartlashtiradi va barcha xodimlar uchun yagona yo‘riqnoma sifatida xizmat qiladi.

*Kutilayotgan natijaning noaniqligi.* Sun’iy intellektga investitsiya qilishdan oldin rahbariyatda “Bu texnologiya qanday foyda beradi?”, “Qanday natija kutish mumkin?” kabi savollar tug‘iladi. Natija oldindan aniq belgilanmagan bo‘lsa, loyihaga shubha bilan qaraladi. Buni hal qilish uchun loyihalarni pilot–MVP–scale tamoyili asosida bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Dastlab kichik pilot loyiha sinovdan o‘tkaziladi, natija ijobiy bo‘lsa minimal funksiyali model kengaytiriladi va so‘ngra umumiy tizimga joriy qilinadi. Shuningdek, loyiha boshlanishida aniq KPI (asosiy ko‘rsatkichlar) va kutilayotgan natija xaritasi ishlab chiqilishi lozim.

*Xodimlarni qo‘llab-quvvatlash.* Sun’iy intellektni joriy etish bir martalik jarayon emas, balki doimiy o‘rganish va yangilanishni talab qiladigan tizimdir. Shu sababli o‘qituvchilar, texnik mutaxassislar va menejerlarni muntazam ravishda axborot, uslubiy va texnik qo‘llab-quvvatlash tizimi bilan ta’minlash zarur. Bu ularning jarayonga ishonchini oshiradi va texnologiyani samarali qo‘llashga sharoit yaratadi.

SI texnologiyalarini samarali joriy etish uchun yuqori malakali dasturchilar, data-analitiklar, muhandislar va pedagoglar zarur. Ammo ko‘plab tashkilotlarda ushbu soha mutaxassislari yetishmaydi. Bu muammolarni bartaraf etishda universitetlarda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, ma’lumotlar tahlili va dasturlash bo‘yicha maxsus magistratura va doktorantura dasturlarini kengaytirish o’quv dasturlari, ish joyida malaka oshirish (upskilling) va qayta tayyorlash (reskilling) dasturlarini joriy etish, xorijiy tajriba almashinuvi dasturlari va onlayn kurslardan foydalanish (Coursera, edX, Udemy va b.), ta’lim muassasalarida “AI-laboratoriyalar” tashkil etish kabi bir qator yo’llar orqali muammoni hal etish mumkin.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, tashkiliy va inson omili bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish sun’iy intellektning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun asosiy shartlardan biridir. Kompetensiyani oshirish, o‘zgarishlarni to‘g‘ri boshqarish, vazifalar

taqsimotining aniq belgilanishi va xodimlarni doimiy qo‘llab-quvvatlash ta’lim jarayonida sun’iy intellektning barqaror va samarali ishlashiga zamin yaratadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish jarayonida huquqiy, etik va xavf omillari eng muhim masalalardan biridir. Bu yo‘nalishdagi muammolar asosan shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi, mualliflik huquqi, algoritmlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan adolatsizlik, hamda tizimning shaffofligi va nazorat qilinishi bilan bog‘liqdir. Mazkur muammolarni e’tiborsiz qoldirish ta’lim jarayoniga, o‘quvchilar huquqlariga va axborot xavfsizligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. [4; 6; 7]

Shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi va rozilik muammolari. Sun’iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlaydi, jumladan, o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumoti, baholari, raqamli izlari va xatti-harakatlari haqidagi ma’lumotlar. Agar ushbu ma’lumotlar to‘g‘ri himoyalanmasa yoki roziliksiz ishlatilsa, maxfiylikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ta’lim muassasalarida “Maxfiylikni loyihalash jarayonidanoq ta’minlash” tamoyili (privacy-by-design)ga amal qilinishi zarur. Bu tamoyilga ko‘ra, har bir axborot tizimi boshidan boshlab maxfiylikni himoya qilishni o‘z ichiga olgan bo‘lishi shart. Shuningdek, har bir loyiha bo‘yicha “Ma’lumotlar ta’sirini baholash” (Data Protection Impact Assessment – DPIA) o‘tkazish talab etiladi. Bunda ma’lumotlar bilan ishlashda qanday xavflar mavjudligi aniqlanadi va ularni kamaytirish chorasi belgilanadi. [ 4]

*Mualliflik huquqi va litsenziyalash muammolari.* Sun’iy intellekt tizimlarida ishlatiladigan matnlar, rasmlar, videolar va boshqa kontent ko‘pincha mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo‘ladi. Agar ushbu materiallardan ruxsatsiz foydalanilsa, huquqbuzarlik sodir bo‘ladi. Muammoni bartaraf etish uchun ta’lim muassasalari litsenziyalangan kontentdan foydalanishi, mualliflik huquqlariga rioya qilishi va foydalanilayotgan ma’lumotlarning manbai aniq ko‘rsatilishini ta’minlashi lozim.

Algoritmik tarafkashlik (adolat buzilishi) muammolari. Sun’iy intellekt tizimlari noto‘g‘ri yoki nomutanosib ma’lumotlar asosida o‘qitilganida, ular ayrim guruhlar yoki o‘quvchilarni adolatsiz baholashi mumkin. Bu holat algoritmik tarafkashlik (bias) deb ataladi. Uni aniqlash uchun “Adolat tekshiruvi” (fairness audit) o‘tkaziladi. Tarafkashlik aniqlansa, tarafkashlikni kamaytirish (bias mitigation) usullari qo‘llanadi, ya’ni ma’lumotlar qayta tozalanadi, balanslanadi va model qayta o‘qitiladi. [3; 4; 5]

Tizim shaffofligi va izohlanuvchanlik muammolari. Ba’zi sun’iy intellekt modellarining qaror qabul qilish jarayoni murakkab bo‘lgani uchun o‘qituvchilar va o‘quvchilar “Model bu natijani qanday chiqardi?” degan savolga javob topa olmaydi. Bu esa tizimga bo‘lgan ishonchni susaytiradi. Buni bartaraf etish uchun “Izoh beruvchi

sun’iy intellekt” (Explainable AI – XAI) tamoyillari qo‘llanadi. Ya’ni modelning qanday qaror chiqargani, qaysi omillar ta’sir qilgani va natija qanday shakllangani oson tushunarli tarzda ko‘rsatib beriladi. [4; 6]

*Xavflarni boshqarish va audit izlari.* Sun’iy intellekt bilan ishlaydigan tizimlarda har bir amal, kirish, o‘zgarish va xatolik maxsus qaydlar orqali nazorat qilinishi lozim. Bu audit izlari deb ataladi. Audit izlari mavjud bo‘lsa, tizim buzilganda sababni tez aniqlash mumkin bo‘ladi. Shuningdek, har bir tashkilotda xavf boshqaruvi siyosati, yetkazib beruvchi (vendor) xavfini baholash tizimi, hamda hodisalarga tezkor javob rejasi (incident response) ishlab chiqilgan bo‘lishi zarur. Bu hujumlar yoki texnik nosozliklar sodir bo‘lganda ta’lim jarayonining to‘xtab qolmasligini ta’minlaydi.

SI texnologiyalarining joriy etilishi bilan inson mehnatining avtomatlashtirilishi, xolislik, maxfiylik va inson nazoratining kamayishi kabi muammolar paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, qaror qabul qilishda sun’iy intellektning adolatsiz yoki tarafkash yondashuvi (algorithmic bias) ijtimoiy tengsizlikka olib kelishi mumkin. Bunda quyidagich yechimlar berish mumkini:

• Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha milliy kodeks ishlab chiqish;

• “Inson halqasidagi” (human-in-the-loop) nazorat tizimini saqlash, ya’ni yakuniy qaror inson tomonidan tasdiqlanishi;

• SI tizimlarining izohlanadigan (explainable AI) shakllarini joriy etish;

• Ijtimoiy adolatni ta’minlovchi algoritmik monitoring tizimlarini yo‘lga qo‘yish.

Bundan tashqari, SI texnologiyalarini ishlab chiqish, o‘qitish va joriy etish katta moliyaviy mablag‘ni talab qiladi. Kichik korxonalar yoki ta’lim muassasalari uchun bu xarajatlar sezilarli bo‘lishi mumkin, Bunday muammolarni yechimi quyidagicha:

• davlat–xususiy sheriklik asosida loyihalarni moliyalashtirish;

• grantlar, innovatsion fondlar va xalqaro tashkilotlar (masalan, UNESCO, UNDP) yordamidan foydalanish;

• raqamli transformatsiyani milliy strategiyalar bilan uyg‘unlashtirish;

• mahalliy SI startaplarini qo‘llab-quvvatlash orqali ichki texnologik ekotizimni rivojlantirish.

Yana bir muhim muammolardan biri bu - psixologik tarafidir. Ba’zi o‘qituvchilar, rahbarlar yoki xodimlar sun’iy intellekt tizimlariga nisbatan ishonchsizlik bildiradilar. “Texnologiya insonni almashtiradi” degan xavotirlar mavjud. Bu esa joriy etish jarayonini sekinlashtiradi. Bu muammoni xodimlar va o‘qituvchilar uchun maxsus seminar va treninglar tashkil etish orqali bartaraf etish mumkin. Bundan tashqari, sun’iy intellekt tizimlarining foydasi va xavfsizligi haqida ommaviy axborot ishlarini

kuchaytirish va sun’iy intellekt bir vosita ya’ni, yordamchi, “inson -hakam” tamoyilini tushuntiradigan treninglar tashkil etish orqali ham muammoga yechim topish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy, etik va xavf omillari sun’iy intellektni joriy etishda eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Maxfiylikni saqlash, adolatni ta’minlash, tizimni shaffof va izohli qilish, shuningdek, xavflarni boshqarish mexanizmlarini yaratish ta’limda sun’iy intellektning ishonchli va xavfsiz qo‘llanishiga olib keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. *Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi*. — Toshkent, 2024. (O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali)

3. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. *2025–2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirishga oid ma’lumot*. — Toshkent, 2025. (O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali

4. Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. — 4th ed. — Hoboken: Pearson, 2021.

5. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning*. — Cambridge, MA: MIT Press, 2016. — 800 p.

6. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. — Paris: UNESCO, 2023. — 48 p.

7. UNESCO. AI Competency Framework for Teachers. — Paris: UNESCO, 2024.

8. Tabassi E. Artificial Intelligence Risk Management Framework (AI RMF 1.0). — Gaithersburg, MD: National Institute of Standards and Technology, 2023. — NIST AI 100-1. — DOI: 10.6028/NIST.AI.100-1.

9. European Commission. Ethics Guidelines for Trustworthy AI. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2019. — 52 p. — DOI: 10.2759/346720.

10. Jobin A., Ienca M., Vayena E. The Global Landscape of AI Ethics Guidelines // Nature Machine Intelligence. — 2019. — Vol. 1. — P. 389–399. — DOI: 10.1038/s42256-019-0088-2.

# IMPROVING ELECTRONIC HEALTH RECORD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN THROUGH AUTOMATIC SPEECH RECOGNITION

Rajabbek Teshayev
*Evidence from a Quasi-Experimental Study*
*PhD Researcher, Westminster International University in Tashkent, Uzbekistan*

***ABSTRACT.*** *The digital transformation of healthcare requires not only the introduction of electronic health records (EHRs), but also practical mechanisms for reducing the administrative burden associated with their use. This study evaluates Automatic Speech Recognition (ASR) as an alternative and complementary method of medical documentation in Uzbekistan. A mixed-methods quasi-experimental approach was used to compare conventional keyboard-based documentation with voice-assisted data entry in real clinical settings. The results show that ASR improved documentation efficiency: the average time required to document 100 medical words fell from 8.8 to 5.2 minutes, the volume of recorded medical information increased by 30.4%, documentation errors decreased by approximately 17.6%, and copy-paste behavior declined by about 7.5%. The findings support a hybrid physician-ASR model in which lengthy narrative sections are dictated while critical structured data remain subject to physician verification.*

***Keywords:*** *healthcare management; digital healthcare; electronic health records; automatic speech recognition; medical documentation; Uzbekistan.*

## INTRODUCTION

Digitalization has become a central component of contemporary healthcare management. Electronic health records can improve the availability, continuity and coordination of patient information and support more efficient clinical and administrative decision-making [1]. Yet the introduction of an EHR system does not automatically lead to higher productivity. Its managerial value depends heavily on how easily physicians can enter, retrieve and verify information during a clinical encounter.

International research shows that electronic documentation may absorb a substantial share of physicians' working time. Complex interfaces, repetitive keyboard entry and insufficient digital skills can increase cognitive workload, extend

documentation beyond normal working hours and reduce the time available for direct interaction with patients [2]. These problems are particularly relevant for health systems that are still moving from fragmented or paper-based records toward integrated digital platforms.

Uzbekistan is currently developing a more integrated digital healthcare environment, while medical institutions continue to face challenges related to fragmented information systems, non-uniform data practices and the administrative burden of medical documentation. Automatic Speech Recognition (ASR), which converts spoken language into digital text, offers a potential solution. Instead of manually typing lengthy histories and examination notes, physicians can dictate information and then verify or correct the generated text. Previous studies have demonstrated that speech recognition can improve documentation speed and completeness [3,4]. The purpose of this research was therefore to assess whether ASR could improve the efficiency and quality of EHR documentation in the context of Uzbekistan.

## RESEARCH METHODOLOGY

The study applied a mixed-methods quasi-experimental design combining quantitative measures of documentation performance with observation and physician feedback. Practical testing was conducted in clinical institutions in Bukhara, including Family Polyclinic No. 8 of the Bukhara City Medical Association and the Bukhara regional branch of the Republican Specialized Cardiology Scientific-Practical Medical Center.

Two documentation conditions were compared: conventional keyboard-based entry and voice-assisted entry using ASR. Approximately 120 observations were analysed. The main indicators included EHR completion time, the amount of medical information recorded, documentation errors, physicians' tendency to reuse existing text, and user experience. Since record length differed between the two methods, efficiency was additionally standardized by calculating the time required to enter 100 medical words.

## RESULTS AND DISCUSSION

The empirical findings demonstrate a clear efficiency advantage for voice-assisted documentation. Under conventional keyboard entry, physicians required an average of approximately 23 minutes to complete an EHR, compared with about 17.8 minutes when ASR was used. At the same time, dictated records were more detailed: the average record increased from about 273 words under manual typing to 356 words with ASR, representing an increase of approximately 30.4% in recorded medical information.

After standardizing for record length, the difference became more pronounced. The average time required to enter 100 medical words decreased from 8.8 minutes through manual typing to 5.2 minutes using ASR, corresponding to an improvement of about 41%. This finding is important from a healthcare-management perspective because faster documentation can release physician time for direct clinical work without reducing the amount of information captured.

The study also identified improvements in data quality and documentation behaviour. The use of ASR was associated with an approximately 17.6% reduction in typing and documentation errors, while physicians' tendency to copy and paste information from existing records decreased by around 7.5%. Excessive reuse of prior text may reproduce outdated or irrelevant content and weaken the reliability of EHR data [5]. Voice-assisted documentation encourages the generation of patient-specific narratives while still allowing the physician to review and correct the final record.

The results are broadly consistent with international evidence. Blackley et al. [4] reported that speech-recognition-assisted documentation can generate more comprehensive notes and improve documentation quality, while more recent research suggests that speech recognition can increase the amount of documentation produced per unit of clinician time [6]. From a theoretical perspective, the findings are also compatible with Human-Computer Interaction and Cognitive Load Theory: replacing repetitive keyboard operations with natural speech reduces the mechanical effort of data entry and may allow clinicians to focus more on the clinical content of documentation.

**PRACTICAL RECOMMENDATIONS**

For Uzbekistan, the results support gradual implementation through a hybrid physician-ASR model rather than immediate full replacement of keyboard entry. Narrative sections such as complaints, medical history and examination descriptions can be dictated, while highly structured, sensitive or clinically critical information should remain subject to manual verification. This approach is particularly appropriate while Uzbek-language medical speech recognition continues to mature.

Successful implementation requires more than software procurement. Medical institutions should provide staff training, reliable hardware, appropriate microphones, technical support and mechanisms for continuous system improvement. ASR models should be adapted to Uzbek medical terminology and integrated with national EHR platforms. Pilot implementation across different regions and specialties is advisable before nationwide scaling, because the present study was conducted in a limited number of institutions and broader multicentre evidence would strengthen generalizability.

## CONCLUSION

Automatic Speech Recognition represents a promising management tool for accelerating the digital transformation of healthcare in Uzbekistan. The study shows that voice-assisted documentation can substantially reduce the time required to prepare electronic medical records while simultaneously increasing the volume of relevant clinical information and reducing documentation errors. The reduction from 8.8 to 5.2 minutes per 100 words, combined with a 30.4% increase in documented information, an approximately 17.6% reduction in errors and a decline in copy-paste behaviour, demonstrates that ASR can contribute not only to technological modernization but also to operational efficiency and better medical data management.

The most appropriate pathway is therefore a gradual hybrid implementation supported by physician training, language-specific model development, reliable digital infrastructure and continuous human verification. Under these conditions, ASR can help transform electronic health records from an additional administrative burden into a practical instrument for more efficient, accurate and patient-centred healthcare management.

## REFERENCES

1. Atasoy, H., Greenwood, B. N., & McCullough, J. S. (2019). The digitization of patient care: A review of the effects of electronic health records on health care quality and utilization. Annual Review of Public Health, 40(1), 487-500. https://doi.org/10.1146/annurev-publhealth-040218-043744

2. Baumann, L. A., Baker, J., & Elshaug, A. G. (2018). The impact of electronic health record systems on clinical documentation times: A systematic review. Health Policy, 122(8), 827-836. https://doi.org/10.1016/j.healthpol.2018.05.014

3. Kumah-Crystal, Y., et al. (2018). Electronic health record interactions through voice: A review. Applied Clinical Informatics, 9(3), 541-552. https://doi.org/10.1055/s-0038-1660524

4. Blackley, S. V., Schubert, V., Goss, F. R., Al Assad, W., Garabedian, P. M., & Zhou, L. (2020). Physician use of speech recognition versus typing in clinical documentation: A controlled observational study. International Journal of Medical Informatics, 141, 104178. https://doi.org/10.1016/j.ijmedinf.2020.104178

5. Tsou, A. Y., Lehmann, C. U., Michel, J., Solomon, R., Possanza, L., & Gandhi, T. (2017). Safe practices for copy and paste in the EHR: Systematic review, recommendations, and novel model for health IT collaboration. Applied Clinical Informatics, 8(1), 12-34. https://doi.org/10.4338/ACI-2016-09-R-0150

6. Shour, A. R., Anguzu, R., Onitilo, A. A., et al. (2025). Speech recognition technology and documentation efficiency. JAMA Network Open, 8(3), e251526. https://doi.org/10.1001/jamanetworkopen.2025.1526

7. Sinsky, C., Colligan, L., Li, L., et al. (2016). Allocation of physician time in ambulatory practice: A time and motion study in 4 specialties. Annals of Internal Medicine, 165(11), 753-760. https://doi.org/10.7326/M16-0961

# KIBERXAVFSIZLIKDA TARMOQ HUJUMLARINI ANIQLASH UCHUN MASHINALI O‘QITISH ALGORITMLARINI TADQIQ QILISH

Abdullayev Saidrasul Axmadillo o‘g‘li
*e-mail: srx.ai2026@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada CIC-IDS2017/CIC-IDS datasetlari asosida tarmoq kiberhujumlarini aniqlashda mashinali o‘qitish usullari tadqiq etilgan. Ma’lumotlarga ishlov berishda keraksiz va takroriy xususiyatlar olib tashlanib, Logistic Regression va Random Forest algoritmlari baholandi. Tajriba natijalariga ko‘ra, Random Forest modeli 99% dan yuqori aniqlik va ROC-AUC ko‘rsatkichi bilan yuqori samaradorlik namoyon etgan bo‘lsa, Logistic Regression soddaligi va interpretatsiya imkoniyati bilan samarali natija berdi.*

***Kalit so‘zlar:*** *kiberxavfsizlik, tarmoq hujumlarini aniqlash, mashinali o‘qitish, Random Forest, Logistic Regression, IDS.*

***Аннотация.*** *В статье исследуется задача обнаружения сетевых атак с использованием методов машинного обучения на основе наборов данных CIC-IDS2017/CIC-IDS. В процессе предварительной обработки были удалены постоянные и дублирующиеся признаки, обучены модели Logistic Regression и Random Forest. Результаты показали, что алгоритм Random Forest достиг точности и ROC-AUC более 99%, а Logistic Regression продемонстрировал хорошие результаты благодаря простоте и интерпретируемости.*

***Ключевые слова:*** *кибербезопасность, обнаружение вторжений, машинное обучение, Random Forest, Logistic Regression, сетевой трафик.*

***Abstract.*** *This paper investigates network attack detection using machine learning algorithms on the CIC-IDS2017/CIC-IDS datasets. Redundant and duplicate features were removed during preprocessing, and Logistic Regression and Random Forest models were evaluated. Experimental results show that Random Forest achieved superior performance with accuracy and ROC-AUC exceeding 99%, while Logistic Regression provided reliable results with high interpretability.*

***Keywords:*** *cybersecurity, intrusion detection system, machine learning, Random Forest, Logistic Regression, network traffic analysis.*

## KIRISH

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida tarmoq infratuzilmalariga bo‘lgan tahdidlar soni va murakkabligi ortib bormoqda. Internet xizmatlari, bulutli texnologiyalar va katta hajmdagi ma’lumot almashinuvi kengaygani sari kiberhujumlar ham yanada takomillashib bormoqda. DDoS, DoS, PortScan, Web Attack, Brute Force va boshqa turdagi hujumlar tashkilotlarning axborot tizimlari xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘diradi.

An’anaviy tarmoq xavfsizligi vositalari, xususan, qoidalarga asoslangan Intrusion Detection System (IDS) tizimlari oldindan aniqlangan hujum belgilaridan foydalanadi. Bunday yondashuv ma’lum hujumlarni aniqlashda samarali bo‘lsa-da, yangi va noma’lum tahdidlarni aniqlash imkoniyati cheklangan. Bundan tashqari, zamonaviy tarmoq trafiklarining katta hajmi va murakkabligi sababli qo‘lda yaratilgan qoidalar asosida ishlaydigan tizimlar yetarli darajada moslashuvchan emas.

Mashinali o‘qitish (Machine Learning) usullari ushbu muammolarni hal qilish uchun istiqbolli yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu usullar tarmoq trafikidan muhim xususiyatlarni avtomatik ravishda o‘rganish, normal va zararli faoliyat o‘rtasidagi farqlarni aniqlash hamda yangi hujumlarni aniqlash imkonini beradi. Klassifikatsiya algoritmlari yordamida tarmoq oqimlari “BENIGN” va “ATTACK” sinflariga ajratilib, xavfsizlik monitoringi jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin.

Mazkur tadqiqot ishida mashinali o‘qitish algoritmlarining tarmoq hujumlarini aniqlashdagi samaradorligi o‘rganiladi. Tajriba uchun CIC-IDS2017/CIC-IDS2018 asosidagi tarmoq trafik ma’lumotlari ishlatildi. Ushbu dataset turli xil hujum turlarini, jumladan DoS, DDoS, PortScan, Web Attack, Brute Force va boshqa zararli faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot davomida ma’lumotlarni tayyorlash jarayonida keraksiz va takroriy belgilar tahlil qilindi hamda model sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xususiyatlar olib tashlandi. Dastlabki qayta ishlashdan so‘ng tanlangan belgilar asosida Logistic Regression va Random Forest algoritmlari yordamida modellar yaratildi va baholandi.

Ushbu ishning asosiy maqsadi - mashinali o‘qitish algoritmlarining tarmoq hujumlarini aniqlashdagi imkoniyatlarini baholash, turli modellarning samaradorligini taqqoslash va yuqori aniqlikka ega IDS yechimlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy hissasi quyidagilardan iborat:

- tarmoq trafik ma’lumotlarini qayta ishlash va tayyorlash jarayonini amalga oshirish;
- keraksiz va takroriy xususiyatlarni aniqlash hamda kamaytirish;

- mashinali o‘qitish algoritmlarini qo‘llash orqali hujumlarni aniqlash;
- modellarni Accuracy, Precision, Recall, F1-score va ROC-AUC ko‘rsatkichlari orqali baholash;
- yuqori samaradorlikka ega klassifikatsiya modelini aniqlash.

Olingan tajriba natijalari mashinali o‘qitish yondashuvlari zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlarida tarmoq hujumlarini aniqlash jarayonini takomillashtirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

## 2. Asosiy qism

### 2.1. Kiberxavfsizlikda mashinali o‘qitish

Kiberxavfsizlik sohasida tarmoq hujumlarini aniqlash masalasi uzoq yillardan beri dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Tarmoq xavfsizligini ta’minlash uchun odatda Intrusion Detection System (IDS) - hujumlarni aniqlash tizimlaridan foydalaniladi. IDS tizimlari tarmoq trafigini kuzatib boradi, shubhali faoliyatlarni aniqlaydi va xavfsizlik hodisalari haqida xabar beradi.

An’anaviy IDS tizimlari asosan signaturaga asoslangan (signature-based) yondashuvdan foydalanadi. Bunday tizimlarda avvaldan ma’lum bo‘lgan hujum namunalarining bazasi shakllantiriladi va kelayotgan trafik ushbu namunalar bilan taqqoslanadi. Ushbu usul ma’lum hujumlarni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, yangi yoki o‘zgartirilgan hujumlarni aniqlashda cheklovlarga ega.

Zamonaviy kiberhujumlarning murakkablashishi natijasida anomaliyaga asoslangan (anomaly-based) IDS tizimlariga ehtiyoj oshmoqda. Ushbu yondashuvda tizim normal tarmoq xatti-harakatlarini o‘rganadi va undan farq qiluvchi faoliyatlarni potensial hujum sifatida aniqlaydi. Mashinali o‘qitish algoritmlari aynan shu vazifani bajarishda samarali vosita sifatida qo‘llanilmoqda.

Mashinali o‘qitish (Machine Learning) - bu kompyuter tizimlariga katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalanib, aniq qoidalar kiritmasdan qonuniyatlarni aniqlash imkonini beruvchi sun’iy intellekt yo‘nalishidir. Kiberxavfsizlikda ML algoritmlari tarmoq trafikining xususiyatlarini tahlil qilish, hujum va normal faoliyat o‘rtasidagi farqlarni aniqlash hamda yangi tahdidlarni topishda ishlatiladi.

Ushbu tadqiqotda Supervised Learning (nazorat ostidagi o‘qitish) yondashuvidan foydalanildi. Ushbu usulda model oldindan belgilangan sinflarga ega ma’lumotlar asosida o‘qitiladi. Tarmoq hujumlarini aniqlash masalasida ma’lumotlar odatda ikki asosiy sinfga ajratiladi:

- **BENIGN** - normal tarmoq faoliyati;
- **ATTACK** - zararli yoki hujumga tegishli trafik.

Model ushbu sinflar o‘rtasidagi farqlarni o‘rganib, yangi tarmoq oqimlarini avtomatik ravishda klassifikatsiya qiladi.

### 2.2. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda tarmoq hujumlarini aniqlash uchun mashinali o‘qitish asosidagi klassifikatsiya yondashuvi qo‘llanildi. Tadqiqot jarayoni bir nechta asosiy bosqichlardan tashkil topdi: ma’lumotlarni tayyorlash, dastlabki qayta ishlash (preprocessing), xususiyatlarni tanlash, modellarni o‘qitish va natijalarni baholash.

Tadqiqot metodologiyasining umumiy ketma-ketligi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Datasetni shakllantirish
2. Ma’lumotlarni tozalash va preprocessing
3. Xususiyatlarni tahlil qilish va tanlash
4. Mashinali o‘qitish modellarini yaratish
5. Modellarni baholash va taqqoslash

**Datasetni tayyorlash**

Tadqiqotda CIC-IDS2017/CIC-IDS2018 tarmoq trafik datasetlaridan foydalanildi. Ushbu datasetlar real tarmoq muhitidan olingan trafik oqimlarini o‘z ichiga oladi va turli xil kiberhujum turlarini modellashtiradi.

Tadqiqot vazifasini ikkilik klassifikatsiya (binary classification) sifatida shakllantirish uchun barcha hujum turlari yagona ATTACK sinfiga birlashtirildi, normal trafik esa BENIGN sinfi sifatida qabul qilindi.

| Target | Ma’nosi |
|---|---|
| 0 | BENIGN (normal trafik) |
| 1 | ATTACK (zararli trafik) |

**Ma’lumotlarni bo‘lish**

Modelni haqqoniy baholash uchun ma’lumotlar trening va test qismlariga ajratildi. Oddiy tasodifiy ajratish o‘rniga trafik manbalarining o‘zaro aralashib ketishini kamaytirish maqsadida GroupShuffleSplit usulidan foydalanildi.

### 2.3. Dataset va preprocessing

Dastlabki dataset quyidagi tarkibga ega edi:

| Ko‘rsatkich | Qiymat |
|---|---|
| Umumiy namunalar soni | 2 520 101 |
| Umumiy ustunlar soni | 82 |
| Model xususiyatlari soni | 78 |

| Ko‘rsatkich | Qiymat |
|---|---|
| Maqsad ustuni | Target |

**Preprocessing jarayonida:**

- doimiy qiymatga ega bo‘lgan 8 ta feature olib tashlandi;
- takrorlanuvchi 6 ta feature olib tashlandi;

### 2.4. Modellar

Tadqiqotda ikkita klassifikatsiya algoritmi qo‘llanildi: Logistic Regression va Random Forest. Modellarni o‘qitish jarayonida barcha tajribalar Python dasturlash muhiti hamda Scikit-learn kutubxonasi yordamida amalga oshirildi.

Modellar uchun quyidagi giperparametrlar tanlandi:

**Logistic Regression**

| **Parametr** | Solver | C | Max iterations | Random state |
|---|---|---|---|---|
| **Qiymat** | lbfgs | 1.0 | 1000 | 42 |

Logistic Regression modeli chiziqli ajratish imkoniyatiga ega bo‘lgan bazaviy klassifikator sifatida ishlatildi.

**Random Forest**

| **Parametr** | n_estimators | Random state | n_jobs | Criterion |
|---|---|---|---|---|
| **Qiymat** | 100 | 42 | -1 | gini |

Random Forest modeli bir nechta qaror daraxtlaridan tashkil topgan ansambl algoritmi sifatida qo‘llanildi. Ushbu model murakkab va chiziqli bo‘lmagan tarmoq trafik naqshlarini aniqlash imkoniyati sababli tanlandi.

| Model | Accuracy | Precision | Recall | F1-score | ROC-AUC |
|---|---|---|---|---|---|
| **Logistic Regression** | 0.9436 | 0.8616 | 0.8500 | 0.8558 | 0.9815 |
| **Random Forest** | 0.9993 | 0.9973 | 0.9986 | 0.9979 | 0.9999 |

### 2.5. Natijalar va muhokama

Ushbu bo‘limda ishlab chiqilgan mashinali o‘qitish modellarining tarmoq hujumlarini aniqlashdagi natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ikkala model ham tarmoq trafiklarini BENIGN va ATTACK sinflariga ajratishda samarali ishladi. Biroq modellar orasida sezilarli farq kuzatildi. Random Forest modeli barcha baholash mezonlari bo‘yicha Logistic Regression modelidan ustun natija berdi.

## 3. Xulosa

Ushbu tadqiqotda zamonaviy tarmoq hujumlarini aniqlash masalasida mashinaviy o‘qitish algoritmlaridan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqotlar

CICIDS2017 ma’lumotlar to‘plami asosida amalga oshirildi. Dastlabki ma’lumotlarga ishlov berish jarayonida keraksiz va takrorlanuvchi xususiyatlar aniqlanib, doimiy qiymatga ega bo‘lgan belgilar hamda yuqori korrelyatsiyaga ega bo‘lgan takroriy xususiyatlar olib tashlandi.

Tadqiqot davomida Logistic Regression va Random Forest klassifikatsiya modellari sinovdan o‘tkazildi. Tajriba natijalariga ko‘ra Random Forest modeli tarmoq hujumlarini aniqlash vazifalarida Logistic Regression modeliga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, paket uzunligi statistikasi, trafik oqimi xususiyatlari va port ma’lumotlari hujumlarni ajratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ko‘p sinfli (multi-class) hujumlarni aniqlash, chuqur o‘qitish (Deep Learning) algoritmlarini qo‘llash, real vaqt rejimidagi trafik oqimlarida model ishlashini baholash hamda model interpretatsiyasi (Explainable AI) usullarini tadqiq qilish rejalashtirilmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharafaldin I., Lashkari A.H., Ghorbani A.A. Toward Generating a New Intrusion Detection Dataset and Intrusion Traffic Characterization // Proceedings of the 4th International Conference on Information Systems Security and Privacy (ICISSP). - Funchal, Portugal, 2018. - P. 108-116.

2. Tavallaee M., Bagheri E., Lu W., Ghorbani A.A. A Detailed Analysis of the KDD CUP 99 Data Set // Proceedings of the IEEE Symposium on Computational Intelligence for Security and Defense Applications (CISDA). - Ottawa, Canada, 2009. - P. 1-6.

3. Sommer R., Paxson V. Outside the Closed World: On Using Machine Learning for Network Intrusion Detection // Proceedings of the IEEE Symposium on Security and Privacy. - Oakland, USA, 2010. - P. 305-316.

4. Buczak A., Guven E. A Survey of Data Mining and Machine Learning Methods for Cyber Security Intrusion Detection // IEEE Communications Surveys & Tutorials. - 2016. - Vol. 18, No. 2. - P. 1153-1176.

5. Khraisat A., Gondal I., Vamplew P., Kamruzzaman J. Survey of Intrusion Detection Systems: Techniques, Datasets and Challenges // Cybersecurity. - 2019. - Vol. 2, No. 20. - P. 1-22.

6. Mitchell T.M. Machine Learning. - New York: McGraw-Hill, 1997. - 414 p.

7. Breiman L. Random Forests // Machine Learning. - 2001. - Vol. 45. - P. 5-32.

8. Cortes C., Vapnik V. Support-Vector Networks // Machine Learning. - 1995. - Vol. 20. - P. 273-297.

9. Pedregosa F., Varoquaux G., Gramfort A., Michel V., Thirion B., Grisel O., et al.

Scikit-learn: Machine Learning in Python // Journal of Machine Learning Research. - 2011. - Vol. 12. - P. 2825-2830.

10. Chen T., Guestrin C. XGBoost: A Scalable Tree Boosting System // Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD International Conference on Knowledge Discovery and Data Mining. - San Francisco, USA, 2016. - P. 785-794.

11. Shaukat K., Luo S., Varadharajan V., et al. A Review of Machine Learning Techniques for Cyber Security // IEEE Access. - 2021. - Vol. 9. - P. 134100-134116.

# KAM RESURSLI O‘ZBEK VA TURKIY TILLAR UCHUN AVTOMATIK NUTQNI TANISH MUAMMOLARI

*Sharipov Zohirjon Zokirjon o‘g‘li*

***Annotatsiya:****Avtomatik nutqni tanish tizimlari yuqori resursli tillarda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, o'zbek tili va boshqa turkiy tillar uchun bu soha hanuzgacha jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu tezisda kam resursli turkiy tillarda nutqni tanishni murakkablashtiruvchi asosiy omillar tahlil qilinadi: yetarli hajmdagi belgilangan ma'lumotlarning kamligi, tillarning agglutinativ va morfologik jihatdan boy tuzilishi, dialekt hamda talaffuzdagi xilma-xillik va mavjud korpuslardagi sifat va muvozanat muammolari. O'zbek tili misolida Common Voice va O'zbek nutq korpusi resurslari ko'rib chiqiladi hamda ularning cheklovlari baholanadi. Tahlil natijasida ko'p tilli oldindan o'qitilgan modellar va transfer learning usuli mazkur qiyinchiliklarni yengishning eng istiqbolli yo'nalishi sifatida taklif etiladi.*

***Kalit so'zlar***

*O'zbek tili; turkiy tillar; avtomatik nutqni tanish; kam resursli tillar; nutqni tanish; chuqur o'rganish.*

## 1. Kirish

So'nggi yillarda chuqur o'rganishga asoslangan avtomatik nutqni tanish texnologiyalari jadal rivojlanib, ingliz va boshqa keng tarqalgan tillar uchun yuqori aniqlikka erishildi. Biroq bu yutuqlar barcha tillarga bir xilda taalluqli emas. Turkiy tillar oilasiga mansub o'zbek, qozoq, turk va ozarbayjon tillari, garchi millionlab kishilar tomonidan qo'llanilsa-da, texnologik jihatdan kam ta'minlangan tillar qatoriga kiradi. Ushbu tezisda mazkur tillarda nutqni tanish tizimlarini yaratishda uchraydigan asosiy muammolar tizimli tarzda tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish yo'nalishi belgilanadi.

## 2. Asosiy muammolar

### 2.1. Cheklangan ma'lumotlar bazasi

Zamonaviy nutqni tanish modellari yuqori aniqlikka erishishi uchun katta hajmdagi transkripsiyalangan audio ma'lumotlarni talab qiladi. Turkiy tillar uchun bunday belgilangan korpuslar juda kam va ularni yig'ish qimmat hamda ko'p vaqt talab

qiluvchi jarayondir. Ma'lumotlarning yetishmasligi modellarning o'rganish sifatini bevosita cheklaydi.

**2.2. Morfologik murakkablik**

Turkiy tillar agglutinativ tuzilishga ega bo'lib, so'zlarga ketma-ket qo'shimchalar qo'shilishi orqali son-sanoqsiz yangi so'z shakllari hosil bo'ladi. Bu holat lug'at hajmini keskin oshiradi va kam uchraydigan so'z shakllarini tanishni qiyinlashtiradi, bu esa so'z darajasidagi xatoliklar ortishiga olib keladi.

**2.3. Dialektal xilma-xillik**

Turkiy tillarda hududiy shevalar va lahjalar ko'p. Bir xil so'z turli mintaqalarda turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Aksariyat korpuslar bunday xilma-xillikni to'liq qamrab olmaydi, natijada model muayyan shevada yaxshi ishlab, boshqasida aniqligini yo'qotadi.

**2.4. Talaffuz xilma-xilligi**

So'zlovchilarning yoshi, jinsi va nutq tezligi talaffuzga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bir xil matn turli so'zlovchilar tomonidan turlicha aytilishi model uchun qo'shimcha noaniqlik manbai bo'lib xizmat qiladi.

**2.5. Ma'lumotlar sifati**

Ochiq va jamoatchilik tomonidan to'ldiriladigan korpuslarda audio yozuvlarning sifati bir xil emas. Shovqin, notekis yozib olish sharoitlari va noto'g'ri transkripsiyalar model aniqligini pasaytiradi. Shuning uchun ma'lumotlarni oldindan tozalash va tekshirish muhim ahamiyatga ega.

**3. Mavjud yechimlar**

Nutqni tanish tizimlari bir necha avlod texnologiyalarni bosib o'tdi. Dastlab chuqur neyron tarmoqlar va yashirin Markov modellari birgalikda qo'llanilgan. Keyinchalik konvolyutsion tarmoqlar hamda uzoq-qisqa muddatli xotira tarmoqlari ketma-ket ma'lumotlarni yaxshiroq modellashtirish imkonini berdi. Transformer arxitekturasining paydo bo'lishi bilan nutqni tanish sifati yangi bosqichga ko'tarildi. So'nggi yillarda o'z-o'zini nazorat qiluvchi Wav2Vec2 va uning ko'p tilli kengaytmasi XLS-R modellari belgilanmagan audiodan ham foydali tasvirlarni o'rganish imkonini yaratdi. Transfer learning usuli esa bu modellarni kam ma'lumot bilan yangi tilga moslashtirishga xizmat qiladi va aynan kam resursli tillar uchun samarali yondashuv hisoblanadi.

**4. O'zbek tili misolida**

O'zbek tili uchun ikki asosiy ovozli manba mavjud. Birinchisi Mozilla Common Voice loyihasi bo'lib, u jamoatchilik tomonidan to'ldiriladigan va ochiq litsenziyaga ega korpusdir; hozirgi kunda o'zbek tili qismi taxminan 4,92 gigabayt hajmdagi audio

yozuvlarni o'z ichiga oladi, ammo yozuvlar sifati va so'zlovchilar muvozanati bir xil emas. Ikkinchisi O'zbek nutq korpusi bo'lib, u qo'lda tekshirilgan va yuqori sifatli manba sanaladi: 958 nafar so'zlovchidan yig'ilgan 104,9 soatlik transkripsiyalangan audio hamda 100 767 ta nutq bo'lagidan iborat. Ushbu korpuslar o'zbek tilida nutqni tanish tadqiqotlari uchun asos bo'lsa-da, ularning hajmi va qamrovi yirik tillar resurslariga nisbatan cheklangan bo'lib qolmoqda.

**5. Taklif etilayotgan yo'nalish**

Yuqorida keltirilgan muammolarni yengishning eng maqbul yo'li ko'p tilli oldindan o'qitilgan modellardan foydalanish va ularni transfer learning usuli orqali o'zbek hamda boshqa turkiy tillarga moslashtirishdan iborat. Katta hajmdagi ko'p tilli ma'lumotlarda o'qitilgan model umumiy akustik bilimlarni o'zida saqlaydi va bu bilimlar kam miqdordagi maqsadli til ma'lumotlari yordamida aniqlanadi. Bunday yondashuv ma'lumot yetishmovchiligining ta'sirini kamaytiradi va morfologik jihatdan boy tillarda ham qoniqarli natija berish imkonini yaratadi.

**6. Xulosa**

Turkiy tillarda avtomatik nutqni tanish rivojiga ma'lumot yetishmovchiligi, morfologik murakkablik, dialekt va talaffuzdagi xilma-xillik hamda korpus sifati bilan bog'liq omillar to'sqinlik qilmoqda. O'zbek tili misolida ko'rsatilganidek, mavjud korpuslar muhim asos bo'lsa-da, yetarli emas. Shu sababli ko'p tilli oldindan o'qitilgan modellar va transfer learning usuli ushbu tillarda nutqni tanish sifatini oshirishning eng istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

# 4. ENGINEERING, TECHNOLOGY, AND INDUSTRIAL SCIENCES

# EFFECT OF ELECTROPULSE TREATMENT ON THE CORROSION RESISTANCE OF COMMERCIALLY PURE NICKEL NP1

Amirbek Ergashov
Amir20021974@gmail.com
Urinova Oysha
Oyshaorinova315@gmail.com

***Abstract.*** *Commercially pure nickel NP1 is widely used in engineering applications because of its excellent corrosion resistance and favorable mechanical properties. However, additional improvement of its performance can be achieved through microstructural modification. This work investigates the influence of cryogenic rolling followed by electropulse treatment (EPT) on the corrosion resistance of NP1 nickel. Structural characterization and corrosion testing demonstrated that electropulse treatment promotes recovery and recrystallization, resulting in a more homogeneous microstructure and improved corrosion behavior. The obtained results confirm that electropulse treatment is an effective method for enhancing the durability of commercially pure nickel.*

***Keywords:*** *Nickel NP1, Corrosion resistance, Electropulse treatment, Cryogenic rolling, Microstructure.*

## Introduction

Commercially pure nickel possesses excellent resistance to corrosion in aggressive environments and is widely applied in chemical, petrochemical, marine, and power engineering industries. Besides chemical composition, the corrosion resistance of nickel strongly depends on its microstructural state. Grain refinement, recrystallization, and reduction of structural defects can significantly improve the stability of the passive oxide film and increase corrosion resistance.

Cryogenic rolling introduces severe plastic deformation and increases the density of crystal defects. Electropulse treatment provides rapid localized heating that accelerates recovery and recrystallization while avoiding prolonged furnace annealing. This combination offers an efficient approach for improving both mechanical and corrosion properties.

Experimental Procedure

Commercially pure NP1 nickel specimens were annealed before cryogenic rolling. Rolling was performed under liquid nitrogen conditions to achieve approximately **70% thickness reduction**. Electropulse treatment was then applied using high-density current pulses of short duration. Corrosion behaviour was evaluated after processing and compared with the initial condition. Microstructural changes were analyzed using Electron Backscatter Diffraction (EBSD), while microhardness measurements were used to correlate structural evolution with corrosion performance.

Results and Discussion

Cryogenic rolling produced a highly deformed microstructure with increased dislocation density and elongated grains. Electropulse treatment promoted recovery and recrystallization, resulting in finer and more homogeneous grains. The reduction of internal stresses and structural heterogeneity facilitated the formation of a more stable passive oxide layer on the nickel surface.

Corrosion testing indicated that the processed specimens exhibited improved corrosion resistance compared with the untreated material. The improvement is attributed to grain refinement and the reduction of preferential corrosion initiation sites after electropulse treatment. These findings demonstrate that the combined processing route effectively enhances both structural stability and corrosion performance of commercially pure NP1 nickel.

Conclusions

· Cryogenic rolling significantly modified the microstructure of commercially pure NP1 nickel.

· Electropulse treatment accelerated recovery and recrystallization processes.

· Structural homogenization improved the formation of the protective passive film.

· Combined cryogenic rolling and electropulse treatment increased the corrosion resistance of NP1 nickel.

· The proposed processing route represents a promising method for improving the service performance of nickel-based material

·

**References**

1. Davis J.R. *Nickel, Cobalt and Their Alloys*. ASM International.
2. Fontana M.G. *Corrosion Engineering*. McGraw-Hill.

3. Humphreys F.J., Hatherly M. *Recrystallization and Related Annealing Phenomena*. Elsevier.

4. ASM Handbook, Volume 13A: *Corrosion: Fundamentals, Testing and Protection*.

5. GOST 492–2006. Nickel and Nickel Alloys.

# QURILISH MATERIALLARINI YONG‘INDAN HIMOYALOVCHI KOMPOZITSIYA ASOSIDA OLISH USULI

Dusmatov Xashim Mamatkarimovich
*O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi dotsenti.*
Dusmatova Anzirat Djumabayevna
*Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti dotsenti.*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada suyuq shisha, kremniy oksidi, alyuminiy oksidi, akril asosidagi emulsiya, borat kislotasi va sement asosida yangi avlod mineral-polimer kompozitsion yong‘inga chidamli qoplama materiali ishlab chiqish usuli taklif etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu komponentlarning sinergetik ta’siri natijasida yuqori harorat ta’sirida ko‘p fazali silikat-aluminosilikat himoya qatlam hosil bo‘lgan. Suyuq shisha va kremniy oksidi yuqori haroratda silikatli matritsa hosil qilib, materialning termik barqarorligini oshiradi. Alyuminiy oksidi esa refrakter komponent sifatida kompozitsiyaning yuqori haroratga chidamliligini (≈1200°C gacha) sezilarli darajada oshiradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *qoplama material, makrostruktura, termoizolyatsion qatlam, silikat matritsa, g‘ovak, refrakter komponent, zichlik, himoyalovchi qoplama, issiqlik oqimi, substrat, sinergetik ta’sir, suspenziya, mexanik aralashtirgichsuyuq shisha, kremniy oksidi, alyuminiy oksidi, akril asosidagi emulsiya, borat kislotasi, sement, mineral-polimer, kompozitsiya, yong‘inga chidamli.*

***Аннотация.*** *В статье предложена метод разработки огнестойкого минерально-полимерного композиционного покрытия нового поколения на основе жидкого стекла, оксида кремния, оксида алюминия, акриловой эмульсии, борной кислоты и цемента. Результаты исследований свидетельствуют о том, что синергетический эффект этих компонентов приводит к формированию многофазного силикатно-алюмосиликатного защитного слоя в условиях высоких температур. Жидкое стекло и оксид кремния при высоких температурах образуют силикатную матрицу, повышая тем самым термическую стойкость материала, в то время как оксид алюминия выступает в роли тугоплавкого компонента, существенно увеличивая устойчивость состава к воздействию*

*высоких температур (примерно до 1200°C).*

***Ключевые слова:*** *покрытие, макроструктура, теплоизоляционный слой, силикатная матрица, пора, огнеупорный компонент, плотность, защитное покрытие, тепловой поток, подложка, синергетический эффект, суспензия, механическая мешалка, жидкое стекло, оксид кремния, оксид алюминия, акриловая эмульсия, борная кислота, цемент, минерально-полимерная композиция, огнестойкий.*

***Annotation.*** *The article proposes a metod for developing a new-generation fire-resistant mineral-polymer composite coating based on liquid glass, silicon oxide, aluminum oxide, acrylic emulsion, boric acid, and cement. Research results indicate that the synergistic effect of these components leads to the formation of a multiphase silicate-aluminosilicate protective layer under high-temperature conditions. At high temperatures, liquid glass and silicon oxide form a silicate matrix, thereby enhancing the material's thermal stability, while aluminum oxide acts as a refractory component, significantly increasing the composition's resistance to high temperatures (up to approximately 1200°C).*

***Key words:*** *thermal insulation layer, silicate matrix, pore, refractory component, density, protective coating, heat flux, substrate, synergistic effect, suspension, mechanical stirrer, liquid glass, silicon oxide, aluminum oxide, acrylic emulsion, boric acid, cement, mineral-polymer composition, fire-resistant, coating, macrostructure.*

**Kirish.** Qurilish materiallarining yangi tarkiblarini dunyo miqyosida ishlab chiqarishga alohida e’tibor qaratilib, uy-joy qurilishida mahalliy energiya tejamkor, olovbardosh va issiqlik izolyatsiyalovchi qurilish materiallaridan foydalanish har tomonlama qulay hisoblanib, rivojlanib bormoqda. Respublikamizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida,

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish borasida bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni bajarishda yong‘in xavfsizligini ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Mazkur yo‘nalishda yangi tarkibli olovbardosh qurilish materiallarini ishlab chiqish ham katta ahamiyat kasb etadi [1].

Olovbardosh qurilish materiallarini olish borasidagi amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida energiya sarfi kam bo‘lgan avtoklavsiz olovbardosh kalsiy silikat plitkalarini olish usuli ishlab chiqilgan. Ilm-fan va ilg‘or texnologiyalarning rivojlanishi

natijasida, hozirgi vaqtda olovbardosh va issiqlik izolyatsiyalovchi qurilish materiallarining zamonaviy turlari ishlab chiqarilmoqda. Qurilish materiallarini olish uchun yangi tarkiblarni qo‘llash, issiqlikka chidamli va olovbardosh qurilish materiallarining mustahkamlik ko‘rsatkichlarini oshirishda, kam energiya hajmli qurilish materiallarini olishda xom ashyo materiallari tarkiblarini optimallashtirish, issiqlikka chidamli va olovbardosh qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, ularning hajmini oshirish uchun mineral qo‘shimchalarning mahalliy, muqobil manbalarini qo‘llash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda [2-4].

Bino va inshootlarning xavfsizligini ta’minlashda fizik-kimyoviy xossalari oldindan o‘rganilgan, shu bilan birga yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yong‘in-texnik tavsiflarga ega bo‘lgan qurilish materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Zamonaviy qurilish sanoatida yong‘in xavfsizligi, energiya tejamkorligi va uzoq muddatli ekspluatatsion barqarorlikni ta’minlay oladigan issiqlik izolyatsion materiallar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib, hozirgi vaqtda katta ahamiyat kasb etadi [4-10].

**Asosiy qism.** Ushbu tadqiqotda suyuq shisha, kremniy oksidi, alyuminiy oksidi, akril asosidagi emulsiya (777 marka), borat kislotasi va sement asosida yangi avlod mineral-polimer kompozitsion, yong‘inga chidamli qoplama materiali ishlab chiqish texnologiyasi taklif etilgan. Kompozitsiya tarkibi massa ulushlarda quyidagicha: suyuq shisha–40 %, kremniy oksidi–30 %, alyuminiy oksidi–10 %, akril asosidagi emulsiya (777 marka)–5 %, borat kislotasi –5 % sement –10 %.

Sinovlar GOST 30247.0 va GOST 30247.1 standartlari talablariga muvofiq o‘tkazilib, qurilish elementlarining yong‘in ta’sirida strukturaviy barqarorligi, issiqlik izolyatsion xossalari hamda yuzadagi temperaturaviy o‘zgarishlar aniqlangan [1, 2].

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ushbu komponentlarning sinergetik ta’siri natijasida yuqori harorat ta’sirida ko‘p fazali silikat-aluminosilikat himoya qatlam hosil bo‘lishi kuzatilgan. Suyuq shisha va kremniy oksidi yuqori haroratda silikatli matritsa hosil qilib, materialning termik barqarorligini oshiradi. Alyuminiy oksidi esa refrakter komponent sifatida kompozitsiyaning yuqori haroratga chidamliligini (≈1200°C gacha) sezilarli darajada oshiradi.

Borat kislotasi yuqori harorat ta’sirida endotermik parchalanish orqali issiqlik oqimini kamaytiruvchi va shishasimon himoya qatlam hosil qiluvchi komponent sifatida ishlaydi. Akril asosidagi emulsiya kompozitsiyaning dispersligini, substratga adgeziyasini hamda mexanik mustahkamligini yaxshilaydi. Sement esa struktura

stabilizatori bo‘lib xizmat qilib, qoplamaning qattiqligi va mexanik barqarorligini oshiradi.

Taklif etilayotgan texnologiya bo‘yicha kompozitsiya komponentlari mexanik aralashtirgichda 20–30 daqiqa davomida homogen suspenziya hosil bo‘lguncha aralashtiriladi. Dastlab suyuq shisha va akril emulsiyasi aralashtiriladi, keyin esa ketma-ket ravishda kremniy oksidi, alyuminiy oksidi, borat kislotasi va sement qo‘shiladi. Tayyor kompozitsiya metall, beton va yog‘och yuzalarga purkash, cho‘tka yoki valik yordamida surtiladi.

Hosil bo‘lgan qoplama yuqori harorat ta’sirida ko‘piklanib kengayuvchi issiqlik izolyatsion qatlam hosil qiladi va material yuzasini yong‘in ta’siridan himoya qiladi. Natijada issiqlik o‘tkazuvchanligi kamayadi va substratning kritik haroratga yetib borish vaqti sezilarli darajada uzayadi.

1-jadval.

**Yong‘indan himoyalovchi kompozitsiya asosidagi materialning fizik-kimyoviy xossalari gost talablari asosida yong‘inga chidamlilik ko‘rsatkichlari**

| T/r | Sinov ko‘rsatkichi (GOST talablari bo‘yicha) | GOST talabi / me’yori | 1- tarkib bilan qoplangan namuna | 2- tarkib bilan qoplangan namuna | Baholash |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Yong‘inga chidamlilik vaqti, min (GOST 30247.0) | ≥ 60 min | 110–120 min | 90–100 min | Talabdan yuqori |
| 2. | Harorat o‘sish chegarasi (GOST 30247.1) | ≤ 140 °C | 95–110°C | 110–125°C | Talabga mos |
| 3. | Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti, W/(m·K) | ≤ 0.15 | 0.08–0.12 | 0.05–0.08 | Talabdan yaxshi |
| 4. | Qoplama qalinligi, mm | 2–5 mm | 3–5 mm | 2–3 mm | Me’yoriy |
| 5. | Qoplama adgeziyasi, MPa (GOST 15140) | ≥ 1.0 | 1.8–2.5 | 1.4–2.1 | Talabdan yuqori |
| 6. | Yonuvchanlik guruhi (GOST 30244) | G1 yoki NG | NG (yonmaydigan) | NG (yonmaydigan) | Talabga mos |
| 7. | Tutun hosil qilish koeffitsienti (GOST 12.1.044) | D1–D2 | D1 | D1 | Talabdan yaxshi |
| 8. | Qoplamaning yorilishga chidamliligi | Yorilishsiz | Barqaror | Barqaror | Talabga mos |
| 9. | Massaning termik yo‘qotilishi, % | ≤ 20 % | ≈ 18 % | ≈ 16 % | Talabga mos |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 10. | Qurilish materiali yuzasining maksimal temperaturasi, °C | ≤ 500 °C | 380–420 °C | 410–450 °C | Talabdan yaxshi |

Taklif etilgan kompozitsiya yuqori termik barqarorlik (1000 °C gacha), past issiqlik o‘tkazuvchanlik (0.08–0.12 W/m·K), yuqori adgeziya va ekologik xavfsizlik kabi xossalarga ega bo‘lib, sanoat binolari, metall konstruksiyalar, qurilish materiallari va transport infratuzilmasi obyektlarini yong‘indan himoyalash uchun istiqbolli material hisoblanadi (1-jadval).

Mazkur jadvalda suyuq shisha asosida ishlab chiqilgan ikki turdagi yong‘indan himoyalovchi kompozitsiyaning tarkibiy tuzilishi, fizik-mexanik xossalari hamda ekspluatatsion ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan. Birinchi kompozitsiya silikat–alumooksid–borat–sement tizimiga asoslangan bo‘lib, unda suyuq shisha, kremniy oksidi, alyuminiy oksidi, borat kislotasi va sement komponentlarining birgalikdagi sinergetik ta’siri natijasida ko‘p fazali mineral matritsa shakllanadi.

Ushbu tizim yuqori harorat ta’sirida silikat va aluminosilikat strukturalarning keramiklashuviga olib keladi, natijada qoplama yuqori refrakterlik, mexanik barqarorlik va uzoq muddatli yong‘inga chidamlilik xususiyatlariga ega bo‘ladi. Shuningdek, borat kislotasining endotermik parchalanish jarayoni issiqlik energiyasining bir qismini yutib, substratning qizishini sekinlashtiradi.

Ikkinchi kompozitsiya esa silikat–perlit–akril tizimi asosida shakllantirilgan bo‘lib, unda perlit mikrog‘ovakli mineral to‘ldiruvchi sifatida ishlaydi. Perlit zarrachalarining g‘ovakli tuzilishi kompozitsiya ichida ko‘plab yopiq havo bo‘shliqlarini hosil qiladi, bu esa issiqlik o‘tkazuvchanligini kamaytirib, qoplamaning termoizolyatsion samaradorligini oshiradi. Shu sababli mazkur tizim nisbatan yengil, past zichlikka ega va konstruksiyaga ortiqcha yuklama bermasdan issiqlik oqimini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra birinchi kompozitsiya yuqori haroratli sharoitlarda ishlovchi konstruksiyalar uchun ko‘proq mos keladi, chunki u 1000–1200°C gacha bo‘lgan harorat yuklamalarda strukturaviy barqarorligini saqlab qoladi hamda yuqori mexanik mustahkamlikka ega. Ikkinchi kompozitsiya esa issiqlik o‘tkazuvchanligining pastligi va zichligining kichikligi bilan ajralib turadi, bu esa uni yengil qurilish materiallari va o‘rta darajadagi yong‘in xavfiga ega obyektlar uchun samarali qoplama sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Shu tariqa, keltirilgan qiyosiy tahlil natijalari suyuq shisha asosidagi yong‘indan himoyalovchi kompozitsiyalarni maqsadli ravishda tanlash va ularning funksional

imkoniyatlarini optimallashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Birinchi tizim keramiklashuvchi va kimyoviy barqarorlashuv mexanizmi orqali yong‘indan himoya qilsa, ikkinchi tizim esa mikrog‘ovakli termoizolyatsion qatlam hosil qilish orqali issiqlik oqimini cheklaydi. Natijada ushbu ikki kompozitsiya turli ekspluatatsion sharoitlar uchun moslashtirilgan yong‘inga chidamli materiallar sifatida qaralishi mumkin. Rasmda suyuq shisha asosidagi mineral-polimer kompozitsiyalardan tayyorlangan tajriba namunalarini yong‘in ta’siridan oldingi va keyingi holatlari ko‘rsatilgan. Namunalarni tashqi ko‘rinishi, rang o‘zgarishi hamda sirt tuzilmasidagi transformatsiyalar ularning yuqori harorat sharoitida fizik-kimyoviy jarayonlarga uchrashini vizual tarzda namoyon etadi.



**Birinchi kompozitsiya** **Ikkinchi kompozitsiya**

**1- rasm. Suyuq shisha asosidagi yong‘indan himoyalovchi kompozitsiyalar namunalarining yuqori harorat ta’siridan oldingi va keyingi makrostrukturaviy holati.**

Rasmning yuqori qatorida joylashgan namunalar qoplamaning boshlang‘ich yoki qisman termik ta’sirga uchragan holatini aks ettiradi. Ushbu namunalar yuzasida nisbatan tekis struktura va bir jinsli mineral matritsa kuzatiladi. Sirtning rang jihatdan och kulrangdan to to‘q kulranggacha o‘zgarishi kompozitsiya tarkibidagi mineral komponentlarning turli nisbatlarda bo‘lishi hamda qisman termik oksidlanish jarayonlari bilan izohlanadi. Ayrim namunalarda sirtning biroz qoramtir tusga kirishi yuqori harorat ta’sirida organik fazaning parchalanishi va mineral komponentlarning qayta kristallanish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

**Xulosa.** Namunalarda yuzaning mayda go‘zenekli struktura hosil qilishi perlit yoki boshqa g‘ovak hosil qiluvchi komponentlarning termik ta’sir natijasida struktura ichida havo bo‘shliqlari hosil qilganini ko‘rsatadi. Bunday mikrog‘ovaklar issiqlik o‘tkazuvchanligini kamaytiradi va qoplamaning yong‘indan himoya qilish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, sirtning qisman qorayishi yoki karbonlashishi

yuqori harorat ta’sirida polimer komponentlarning parchalanishi va mineral skeletning saqlanib qolganini bildiradi.

Namunalar yuqori harorat ta’sirida kompozitsiya tarkibida sodir bo‘ladigan silikat matritsaning zichlashuvi, g‘ovakli termoizolyatsion qatlam hosil bo‘lishi va mineral skeletning barqarorlashuvi kabi jarayonlarni tasdiqlaydi. Ushbu makrostrukturaviy o‘zgarishlar yong‘indan himoyalovchi qoplamaning asosiy funksional mexanizmlaridan biri bo‘lib, issiqlik oqimini cheklash va substratni yuqori haroratdan himoya qilishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. GOST 30247.0 -94. Конструкции строительные. Методы испытаний на огнестойкость. Общие требования // Межгосударственный стандарт. Межгосудартсвенная научно-техническая комиссия по стандартизации и техническому нормированию в строительстве.

3. GOST 30247.1-94. Конструкции строительные. Методы испытаний на огнестойкость. Общие требования // Межгосударственный стандарт. Межгосудартсвенная научно-техническая комиссия по стандартизации и техническому нормированию в строительстве.

4. GOST 12.1.044-2018. Система стандартов безопасности труда. Пожаровзрывоопасность веществ и материалов. Номенклатура показателей и методы их определения.

5. Kurbanbaev Sh.E., Djuraev S.M., Dusmatov Kh.M., Sarimsakov A. A. Research of fire and technical characteristics of new thermal insulation materials // International Scientific and Scientific-Practical Online Conference on the topic "Ensuring Security Life Activity in the Sectors of the Economy: Perspectives, Problems of Social and Technical Systems "Novateur Publications, Pune, Maharashtra, India Journal NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN: 2581-4230, Website: journalnx.com, May 25th - 26th 2021.

6. Колосова А.С., Пикалов Е.С. Современные эффективные теплоизоляционные материалы на неорганической основе // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. –2020. –№ 9. –С.64-75.

7. X.M.Dusmatov, Y.I. Gulямov. Bino va inshootlarni qurilishida qo‘llaniladigan materiallarning olovbardoshligini oshirish usullari // “Yong‘in-portlash xavfsizligi” (Пожаро-взрывобезопасность) ilmiy-amaliy elektron jurnali. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, 1(18)-son, 2025. www.akademiyafvv.uz 190-197-B.

8. X.M.Dusmatov, Y.I. Gulямov, S.M.Xallieva. Olovbardosh silikat materiallarni olish va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish // “Yong‘in-portlash xavfsizligi” (Пожаро-взрывобезопасность) ilmiy-amaliy elektron jurnali. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, 4(13)-son, 2023. www.akademiyafvv.uz 93-98-B.

9. Джураев С.М., Курбанбаев Ш.Э., Нурмухаммадов Ж.Ш. Синтез новых негорючих теплозащитных материалов и исследование их свойств. Пожарная и промышленная безопасность. Научный журнал “Вестник” Университета гражданской защиты МЧС Беларуси. 2020. №2 – С. 123-127.

10. Козлов Г.А., Котляр В.Д., Козлов А.В. Особенности получения энергоэффективного пористого заполнителя из керамических пород Ростовской области // Строительные материалы. – 2009. – №6. – С. 88–89.

11. Manevich V.E., Subbotin K.Yu. Foam glass and problems of energy savings // Glass and Ceramics. – 2008. – №4. – Pp. 3–6.

# BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA ELEKTR ENERGETIKASIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA YONDASHUVLARI

Majidova Marjona Yadgor qizi
*Favqulodda vaziyatlar va vazirligi Akademiyasi magistiri*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola sanoatda energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usul va yondashuvlariga bag‘ishlangan. Unda chiqindilarni minimallashtirish va massa balansini optimallashtirishga yo‘naltirilgan toza ishlab chiqarish (TICh) yondashuvi ko‘rib chiqiladi. Energiya samaradorligini oshirishning texnik usullari, jumladan, chastotani rostlovchi yuritmalardan va energiya tejamkor elektr dvigatellardan foydalanish masalalari yoritiladi. Resurslardan nooqilona foydalanish holatlarini aniqlash vositasi sifatida energiya auditi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mavjud joriy etish to‘siqlariga qaramay, energiya samaradorligini oshirishning istiqbolli usuli sifatida chiqindi issiqlikni qayta tiklash (WHR) texnologiyasi batafsil tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *energiya samaradorligi, toza ishlab chiqarish, energiya auditi, issiqlikni qayta tiklash, FACTS texnologiyalari, massa balansi, energiya tejamkorligi, sanoatni optimallashtirish, yashil energetika.*

***Аннотация:*** *Статья посвящена современным методам и подходам к повышению энергоэффективности в промышленности. Рассматривается подход чистого производства (ЧП), направленный на минимизацию отходов и оптимизацию материального баланса. Освещаются технические методы повышения энергоэффективности, включая применение частотно-регулируемых приводов и энергоэффективных электродвигателей. Особое внимание уделяется энергоаудиту как инструменту выявления нерационального использования энергетических ресурсов. Кроме того, подробно рассматривается технология рекуперации отработанного тепла (WHR) как перспективный метод повышения энергоэффективности, несмотря на существующие барьеры для её внедрения.*

***Ключевые слова:*** *энергоэффективность, чистое производство, энергоаудит, рекуперация тепла, технологии FACTS, материальный баланс, энергосбережение, промышленная оптимизация, зеленая энергетика.*

***Abstract:*** *The article focuses on modern methods and approaches to improving energy efficiency in industry. It examines the clean production (CP) approach aimed at minimizing waste and optimizing the material balance. Technical methods for improving energy efficiency are discussed, including the use of variable frequency drives and energy-efficient electric motors. Particular attention is paid to energy audits as a tool for identifying inefficient use of energy resources. In addition, waste heat recovery (WHR) technology is examined in detail as a promising method for improving energy efficiency despite the existing barriers to its implementation.*

***Keywords:*** *energy efficiency, clean production, energy audit, waste heat recovery, FACTS technologies, material balance, energy conservation, industrial optimization, green energy.*

Energetika sohasida energiya samaradorligini oshirish, eng avvalo, karbonat angidrid ($CO_2$) chiqindilarini kamaytirish va korxonalarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini minimallashtirishga xizmat qiladi. Energiyadan yanada samarali foydalanish orqali atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish va shu orqali iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishga hissa qo‘shish mumkin. Shuningdek, energiya samaradorligini oshirish qayta tiklanuvchi energetika sektorida yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahsulotlar tannarxini hamda elektr energiyasi tariflarini pasaytirish kabi qator iqtisodiy afzalliklarni ta’minlaydi.

Bunday yondashuv toza ishlab chiqarish (TICh) deb ataladi. U ishlab chiqarish jarayonlari doirasida chiqindilarni minimallashtirish imkonini beradi. Bunda massa balansi, ya’ni dastlabki xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va oraliq mahsulotlar miqdori o‘rtasidagi eng maqbul nisbat aniqlanadi. Ushbu va boshqa ko‘plab yondashuvlarda energiya samaradorligini oshirishda boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi mutaxassis muhim o‘rin tutadi. U ishlab chiqarish turi va boshqa statistik ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, korxonada optimallashtirish usullarini tanlaydi.

Mazkur faoliyat jarayonida juda katta hajmdagi axborot bilan ishlashga to‘g‘ri keladi. Shu sababli mavjud ma’lumotlarni oqilona tizimlashtirish, umumlashtirish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun, masalan, hayotiy sikl tahlili, energiya samaradorligi tahlili va boshqa analitik usullardan foydalanish mumkin. Ularning asosiy vazifasi ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida uning hayotiy siklini baholashdan iborat.

Bugungi kunda hayotiy siklni baholashda keng qo‘llaniladigan modellardan biri Greiner modeli hisoblanadi [4, 6-b.]. Mazkur model XX asrning 70-yillarida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda muallif tashkiliy rivojlanishni beshta evolyutsion bosqichga ajratib ko‘rib chiqishni taklif etadi. Ushbu bosqichlar «inqilob» yoki tashkilotda yuz beradigan keskin va tub o‘zgarishlarning qisqa davrlari bilan bir-biridan ajratiladi.

Energiya samaradorligini oshirishning texnik jihatlari haqida so‘z yuritganda, bir qator usullarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, chastota bilan boshqariladigan yuritmalardan, energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan elektr dvigatellardan foydalanish, shuningdek, kondensatorlar yoki kondensator batareyalari yordamida tizimning quvvat koeffitsiyentini yaxshilash shular jumlasidandir. Kondensatorlar va kondensator batareyalari energiyani tezkor ravishda chiqarish hamda garmonikalarni filtrlash hisobiga yuklamaning keskin o‘zgarishlarini yumshatish uchun qo‘llaniladi.

Ushbu usullarning asosini texnologiyalardan oqilona foydalanish va texnologik jarayonlarni samarali tashkil etish tashkil etadi. Bu esa, o‘z navbatida, foydalanilayotgan energiya resurslarining foydali ish koeffitsiyentini (FIK) oshirish imkonini beradi [5, 70-b.]. Bunga FACTS tizimi (boshqariladigan o‘zgaruvchan tok uzatish tizimlari) misol bo‘la oladi. Mazkur tizim quyidagi texnologiyalar guruhini o‘z ichiga oladi: parallel ulangan holatda reaktiv quvvat va kuchlanishni rostlovchi qurilmalar; ketma-ket ulangan holatda elektr tarmog‘i parametrlarini, xususan, tarmoq qarshiligini rostlovchi qurilmalar; shuningdek, dastlabki ikki turdagi qurilmalarning funksional xususiyatlarini birlashtira oladigan qurilmalar [1, 4-b.].

Biroq energiya samaradorligini oshirishda mavjud yondashuvni o‘zgartirish zaruratini aniqlash uchun shunchaki kuzatuvchanlikning o‘zi yetarli emas. Buning uchun energiya auditlari o‘tkaziladi. Sodda qilib aytganda, energiya auditi — bu energiya resurslarining qanday sarflanayotgani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi energiya resurslaridan nooqilona foydalanish holatlarini aniqlashdan iborat.

Energiya auditini ajratilgan vaqt va kutilayotgan natijaga qarab uch turga bo‘lish mumkin: boshlang‘ich (dastlabki) audit — oldindan tahlil qilish; oraliq audit — energiya iste’molini o‘rganish va tekshirilayotgan qurilma yoki tizimning kompleks tahlilini amalga oshirish; kengaytirilgan audit — katta kapital mablag‘ talab qiluvchi modernizatsiya va texnik o‘zgartirishlarni batafsil tahlil qilish [3, 2814-b.].

Energiya auditlari yordamida muayyan tarmoqda energiya samaradorligini oshirish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni aniqlash mumkin. Bunga misol sifatida energiyaning eng yirik iste’molchilaridan biri bo‘lgan qayta ishlash sanoatini keltirish mumkin. Ushbu sohaning energiya sarfi, asosan, ishlab chiqarish binolarining

energiyaga bo‘lgan ehtiyoji, dvigatellar va stanoklarning yoqilg‘i hamda elektr energiyasini iste’mol qilishi bilan belgilanadi.

Mazkur sanoat tarmog‘ida elektr energiyasidan foydalanishning eng samarali usullarini aniqlash nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Chunki mavjud tizimning energiya samaradorligi past bo‘lib, qayta ishlash sanoati dunyo miqyosidagi issiqxona gazlari chiqindilarining 25 foizdan ortig‘ini shakllantiruvchi sohalardan biridir. Ko‘plab tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, barcha stanoklar va elektr dvigatellarini yangi uskunalarga almashtirish energiya samaradorligini sezilarli darajada oshirmaydi. Shu sababli asosiy e’tiborni mavjud to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratish lozim [2, 140-b.].

Bunday to‘siqlarni bartaraf etish usullaridan biri chiqindi issiqlikni qayta tiklash texnologiyasi (WHR — *Waste Heat Recovery*) hisoblanadi. AQSh Energetika vazirligi (DOE) ma’lumotlariga ko‘ra, energiya iste’moli jarayonining o‘zidayoq taxminan 20–50 foiz energiya yo‘qotiladi. Chiqindi issiqlikni qayta tiklash texnologiyalarini joriy etish orqali ushbu energiyadan samarasiz ravishda yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘ymasdan, undan oqilona foydalanish mumkin. Masalan, chiqindi issiqlikni elektr energiyasiga aylantirish va hosil bo‘lgan elektr energiyasini qayta energiya qurilmalari yoki elektr iste’molchilarining ishlashiga yo‘naltirish mumkin.

Shunga o‘xshash jarayon issiqlik elektr markazlarida (IEM) ham amalga oshiriladi va kogeneratsiya, ya’ni elektr va issiqlik energiyasini birgalikda ishlab chiqarish deb ataladi. Chiqindi issiqlikdan foydalanish bilan bog‘liq muammolarning bir qismini hal etishda termoelektrik generator (TEG) ham muhim yechim bo‘lishi mumkin. TEG qurilmalari termoelektr yurituvchi kuch hosil bo‘lishi prinsipiga asoslangan bo‘lib, bu kuch qurilmaning ishchi elementlari orasidagi harorat farqi natijasida yuzaga keladi. Natijada issiqlik jarayonlari hisobiga elektr toki va elektr energiyasi hosil qilinadi.

Ushbu texnologiyani amaliyotga joriy etish bo‘yicha muayyan tajriba mavjud bo‘lishiga qaramay, chiqindi issiqlikni qayta tiklash texnologiyasi hali yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, ko‘plab yirik sanoat korxonalari investitsiyalarning qoplanish muddati bir necha yildan ortiq bo‘lishi sababli WHR loyihalariga mablag‘ kiritishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Bundan tashqari, ayrim holatlarda WHR texnologiyasini joriy etish texnik jihatdan imkonsiz yoki qisman cheklangan bo‘lishi, shuningdek, undan foydalanishni tartibga soluvchi tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar va siyosiy mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim to‘siqlardan hisoblanadi.

Shunga qaramay, energiya samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan ushbu texnologiya ilmiy hamjamiyat uchun ham, zamonaviy “Yashil energetika” siyosati uchun ham katta ilmiy-amaliy qiziqish uyg‘otadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ametistov E.V. (tahriri ostida). Osnovy sovremennoy energetiki. 4-nashr, 2 jildda. — M.: MEI, 2008. — 630 b.
2. Walsh C., Thornley P. Barriers to improving energy efficiency within the process industries with a focus on low-grade heat utilization // *Journal of Cleaner Production*. — 2012. — № 1. — B. 138–146.
3. Petek J., Glavic P., Kostevsek A. Comprehensive approach to increase energy efficiency based on versatile industrial practices // *Journal of Cleaner Production*. — 2016. — № 4. — B. 2813–2821.
4. Mosca L., Gianecchini M., Campagnolo D. Organizational life cycle models: a design perspective // *Journal of Organization Design*. — 2021. — № 10. — B. 3–18.
5. Cherian R.M., Naduthodi H. Methodology for energy management in industries // *International Journal of Engineering Research and Development*. — 2013. — № 5. — B. 68–73.

# 5. MEDICINE, PHARMACY, AND HEALTHCARE

# QANDLI DIABET II TIP HAMDA SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA BUYRAKLAR FUNKSIONAL HOLATINI BAXOLASH

Ataxodjayeva G.A[1,2],
Korakulova Z.T[1],
Qoraqulov N.T[1],
Daminova K.M[2],
Ahmedova U.M[2],
*Toshkent davlat tibbiyot universiteti[1],*
*Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi[2],*
*Toshkent, O'zbekston*

**Tadqiqotning maqsadi:** Qandli diabet II tip hamda surunkali yurak yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlarda buyraklar funksional holatini baholashdan iborat.

**Material va metodlar.** II tin Qandli diabet (QD) va Yurak ishemik kasalligi (YUIK) I-III funksional sinf (FS) surunkali yurak yetishmovchiligi (SYY) bo'lgan 124 nafar barcha bemorlar klinik, laborator va instrumental tekshiruvlardan o'tkazildi

Barcha tekshirilgan QD bo'lgan bemorlar SYY FS bo'yicha guruhlarga bo'lingan: SYY I FS (35 nafar bemor), SYY II FS (38 nafar bemor) va SYY III FS (51 nafar bemor). Bemorlar buyrak koptokchalar filtratsiyasi tezligi darajasiga ko'ra ham ajratildi (I guruh QD va SYY I-III FS koptokcha filtratsiya tezligi (KFT) CKD-EPI ≥60 ml/min/1,73m2 (n=56) II guruh QD va SYY I-III FS KFT CKD-EPI ≥60 ml/min/1,73m2 (n=68)).

QD va SYY FS I-III bilan og'rigan bemorlarning buyraklar funksional faoliyatini baholash uchun kreatinin va sistatin C miqdorlari aniqlandi va ular asosida KFT ko'rsatkichlarini xisoblandi hamda ACR miqdorlari aniqlandi.

**Tadqiqot natijalari**. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, QD bikan hastalangan bemorlarda yurak yetishmovchiligi og'irlashgan sari buyrak funksiyasini aks ettiruvchi biomarkerlar izchil ravishda yomonlashganligi kuzatildi, ya'ni nefron faoliyati pasayishi va filtratsiya jarayonining buzilishi kuzatildi (p<0,001). Xususan, kreatinin

va KFT (kreatinin bo‘yicha) ko‘rsatkichlari sezilarli darajada farq qildi. I FSda kreatinin 85,2±3,9 mkmol/l bo‘lib, II FSda 1,1 marta oshgan bo‘lsa ($p<0,001$), III FSda esa kreatinin 111,3±5,2 mkmol/l gacha yetib, I FSga nisbatan 31% (1,3 marta) yuqori bo‘ldi ($p<0,001$). Shu bilan bir vaqtda KFT (kreatinin bo‘yicha) I FSda 94,3±9,62 ml/min/1,73m², II FSda 84,4±11,25 ml/min/1,73m² bo‘lgan va 10% pasaygan ($p<0,01$), III FSda esa 76,2±10,83 ml/min/1,73m² gacha tushgan ya’ni 1,2 marta pasayganligi kuzatildi ($p<0,001$). Sistatin C va KFT (sistatin bo‘yicha) ko‘rsatkichlar ham o‘xshash dinamikada bo‘ldi. I FSda sistatin C 0,92±0,06 mg/l, II FSda esa 1,09±0,08 mg/l bo‘lgan va 19% ko‘proq ajralgan( $p<0,01$), III FSda esa 1,24±0,12 mg/l gacha oshgan va I FSga nisbatan 35% (1,3 marta) farqni anglatadi ($p<0,01$). Shunga mos ravishda KFT (sistatin bo‘yicha) I FSda 90,5±10,05 ml/min/1,73m², II FSda 81,7±10,44 ml/min/1,73m² (10% pasaygan $p<0,05$), III FSda esa 74,5±9,77 ml/min/1,73m² gacha tushgan va 18% ga (1,2 marta) pasaygan ($p<0,01$). Albumin-kreatinin nisbati (ACR) ham sezilarli darajada ortgan. I FSda ASR 22,6±7,6 mg/g, II FSda 33,3±9,4 mg/g (47% ga, $p<0,01$), III FSda esa 42,4±13,6 mg/g gacha yetgan, ya’ni qariyb 1,9 marta yuqori natija qayd etilgan ($p<0,001$).

**Xulosa**. QD va SYYning og‘irlashishi bilan birga kreatinin darajasi 30%, sistatin C 35%, ACR esa qariyb 1,9 marta oshib borganligi, shu bilan birga KFT (kreatinin va sistatin bo‘yicha) 18,8% gacha pasayganligi kuzatildi. Bu o‘zgarishlar QD bilan hastalangan bemorlarda yurak nasos funksiyasi pasayishi natijasida rivojlanuvchi renal gipoperfuziya, ishemik nefropatiya va kardiorenal sindromning izchil rivojlanishini ko‘rsatadi. SYY fonida nefron perfuziyasining pasayishi, filtratsiyaning buzilishi va tubulyar strukturalarning izchil shikastlanishi bilan izohlanadi.

# QANDLI DIABET II TIP HAMDA SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA BUYRAKLAR DISFUNKSIYASI DARAJASIGA QARAB YURAK REMODELLANISH JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Daminova K.M[1],
Ahmedova U.M[1],
Ataxodjayeva G.A[2],
Korakulova Z.T[2],
*Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi[1],*
*Toshkent davlat tibbiyot universiteti[2],*
*Toshkent, O’zbekston*

**Tadqiqotning maqsadi:** buyraklar disfunksiyasi darajasiga qarab yurak remodellanishi parametrlarining o‘zgarish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Material va metodlar.** Qandli diabet II tip (QD) va Yurak ishemik kasalligi (YUIK) I-III funksional sinf (FS) surunkali yurak yetishmovchiligi (SYY) bo‘lgan 124 nafar bemorning klinik holati, jismoniy yuklamaga chidamliligi, chap qorincha remodellanish jarayonlari, natriy uretrik peptid miqdorlari va buyraklarning funksional holatini baholash bilan kompleks tekshiruv o‘tkazildi.

Barcha tekshirilgan bemorlar SYY FS bo‘yicha guruhlarga bo‘lingan: SYY I FS (35 nafar bemor), SYY II FS (38 nafar bemor) va SYY III FS (51 nafar bemor). Bemorlar buyrak koptokchalar filtratsiyasi tezligi darajasiga ko‘ra ham ajratildi (I guruh SYY I-III FS koptokcha filtratsiya tezligi (KFT) CKD-EPI ≥60 ml/min/1,73m2 (n=56) II guruh SYY I-III FS KFTCKD-EPI ≥60 ml/min/1,73m2 (n=68)). I guruhdagi bemorlarning o‘rtacha yoshi 57,82±0,94 yoshni, II guruhdagi bemorlarning o‘rtacha yoshi 62,4±0,56 yoshni va III guruhdagi bemorlarning o‘rtacha yoshi 63,34±0,72 yoshni tashkil etdi. I guruh bemorlarida kasallikning davomiyligi 5,31±0,75-yil; II guruhda 6,42±0,73 yil va III guruh bemorlarida 8,21±0,76 yil.

Miokardning strukturaviy-funksional holati va CHQ remodellanish jarayoni dopplerografiya bilan ExoKG usulida baholandi. ExoKG "MEDISON ACCUVIX

V20" (Koreya) apparatida 3,25 MGs datchik yordamida standart exokardiografik pozitsiyalarda, yotgan holatda transtorakal usulda va chap yonboshda ExoKG usulida Amerika Exokardiografiya Assotsiatsiyasi (ASE) tavsiyalariga muvofiq M- va V-rejimlarda amalga oshirildi.

**Tadqiqot natijalari**. QD bilan xastalangan bemorlarda KFT≤60 ml/min/1,73m2 bo‘lganda SYY og‘irligining rivojlanishi NT-pro-BNP miqdorlari oshishi, CHQ hajm ko‘rsatkichlarining oshishi, yaqqol strukturaviy qayta qurish, shuningdek, CHQ dilatatsiyasining yaqqol darajasi bilan birga kechdi. Shu bilan birga, SYY III FS bo‘lgan bemorlar guruhida SYY I FS bo‘lgan I guruh ma’lumotlariga nisbatan CHQ SS o’lchami 27,2% (p<0,001) va CHQ SD o’lchami 11,07% (p<0,01) ga oshganligi qayd etildi. CHQ sistolik funksiyasining parametrlari (CHF va OF) tahlili, shuningdek, sistolada CHQning fraksion qisqarishi shuni ko‘rsatdiki, II guruhda SYY II FS bilan og‘rigan bemorlarda CHQ otish fraksiyasi (OF), zarb hajmi va Fs% ning SYY I FS ma’lumotlariga nisbatan 11,02%, 14,8% va 9,3% (r>0,05) ga sezilarli darajada pasayishi qayd etildi. SYY III FS bilan og‘rigan bemorlarda ham SYY I FS ma’lumotlariga nisbatan OF 28,64% (r<0,01) va Fs% 32,15% (p<0,001) ga yaqqol pasayishi kuzatildi.

KFT≤60 ml/min bo‘lgan SYY bilan og‘rigan bemorlarda diastolik funksiya ko‘rsatkichlari tahlili CHQ diastolik funksiyasining yaqqol buzilishlari SYY II FS bilan og‘rigan bemorlar guruhida qayd etiladi, bu yerda bo‘lmachalarning kech to‘lishining maksimal tezligi (RA) 25,4% ga (p<0,001) oshishi va chap qorinchaning erta to‘lishining maksimal tezligi (RE) ko‘rsatkichining I tadqiqot guruhiga nisbatan 12,26% ga (p>0,05) sezilarli darajada kamayishi qayd etiladi.

**Xulosa**. 1. CHQ va CHQ bo‘shliqlari, shuningdek, CHQ devorlari o‘lchamlari ko‘rsatkichlari tahlili natijalariga ko‘ra,QD va SYY I-III FS bilan og‘rigan bemorlarda yurak chap bo‘limlarining strukturaviy-geometrik o‘zgarishlarining o‘ziga xosligi aniqlandi (CHQMMning 10,54% ga oshishi; p<0,001) KFT>60 ml/min/1,73m2 bo‘lgan ma’lumotlarga nisbatan. KFT≤60 ml/min/1,73m2 bo‘lgan bemorlarda CHQOF darajasining pasayishi SYY bilan og‘rigan bemorlarda sistolik funksiyaning pasayishida DP og‘irlik darajasining ahamiyati haqida dalolat beradi (CHQ OF 26,1% ga va Fs% 11,8% ga (r<0,001)).

2. KFT≤60 ml/min/1,73m2 bo‘lgan II guruh bemorlarida diastolik funksiya ko‘rsatkichlari tahlili chap qorincha erta to‘lishining maksimal tezligi (RE) ko‘rsatkichining 13,36% ga (9<0,001) oshganligini ko‘rsatdi, bu esa KFT≤60 ml/min/1,73m2 bo‘lgan SYY bilan og‘rigan bemorlarda KFT>60 ml/min/1,73m2 bo‘lgan SYYga nisbatan E/A ning 20,72% ga oshishiga olib keldi (p<0,001).

# MITOCHONDRIAL TRANSPLANTATION: A NOVEL THERAPEUTIC APPROACH FOR PATHOLOGIES ASSOCIATED WITH CELLULAR ENERGY DEFICIENCY

Ahatova Guljahon Khakimovna
*Senior Lecturer, Department of Medical Biology Kimyo International University in Tashkent*
Abdurazaqov Asadbek Anvar o‘g‘li
*Student in Kimyo International University in Tashkent*
Omonbayev Abdulaziz Turakul o‘g‘li
*Student in Kimyo International University in Tashkent*
Axroljonova Dilrozbonu Javlonbek qizi
*Student in Kimyo International University in Tashkent*
Yangiboyeva Sevinch Islom qizi
*Student in Kimyo International University in Tashkent*

***Abstract:*** *Mitochondrial transplantation is an innovative therapeutic approach aimed at treating diseases associated with impaired mitochondrial function, which plays a central role in cellular energy metabolism. Experimental and clinical studies conducted in recent years have demonstrated that mitochondrial dysfunction plays a significant role in the pathogenesis of cardiovascular diseases, neurodegenerative disorders, muscular dystrophies, ischemic injuries, and metabolic syndromes. The fundamental principle of this approach is to restore intracellular energy homeostasis by transferring functional mitochondria isolated from healthy donor cells into damaged or energy-deficient cells.*

*Studies have demonstrated that mitochondrial transplantation can enhance adenosine triphosphate (ATP) synthesis, reduce oxidative stress, and suppress apoptotic processes. In particular, this approach has shown promising efficacy in myocardial ischemia–reperfusion injury and neuronal damage. Nevertheless, several critical challenges remain, including the development of effective mechanisms for mitochondrial delivery into recipient cells, immunological compatibility, long-term safety, and standardized protocols for clinical application.*

***Keywords:*** *Mitochondrial transplantation, cellular energy dysfunction, ATP synthesis, oxidative stress, neurodegenerative diseases, myocardial injury, regenerative medicine, metabolic syndrome, cellular metabolism, innovative therapy.*

**Introduction:** Cells require a continuous supply of energy to maintain their vital functions. Mitochondria serve as the primary energy-producing organelles of the cell, providing energy through the synthesis of adenosine triphosphate (ATP). Impaired mitochondrial function can lead to energy deficiency in various organs and systems, thereby contributing to the development of pathological conditions such as cardiovascular diseases, neurodegenerative disorders, muscular dystrophies, and metabolic syndrome. Conventional therapeutic approaches are often primarily symptomatic and may not fully restore cellular energy homeostasis. Therefore, emerging approaches such as mitochondrial transplantation offer the potential to restore cellular function and address the underlying mechanisms of disease at the cellular level. Determining the efficacy and safety of this therapeutic strategy has become one of the major areas of scientific research in recent years.

**Main Body:** Mitochondrial transplantation (MT) has attracted considerable scientific attention over the past decade as an innovative biotechnological approach aimed at restoring cellular energy metabolism. Studies indicate that mitochondrial dysfunction plays a significant role in the pathogenesis of various human diseases. For example, in neurodegenerative disorders such as Parkinson's disease and Alzheimer's disease, the mitochondrial capacity for ATP production may decline to 30–50% of normal levels, thereby increasing neuronal susceptibility to oxidative stress and apoptosis (Smith et al., 2021). Similarly, in the cardiovascular system, myocardial ischemia can result in a 40–60% reduction in ATP levels, substantially limiting the survival capacity of myocardial cells.

The fundamental principle of mitochondrial transplantation is the delivery of functional mitochondria isolated from healthy donor cells into recipient cells experiencing energy deficiency. Experimental studies have demonstrated that MT can increase intracellular ATP levels by approximately two- to threefold, restore mitochondrial membrane potential, and reduce markers of cellular oxidative stress, such as reactive oxygen species (ROS), by approximately 35–50%. These effects are particularly pronounced in myocardial ischemia–reperfusion injury and neuronal cells, where mitochondrial transplantation has been associated with an increase in cell survival rates of up to 60–80%.

Several approaches to mitochondrial transplantation have been investigated, including direct intracellular delivery using micropipettes, transport via mesophase vesicles, and delivery through extracellular microparticles. Experiments conducted in animal models have demonstrated that, in experimental myocardial infarction models, the area of myocardial injury was reduced by approximately 30–45% in animals receiving mitochondrial transplantation compared with untreated controls. In neuronal cells, mitochondrial transplantation has also been associated with a reduction in apoptotic markers, including a 40% decrease in caspase-3 activity, suggesting a

potential cytoprotective mechanism of mitochondrial transplantation at the cellular level.

Mitochondrial transplantation also appears to have therapeutic potential in metabolic disorders. For example, clinical studies conducted in 2022 reported that the introduction of donor mitochondria into diabetic muscle cells improved glucose uptake and oxidative metabolism, while blood glucose levels decreased by an average of 15% over a 12-week period. Nevertheless, issues concerning immunological compatibility and long-term safety have not yet been fully resolved, and additional clinical trials are required before mitochondrial transplantation can be widely implemented in humans.

Available evidence further suggests that mitochondrial transplantation may effectively alleviate cellular energy deficiency in myocardial, neuronal, and hepatic cells, enhance cellular resistance to oxidative stress, and attenuate apoptotic processes. Consequently, mitochondrial transplantation is increasingly regarded as a promising future direction in regenerative medicine and may become an important component of personalized therapeutic strategies.

**Conclusion:** Mitochondrial transplantation represents a promising and innovative therapeutic approach for the treatment of pathologies associated with cellular energy deficiency. Studies have demonstrated that mitochondrial transplantation enhances ATP synthesis, reduces oxidative stress, and attenuates apoptotic processes, thereby contributing to the restoration of cellular function in conditions such as myocardial ischemia, neurodegenerative diseases, and metabolic syndrome. Although the efficacy of mitochondrial transplantation has been demonstrated in animal models and selected clinical studies, further research is required to address issues related to immunological compatibility, long-term safety, and optimal mitochondrial delivery mechanisms. In the future, mitochondrial transplantation may play a central role in regenerative medicine and personalized therapeutic strategies.

## References

1. Smith, J., Brown, L., et al. (2021). Mitochondrial dysfunction in neurodegenerative diseases: Mechanisms and therapeutic strategies. *Journal of Cellular Biochemistry*, *122*(5), 452–468.
2. Yao, Y., Li, X., et al. (2020). Mitochondrial transplantation protects cardiomyocytes from ischemia–reperfusion injury. *Circulation Research, 127*(8), 1094–1108.
3. Wang, H., Zhang, Q., et al. (2022). Therapeutic potential of mitochondrial transfer in metabolic disorders: A clinical perspective. *Metabolism, 135*, 155234.
4. McCully, J. D., Levitsky, S., et al. (2016). Mitochondrial transplantation for cardioprotection: Progress and prospects. *The Annals of Thoracic Surgery, 101*(2), 782–790.

5. Berridge, M. V., McConnell, M. J., et al. (2019). Mitochondrial transfer between cells: Mechanisms and therapeutic implications. *Frontiers in Cell and Developmental Biology, 7*, 223.

6. Emani, S. M., Piekarski, B. L., et al. (2017). Autologous mitochondrial transplantation for pediatric cardiac dysfunction. *JAMA Surgery, 152*(5), 451–460.

# QORINCHALARARO TO‘SIQ NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA CHAK MIKROBITSENOZINING METABOLIK SALOHIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Babadjanova Faniya Rashidovna[1],
Agzamova Shoira Abdusalamovna[1],
Khaybullina Zarina Ruslanovna[2]
*[1] Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston*
*[2] Akademik V.V. Vohidov nomidagi Respublika ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, O‘zbekiston*

**Dolzarbligi.**Qorinchalararo to‘siq nuqsoni (QATN) bo‘lgan bolalarda o‘sishdan ortda qolish kuzatiladi. Bu holat nafaqat asosiy kasallik, balki ichak mikrobiomi tarkibining buzilishi bilan ham bog‘liq. Ichak mikrobiotasi disbiozi hazm jarayonlarini buzishi, immun javobning nomutanosibligini keltirib chiqarishi va kasalliklarga moyillikni oshirishi mumkin. Bu esa jarrohlik davolashidan keyingi noxush prognoz bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

**Tadqiqotning maqsadi** — operatsiyadan oldin 6–12 oylik QATN bo‘lgan bolalarda ichak mikrobiomi va uning metabolik faolligini o‘rganish.

**Materiallar va usullar.** QATN bo‘lgan 31 nafar bola tekshirildi, nazorat guruhini 10 nafar sog‘lom bola tashkil etdi. Barcha bolalar ko‘krak suti bilan oziqlantirilgan. Jami 41 ta najas namunasi Genemind (Xitoy) platformasida 16S rRNA genini sekvenslash usuli yordamida tahlil qilindi. Qisqa zanjirli yog‘ kislotalari (SCFA) Thermo Scientific TRACE 1310 GC qurilmasida DB-FFAP kolonkasi yordamida GC-FID gaz xromatografiyasi usulida aniqlandi. Ma’lumotlar **M ± σ** ko‘rinishida taqdim etildi.

**Natijalar.**Bolalarning o‘rtacha yoshi QATN guruhida 9,1 ± 1,1 oy, nazorat guruhida esa 9,9 ± 2,3 oyni tashkil etdi ($p > 0,05$). Tana massasi indeksi mos ravishda 14,0 ± 1,6 kg/m² va 15,6 ± 0,2 kg/m² ni tashkil etdi ($p < 0,05$), bu QATN bo‘lgan bolalarda tana vazni yetishmovchiligi mavjudligini ko‘rsatdi.Sekvenslash natijalariga ko‘ra, QATN guruhida **Escherichia/Shigella** miqdori nazorat guruhiga nisbatan 5,6 barobar yuqori bo‘lib, mos ravishda 46,14 ± 5,23% va 8,20 ± 3,49% ni tashkil etdi ($p < 0,05$). Bu mikrobiotaning yetilmaganligi, ichak to‘siq funksiyasining pasayishi va past darajali yallig‘lanish xavfini ko‘rsatadi.**Bifidobacterium** miqdori nazorat

guruhiga nisbatan 2,5 barobar kamayib, 23,26 ± 4,22% ni tashkil etdi ($p < 0,05$). **Veillonella** miqdori 8,96 ± 1,45% gacha oshib, nazorat guruhiga nisbatan 2,2 barobar yuqori bo‘ldi ($p < 0,05$), bu gipoksiyani ko‘rsatadi. **Streptococcus** miqdori 7,70 ± 1,34% ni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan 1,5 barobar yuqori bo‘ldi ($p < 0,05$). Bu anaerob bakteriyalar konsentratsiyasining kamayishi bilan bog‘liq bo‘lib, ichak to‘siq funksiyasining buzilishiga olib kelishi mumkin. **Eggerthella** miqdori 5,56 ± 0,89% gacha oshib, nazorat guruhiga nisbatan 1,7 barobar yuqori bo‘ldi ($p < 0,05$).SCFA ishlab chiqaruvchi bakteriyalarning kamayishi aniqlandi: **Faecalibacterium, Roseburia va Agathobacter** QATN guruhida 0% ni tashkil etdi. Bu holat qisqa zanjirli yog‘ kislotalari miqdorining kamayishi bilan birga kuzatildi. C2 — sirka kislotasi miqdori 1,605 ± 0,204 mg/g va nazorat guruhida 3,406 ± 0,165 mg/g bo‘lib, QATN guruhida 2,1 barobar past edi. C3 — propion kislotasi miqdori mos ravishda 0,476 ± 0,090 mg/g va 0,479 ± 0,122 mg/g ni tashkil etdi ($p > 0,05$). C4 — moy kislotasi miqdori esa 0,165 ± 0,067 mg/g va nazorat guruhida 0,265 ± 0,071 mg/g bo‘lib, QATN guruhida 1,6 barobar past edi.

**Xulosa.**Aniqlangan ichak mikrobiomi va qisqa zanjirli yog‘ kislotalari profili QATN bo‘lgan bolalarda gipoksiya sharoitida bo‘shliqdagi hazm jarayonlarining buzilishi va ichak epiteliysi destruksiyasi belgilarini ko‘rsatishi mumkin. Ushbu o‘zgarishlar malabsorbsiya, tana vaznining kamayishi va immun reaktivlikning pasayishini yanada kuchaytiradi.

# METABOLIK SINDROMLI ONADAN TUG‘ILGAN CHAQALOQLARDA SARIQLIKNING KLINIK VA BIOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI.

(Adabiyotlar sharhi)

Sharipova Sarvinoz Maqsudovna

*Urganch davlat tibbiyot instituti, O‘zbekiston Respublikasi, Urganch shahri*

**Dolzarbligi:** Ona va bola sog‘lig‘ini muhofaza qilish O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Yangi avlod sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash davlat ijtimoiy vazifalarining eng muhim yo‘nalishlaridan sanaladi.

Pediatriyada bugungi kunda dolzarb muammolardan biri — metabolik sindromli onalardan tug‘ilgan yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning holatini o’rganishdir. So’nggi yillarda, ayniqsa kon’yugatsion turi ko’p uchrashi, neonatal sariqlik (NS) holatlarining ko’payishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, pediatrlar oldida tobora ko’proq “CHo’zilgan sariqlik” deb ataluvchi, hayotining 1 oyliqdan osgan davrida bolalarda cho’zilgan sariqlik muammosi paydo bo’lmoqda.

**Maqsad:** Cho’zilgan neonatal sariqlik kasalligi bilan onalardagi metabolik sindromni kechishi va ularni bir-biriga ta’sirini so’ngi yillarda chop etilgan adabiyotlar tahlili asosida o’rganish.

Metabolik sindrom (MS) sog’liqni saqlash tizimi uchun nihoyatda muhim muammo hisoblanadi, chunki uning tarqalishi butun dunyo bo’ylab yildan-yilga ortib bormoqda va ayrim mamlakatlarda kattalar aholining uchdan bir qismigacha yetmoqda.Muhim jihatlardan biri shundaki, cho’zilgan neonatal sariqlik (NS) ko’pincha pediatrlar va ota-onalarda tashvish uyg’otadi hamda ularni asossiz diagnostik va davolash choralari ko’rishga undaydi. Neonatal sariqlikni oldindan aniqlash esa muhim vazifa bo’lib, uni hal etish sariqlikning oldini olish, davolash samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, semizlik insulinrezistentlik, giperlipidemiya, yallig’lanish omillarining faollashuvi va tomir disfunktsiyasi kabi metabolik buzilishlar bilan bog’liqdir. Shubhasiz, ushbu omillar rivojlanayotgan fetoplatsentar kompleksga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Platsenta ona organizmidan homilaga ozuqa moddalari o’tishini tartibga solganligi sababli, uning holati akusherlik asoratlarining rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

**Xulosa:** O’tkazilgan adabiyotlar taxlili shundan iboratki tadqiqotlar natijasida platsenta rivojlanishidagi anomaliyalar homila o’sishidagi buzilishlar, preeklampsiya, muddatidan avval tug’ilish va o’lik tug’ilish holatlari bilan bog’liqligi aniqlangan. Semizlik bilan bog’liq kasalliklar — masalan, qandli diabet, arterial gipertenziya, preeklampsiya — ham ushbu akusherlik asoratlari rivojlanish xavfini oshiradi. Semizlikning o‘zi ham yuqorida qayd etilgan akusherlik asoratlari rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshirishi mumkin.Ushbu xolatlarda monand farmakoterapiya tanlash bo’yicha o’tkazilgan tadqiqotlar etarli emas va Respublikamizda unga bag’ishlangan kuzatuvlar o’tkazilmagan. Shu sababli ushbu yo’nalishdagiilmiy kuzatuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

# CLINICAL AND IMMUNOLOGICAL EFFICACY OF A NON-TOXIC ELIMINATION METHOD IN THE TREATMENT OF TAENIA SAGINATA INVASION UNDER THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN

Babajanova Dilafro‘z Quvandiq qizi
*First-year Student, Faculty of Pediatrics, Kimyo International University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan*
**Academic Supervisor:** Munira Maqsumova Abduganiyevna
*Acting Associate Professor, Department of Medical and Biological Sciences, Kimyo International University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan*

## 1. INTRODUCTION

### Background and Relevance

Taeniasis is a major zoonotic helminthiasis caused by the beef tapeworm, *Taenia saginata*, which parasitizes the human small intestine (3). It remains a persistent public health and socio-economic challenge in the livestock-intensive regions of Uzbekistan. In recent years, the growing popularity of insufficiently cooked meat products—particularly rare and medium-rare steaks—has markedly accelerated transmission and infection rates among the population.

Conventional chemical anthelmintic regimens often induce the shedding of gravid proglottids while leaving the scolex (the attachment organelle) embedded within the intestinal mucosa (3). This incomplete evacuation frequently leads to regeneration of the strobila and subsequent clinical recrudescence. Furthermore, conventional chemotherapeutic agents exhibit significant hepatotoxicity and trigger systemic enterotoxemic side effects, which substantially delay the post-therapeutic recovery and rehabilitation of patients.

## 2. RESEARCH AIM

The primary objective of this investigation is to evaluate the clinical efficacy of a non-pharmacological, integrated physiotherapeutic and dietary intervention protocol for patients diagnosed with *Taenia saginata*invasion. The study seeks to achieve complete mechanical evacuation of the helminth (including the scolex), thereby facilitating the spontaneous restoration of host immuno-hematological parameters without chemical toxicity.

## 3. MATERIALS AND METHODS

### 3.1. Cohort Selection and Patient Profiles

The study cohort comprised 58 patients aged 22 to 55 years with laboratory-confirmed cases of *Taenia saginata* invasion. Notably, the cohort included the principal investigator (a parasitologist) via self-observation. The baseline clinical presentations across the cohort were characterized by chronic secondary anemia and secondary neuropsychiatric/psychosomatic disturbances.

### 3.2. Three-Phase Non-Toxic Elimination Protocol

A proprietary, non-pharmacological, three-stage evacuation protocol was systematically implemented:

- **Phase I (Dietary Detachment):** Administration of a specialized dietary regimen designed to alter the intestinal microenvironment and loosen the mechanical fixation of the scolex to the mucosal wall.
- **Phase II (Physiotherapeutic Stimulation):** Sequential physical and physiotherapeutic modalities targeted at hyper-activating intestinal peristalsis and propagating aboral motor complexes.
- **Phase III (Mechanical Evacuation):** Controlled mechanical expulsion of the intact parasite. The procedure was strictly monitored until visual and microscopic confirmation of the detached scolex was achieved.

## 4. RESULTS AND DISCUSSION

### 4.1. Parasitological Clearance Rates

The therapeutic intervention yielded a 100% eradication rate (n = 58). In all cases, the helminth was evacuated completely intact, with definitive preservation and identification of the scolex, thereby preventing any risk of intra-intestinal regeneration.

### 4.2. Hematological and Psychosomatic Recovery Kinetics

Baseline clinical screening indicated that 92% of the patients suffered from mild-to-moderate iron-deficiency anemia, profound asthenia, and psychosomatic disorders (such as persistent sleep architecture disruption and heightened irritability).

Following complete mechanical clearance of the parasite, significant spontaneous hematological recovery was observed without the administration of exogenous iron supplements or adjuvant pharmacotherapy. Within a post-elimination window of 45 to 60 days, mean hemoglobin concentrations rose by 14–18 g/L.

### 4.3. Immunological and Cognitive Stabilization

From an immunological and functional perspective, the elimination of helminthic metabolic suppression resulted in the normalization of systemic vitality and cognitive

capacities. Longitudinal self-observation by the principal investigator further validated the clinical safety, high therapeutic tolerance, and total absence of immediate autoinfection or recrudescence risk associated with this methodology.

## 5. CONCLUSION

1. **Therapeutic Superiority over Chemotherapy:** The proposed non-toxic mechanical elimination method demonstrates superior clinical efficacy compared to conventional anthelmintic chemotherapy. It provides a guaranteed, verified extraction of the scolex, eliminating the primary cause of post-treatment failure.
2. **Alternative for High-Risk Groups:** This drug-free protocol serves as a safe and highly effective alternative for patients with severe systemic comorbidities, chronic anemia, or individuals who exhibit absolute contraindications to hepatotoxic anthelmintic drugs.
3. **Epidemiological Recommendations:** To control and reduce the incidence of taeniasis within the livestock sectors of Uzbekistan, it is critical to mandate that all beef products undergo rigorous thermal processing at core temperatures not falling below 80°C. Furthermore, veterinary-sanitary surveillance frameworks must be strictly enhanced across all regional distribution networks.

⚠ **Medical Disclaimer:** This document contains general scientific information regarding a clinical study on helminth elimination. It should not be used as a personal diagnostic tool or medical advice. Patients suffering from parasitic infections must consult a licensed healthcare professional or parasitologist to confirm their physical diagnosis and determine an appropriate treatment plan based on approved medical protocols.

## REFERENCES

1. Ismoilov, S. I., & Berdiqulova, L. Sh. (2020). Epidemiological features of the prevalence of Vitamin D deficiency among the population of Uzbekistan. *Medical Journal of Uzbekistan*, (3), 12-18. *(Contextual Regional Epidemiology)*
2. Bouillon, R., et al. (2019). Vitamin D Endocrine System and the Genetic Mechanisms of Disease. *Endocrine Reviews* (Oxford Academic), 40(4), 1109–1160.
3. Holick, M. F. (2007). Vitamin D deficiency: a worldwide problem with health consequences. *The American Journal of Clinical Nutrition*, 85(4), 1085S–1091S.

# ZAMONAVIY JAMIYATDA GIPODINAMIYA MUAMMOSI: FIZIOLOGIK O‘QIBATLARI, XAVF OMILLARI VA OLDINI OLISHNING TIBBIY-IJTIMOIY MEXANIZMLARI

Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi
*FarDU magistranti*
paksinhe6@gmail.com

***ANNOTATSIYA.*** *Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy jamiyatda keng tarqalayotgan gipodinamiya va gipokineziya muammosining fiziologik, metabolik hamda tibbiy-ijtimoiy oqibatlari akademik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Harakat faolligining pasayishi yurak-qon tomir, endokrin va tayanch-harakat tizimlarida keltirib chiqaradigan patologik o‘zgarishlar, jumladan, miokard atrofiyasi, insulinga rezistentlik va osteoporoz kabi kasalliklarning rivojlanish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda gipodinamiyani bartaraf etish va aholining harakat faolligini oshirishga qaratilgan tizimli va individual oldini olish chora-tadbirlari ilmiy asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *gipodinamiya, gipokineziya, yurak-qon tomir tizimi, metabolik buzilishlar, fiziologik moslashuv, sog‘lom turmush tarzi, ommaviy sport, tibbiy-ijtimoiy profilaktika.*

***АННОТАЦИЯ.*** *В данной научной статье с академической точки зрения анализируются физиологические, метаболические и медико-социальные последствия проблемы гиподинамии и гипокинезии, широко распространенной в современном обществе. Освещены патологические изменения в сердечно-сосудистой, эндокринной и опорно-двигательной системах, вызванные снижением двигательной активности, включая механизмы развития таких заболеваний, как атрофия миокарда, инсулинорезистентность и остеопороз. В исследовании научно обоснованы системные и индивидуальные профилактические меры, направленные на устранение гиподинамии и повышение физической активности населения.*

***Ключевые слова:*** *гиподинамия, гипокинезия, сердечно-сосудистая система, метаболические нарушения, физиологическая адаптация, здоровый образ жизни, массовый спорт, медико-социальная профилактика.*

***ABSTRACT.*** *This scientific article analyzes the physiological, metabolic, and medico-social consequences of hypodynamia and hypokinesia, which are increasingly*

*prevalent in modern society, from an academic perspective. It highlights the pathological changes in the cardiovascular, endocrine, and musculoskeletal systems caused by reduced physical activity, including the underlying mechanisms of conditions such as myocardial atrophy, insulin resistance, and osteoporosis. The study provides a scientific foundation for both systemic and individual preventive measures aimed at counteracting physical inactivity and enhancing the physical activity levels of the population.*

***Keywords:*** *hypodynamia, hypokinesia, cardiovascular system, metabolic disorders, physiological adaptation, healthy lifestyle, mass sports, medico-social prevention.*

XXI asrda fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashuvi, raqamli texnologiyalarning ommalashuvi va urbanizatsiya darajasining keskin ortishi insonning kundalik turmush tarzini tubdan o‘zgartirdi. Mehnat va maishiy faoliyatdagi fizik omillarning engillashuvi mushak harakatlari hajmining kamayishiga olib keldi. Natijada zamondosh sivilizatsiyaning eng jiddiy tibbiy-ijtimoiy va biologik muammolaridan biri — gipodinamiya (harakat faolligining cheklanishi) va gipokineziya (harakat kuchi va amplitudasining pasayishi) yuzaga keldi.[2]

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, sayyoramiz aholisining uchdan bir qismidan ortig‘i ehtiyoj darajasidagi fiziologik harakat faolligini amalga oshirmaydi. Gipodinamiya faqatgina nomaqbul turmush tarzining oqibati bo‘lib qolmay, balki yurak-qon tomir, metabolik, endokrinologik hamda tayanch-harakat tizimi kasalliklari rivojlanishining mustaqil xavf omiliga aylandi. Ushbu maqolada gipodinamiyaning inson organizmi tizimlariga patofiziologik ta’siri mexanizmi, uning oqibatlari va oldini olishning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Gipodinamiyaning patofiziologik mexanizmlari va a me’zolar tizimiga ta’siri

- Yurak-qon tomir tizimidagi o‘zgarishlar: Mushaklarning doimiy dinamik qisqarishi qon aylanishida «ikkinchi yurak» (mushak nasosi) vazifasini bajaradi. Harakatsizlik sharoitida venulalar va venalarga tushadigan mexanik bosim kamayadi, bu esa qonning yurakka qaytishini (venoz oqimini) sekinlashtiradi. Doimiy gipodinamiya miokardning qisqarish qobiliyati pasayishiga, yurakning sistolik va minutlik hajmining kamayishiga olib keladi. Natijada yurak mushagining atrofiya bo‘lishi, arterial gipertenziya, miokard ishemik kasalligi va aterosklerotik o‘zgarishlar rivojlanish xavfi bir necha barobarga ortadi[1].
- Moddalar almashinuvi va metabolik buzilishlar: Fizik faollikning etishmasligi me’da-ichak va skelet mushaklarida insulinga sezuvchan retseptorlarning faolligini

susaytiradi. Bu holat to‘qimalarda glyukozaning o‘zlashtirilishini qiyinlashtirib, giperinsulinemiya va 2-tip qandli diabetning asosiy sababchisiga aylanadi.[3] Bundan tashqari, lipidlar almashinuvida jiddiy siljishlar kuzatiladi: qon plazmasida past zichlikdagi lipoproteinlar (PZLP) va triglitseridlar miqdori ortib, yuqori zichlikdagi lipoproteinlar (YUZLP) kamayadi, bu esa semirish va steatogepatit rivojlanishiga zamin yaratadi.

- Tayanch-harakat apparati va suyak-bog‘lam tizimi: Gipodinamiya sharoitida suyak to‘qimasida mineral moddalar, xususan kalsiy tuzlarining yuvilishi (dekalsinatsiya) tezlashadi[2]. Bu holat osteoporoz va suyak sinishlari xavfini oshiradi. Mushak tolalarining funksional faolligi pasayib, ularda atrofiya (jadallikning kamayishi) va distrofik o‘zgarishlar boshlanadi. Umurtqa pog‘onasini ushlab turuvchi mushak korsetining kuchsizlanishi osteoxondroz, skoliox hamda disk grijalari kabi patologiyalarni keltirib chiqaradi.
- Markaziy asab tizimi va neyroendokrin boshqaruv: Proprioretseptorlardan (mushak va bo‘g‘im retseptorlaridan) bosh miya po‘stlog‘iga keluvchi afferent impulslar oqimining kamayishi markaziy asab tizimining funksional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu astenik sindrom, depressiya, surunkali charchoq, uyqu buzilishi va intellektual ish qobiliyatining susayishi bilan namoyon bo‘ladi. Ichki endorfinlar va dopamin sintezining pasayishi ruhiy-emotsional beqarorlikni keltirib chiqaradi.[7]

Gipodinamiya zamonaviy tibbiyotda global epidemiya sifatida baholanmoqda. Uning oqibatlari nafaqat alohida shaxs sog‘lig‘iga, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tahdid soladi.[5] Ishga layoqatli aholi orasida noinfeksion kasalliklarning (yurak-qon tomir, inkologik, metabolik) yasharish tendensiyasi bevosita harakatsizlik bilan bog‘liqdir. Bu o‘z navbatida sog‘liqni saqlash tizimiga tushadigan iqtisodiy yuklamani va nogironlik ko‘rsatkichlarini oshiradi.[6]

Gipodinamiyani bartaraf etish va oldini olishning asosiy yo‘nalishlari

Muammoni hal etish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi:

- Individual fiziologik faollikni orttirish: Kunlik minimal fizik yuklama kamida 8 000–10 000 qadamni yoki 150 daqiqalik o‘rtacha jadallikdagi aerob mashg‘ulotlarni (piyoda yurish, suzish, velosiped haydash) tashkil etishi lozim.
- Ishlab chiqarish va mehnat gigiyenasi: Ofis va aqliy mehnat xodimlari uchun har 45–60 daqiqada 3–5 daqiqalik mikropauzalar (fizkultminutkalar) uyushtirish, ish joyida ergonomik sharoitlarni yaratish.
- O‘z-o‘zini nazorat qilish usullarini ommalashtirish: Tinch holatdagi pulsni o‘lchash, Rufye-Dikson testi vositasida yurak-qon tomir tizimining yuklamaga

moslashish darajasini baholash hamda fitnes-trekerlar orqali kunlik harakatni monitoring qilish.

- Ijtimoiy-ma me'rifiy va infratuzilmaviy chora-tadbirlar: Aholi o'rtasida ommaviy sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shaharsozlikda jamoat parklari, piyodalar va velosiped yo'lakchalarini kengaytirish.[4]

Gipodinamiya — zamonaviy insoniyat biologik va sotsial moslashuvidagi eng jiddiy ziddiyatlardan biridir. Inson organizmi evolyutsion jihatdan muntazam fizik yuklamalar sharoitida ishlashga moslashgan bo'lib, harakatsizlik uning fiziologik tizimlarida chuqur destruktiv o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Gipodinamiyaga qarshi kurashish nafaqat tibbiy aralashuvlarni, balki har bir insonning o'z sog'lig'iga bo'lgan mas'uliyatini oshirishni va jamiyat miqyosida sog'lom muhitni shakllantirishni talab etadi. Muntazam, dozirovka qilingan fizik faollik organizmning rezerv imkoniyatlarini oshirish, surunkali kasalliklarning oldini olish va umumiy umr ko'rish davomiyligini uzaytirishning eng samarali va tabiiy vositasi hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. ВОЗ. Глобальные рекомендации по физической активности для здоровья. – Женева: Всемирная организация здравоохранения, 2020. – 60 с
2. Амосов Н. М. Физическое своеобразие человека и здоровье. — Киев: Здоровье, 2002. – 56 с.
3. Баевский Р. М., Берсенева А. П. Оценка адаптационных возможностей организма и риск развития заболеваний. — М.: Медицина, 1997. – 234 с.
4. Booth, F. W., Roberts, C. K., & Laye, M. J. (2012). Lack of exercise is a major cause of chronic diseases. Comprehensive Physiology, 2(2), 1143–2111.
5. Lee, I. M., Shiroma, E. J., Lobelo, F., Puska, P., Blair, S. N., & Katzmarzyk, P. T. (2012). Effect of physical inactivity on major non-communicable diseases worldwide: an analysis of burden of disease and life expectancy. The Lancet, 380(9838), 219–229.
6. Pedersen, B. K., & Saltin, B. (2015). Exercise as medicine - evidence for prescribing exercise as therapy in 26 different chronic diseases. Scandinavian Journal of Medicine & Science in Sports, 25(S3), 1–72.

# HARBIY XIZMATCHILAR VA FUQAROLARDA YELKA SUYAGI PROKSIMAL QISMI SINISHLARINING KLINIK-DEMOGRAFIK VA TRAVMATOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sariqov Islombek Zo‘xriddinovich
*Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg‘ona filiali Travmatologiya bo‘limi mudiri; Central Asian Medical University o‘qituvchisi; O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi, Farg‘ona, O‘zbekiston*

**Dolzarbligi.** Yelka suyagining proksimal qismi sinishlarining klinik kechishi bemorning yoshi, suyak sifati, travma mexanizmi va funksional ehtiyojiga bog‘liq. Fuqarolik amaliyotida ushbu jarohat ko‘pincha keksa yoshdagi bemorlarda past energiyali yiqilishlar bilan bog‘liq bo‘lsa, harbiy xizmatdagi yuqori jismoniy faollik, xizmat va sport mashg‘ulotlari yuqori energiyali shikastlanishlar ulushini oshiradi. Kontingentlarning klinik-demografik va travmatologik farqlarini aniqlash tekshiruv hajmi, davolash usuli va reabilitatsiya maqsadini individual belgilash uchun muhimdir.

**Maqsad.** Harbiy xizmatchilar va fuqarolik kontingentida yelka suyagining proksimal qismi sinishlarining yosh-jins tarkibi, travma mexanizmi, energiyasi va shikastlangan tomon bo‘yicha xususiyatlarini qiyosiy baholash.

**Material va usullar.** Retrospektiv–prospektiv qiyosiy tahlilga 2018–2024-yillarda yelka suyagining proksimal qismi sinishi bilan davolangan 145 bemor kiritildi. Fuqarolik kontingentini 2018–2021-yillarda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg‘ona filialida davolangan 100 bemor, harbiy kontingentni 2022–2024-yillarda Farg‘ona harbiy gospitalida davolangan 45 harbiy xizmatchi tashkil etdi. Yosh, jins, travma mexanizmi va shikastlangan tomon tahlil qilindi. Tik turgan holatdan yiqilish va maishiy jarohatlar past energiyali; yo‘l-transport hodisasi, balandlikdan yiqilish hamda sport yoki xizmat mashg‘ulotidagi jarohatlar yuqori energiyali deb guruhlandi. Miqdoriy ko‘rsatkichlar M±SD, toifali ko‘rsatkichlar n (%) ko‘rinishida berildi. Guruhlar Welch t-mezoni va Pirsonning $\chi^2$ mezoni bilan qiyoslandi; $p<0,05$ statistik ahamiyat mezoni sifatida qabul qilindi. Guruhlar turli davr va klinik muassasalarda shakllangani sabab natijalar sababiy bog‘liqlik sifatida talqin qilinmadi.

**Natijalar.** Fuqarolik kontingentida o‘rtacha yosh 58,3±14,7 yil, harbiy xizmatchilarda 38,6±11,9 yil bo‘lib, farq statistik ahamiyatli edi ($p<0,001$). Fuqarolik

guruhida 61 yosh va undan kattalar 44,0%, harbiy guruhda esa 31–45 yoshdagilar 44,4% bilan yetakchi bo‘ldi. Erkaklar ulushi mos ravishda 46,0% va 93,3% ni tashkil etdi ($p<0,001$). Fuqarolik guruhida tik turgan holatdan yiqilish 43,0% va maishiy jarohat 24,0% bo‘lib, past energiyali shikastlanishlar jami 67,0% ni tashkil etdi. Harbiy xizmatchilarda sport yoki xizmat mashg‘ulotidagi jarohat 37,8%, yo‘l-transport hodisasi 24,4% va balandlikdan yiqilish 20,0% bo‘lib, yuqori energiyali shikastlanishlar 82,2% ga yetdi. Travma mexanizmlari va energiyasi bo‘yicha guruhlararo farq statistik ahamiyatli bo‘ldi ($p<0,001$). O‘ng yelka fuqarolik guruhida 56,0%, harbiy guruhda 64,4% holatda shikastlangan, biroq tomonlar taqsimotida statistik ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p=0,440$).

**Xulosa.** Fuqarolik kontingentida keksa yosh, ayol jins va past energiyali yiqilishlar, harbiy xizmatchilarda esa mehnatga layoqatli yosh, erkak jins va yuqori energiyali jarohatlar ustun bo‘ldi. Shikastlangan tomon bo‘yicha guruhlar o‘rtasida farq kuzatilmadi. Dastlabki klinik baholashda bemorning kontingenti va travma mexanizmini hisobga olish nurli diagnostika hajmi hamda keyingi davolash-reabilitatsiya yo‘nalishini asosli tanlash imkonini beradi.

# СТРУКТУРА ОСЛОЖНЕНИЙ И ПОВТОРНЫХ ХИРУРГИЧЕСКИХ ВМЕШАТЕЛЬСТВ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ПЕРЕЛОМОВ ПРОКСИМАЛЬНОГО ОТДЕЛА ПЛЕЧЕВОЙ КОСТИ

Сариков Исломбек Зухриддинович
*Заведующий отделением травматологии Ферганского филиала Республиканского научного центра экстренной медицинской помощи; преподаватель Central Asian Medical University; независимый соискатель Военно-медицинского института Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан, Фергана, Узбекистан*

**Актуальность.** Результаты лечения переломов проксимального отдела плечевой кости зависят не только от консолидации, но и от частоты инфекционных, механических и функциональных осложнений. Вторичное смещение, варусная деформация, контрактура и проблемы импланта могут привести к стойкому ограничению функции и повторной операции. Корректный анализ требует различать число пациентов хотя бы с одним осложнением и число отдельных нежелательных событий.

**Цель.** Изучить структуру осложнений и частоту повторных хирургических вмешательств при лечении переломов проксимального отдела плечевой кости в контрольной и основной клинических группах.

**Материал и методы.** Проведен ретроспективно–проспективный анализ 145 пациентов, лечившихся в 2018–2024 гг. Контрольную группу составили 100 пациентов 2018–2021 гг., основную — 45 пациентов 2022–2024 гг. Учитывали раневую инфекцию, гематому, вторичное смещение, варусную деформацию, контрактуру, миграцию импланта или проблемы винтов, аваскулярный некроз и повторную операцию. Общую частоту осложнений рассчитывали по числу пациентов хотя бы с одним осложнением. Частоты отдельных событий анализировали независимо и не суммировали, поскольку у одного пациента могли сочетаться несколько осложнений. Группы сравнивали точным критерием Фишера; $p<0,05$ считали статистически значимым.

**Результаты.** Хотя бы одно осложнение зарегистрировано у 25/100 (25,0%) пациентов контрольной и у 7/45 (15,6%) пациентов основной группы; различие

не достигло статистической значимости (p=0,280). Раневая инфекция выявлена соответственно у 3 (3,0%) и 1 (2,2%) пациента, гематома — у 2 (2,0%) и 1 (2,2%), вторичное смещение — у 8 (8,0%) и 2 (4,4%), варусная деформация — у 6 (6,0%) и 1 (2,2%), контрактура — у 9 (9,0%) и 2 (4,4%), миграция импланта или проблемы винтов — у 7 (7,0%) и 2 (4,4%), аваскулярный некроз головки плечевой кости — у 3 (3,0%) и 1 (2,2%). Повторная операция выполнена у 5/100 (5,0%) пациентов контрольной и у 1/45 (2,2%) пациента основной группы (p=0,666). Наиболее частыми нежелательными событиями в обеих группах были контрактура, вторичное смещение и связанные с имплантом механические проблемы.

**Выводы.** В основной группе наблюдалось численное снижение общей частоты осложнений, вторичного смещения, варусной деформации, контрактуры и повторных операций, однако статистически значимых различий не получено. Небольшой объем основной группы и исторический характер контроля не позволяют трактовать выявленную разницу как доказанный причинный эффект. Профилактика осложнений должна включать точную оценку морфологии перелома, восстановление медиальной опоры, контроль положения импланта и винтов, а также поэтапную реабилитацию с ранним выявлением контрактуры.

# 6. AGRICULTURE, VETERINARY MEDICINE, AND FOOD TECHNOLOGY

# CURRENT STATE AND PROBLEMS OF GRAIN PRODUCTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: A REGIONAL ANALYSIS FOR 2020-2024

Ruhongiz Nurbekova
*Junior Researcher at the International Strategic Center for Agri-Food Development. Tashkent, Uzbekistan.*

***Аннотация.*** *Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасида ғалла етиштириш соҳасининг сўнгги йиллардаги ҳолати, эришилган натижалар ва мавжуд асосий муаммолар таҳлил қилинган. Тадқиқот давомида дон экинлари майдонлари, ялпи ҳосил ва ҳосилдорлик кўрсаткичлари статистик-таҳлилий усулда ўрганилиб, ҳудудлар кесимида қиёсий гуруҳлаш ўтказилган, шунингдек ғалла харид жараёнида қўлланилаётган рақамли технологияларнинг («электрон тарози» тизими) ютуқ ва камчиликлари очиб берилган.*

***Калит сўзлар:*** *ғаллачилик, буғдой, дон экинлари, озиқ-овқат хавфсизлиги, ҳосилдорлик, аграр сиёсат, экин майдонлари, рақамли технологиялар, электрон тарози.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется современное состояние отрасли зерноводства Республики Узбекистан за последние годы, достигнутые результаты и основные нерешённые проблемы. В ходе исследования статистико-аналитическим методом изучены показатели посевных площадей, валового сбора и урожайности зерновых культур, проведена сравнительная группировка регионов, а также раскрыты преимущества и недостатки цифровых технологий («электронные весы»), применяемых в процессе закупки зерна.*

***Ключевые слова:*** *зерноводство, пшеница, зерновые культуры, продовольственная безопасность, урожайность, аграрная политика, посевные площади, цифровые технологии, электронные весы.*

***Abstract.*** *This article examines the recent state of the grain-farming sector in the Republic of Uzbekistan, the results achieved, and the main unresolved problems. Using statistical-analytical methods, the study examines sown area, gross harvest, and yield indicators of cereal crops, performs a comparative regional grouping, and reveals the*

*advantages and disadvantages of digital technologies (the "Electronic Scale" system) applied in the grain-procurement process.*

***Keywords:*** *grain farming, wheat, cereal crops, food security, yield, agricultural policy, sown areas, digital technologies, electronic scale.*

## Introduction

Ensuring food security is an essential condition for the economic and social stability of any state. Within this context, grain farming occupies a special place, since cereal products constitute the population's main source of food while also serving as an important raw material for livestock breeding and the food-processing industry. In recent years, the Republic of Uzbekistan has been implementing large-scale reforms aimed at developing the grain sector, making more efficient use of sown areas, and increasing yields.

The theoretical and scientific foundations of this topic have been examined by a number of researchers. In particular, a structural analysis of food security in Uzbekistan has been provided [1], the issue has been assessed from the perspective of state policy and the institutional environment [2], the transition of Uzbekistan's agriculture from a cotton monoculture toward food security has been analyzed [3], the principal scientific directions of food security for the Central Asian countries have been defined [4], and the natural-geographic factors affecting the population's food supply have been examined [5]. At the same time, the studies cited above do not sufficiently address a comprehensive analysis of the regional development dynamics of the grain sector or the role of digital technologies within this process, which underlines the relevance of the present article.

The aim of this study is to analyze, at the regional level, the dynamics of sown area, gross harvest, and yield of grain crops in the Republic of Uzbekistan for 2020–2024, to identify the sector's development model, and to assess the role of digital technologies applied in the grain-procurement process. To achieve this aim, trend analysis, comparative analysis, and regional grouping were applied: annual indicators for 2020–2024 were first used to establish the overall trend; the percentage change between the initial and final year was then calculated for each region (comparative analysis); the resulting values were finally used to classify the regions into three groups according to their development pattern (regional grouping).

## Current State of the Sector

According to preliminary data from the National Statistics Committee, in 2025 all categories of farms in the Republic harvested more than 10.11 million tonnes of cereal

and leguminous crops, representing a 13 percent increase compared to 2024. The Fergana region led in output, producing more than 1,147 thousand tonnes of grain, while the Bukhara and Tashkent regions also ranked among the top-performing areas [6], [7].

According to the March 2026 GIEWS report of the Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), Uzbekistan's aggregate 2025 cereal production reached an above-average level of 8.9 million tonnes, including 7.3 million tonnes of wheat and about 900,000 tonnes of maize. Wheat import requirements (grain and flour combined) for the 2025/26 marketing year are forecast at a near-average level of about 4 million tonnes [8]. This reflects the effectiveness of the agrarian reforms being implemented in the country — the introduction of high-yielding, climate-resilient wheat varieties, the modernization of irrigation systems, and support measures for dehkan and farmer households.

In recent years, the areas sown with new, high-yielding winter wheat varieties resistant to unfavorable weather conditions — including varieties developed through local breeding — have significantly expanded, replacing biologically outdated cultivars, which underscores the need to strengthen the link between science and production.

An analysis of the dynamics across the Republic during 2020-2024 reveals that the sector is undergoing profound qualitative changes (Table 1). Specifically, over this period the area sown with grain crops decreased from 1,646.2 thousand hectares to 1,556.8 thousand hectares, a reduction of 89.4 thousand hectares (5.4 percent). Nevertheless, thanks to an increase in yield from 41.8 centners to 50.8 centners per hectare — a rise of 9.0 centners, or 21.5 percent — the gross harvest grew from 7,636.0 thousand tonnes to 8,791.5 thousand tonnes, an increase of 1,155.5 thousand tonnes (15.1 percent).

**Table 1**

**Changes in sown area, gross harvest and yield of grain crops in the Republic of Uzbekistan, 2020-2024**

| Indicator | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | Change (2024/2020, +;-) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Sown area, thousand ha | 1,646.2 | 1,596.9 | 1,567.3 | 1,542.5 | 1,556.8 | **-89.4** |

| Indicator | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | Change (2024/2020, +;-) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Gross harvest, thousand t | 7,636.0 | 7,634.6 | 7,990.5 | 8,453.4 | 8,791.5 | **+1,155.5** |
| Yield, centner/ha | 41.8 | 40.9 | 43.4 | 47.9 | 50.8 | **+9.0** |

*Source: compiled by the author based on data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.*

This substantial rise in yield is explained primarily by the wide adoption of the new, high-yielding, climate-resilient wheat varieties noted above, the modernization of irrigation systems, and the agrarian reforms carried out by the state, including support measures in seed production and lending. In other words, the growth in gross harvest was driven not by an expansion of sown area but by qualitative improvements in breeding and agrotechnology.

Behind the aggregate national indicators lie diverging regional trends. Consolidating each region's change across the three indicators (sown area, gross harvest, yield) for 2020-2024 (Table 2) provides a clearer picture of the sector's development model.

**Table 2**

**Regional changes in grain-farming indicators, 2020-2024 (consolidated analysis), %**

| № | Region | Sown area, +;- % | Gross harvest, +;- % | Yield, +;- % |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Republic of Karakalpakstan | -3.8 | +18.8 | +11.5 |
| 2 | Andijan | +1.0 | +14.4 | +16.4 |
| 3 | Bukhara | +9.7 | +22.9 | +12.4 |
| 4 | Jizzakh | -9.3 | -6.3 | +7.4 |
| 5 | Kashkadarya | -12.8 | -1.0 | +13.5 |
| 6 | Navoi | -4.1 | +11.3 | +24.2 |
| 7 | Namangan | -7.8 | +34.4 | +39.9 |

| № | Region | Sown area, +;- % | Gross harvest, +;- % | Yield, +;- % |
|---|---|---|---|---|
| 8 | Samarkand | -9.6 | +7.0 | +18.9 |
| 9 | Surkhandarya | -3.5 | +15.6 | +24.0 |
| 10 | Syrdarya | +6.2 | +26.3 | +22.7 |
| 11 | Tashkent | -1.9 | +24.4 | +24.7 |
| 12 | Fergana | -4.5 | +30.4 | +33.9 |
| 13 | Khorezm | -1.1 | +19.6 | +19.6 |
| | **Republic average** | **-5.4** | **+15.1** | **+21.5** |

*Source: author's calculations based on original regional statistical data (2020-2024) on sown area, gross harvest and yield of grain crops.*

The consolidated analysis allows the regions to be classified into three groups. The first group comprises regions where the sown area was maintained or expanded while the harvest also grew — Andijan, Bukhara, and Syrdarya — where growth was driven by both extensive and intensive factors. The second and largest group consists of Namangan, Fergana, Tashkent, Khorezm, Karakalpakstan, Surkhandarya, Navoi, and Samarkand, where, despite a decline in sown area, the gross harvest still increased owing to a substantial rise in yield — reflecting the dominant nationwide trend of intensification. The third group includes Kashkadarya and, in particular, Jizzakh, where, despite yield growth, a sharp reduction in sown area (-12.8% and -9.3%, respectively) led either to stagnation of the gross harvest (Kashkadarya) or to its decline (Jizzakh, -6.3%). Jizzakh region therefore stands out as an area requiring particular attention.

Overall, the nationwide 15.1 percent increase in gross harvest was driven primarily by higher yields (an intensive factor), which represents an appropriate strategic direction under conditions of limited land and water resources. At the same time, the reasons behind the sharp contraction of sown areas in certain regions (notably Jizzakh and Kashkadarya) merit separate study, along with measures to manage this trend where necessary.

**Key Problems in the Sector**

Alongside the analysis above, the sector faces a number of serious problems that require resolution:

**1. Limited land and water resources.** Climate change and intensifying water scarcity in the region constrain the possibility of expanding irrigated land, requiring that the gross harvest be increased primarily through higher yields rather than expanded area.

**2. Shortcomings in the seed-production system.** The supply of high-reproduction, certified seed adapted to local conditions remains insufficient in some regions, hindering sustained yield growth.

**3. Agrotechnology and machinery provision.** The adoption of modern agricultural machinery, resource-saving irrigation methods (such as drip irrigation), and digital agrotechnologies remains below the required level.

**4. Declining soil fertility.** Many years of intensive land use, imbalanced application of mineral fertilizers, and soil salinization in some areas are gradually reducing soil fertility.

**5. The impact of climate change.** Unfavorable and sharply fluctuating weather conditions (winter frosts, irregular spring precipitation) negatively affect yields and increase risk levels for farming households. In this regard, introducing an agricultural risk-insurance system remains an urgent task.

**6. Insufficient economic incentive mechanisms.** Lending, insurance, and market-access conditions for grain producers, as well as pricing policy and the state procurement system, require further improvement. Worth highlighting here is the "Electronic Scale" information system introduced in recent years as a concrete response to this problem: it automatically weighs harvested output at grain-collection points and transmits the data in real time to the Ministry of Agriculture's "Harvest Acceptance" system, thereby ensuring transparency in the procurement process [9]. Presidential Decree No. PF-7 of 17 January 2025 and the procedure for purchasing wheat from the 2023 harvest both make this system mandatory at cotton- and grain-reception points [10; 11].

**Table 3**

**Advantages and disadvantages of the "Electronic Scale" information system**

| Advantages | Disadvantages |
|---|---|
| ● Ensures transparency in harvest acceptance, preventing the artificial inflation or understatement of weight indicators | ● Not all grain-reception points are yet fully equipped with electronic scales, requiring additional infrastructure investment |

| Advantages | Disadvantages |
|---|---|
| ● Data is transmitted in real time to the central "Harvest Acceptance" system, enabling prompt monitoring and analysis<br>● Speeds up settlements with dehkan and farmer households and reduces intermediary and inefficient practices<br>● Improves the accuracy of regional statistical data, supporting evidence-based state policymaking<br>● Maintains state oversight of measurement accuracy through mandatory metrological calibration requirements | ● Insufficient internet connectivity in rural areas may cause interruptions in data transmission<br>● The level of digital literacy among staff operating the system varies across regions<br>● Increased system load during peak harvest periods raises the risk of technical failures<br>● Ensuring the cybersecurity of the centralized electronic database requires additional financial and technical resources |

The region-level data collected through this system is directly useful for management decisions on the other problems discussed above — for example, promptly identifying regions with shrinking sown area or yield gaps so that targeted agrotechnical measures can be directed there. In this sense, the system should be viewed not as a separate topic but as one practical instrument for addressing the problems identified above.

**Conclusion**

The analysis shows that, during 2020-2024, Uzbekistan's grain-farming sector shifted toward an intensive development path: despite a 5.4 percent reduction in sown area, gross harvest grew by 15.1 percent, driven by a 21.5 percent rise in yield. At the same time, limited land and water resources, shortcomings in the seed-production system, declining soil fertility, and climate change remain serious challenges.

Based on this analysis, three concrete recommendations are proposed: first, intensive agrotechnologies and high-yielding varieties should be prioritized for expansion in regions where sown area has contracted sharply, particularly Jizzakh and Kashkadarya, to offset the lost area through higher yields; second, the "Electronic Scale" system should be rolled out on an accelerated basis at all grain-reception points, including in regions currently lagging behind; third, seed-production and agrotechnical extension services should be strengthened so that the practices of high-yield regions (Namangan, Fergana, Tashkent) can be extended to others. Consistent implementation of these measures would strengthen food security and increase the Republic's grain export potential.

## References

1. Musaev D., Yakhshilikov Yo., Yusupov K. Food Security in Uzbekistan. — Tashkent, 2010 https://www.cawater-info.net/pdf/food-security-uzb.pdf

2. Dosov B. Food Security and Sustainability, State Policy and Institutional Environment: Assessment of the Situation in Uzbekistan. — 2012. https://www.cawater-info.net/pdf/dosov.

3. Deryugina I.V. Agriculture of Uzbekistan: From Cotton Monoculture to Food Security. — 2018 https://www.cawater-info.net

4. Khasanov Sh. Main Scientific Directions of Food Security in Central Asian Countries. — 2015. https://www.cawater-info.net/pdf/hasanov15

5. Madaminov Z.Kh., Abdupattoev N.Kh. Natural-Geographic Factors Affecting the Population's Food Supply (the Case of the Republic of Uzbekistan). 2026 https://www.cawater-info.net/pdf/madaminov-abdupattoev.pdf

6. https://upl.uz/economy/60712-news.html.

7. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Official statistical data. Stat.uz

8. https://www.fao.org/giews/countrybrief/country/UZB/pdf/UZB.pdf

9. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-205, 12 Dec. 2023, “On additional measures for the further development of free market relations in agriculture.” https://lex.uz/docs/6692968

10. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-7, 17 Jan. 2025, “On measures for the consistent continuation of market mechanisms in the production and sale of raw cotton.” https://www.lex.uz/uz/docs/7327598

11. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 227, 3 June 2023, “On measures for purchasing wheat from the 2023 harvest and ensuring domestic price stability.” https://lex.uz/docs/6485509

# TENSION ИНФИЛЬТРОМЕТР ЁРДАМИДА ТУПРОҚ СУВ ЎТҚАЗУВЧАНЛИГИНИ АНИҚЛАШНИНГ ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ МЕЪЁРИНИ ҲИСОБЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ

Эгамбердиев Отабек Шавкат ўгли.
*Ирригация ва сув муаммолари илмий-тадқиқот институти таянч докторанти, кичик илмий ходим.*
egamberdiyevotabek1992@gmail.com.
https://orcid.org/0009-0007-0562-0873

Оллонийозов Сардор Пўлат ўғли,
*Ирригация ва сув муаммолари илмий-тадқиқот институти таянч докторанти, кичик илмий ходим.*
olloniyozovsardor@gmail.com.
https://orcid.org/0009-0006-7217-2460

Тоғаев Шуҳрат Мирахматович,
*Ирригация ва сув муаммолари илмий-тадқиқот институти таянч докторанти, кичик илмий ходим.*
shuxratjon_1983t@mail.ru.
https://orcid.org/0009-0000-1611-7842

Тоиржонов Аҳаджон Шокиржон ўғли,
*Ирригация ва сув муаммолари илмий-тадқиқот институти таянч докторанти, кичик илмий ходим.*
ahadtoirjonov@gmail.com.
https://orcid.org/0009-0000-3102-8231

Муртазаева Файёза Миржахон қизи,
*Ирригация ва сув муаммолари илмий-тадқиқот институти таянч докторанти, кичик илмий ходима.*
fayyozamurtazayeva@gmail.com.
https://orcid.org/0009-0009-6234-7759

***Аннотация.*** *Ушбу мақолада тупроқнинг сув ўтқазувчанлигини аниқлашда ва томчилатиб суғориш меъёрини белгилашда Tension инфильтрометр ёрдамида аниқлаш аҳамияти кўриб чиқилган. Tension инфильтрометр ёрдамида тупроқнинг сув ўтқазувчанлигини ўлчаш жараёни, унинг асосий формулалари ва Wooding тенгламаси келтирилган. Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида олинган тажриба натижалари тақдим этилиб, тупроқнинг гидравлик ўтказувчанлиги, инфильтрация тезлиги ва томчилатиб суғориш меъёрининг ҳисобланиши бўйича амалий кўрсатмалар берилган. Эътибор қаратилган асосий масалалар орасида тупроқнинг сув билан тўйиниши ва суғориш тизимининг самарадорлиги, шунингдек, ўсимликлар учун зарур сув миқдорини белгилаш кўрсатилган.*

***Калит сўзлар:*** *Tension инфильтрометр, тупроқ сув ўтқазувчанлиги, томчилатиб суғориш меъёри, гидравлик ўтказувчанлик, инфильтрация жараёни, сув ресурслари, эвапотранспирация.*

***Аннотация.*** *В данной статье обсуждается важность использования Tension инфильтрометра для определения водопроницаемости почвы и определения норм капельного орошения. Представлен процесс измерения водопроницаемости почвы с использованием Tension инфильтрометра, его основные формулы и уравнение Wooding. Представлены результаты экспериментов, проведенных в Ташкентской, Джизакской и Кашкадарьинской областях, а также даны практические рекомендации по расчету гидравлической проводимости почвы, скорости инфильтрации и норм капельного орошения. К основным рассматриваемым вопросам относятся водонасыщение почвы и эффективность оросительной системы, а также определение количества воды, необходимого растениям.*

***Ключевые слова:*** *Tension инфильтрометр, водопроницаемость почвы, норма капельного орошения, гидропроводность, процесс инфильтрации, водные ресурсы, суммарное испарение.*

***Annotation.*** *This article discusses the importance of using a Tension infiltrometer to determine soil permeability and determine drip irrigation rates. The process of measuring soil permeability using a Tension infiltrometer, its basic formulas, and the Wooding equation are presented. The results of experiments conducted in Tashkent, Jizzakh, and Khashkadarya regions are presented, and practical guidelines are given for calculating soil hydraulic conductivity, infiltration rate, and drip irrigation rates. The main issues addressed include soil water saturation and the efficiency of the irrigation system, as well as determining the amount of water needed by plants.*

***Key words:*** *Tension infiltrometer, soil water permeability, drip irrigation rate, hydraulic conductivity, infiltration process, water resources, evapotranspiration.*

**Кириш.** Ўзбекистон Республикасида сув ресурсларининг чекланганлиги ва уларни оқилона бошқариш зарурияти қишлоқ хўжалигида самарали суғориш технологияларининг жорий этилишини тақозо этмоқда. Айниқса, томчилатиб суғориш тизимлари экинларнинг сувга бўлган эҳтиёжини аниқлашда, сувни тежашда ва ҳосилдорликни оширишда муҳим рол ўйнайди. Бундай тизимларнинг муваффақиятли ишлаши кўп жиҳатдан тупроқнинг сув ўтқазувчанлигига боғлиқ бўлиб, бу параметр тупроқнинг сувни ва унда эриган моддаларнинг ҳаракатини ифодалайди. Сув ўтқазувчанлик коэффитсиэнти (К) тупроқдаги сувнинг гравитацион кучлар таъсирида қанчалик тез ҳаракатланишини кўрсатади. Ушбу кўрсаткич сув хўжалиги ва қишлоқ хўжалигида мақбул суғориш режимини тузишда асосий параметр ҳисобланади [1].

Тупроқнинг сув ўтқазувчанлигини ўлчашда бир неча ўлчаш усуллар қўлланилади, улардан бири Tension инфильтрометр ўлчаш усулидир. Бу усул тупроқдаги капилляр ҳаракатни ўлчаш орқали сув ўтиш тезлигини аниқлашда қўлланилади. Tension инфильтрометр тизими ёрдамида олинган маълумотлар сув билан тўйинган тупроқ ҳолатларини аниқлашга ва томчилатиб суғориш технологияси учун нормал суғориш меъёри (НС) ни белгилашга имкон беради [2]. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, турли вилоятларда тупроқнинг физик хусусиятлари ва сув ўтқазувчанлик кўрсаткичлари фарқланади. Шунинг учун Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида кузатув участкасида ўтказилган ўлчаш ишлари тупроқнинг сув ўтқазувчанлиги ва томчилатиб суғориш меъёрини аниқлаш мақсадида олиб борилди.

**Адабиётлар шарҳи.** Tension инфильтрометр ёрдамида тупроқ сув ўтқазувчанлигини аниқлашнинг самарали ва кенг қўлланиладиган методлардан биридир. Rawls ва Brakensiek ўз тадқиқотларида тупроқнинг гидравлик хусусиятларини аниқлаш учун бу усулни кенгайтирган. Улар тупроқнинг турли хил тузилишлари ва намлик даражалари ўртасидаги муносабатларни ўрганиш орқали инфильтрометр ёрдамида сув ўтқазувчанлигини аниқлаш жараёнини батафсил ёритганлар [10].

Hillel “Soil Physics” илмий адабиётида тупроқ физикаси, шу жумладан сув ўтқазувчанлиги ва инфильтрометр усули билан боғлиқ назарий жиҳатларни муҳокама қилган. Ушбу манба, тақдим этилган методология ва тупроқнинг сувни қандай қабул қилиши ҳақида кенг қамровли маълумотлар бериб ўтилган [1].

Kirkham, Nielsen ва Biggar каби муаллифлар, инфильтрометр усулининг енгил ва тезкор ўлчовлар олиб бориш имкониятини таъкидлаб, тупроқнинг сув ресурсларини бошқаришда унинг аҳамиятини кўрсатганлар. Бу тадқиқотлар, олинган натижалар асосида тупроқнинг сув ўтказувчанлигини ўлчашда муҳим методологик ёндашувлар тақдим этади [11,12].

Garnier ва Menard ўзларининг тадқиқотларида янги Tension инфильтрометр дизайнини таклиф қилиб, тупроқнинг сув ўтказувчанлигини аниқлашда усулнинг самарадорлигини оширишни мақсад қилганлар. Уларнинг ишида сув ўтказувчанлиги ва унинг ўлчовлари ўртасидаги боғланишлар ёритилган бўлиб, бу томчилатиб суғориш меъёри аниқлашда муҳим аҳамиятга эга [13].

Томчилатиб суғориш меъёри, сувни самарали тақсимлаш ва экинлар учун оптимал сув миқдорини таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Allen ва бошқалар “Crop Evapotranspiration” илмий тадқиқотида эвапотранспирация ва тупроқдаги сувнинг қайта тўлдирилиши каби омилларни ҳисобга олган ҳолда томчилатиб суғориш меъёри аниқлаш жараёнини батафсил тушунтирганлар [9]. Уларнинг тадқиқотлари, олинган сув ўтказувчанлиги маълумотларини бирлаштириб, амалий қишлоқ хўжалиги стратегияларини ишлаб чиқишда фойдалидир.

Keller ва Bliesner томчилатиб суғориш тизимларининг самарадорлиги ҳақида муҳим маълумотларни тақдим этганлар. Улар, олинган натижалар асосида тупроқ сув ўтказувчанлиги ва суғориш тизимларининг самарасини таққослаш орқали муҳим тавсиялар беришган [14].

**Тадқиқот олиб бориш услуби.** Тупроқнинг сув ўтказувчанлигини аниқлаш ва томчилатиб суғориш меъёрини белгилашда Tension инфильтрометр усули қўлланилди. Бу усул тупроқнинг физик хусусиятларини аниқлашда юқори аниқликка эга бўлиб, суғориш технологияларини мақбуллаштириш учун зарур бўлган маълумотларни тақдим этади [4]. Тадқиқот жараёни учта босқичлардан иборат бўлиб, ҳар бир босқич аниқ ўлчовларни талаб этади:

**1. Тадқиқот жойини танлаш.** Тупроқнинг сув ўтказувчанлигини аниқлашда тадқиқот жойининг хусусиятлари муҳим аҳамиятга эга. Ушбу тадқиқот Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида олиб борилди. Тадқиқотлар учун жойлар танланаётганда тупроқнинг турли хил физик-механик хусусиятларини ўрганиш мақсад қилинган. Танланган жойларнинг тупроқ тури, намлиги ва тупроқ қатламларининг қалинлиги ўрганилди.

**2. Tension инфильтрометрни ўрнатиш.** Tension инфильтрометр ўрнатиш жараёни қуйидаги босқичлардан иборат бўлди:

• Тупроқ сатҳи текисланди, юзаси силлиқ ва тоза ҳолатга келтирилди. Бу тупроқнинг сув билан бир хил таъсирланишини таъминлашда муҳимдир [6];

• Инфильтрометрнинг биринчи қисми тупроқ ичига жойлаштирилди, бу босқичда тупроқ юзасининг қуруқлик даражаси ҳисобга олинди. Бу чуқурлик, сувнинг тупроққа тўғри кириши ва натижаларни аниқ аниқлаш учун муҳим [4];

• Инфильтрометр сув билан тўлдирилди, сув сатҳини маълум даражада ушлаб туриш учун қурилма созланди.

**3. Ўлчовлар олиш.** Тупроқнинг сув ўтқазувчанлигини ўлчашда бир нечта ўлчовлар олиб борилди:

• Инфильтрометрга сув тўлдирилади ва тупроққа кириш вақти қайд этилади. Сувнинг тупроққа кириши билан вақт ўлчанади ва ҳар бир ўлчовда сув миқдори қайд этиб борилади [1].

Ўлчовлар ҳар хил вақт оралиғида амалга оширилиб, тупроқнинг сувни қабул қилиш жараёни кузатилади. Бу маълумотлар тупроқнинг сув ўтқазувчанлик коэффитсиэнти (К) ни ҳисоблашда қўлланилади.

Ушбу метод орқали олинган натижалар қишлоқ хўжалиги ерларида томчилатиб суғориш тизимини мақбуллаштиришда қўлланилиб, ҳосилдорликни ошириш ва сув ресурсларидан самарали фойдаланишга ёрдам беради.

**Натижалар ва мунозара.** Олиб борилган тадқиқотлар сув ресурсларини бошқаришда инновацион ёндашувларни ривожлантиришга хизмат қилади. Шунингдек, тупроқнинг сув ўтқазувчанлиги ва томчилатиб суғориш меъёри ўртасидаги боғланишларни янада чуқурроқ таҳлил қилиш имконини беради, бу эса сув хўжалиги амалиётларида ижобий таъсир кўрсатади.



**1-расм. Tension инфильтрометрни дала шароитида ишлатиш**

Tension инфильтрометр – бу икки қисмли қурилма бўлиб (1-расм), уларнинг бири тупроққа жойлаштирилади, иккинчиси эса сув билан тўлдирилади. Ушбу тизим тупроқнинг сувни қабул қилиш ва уни ўтказиш хусусиятларини

аниқлашда, сувнинг тупроқ қатламига кириш тезлигини баҳолашда кенг қўлланилади [3,5]. Ушбу усул орқали олинган натижалар қишлоқ хўжалиги экинларини мақбул суғориш режаларини ишлаб чиқишда асосий омил бўлиб хизмат қилади.

**Тупроқ сув ўтқазувчанлигини аниқлаш.** Тупроқ инфильтрациясини аниқлашда Силиндир ҳалқали инфильтрометр ва Tension инфильтрометрлардан фойдаланилади. Силиндир ҳалқали инфильтрометрда (2 расм) иккита цилиндр тупроққа қўйилади ва иккала цилиндрга ҳам сув қуйилади. Силиндир ҳалқали инфильтрометрда тупроқнинг қанчалик тезликда сувни сингдириши ўлчанади. Сув ички цилиндрдан тупроққа кириб боради, ташқи цилиндр эса сув оқимини ёнга сизилишини чеклайди ва вертикал инфильтрацияни ўлчашга ёрдам беради [15].



**2-расм. Силиндир ҳалқали инфильтрометрлар**

$$I = \frac{V}{At} \qquad (1)$$

Силиндир ҳалқали инфильтрометрлар ҳисоблаш формуласи (1)

Бу ерда:

- **I** — вақтга боғлиқ ҳолда инфильтрация тезлиги (см/с),
- **V** — сув ҳажми (мл),
- **A** — цилиндрнинг юзаси (см²),
- **t** — вақт (с).

Силиндир ҳалқали инфильтрометр кўпроқ тупроқнинг умумий инфильтрацион хусусиятларини, яъни тупроқ қатлами қанчалик тез сувни қабул қилишини аниқлайди. Бу усул ёрдамида инфильтрация тезлиги билан бирга тупроқнинг юқори қатламининг гидравлик ўтказувчанлигини баҳолаш мумкин. Силиндир ҳалқали инфильтрометр натижаларига кўра инфильтрация тезлиги вақт ўтиши билан камаяди. Дастлаб сув тупроққа тез сингади, лекин тупроқнинг намлиги ортиб борган сари сингдириш тезлиги пасаяди. Якуний натижа эса тўйинганлик ҳолатидаги инфильтрация тезлигини кўрсатади.

Tension инфильтрометр эса тупроқнинг майда тешиклари орқали сувнинг киришини ўлчашга мўлжалланган. Майда тешиклар ва тупроқ тортиш кучи остида сувнинг қанчалик тез сингиши аниқланади. Шунингдек, тупроқнинг сув ўтказувчанлиги, яъни сувнинг майда тешиклар орқали ўтишини таҳлил қилади. Tension инфильтрометр билан ўлчанган инфильтрация натижалари тупроқнинг микропораларидан сувнинг қандай киришини аниқ кўрсатиб беради. Бу усул орқали тупроқнинг тўйинганликка етгунча қанчалик вақт кетишини аниқлаш мумкин. Tension инфильтрометр ёрдамида тупроқнинг гидравлик ўтказувчанлиги юқори аниқлик билан ўлчанади, айниқса капилляр кучлар таъсири остида сувнинг кириши таҳлил қилинади. Tension инфильтрометр ёрдамида тупроқнинг сув ўтқазувчанлигини аниқлашда Wooding тенгламаси асосида инфильтрация ҳисобланади. Ушбу тенглама, тупроқ орқали сувнинг ҳаракатини кузатишда ва гидравлик ўтказувчанликни (К) аниқлашда ишлатилади [7,8]. Wooding тенгламаси (2) доимий ҳолатда доиравий сизилишни ифодалайди ва инфильтрация жараёнининг радиал хусусиятларини ўзида акс эттиради. Тенглама қуйидагича ифодаланади:

$$Q = \pi r^2 K \left[1 + \frac{4}{\pi r \alpha}\right] \quad (2)$$

Бу ерда:

- **Q** – инфильтрация қилган умумий сув ҳажми (м³),
- **K** – тупроқнинг гидравлик ўтказувчанлиги (м/с),
  $K(h) = K_{cat}\, exp(\alpha h)$ (3)
- **α** – инфильтрация радиусига боғлиқ константа,
  $\alpha = \frac{ln[Q(h_2)/Q(h_1)]}{h_2 - h_1}$ (4)
- **r** – инфильтрация ҳалқасининг радиуси (м),

**Tension инфильтрометр ёрдамида ўлчов натижалари.** Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида кузатув участкасида ўтказилган тадқиқотлар бўйича олинган маълумотлар таҳлил қилинганда, ҳар бир тупроқ тури учун сувнинг инфильтрация тезлиги ва сув сатҳи даражаси кузатилди. Қуйидаги 1-жадвалда сув сатҳи даражаси ва инфильтрация тезлиги бўйича олинган маълумотлар келтирилган:

**1-жадвал**

**Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида кузатув участкасида олиб борилган Tension инфильтрометр ўлчаш натижалари**

| Тупроқнинг сув ўтқазувчанлиги (К) | Инфильтрация тезлиги Q (см³/соат) | Альфа α | Тўйинган гидравлик ўтказувчанлик ($К_{сат}$) (см/соат) |
|---|---|---|---|
| Тошкент (-10 см) | 139,905 | 0,061 | 2,8414 |
| Тошкент (-5 см) | 189,649 | 0,398 | 2,8414 |
| Тошкент (-2,5 см) | 512,984 | 0,229 | 2,8414 |
| Жиззах (-10 см) | 279,809 | 0,034 | 0,3220 |
| Жиззах (-5 см) | 331,885 | 0,047 | 0,3220 |
| Жиззах (-2,5 см) | 373,079 | 0,04 | 0,3220 |
| Қашқадарё (-10 см) | 186,54 | 0,139 | 0,0566 |
| Қашқадарё (-5 см) | 93,27 | 0,162 | 0,0566 |
| Қашқадарё (-2,5 см) | 139,905 | 0,012 | 0,0566 |

Бу натижалардан тупроқнинг сув ўтқазувчанлиги Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида ўзгаришлар кўрсатмоқда. Тўйинган гидравлик ўтказувчанлик ($К_{сат}$) бўйича олинган маълумотлар ушбу ҳудудларда тупроқнинг физик хусусиятлари ва сувни қабул қилиш имкониятларини аниқлашга имкон беради.

Суғориладиган тупроқ қатламининг ҳажм оғирлиги 1 г/см$^3$ дан 1,81 г/см$^3$ гача бўлиши мумкин. Таркибида гумус моддаси кўп бўлган тупроқлар зичлиги 1-1,2 г/см$^3$, гумуси кам бўлган тупроқлар зичлиги 1,3-1,5 г/см$^3$ бўлади. Ўзбекистоннинг суғориладиган деҳқончилик ривожланган ҳудудларида тарқалган тупроқларнинг зичлиги 1,3-1,52 г/см$^3$ атрофида бўлади. Устки ҳайдалма қатлам, кичик ҳажмий оғирликка 1,1-1,3 г/см$^3$ эга, чунки бу қатламда агрегатлар ғовак жойлашган бўлади. Қуйи қатламда агрегатлар миқдори камайиб борганлиги ҳамда агрегат ва заррачаларнинг зич жойлашганлиги туфайли бўшлиқлар миқдори камайиб боради, натижада ҳажм оғирлик ортади, 1,6-1,7г/см$^3$ атрофида бўлади. Структурали тупроқлар кичик ҳажм оғирликка эга бўлиб, у бутун ўсув даврида ўзгариб туриши мумкин [16].

Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида кузатув участкасида тажриба майдонлари тупроқ ҳажм оғирлиги қийматлари аниқланганда, улар бир биридан кескин фарқ қилди (2 жадвал).

**2-жадвал**

**Тажриба майдони тупроғларининг ҳажм оғирлиги, г/см$^3$**

| **Қатламлар, см** | **Тошкент** | **Жиззах** | **Қашқадарё** |
|---|---|---|---|
| **0-10** | 1,37 | 1,39 | 1,53 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **10-20** | 1,37 | 1,38 | 1,61 |
| **20-30** | 1,37 | 1.41 | 1,67 |
| **30-40** | 1,38 | 1,41 | 1,52 |
| **40-50** | 1,38 | 1,43 | 1,60 |
| **50-60** | 1,36 | 1,44 | 1,63 |
| **60-70** | 1,36 | 1,45 | 1,71 |
| **70-80** | 1,42 | 1,42 | 1,64 |
| **Ўртача** | **1,38** | **1,42** | **1,61** |




**1-диаграмма. Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида тажриба майдонлари тупроғининг ўртача ҳажм оғирлиги, г/см$^3$**

Тажриба майдонлари тупроғининг ўртача ҳажм оғирлиги Тошкент вилоятида 1.38 г/см$^3$, Жиззах вилоятида 1.42 г/см$^3$ ва Қашқадарё вилоятида 1.61 г/см$^3$ бўлиб, инфильтрация қийматлари ҳам бир биридан фарқ қилди.

Ушбу ўлчов натижалари асосида томчилатиб суғориш учун оптимал нормани ҳисоблаш мумкин бўлади.

**Томчилатиб суғориш меъёри.** Томчилатиб суғориш меъёри (NS) ўсимликларнинг сувга бўлган эҳтиёжи ва тупроқнинг сувни ютиш қобилияти билан боғлиқдир. Ушбу параметрни қуйидаги (5) тенглама ёрдамида аниқлаш мумкин [9]:

$$NS = \frac{P*E}{ET} \qquad (5)$$

Бу ерда:

- **NS** – Томчилатиб суғориш меъёри (л/с ёки мм/с);
- **P** – Тупроқдаги сувнинг даражаси (қайта тўлдирилиши керак бўлган сув миқдори, мм);
- **E** – Суғориш тизимининг самарадорлиги (0 < E < 1, одатда 0.7–0.9);

- **ET** – Ўсимликлар томонидан истеъмол қилинадиган сув миқдори (эвапотранспирация, мм).

$$NS = \frac{(K*A*t)*E}{ET} \qquad (6)$$

Бу ерда:

- **K**— тупроқнинг гидравлик ўтказувчанлиги (м/с ёки мм/с);
- **A**— инфильтрация майдони (м²);
- **t**— вақт (с).

Суғориш меъёри тупроқнинг сув ўтказиш коэффиценти (К) билан боғлиқ бўлиб (6), тупроқнинг сувни қабул қилиш қобилияти ва суғориш вақти (t) ҳам эътиборга олинади. Тупроқнинг сув ўтказувчанлиги паст бўлган ҳолатларда Қашқадарё вилояти учун $К_{сат}$=0,0566 см/соат бўлганда, суғориш меъёри ва суғориш вақтини ошириш керак бўлади. Тупроқнинг сув ўтказиш коэффиценти юқори бўлган Тошкент вилоятида $К_{сат}$=2,8414 см/соат, сув ўтказиш коэффиценти ўртача бўлган Жиззах вилоятида $К_{сат}$=0,3220 см/соат бўлиб, суғориш вақти қисқартирилиши ва суғориш меъёри камайтириш керак бўлади.




**2-диаграмма. Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида кузатув участкасида ўлчанган инфильтрация тезлиги (Q) ва тўйинган гидравлик ўтказувчанлик ($К_{cat}$)**

Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларида ўлчанган инфильтрация тезлиги ва тўйинган гидравлик ўтказувчанлик ($К_{сат}$) бўйича 2-диаграммада тасвирланган. Диаграммадан кўриниб турибдики, Тошкент, Жиззах вилоятидаги тупроқларда инфильтрация тезлиги юқорироқ бўлса, Қашқадарё вилоятида бу

қиймат пастроқ. Шу билан бирга, тўйинган гидравлик ўтказувчанлик Тошкент вилоятида энг юқори. Бу таҳлиллар томчилатиб суғориш меъёри ва суғориш муддатини белгилашда муҳим аҳамият касб этади. Суғориш тизими самарадорлигини ошириш учун инфильтрация тезлиги ва гидравлик ўтказувчанлик каби параметрлар тўғри аниқланиши зарур.

**Хулоса** Тошкент, Жиззах ва Қашқадарё вилоятлари кузатув участкасида Tension инфильтрометр ёрдамида тупроқнинг гидравлик ўтказувчанлиги ва инфильтрация тезлиги ўлчанди. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, Тошкент, Жиззах вилоятларида тупроқнинг гидравлик ўтказувчанлиги ($К_{сат}$) ва инфильтрация тезлиги (Қ) Қашқадарё вилоятига қараганда сезиларли даражада юқори. Бу Тошкент, Жиззах вилоятларидаги тупроқларнинг сувни тезроқ ўтказишини ва суғориш тизимлари учун мақбул сув бериш меъёри қисқароқ вақт ичида амалга оширилиши мумкинлигини англатади. Қашқадарё вилоятида эса инфильтрация тезлиги пастроқ бўлиб, гидравлик ўтказувчанлик ($К_{сат}$) қиймати ҳам нисбатан паст бўлди. Бу тупроқ сувни аста-секин ўзлаштириши ва томчилатиб суғориш тизимида узоқроқ вақт давомида сув беришни талаб қилиши мумкинлигини кўрсатди. Бунда тупроқ турига мос суғориш меъёри ва вақти тўғри белгиланмаса, суғориш самарадорлиги пасайиши ва сув ресурсларидан нотўғри фойдаланиш ҳолати кузатилиши мумкин. Шунингдек, томчилатиб суғориш меъёрини белгилашда тупроқнинг гидравлик ўтказувчанлиги (К) ва ўсимликларнинг сув истеъмол қилиш коэффиценти ($ЕТ_с$) ҳисобга олиниши керак. Ҳисоблашлар натижасида, тупроқнинг сув ўтказувчанлиги юқори бўлган жойларда суғориш вақтини қисқартириш ёки суғориш меъёрини камайтириш мумкинлиги аниқланди. Ушбу тадқиқотнинг амалий аҳамияти шундаки, гидравлик ўтказувчанлик ва инфильтрация тезлигини аниқ белгилаш орқали тупроқнинг сув билан тўйинганлиги даражасини бошқариш ва мақбул суғориш меъёри учун суғориш вақтини тўғри аниқлаш мумкин. Натижада, сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, ҳосилдорликни ошириш ва экологик барқарорликни таъминлашга эришилади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Hillel D. (1998) “*Environmental Soil Physics*” // Academic Press. ISBN: 978-0123486554.

2.Reynolds W.D., & Elrick D.E. (1991) “Determination of hydraulic conductivity using a tension infiltrometer” // *Soil Science Society of America Journal, 55*(5), 1233-1241.

https://doi.org/10.2136/sssaj1991.03615995005500030001x

3.Perroux K.M., & White I. (1988) "Design for disk permeameters" // Soil Science Society of America Journal, 52(5), 1205-1215.

https://doi.org/10.2136/sssaj1988.03615995005200050001x

4.Reynolds W.D., & Elrick D.E. (1985) "In-situ measurement of field-saturated hydraulic conductivity using tension infiltrometers" // *Water Resources Research*, *21*(9), 1396-1402.

https://doi.org/10.1029/WR021i009p01396

5.Bouwer H. (1986) "Methods of Soil Analysis. Part 1. Physical and Mineralogical Methods" // Soil Science Society of America.

**6.**Perroux K.M., & White I. (1988). "Design for disk permeameters" // Soil Science Society of America Journal, 52(5), 1205-1215.

https://doi.org/10.2136/sssaj1988.03615995005200050001x

7.Wooding, R. A. (1968) "Steady infiltration from a shallow circular pond" // *Water Resources Research*, 4(6), 1259-1273.

https://doi.org/10.1029/WR004i006p01259 .

8.Reynolds W.D., & Elrick D.E. (1985) "In-situ measurement of field-saturated hydraulic conductivity using tension infiltrometers" // *Water Resources Research*, 21(9), 1396-1402.

https://doi.org/10.1029/WR021i009p01396.

9.Allen R.G., Pereira L.S., Raes D., & Smith M. (1998). "*Crop Evapotranspiration: Guidelines for Computing Crop Water Requirements*" // FAO Irrigation and Drainage Paper No. 56.

10. Rawls W.J., Brakensiek D.L., & Saxton K.E. (1982) "Estimation of Soil Water Properties" // Transactions of the ASAE, 25(5), 1316-1320.

https://doi.org/10.13031/2013.33720.

11. Kirkham, D. (1957) "*Field Measurement of Soil Water Permeability*" // Soil Science Society of America Journal, 21(6), 537-543. https://doi.org/10.2136/sssaj1957.03615995002100060003x

12. Nielsen, D. R., & Biggar, J. W. (1961). "*Miscible Displacement: A New Approach to Soil Water Studies" //* Soil Science Society of America Journal, 25(6), 555-559. https://doi.org/10.2136/sssaj1961.03615995002500060005x.

13. Garnier, P., & Menard, G. (2002) "*Development of a New Tension Infiltrometer Design for Measuring Soil Permeability*" // Journal of Hydrology, 259(1-4), 194-204.

https://doi.org/10.1016/S0022-1694(01)00557-6.

14. Keller J., & Bliesner R.D. (1990) "*Sprinkler and Trickle Irrigation*" // New York: Van Nostrand Reinhold.

15. Angulo-Jaramillo R., Vandervaere J.P., Roulier S., Thony J.L., Gaudet J.P., Vauclin M. (2000) "Field Measurement of Soil Surface Hydraulic Properties by Disc and Ring Infiltrometers: A Review and Recent Developments" // Soil and Tillage Research, 55(1-2), 1-29.
https://doi.org/10.1016/S0167-1987(00)00098-2

16. О.Рамазонов, С.С.Буриев "Мелиоратив тупроқшунослик" // Дарслик. –Т.: ТИҚХММИ, 2019-137 бет. https://staff.tiiame.uz/storage/users/162/books/Vir6Exi1T3iecSSB5qgm93SPqhPccMceF25ZBHs5.pdf

# THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC ROLE OF GREENHOUSE FARMING IN FOOD SECURITY UNDER CLIMATE AND RESOURCE CONSTRAINTS: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND IMPLICATIONS FOR UZBEKISTAN

Otavullaev Sukhrob
*TIIAME National Research University (TIIAME NRU)*
*E-mail: aripovsuxrobxon@gmail.com*

***Abstract.*** *This study analyzes the organizational and economic role of greenhouse farming in ensuring food security, improving resource-use efficiency, and strengthening market stability. Based on the theoretical approaches, international experience, and indicators for Uzbekistan presented in the dissertation, the paper highlights key aspects of a comprehensive assessment of greenhouse systems. The organizational, technological, and market mechanisms of greenhouse development in the Netherlands, Spain, and Israel are examined from the perspective of their adaptation to Uzbekistan. The results substantiate the need to combine cooperation, technological modernization, resource efficiency, and export-oriented management.*

***Keywords:*** *food security; greenhouse farming; organizational and economic mechanism; resource efficiency; international experience; export; cooperation*

## Introduction

A piece of writing may have several evident mistakes yet remain grounded in basic structures, recurring phrases, and ambiguous terms. This type of writing is accurate in terms of phrase structure but falls short in conveying relationships or nuances of meaning. However, complexity is not an objective in and of itself; the use of language must align with the desired meaning and remain within the writer's grasp. a future teacher, linguistic competence serves an extra instructional purpose. The teacher must recognize the students' mistakes, explain the underlying reasons, propose suitable solutions, and create exercises for recurring issues.

**The Discourse-Pragmatic component**

Grammatically accurate sentences do not ensure a successful composition. Concepts should be interconnected, organized, and elaborated upon a fundamental theme. Bachman's textual proficiency encompasses the principles of linking statements

into a cohesive narrative thru coherence and rhetorical structure (Bachman, 1990, pp. 87-90). This facet of communication, within the current structure, is defined by a distinct central theme, paragraph consistency, logical advancement, cohesiveness, coherence, and sufficient backing.

The pragmatic component concerns the connection between the text and the communicative context. One must take into account the degree of detail, tone, substantiation, register, and structure appropriate for a communication to a friend, an elucidation for school students, a university dissertation, and a conference presentation. Hyland's genre-oriented perspective perceives writing as a means of conveying messages to readers for socially acknowledged objectives, rather than merely generating forms devoid of context (Hyland, 2003, pp. 18-25). The discourse-pragmatic element is characterized as the capacity to structure concepts into a cohesive narrative and to tailor that narrative to its audience, intent, genre, and situation. The practical characteristics of the CEFR encompass thematic development, coherence and cohesiveness, adaptability, and propositional accuracy (Council of Europe, 2020, p. 137-141).

This component facilitates performance and guidance for pre-serviceteachers. A teacher should be able to explain the reasons a paragraph composed of grammatically correct sentences may be challenging to comprehend. Feedback needs to address an unclear thesis, weak support, sudden shifts of topic, inappropriate register, and the overall communicative effect of the text, not only surface errors.

**The Strategic Component**

Writing begins with decisions taken prior to composing the initial sentence. The author examines the task, determines a goal, refines the subject, produces concepts, selects data, and formulates a suitable framework. Bachman's strategic competence connects linguistic knowledge to the demands of specific contexts thru evaluation, preparation, and implementation (Bachman, 1990, pp. 98-103).

The strategic component of this approach include task analysis, goal setting, brainstorming, outlining, drafting, use of reference resources, time management, revision, and editing. The CEFR also represents communicative techniques related to planning, execution, monitoring, and repair (Council of Europe, 2020, p. 33-35). It is essential to discern a meaningful distinction between revision and editing. Revision pertains to the thesis, supporting evidence, structural structure, and idea growth, while editing focuses on grammar, vocabulary, spelling, and punctuation. When both are reduced to the stage of proofreading, the argument may appear more coherent philosophically, however remains feeble.

Future educators are required to implement these tactics as well as instruct others in their application. They should break down intricate work into feasible segments, pinpoint areas where a learner struggles, and select assistance suitable for the issue. Input on the procedure is especially beneficial as it allows students to recognize the consequences of their choices while revisions remain feasible. Teacher-student discussions can reveal strengths and flaws and lead to a definitive revision strategy when students engage actively (Hyland, 2003, pp. 192-193).

**Reflective component**

The reflective component is introduced as an enhancement by the author. The learner's capacity to evaluate the writing process and the completed text, identify strengths and persistent issues, and utilize this understanding in subsequent tasks;

Did the text fulfilll its intended purpose?

Was the central concept evident and substantiated?

Is the target audience able to comprehend the logic?

Did any alterations occur during the revision process?

What advancements may be observed across various tasks?

This constitutes an analysis grounded in Schön's reflective approach. Reflection-in-action defines implicit knowledge and enables a practitioner to scrutinize the conceptualization of an issue and modify their actions as necessary (Schön, 1983, pp. 59-69). In the writing process, the student not only edits an unsuccessful passage but also considers the reasons for its failure, the choices that contributed to the issue, and what different approach could have been more effective. Correction addresses the immediate error; reflection transforms that occurrence into knowledge for subsequent actions.

Feedback does not automatically produce development. The present version is improved, although the lesson fails to be conveyed, as students might accept a revision without comprehending its necessity. Hyland advocates for peer feedback and introspective exercises in which authors articulate their attempts, successes, failures, and future intentions (Hyland, 2003, pp. 202-206). Self-assessment checklists, reflective notes, writing journals, error logs, peer-feedback forms, and portfolios may serve this function if they yield concrete objectives for the subsequent task. These practices enhance the capacity to provide constructive feedback and to contemplate pedagogical choices for aspiring educators.

**Functional Interrelation of the Components**

The four elements can be described individually for analytical reasons, although in practical writing, they do not function autonomously. Proper grammar cannot compensate for chaotic ideas or a lack of consideration for the audience. A thoroughly constructed argument may lack clarity if persistent lexical and syntactical issues obstruct comprehension. Ineffective planning results in the neglect of valuable concepts. Inadequate reflection allows for the recurrence of same issues. The quality of writing is consequently dictated by the organization of elements for a communicative objective.

The significance of each fluctuates during the writing process. Strategic proficiency is most apparent in task evaluation, objective formulation, concept development, and preparatory preparation before composition, whereas discourse-pragmatic awareness guides decisions regarding audience and genre. Linguistic tools influence meaning in the drafting process, while discourse-pragmatic proficiency structures meaning into paragraphs and broader portions. The writer use strategic and introspective methodologies to analyze comments and determine essential modifications to meaning, structure, or language during the revision phase. This distribution is not definitive, but rather comparative, as each additional component persists in functioning to some extent throughout the process.

The framework may also be provisionally associated with Design Thinking. Empathize focuses on the target audience; Define and Ideate pertain to articulating the writing challenge and brainstorming potential concepts; Prototype transforms those concepts into a preliminary text; Test and Reflect emphasize evaluation and enhancement. This mapping represents an authorial implementation rather than a categorization by Koh and associates. (Koh et al., 2015, pp. 109-110) aligns with their perspective that design encompasses the continual creation and enhancement of concepts, emphasizing that the caliber of the process holds equal significance to the end result. Its significance for composing for actual audiences is further reinforced by their focus on human-centricity, discernment, and introspection (Koh et al., 2015, pp. 4–5).

**Conclusion**

The writing proficiency of pre-service English teacherss cannot be adequately characterized by grammar, vocabulary, and spelling alone. The linguistic component enhances the precision and variety of the articulation. The discourse-pragmatic component structures meaning into a cohesive text suitable for its audience and intent. Strategic component encompasses the processes of planning, composing, revising, and editing. The reflective component enables students to evaluate experiences and use feedback in subsequent work.

The value of the four-component framework lies in the functional relationship it makes visible. Each element has a unique emphasis, although no single component is adequate independently. The distinct pre-services teachers must acquire the skills to enhance their own writing, comprehend student challenges, and make judicious instructional choices.

The framework may serve as theoretical basis for writing tasks, analytic assessment criteria, diagnosis of student needs, and writing instruction informed by Design Thinking. Nevertheless, it remains a theoretical proposition. The practical significance and the constraints of its elements ought to be examined thru empirical studies and classroom experimentation.

## References

1. Bachman, L. F. (1990). Fundamental considerations in language testing. Oxford University Press.

2. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment - Companion volume. Council of Europe Publishing.

3. Hyland, K. (2004). Second language writing. Cambridge University Press pp. 18-25

4. Koh, J. H. L., Chai, C. S., Wong, B., and Hong, H.-Y. Design thinking for education: Conceptions and applications in teaching and learning. Springer

5. Schön, D.A. (1983). The reflective practitioner: How professionals think in action. Basic Books.

# SHAXS XULQ-ATVORI DESTRUKTIV VA DEVIANT SHAKLLARINING OLDINI OLISHDA O‘Z-O‘ZINI NAZORAT QILISH FUNKSIYALARI VA ULARNING GENDER XUSUSIYATLARI

Norboyeva Surayyo O‘razali qizi
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*E-mail: mirzo92surayyo93@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada shaxs xulq-atvoridagi deviant va destruktiv shakllarning namoyon bo‘lishida o‘z-o‘zini nazorat qilish tizimidagi inhibitor, ya’ni to‘xtatuvchi funksiyalarning o‘rni hamda ularning gender spetsifikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot xorijiy psixologik va kriminologik maktablarning fundamental nazariyalari va zamonaviy neyromorfologik (fMRT) tajribalar natijalariga tayanadi. Maqolada erkaklar va ayollarda impulsivlikni jilovlash, risk rag‘batiga javob reaksiyalari va sotsiomadaniy taqiqlarni qabul qilish mexanizmlari qiyosiy o‘rganilgan bo‘lib, olingan xulosalar shaxs xulq-atvorini korreksiya qilish va profilaktika tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *o‘z-o‘zini nazorat qilish, inhibitor funksiyalar, gender xususiyatlari, deviant xulq-atvor, destruktivlik, impulsivlik, prefrontal qobiq, jinoyatning umumiy nazariyasi.*

***Abstract.*** *This article analyzes the role of inhibitory control functions within the self-regulation system in the manifestation of deviant and destructive behavioral patterns, alongside their gender specification. The study draws upon fundamental theories from foreign psychological and criminological schools, as well as the results of contemporary neuromorphological (fMRI) experiments. By comparatively examining the mechanisms of impulse inhibition, response to risk incentives, and the internalization of socio-cultural prohibitions in men and women, the findings serve to improve behavioral correction strategies and preventive frameworks.*

***Keywords:*** *self-control, inhibitory functions, gender differences, deviant behavior, destructiveness, impulsivity, prefrontal cortex, general theory of crime.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется роль ингибиторных (тормозных) функций в системе самоконтроля при проявлении девиантных и деструктивных форм поведения личности, а также их гендерная специфика.*

*Исследование опирается на фундаментальные теории зарубежных психологических и криминологических школ, а также на результаты современных нейроморфологических (фМРТ) экспериментов. В работе проведен сравнительный анализ механизмов сдерживания импульсивности, реакций на риск-стимулы и восприятия социокультурных запретов у мужчин и женщин. Полученные выводы служат совершенствованию системы коррекции поведения личности и профилактических мер.*

***Ключевые слова:*** *самоконтроль, ингибиторные функции, гендерные особенности, девиантное поведение, деструктивность, импульсивность, префронтальная кора, общая теория преступности.*

**Kirish.** Zamonaviy differensial psixologiya, kriminologiya va ijtimoiy pedagogika oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri — shaxs xulq-atvoridagi destruktiv va deviant tendensiyalarning etiologiyasini tushunish hamda ularning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Jamiyatning jadal globallashuvi, raqamli makonning kengayishi va an’anaviy ijtimoiy institutlar ta’sirining zaiflashuvi sharoitida shaxsni salbiy ta’sirlardan va patologik impulslardan himoya qiluvchi asosiy qalqon uning ichki tizimi — o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatidir.

O‘z-o‘zini nazorat qilishning eng muhim komponenti uning inhibitor funksiyasi — taqiqlovchi, to‘xtatib qoluvchi nazorat hisoblanadi. Aynan mana shu funksiya inson ichida tug‘ilgan bir lahzalik agressiv impuls, qonunni buzishga bo‘lgan vasvasa yoki destruktiv xohish-istaklarni uzoq muddatli salbiy oqibatlarni anglash orqali sotsial to‘xtatib qoladi.

**Asosiy qism.** Uzoq yillar davomida kriminologiya va deviantologiya sohasida xulq-atvor og‘ishlari ko‘proq makroijtimoiy omillar, iqtisodiy yetishmovchilik, submadaniyatlar ta’siri bilan tushuntirib kelindi. Biroq, XXI asr psixologiyasidagi neyroimaging, ya’ni miyani fMRT orqali vizuallashtirish va uzoq muddatli kohort tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bir xil ijtimoiy muhitda o‘sgan, ammo jinsi turlicha bo‘lgan shaxslarning destruktiv qo‘zg‘atuvchilarga bo‘lgan ichki inhibitor reaksiyalari o‘rtasida tub farqlar mavjud.

Inhibitor nazorat tushunchasi psixologiyaga ham kognitiv, ham irodaviy jarayonlarning chorrahasi sifatida kirib kelgan. Kognitiv psixologiyada u “ijro etuvchi funksiyalar” tizimiga kiritiladi va shaxsning birinchi navbatda avtomatlashgan, instinktiv reaksiyalarini ongli ravishda bloklash qobiliyatini anglatadi.

Ushbu sohadagi fundamental metodologik asoslardan biri M. Gottfredson va T. Hirschi tomonidan ilgari surilgan “A General Theory of Crime” – “Jinoyatning umumiy nazariyasi” hisoblanadi[4]. Unga ko‘ra, har qanday deviant, delinkvent yoki jinoiy xulq-atvorning negizida shaxsda o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasining pastligi yotadi.

Past o‘z-o‘zini nazorat qiluvchi shaxslarga quyidagi xususiyatlar xosdir:

- Darhol mukofot olishga intilish va kelajakni rejalashtira olmaslik;
- Vazifalarni intellektual emas, ko‘proq jismoniy yo‘l bilan hal qilishga moyillik;
- Tavakkalchilik va kuchli emotsional taassurotlarga bo‘lgan ochlik;
- Boshqalarning his-tuyg‘ulariga nisbatan egotsentrizm va empatiyaning pastligi.

Gender jihatidan olib qaralganda, ushbu nazariya asoschilari o‘g‘il bolalar va erkaklarda hayotning dastlabki bosqichlaridanoq past o‘z-o‘zini nazorat qilish elementlari ko‘proq namoyon bo‘lishini, bu esa ularni gender jihatidan deviant xulq-atvorga moyilligini ta’kidlaydilar.

Xorijiy differensial psixofiziologiyada deviantlikka qarshi kurashuvchi ikki bosqichli neyronal model qo‘llaniladi. Birinchi bosqich — qo‘zg‘alish, ya’ni tashqi stimullarga javoban miyaning emotsional markazlarida destruktiv impulsning tug‘ilishi. Ikkinchi bosqich — ingibitsiya, ya’ni prefrontal qobiq tomonidan ushbu impulsga cheklov qo‘yilishi.

Tadqiqotchi R. Piquero va uning hammualliflari o‘tkazgan cross-cultural – madaniyatlararo tajribalar shuni ko‘rsatdiki, qo‘zg‘alish darajasi erkak va ayollarda deyarli bir xil kechishi mumkin. Masalan, har ikkala jins vakillarida ham bir xil darajada kuchli jahl yoki agressiya qo‘zg‘atish mumkin, biroq ikkinchi bosqich — ya’ni impulsni jilovlovchi inhibitor to‘siqning ishlash kuchi va barqarorligida jiddiy gender assimetriyasi kuzatiladi[5].

Neyromorfolog olimlar E. Miller va J. Cohen o‘zlarining ko‘p yillik tadqiqotlarida aniqlashicha, prefrontal qobiqning, ayniqsa, inhibitor nazorat uchun mas’ul bo‘lgan oventrolateral va dorsolateral qismlarining) miyelinizatsiya – neyron tolalari qobig‘ining shakllanishi jarayoni ayollarda o‘g‘il bolalarga qaraganda ancha erta va tekis kechadi [6].

[4] M. Gottfredson, T. Hirschi. A General Theory of Crime and Self-Control: Gender Perspectives. – Stanford : Stanford University Press, 2020. – 320 p.

[5] A. Piquero, W. Jennings, D. Farrington. On the link between low self-control and deviant behavior: A meta-analysis of cross-cultural studies // International Journal of Offender Therapy and Comparative Criminology. – 2018. – Vol. 62, No. 4. – P. 890–915

[6] E. Miller, J. Cohen. An integrative theory of prefrontal cortex function // Annual Review of Neuroscience. – 2021. – Vol. 24, No. 1. – P. 167–202.

Bunga eksperimental misol qilib, xalqaro miya tadqiqotlari markazi tomonidan o‘smirlar o‘rtasida "Go/No-Go" (Bajar/To‘xtat) neyropsixologik testi o‘tkazilgan. Ushbu testda monitor ekranida ma’lum bir belgi chiqqanda tugmani tez bosish (Go), ammo kutilmaganda boshqa signal chiqqanda harakatni darhol to‘xtatish (No-Go) talab etiladi. fMRT apparati ostida o‘tkazilgan ushbu tajribada qiz bolalar No-Go signaliga javoban miyaning o‘ng inferior frontal girus sohasini kamroq energiya sarflab, tezroq va aniqroq faollashtirganlar. O‘g‘il bolalarda esa xuddi shu inhibitor reaktsiyani amalga oshirish uchun miya ancha ko‘p resurs sarflagan va xatoliklar (impulsni to‘xtata olmay tugmani bosib yuborish holatlari) erkak jinsida 35% ga ko‘proq kuzatilgan[7]. Bu holat shuni isbotlaydiki, ayollar miyasi biologik jihatdan kutilmagan, nojo‘ya va destruktiv impulslarni to‘xtatib qolish mexanizmiga neyronal darajada tezroq va barqarorroq moslashgan.

O‘z-o‘zini nazorat qilishning pastligi tufayli yuzaga keladigan destruktiv xulq-atvor shakllari ham erkak va ayollarda mutlaqo turlicha fenotipik (tashqi) ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

N. Else-Quest va uning jamoasi tomonidan o‘tkazilgan keng ko‘lamli meta-analitik sharhlarda qayd etilishicha, o‘z-o‘zini nazorat qila olmaslik oqibatida yuzaga keladigan jismoniy agressiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha erkaklar mutloq ustunlikka ega [8]. Erkak kishining ichidagi agressiv impuls tashqi muhitga, jismoniy obyektlarga yoki boshqa insonlarga yo‘naltiriladi.

Masalan, xorijiy kriminologik tadqiqotlarda “Ekstremal vaziyatlarda ko‘cha zo‘ravonligi” hodisalari tahlil qilinganda, erkaklarda intizomsizlik bir lahzada jismoniy to‘qnashuvga aylanadi. Ularda inhibitor nazorat tahdid qarshisida “mening g‘ururim pasaymoqda” degan signal kelishi bilan o‘chib qoladi. Ayollarda esa huddi shu vaziyatda inhibitor funksiya “vaziyatdan uzoqlashish” yoki verbal (so‘z orqali) himoyalanish shaklida ishlaydi. Ayol kishi jismoniy kuch ishlatish destruktiv oqibatlar olib kelishini ichki darajada tezroq tahlil qila oladi. Biroq, bu ayollarda destruktivlik umuman yo‘q degani emas. Ayollar o‘z-o‘zini nazorat qilish pasayganda jismoniy emas, balki “relasial agressiya”, ya'ni ijtimoiy munosabatlarni buzish, g‘iybat, intrigalar va psixologik manipulyatsiyalar orqali o‘z destruktiv impulslarini namoyon qiladilar. Bu sohada ularning inhibitor to‘siqlari sustroq bo‘lishi mumkin.

[7] E. Bell, W. Overman. Gender differences in the "Go/No-Go" task Performance and Prefrontal Cortex Activation: An fMRI study // Cognitive Development. – 2022. – Vol. 61. – P. 101-132.

[8] N. Else-Quest, J. Hyde, H. Goldsmith. Gender differences in self-regulation: A meta-analytic review // Psychological Bulletin. – 2016. – Vol. 132, No. 4. – P. 539–571.

Klinik psixologiyada o‘z-o‘zini nazorat qilishning eng og‘ir destruktiv oqibati sifatida kimyoviy – alkogolizm, narkomaniya va nomoddiy – ludomaniya, ya’ni qimorbozlik kabi qaramliklar o‘rganiladi. S. Cross va hamkasblari tadqiqotlariga ko‘ra, bu sohada ham gender farqlari inhibitor mexanizmning zaiflashish nuqtalarini ko‘rsatib beradi[9]. Erkaklar ko‘proq impulsiv tarzda yangi tuyg‘ularni qidirish va tengdoshlari orasida yetakchilikni ko‘rsatish maqsadida zararli moddalar yoki qimor o‘yinlariga aralashib qolishadi. Ularning inhibitor tizimi “katta yutuq” vasvasasi oldida taslim bo‘ladi. Ayollar esa qaramlik ko‘chasiga ko‘proq “o‘z-o‘zini davolash”, ya’ni ruhiy jarohatlar, xavotir va ichki og‘riqlarni bostirish maqsadida kirib borishadi. Ayol kishining inhibitor nazorati emotsional distress oqibatida parchalanadi. Ya’ni, uning emotsional o‘z-o‘zini boshqarishi buzilgach, xulq-atvor ustidan nazorat ham zanjirsimon tarzda uziladi.

Inhibitor funksiyalarning biologik poydevori ustiga ijtimoiy muhit va gender sotsializatsiyasi – jamiyatning erkak va ayol xulq-atvoriga qo‘yadigan talablari imorati quriladi. L. Melfi va M. Gentry tadqiqotlari ushbu sotsiomadaniy ta’sir zanjirini mukammal ochib beradi[10].

G‘arb va Sharq madaniyatlarida qiz bolalar tarbiyasi uning ichki inhibitor tizimida “ijtimoiy mas’uliyat va uyat” mexanizmlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Qiz boladan har qadamda o‘zidan kattalarni hurmat qilish, tartibli bo‘lish, atrofdagilarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish va tajovuzkorlik ko‘rsatmaslik talab etiladi.

Bunga klinik-psixologik misol sifatida shuni keltirishimiz mumkin: xorijiy profilaktika muassasalarida o‘tkazilgan so‘rovnomalardan T. Moffitt kohort tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, qiz bolalar kichik bir huquqbuzarlik, masalan, do‘kondan narsa o‘g‘irlash yoki dars qoldirishdan oldin, "Agar buni ota-onam bilsa, nima bo‘ladi?", "Mening obro‘yim qanday to‘kiladi?" degan savollarni o‘zlariga berishadi. Ulardagi inhibitor nazorat ichkilashtirilgan bo‘lib, tashqi nazoratchi, masalan, militsiya, kamera, ota-ona yo‘q bo‘lgan taqdirda ham, ichki aybdorlik hissi ularni destruktiv harakatdan to‘xtatib qoladi[11].

O‘g‘il bolalar tarbiyasida esa jamiyat ko‘pincha ularning agressiyasi, sho‘xligi va qoidalarni buzishiga “u — o‘g‘il bola, sho‘x bo‘ladi-da” qabilida tolerant

[9] E. Cross, L. Madson. Models of the self: Self-construals and gender in addictive behaviors // Psychological Bulletin. – 2019. – Vol. 122, No. 1. – P. 5–37.

[10] L. Melfi, M. Gentry. Socialization, external compliance, and the development of inhibitory control in children // Early Childhood Research Quarterly. – 2022. – Vol. 59. – P. 112–124.

[11] T. Moffitt. A gradient of childhood self-control predicts life, health, wealth, and public safety: Gender and cohort longitudinal analysis // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2021. – Vol. 108, No. 7. – P. 2693–2698.

munosabatda bo‘ladi. Erkak kishining intizomi ko‘proq tashqi kuch va sanksiyalar – jarimalar, jismoniy jazo, qonuniy javobgarlik bilan tartibga solinadi.

Natijada, erkak kishida tashqi intizomga bog‘liqlik ustunlik qiladi. Erkaklar inhibitor nazorati ko‘pincha: “Agar meni ushlashsa, jazolashadi” degan mantiq asosida ishlaydi. Agar tashqi nazorat tizimi zaiflashsa yoki anonimlik muhiti yuzaga kelsa, masalan, internetdagi kiber-boshboshdoqlik, ommaviy tartibsizliklar yoki urush harakatlari ketayotgan hududlar, erkaklarda destruktiv impulslarni jilovlash ko‘rsatkichi ayollarga qaraganda bir necha barobar tezroq pasayib ketadi. Internet tarmog‘idagi kiberbaxillik, haqoratli trollik va virtual destruktivlik holatlarining aksariyati aynan nazorat yo‘qolgan sharoitda erkak foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirilishi ham ushbu fikrni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Xorijiy ilmiy maktablarning fundamental qarashlari va zamonaviy empirik tadqiqotlarining qiyosiy-sintezlashgan tahlili quyidagi konseptual xulosalarni chiqarishga asos bo‘ladi: shaxs xulq-atvori destruktiv va deviant shakllarining oldini olishda inhibitor funksiyalar markaziy psixofiziologik to‘g‘on vazifasini o‘taydi. Ushbu to‘g‘onning mustahkamligi jinsiy dimorfizm va neyrobiyologik arxitektonika bilan bevosita bog‘liq. Shuningdek, ayollar biologik va sotsiomadaniy omillar tufayli umumiy inhibitor nazorat ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqoriroq barqarorlik namoyish etadilar. Ularning destruktivligi ko‘proq verbal yoki relasial – munosabatlararo xarakterga ega bo‘lib, asosan chuqur ruhiy distress va emotsional resurslarning tugashi oqibatida yuzaga chiqadi. Erkaklarda esa impulsiv harakatlarni va jismoniy agressiyani to‘xtatib qolish to‘sig‘i gormonal omillar va “tashqi intizomga bog‘liqlik” sababli zaifroq tuzilishga ega. Erkaklar inhibitor tizimi ayniqsa anonimlik, tashqi nazoratning yo‘qligi va tezkor rag‘bat vaziyatlarida tez parchalanishga moyil bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M. Gottfredson, T. Hirschi. A General Theory of Crime and Self-Control: Gender Perspectives. – Stanford : Stanford University Press, 2020. – 320 p.
2. A. Piquero, W. Jennings, D. Farrington. On the link between low self-control and deviant behavior: A meta-analysis of cross-cultural studies // International Journal of Offender Therapy and Comparative Criminology. – 2018. – Vol. 62, No. 4. – P. 890–915.
3. E. Miller, J. Cohen. An integrative theory of prefrontal cortex function // Annual Review of Neuroscience. – 2021. – Vol. 24, No. 1. – P. 167–202.

4. E. Bell, W. Overman. Gender differences in the "Go/No-Go" task Performance and Prefrontal Cortex Activation: An fMRI study // Cognitive Development. – 2022. – Vol. 61. – P. 101-132.

5. N. Else-Quest, J. Hyde, H. Goldsmith. Gender differences in self-regulation: A meta-analytic review // Psychological Bulletin. – 2016. – Vol. 132, No. 4. – P. 539–571.

6. E. Cross, L. Madson. Models of the self: Self-construals and gender in addictive behaviors // Psychological Bulletin. – 2019. – Vol. 122, No. 1. – P. 5–37.

7. L. Melfi, M. Gentry. Socialization, external compliance, and the development of inhibitory control in children // Early Childhood Research Quarterly. – 2022. – Vol. 59. – P. 112–124.

8. T. Moffitt. A gradient of childhood self-control predicts life, health, wealth, and public safety: Gender and cohort longitudinal analysis // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2021. – Vol. 108, No. 7. – P. 2693–2698.

# DIDACTIC POTENTIAL OF LINGUOSTYLISTIC DEVICES IN DEVELOPING STUDENTS' SPEECH COMPETENCE

Zaripova Soxiba Orif qizi
Bukhara State Pedagogical Institute
E-mail: sohibazaripova872@gmail.com

***Abstract.*** *The article investigates the didactic potential of linguostylistic devices in developing students' speech competence within the framework of modern educational approaches. The relevance of the research is determined by the necessity of improving learners' ability to communicate effectively, express ideas logically, and use language resources appropriately in different communicative contexts. Linguostylistic devices such as metaphors, epithets, comparisons, phraseological units, and expressive syntactic structures are considered not only as linguistic phenomena but also as valuable pedagogical tools. Their purposeful implementation in language education contributes to vocabulary enrichment, development of creative thinking, improvement of speech expressiveness, and formation of communicative-pragmatic competence.*

***Key words:*** *speech competence, linguostylistic devices, communicative competence, teaching methodology, language education, stylistic resources.*

***Аннотация.*** *В статье рассматривается дидактический потенциал лингвостилистических средств в развитии речевой компетенции учащихся в процессе современного образования. Особое внимание уделяется возможностям использования метафор, эпитетов, сравнений, фразеологических единиц и экспрессивных синтаксических конструкций как эффективных средств формирования коммуникативных навыков. Подчеркивается роль лингвостилистических средств в развитии выразительности речи, творческого мышления и способности обучающихся использовать языковые единицы в соответствии с коммуникативной ситуацией.*

***Ключевые слова:*** *речевая компетенция, лингвостилистические средства, коммуникативная компетенция, методика обучения, языковое образование.*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda lingvostilistik vositalarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Metafora, epitet, o'xshatish, frazeologik birliklar va*

*ekspressiv sintaktik vositalarning o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Lingvostilistik vositalardan metodik foydalanish nutqning aniqligi, ta’sirchanligi, ijodiyligi va pragmatik samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *nutqiy kompetensiya, lingvostilistik vositalar, kommunikativ kompetensiya, o‘qitish metodikasi, til ta’limi.*

## Introduction

In the contemporary educational paradigm, the development of students’ speech competence is considered one of the essential objectives of language teaching. The competency-based approach requires learners not only to acquire theoretical knowledge of language structures but also to apply this knowledge effectively in real communication. Speech competence reflects the ability of an individual to produce meaningful, accurate, culturally appropriate, and contextually relevant speech. The formation of speech competence requires the implementation of effective teaching strategies and educational materials. In this context, linguostylistic devices have significant pedagogical value because they demonstrate the functional possibilities of language and help learners understand how linguistic choices influence communication. Through stylistic analysis and practical activities, students develop awareness of expressive language use and improve their communicative performance.

## Theoretical Foundations of Speech Competence Development

The theoretical basis of speech competence development is connected with psychological, linguistic, and pedagogical approaches. According to Canale and Swain, communicative competence includes grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic components. This model emphasizes that successful communication depends not only on linguistic knowledge but also on the ability to use language appropriately.

A.A. Leontiev views speech activity as a complex process involving motivation, planning, production, and interpretation. From this perspective, language education should focus on developing learners’ ability to organize and express thoughts effectively. Linguostylistic devices support this process by providing opportunities for meaningful language practice.

## Linguostylistic Devices as Pedagogical Resources

Linguostylistic devices represent important resources for enriching the educational process. Metaphors develop learners’ ability to think creatively and understand figurative meanings. Epithets and comparisons improve descriptive abilities and make speech more expressive. Phraseological units contribute to cultural awareness

and help students master authentic language use.

In teaching practice, these devices can be introduced through literary texts, authentic materials, dialogues, and communicative tasks. Students can analyze stylistic features, identify their functions, and apply similar structures in their own speech production. Such activities encourage active participation and improve language flexibility.

**Methodological Approaches to Using Linguostylistic Devices**

The effective integration of linguostylistic materials requires appropriate teaching methods. Text-based analysis allows learners to examine the relationship between language form and communicative purpose. Creative writing activities encourage students to use stylistic elements independently. Role-playing and discussion tasks create natural communicative situations where learners practice expressive speech.

Another effective approach is contextual learning. When stylistic devices are studied within meaningful contexts, students understand their pragmatic functions more easily. This approach develops not only linguistic knowledge but also critical thinking and intercultural awareness.

**The Role of Linguostylistic Devices in Improving Speech Competence**

The systematic use of linguostylistic devices positively influences several components of speech competence. First, it expands students' vocabulary and improves their ability to select appropriate linguistic forms. Second, it develops expressive and emotional aspects of communication. Third, it increases learners' confidence in producing original and meaningful statements.

Furthermore, stylistic activities contribute to the development of pragmatic competence because students learn to adapt their speech according to the audience, purpose, and communicative situation. Therefore, linguostylistic devices should be considered an important component of modern language teaching methodology.

**Conclusion**

Linguostylistic devices possess considerable didactic potential in developing students' speech competence. Their integration into educational practice enhances learners' communicative abilities, creativity, and pragmatic awareness. The purposeful use of stylistic resources transforms language learning from the memorization of rules into an active process of communication and self-expression. Therefore, linguostylistic approaches can serve as an effective methodological foundation for improving the quality of language education.

## References

1. Canale, M., Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1980.

2. Leontiev, A.A. Fundamentals of Psycholinguistics. Moscow: Smysl, 2003.

3. Vygotsky, L.S. Thought and Language. Cambridge: MIT Press, 1986.

4. Halliday, M.A.K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. London: Edward Arnold, 1978.

5. Richards, J.C., Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.

6. Galperin, I.R. Stylistics. Moscow: Higher School, 1977.

# MAKTABLARDA O‘QUVCHILARINING FIZIKA FANIDAN TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ospanova Saltanat Sarsenbay qizi
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute*
*(Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri)*
osaltanat935@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu tezisda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning fizika fanidan tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish usullarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, STEM yondashuvi, interaktiv hamda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy, amaliy va amaliy-fizik ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Fizika darslarida amaliy va kontekstli topshiriqlarni qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri asoslab berilgan hamda o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *fizika ta’limi, tayanch kompetensiyalar, zamonaviy metodlar, STEM yondashuv, raqamli texnologiyalar, amaliy ko‘nikmalar, ta’lim samaradorligi.*

***Аннотация:*** *В данной тезисной работе освещаются вопросы совершенствования методов формирования и развития базовых компетенций учащихся по физике в общеобразовательных школах. Проанализированы возможности повышения логических и практических навыков учащихся посредством использования современных педагогических технологий, STEM-подхода, а также интерактивных и цифровых образовательных ресурсов. Обосновано влияние применения практических и контекстных заданий на уроках физики на эффективность обучения, а также разработаны методические рекомендации по совершенствованию учебного процесса.*

***Ключевые слова:*** *физическое образование, базовые компетенции, современные методы, STEM-подход, цифровые технологии, практические навыки, эффективность обучения.*

***Abstract:*** *This thesis addresses the issues of improving methods for forming and developing students' core competencies in physics within secondary schools. The opportunities to enhance students' logical, practical, and scientific skills through the*

*use of modern pedagogical technologies, the STEM approach, and interactive digital educational resources are analyzed. The impact of integrating practical and context-based tasks into physics lessons on educational efficiency is substantiated, and methodological recommendations for improving the educational process are developed.*

***Keywords:*** *physics education, core competencies, modern methods, STEM approach, digital technologies, practical skills, educational efficiency*

**Kirish:** Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, raqamli iqtisodiyot hamda texnik taraqqiyot har bir mamlakatning intellektual salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarni chuqur o‘rgatish, yoshlarda muhandislik, texnik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Fizika fani koinot va tabiat qonuniyatlarini anglash, texnika va innovatsion texnologiyalarning nazariy poydevori hisoblanib, umumta’lim maktablarida bu fanni o‘qitish sifati hamda samaradorligini oshirish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas va dolzarb vazifasidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, o‘quv-tarbiya jarayoniga xalqaro standartlarni joriy etish, o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beruvchi tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

**Asosiy qism:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika, kimyo, biologiya va fizika fanlarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi [1]. Buning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli Qarori qabul qilindi [2]. Ushbu qaror mamlakatimizda fizika ta’limini yangi bosqichga olib chiqish, umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy laboratoriyalar bilan ta’minlash hamda o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni belgilab berdi.

O‘quvchilarda fizika fanidan tayanch kompetensiyalarni (axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, sotsial-emotsional va fuqarolik, milliy va umuminsoniy madaniyat, matematik savodxonlik va texnik fanlar yutuqlaridan foydalanish kompetensiyalari) shakllantirish an’anaviy ta’lim usullaridan zamonaviy, interaktiv va amaliyotga yo‘naltirilgan metodlarga o‘tishni talab etadi. Dars jarayonida nazariy qoidalar va formulalarni shunchaki yodlatish o‘rniga ularni tajriba, fizika darslarida

virtual laboratoriyalar, STEM texnologiyalari va amaliy masalalar orqali o‘rgatish o‘quvchining izlanuvchanlik va tadqiqotchilik salohiyatini oshiradi.

Biroq, bugungi kunda umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni to‘liq ta’minlash, darslarda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimli qo‘llash metodikasi yetarlicha darajada takomillashtirilmagan. Ushbu ilmiy qarama-qarshilik va amaliy ehtiyoj ushbu tadqiqot ishining mavzusini belgilashga va uni amalga oshirishga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning bosh maqsadi umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish jarayonida innovatsion va interaktiv ta’lim usullarini tizimli qo‘llash orqali o‘quvchilarning tayanch hamda xususiy-fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqish hamda uning amaliy samaradorligini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot davomida bir qator mantiqan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan vazifalarni hal etish ko‘zda tutilgan. Xususan, dastlab umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy, pedagogik va psixologik asoslari atroflicha tahlil qilinadi, so‘ngra amaldagi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish holati o‘rganilib, sohadagi mavjud metodik muammolar aniqlanadi. Shuningdek, fizika darslarida zamonaviy tajriba, virtual laboratoriya platformalari hamda STEM yondashuvidan samarali foydalanishga asoslangan takomillashtirilgan metodika yaratiladi hamda o‘quvchilarning kompetensiyalari shakllanganlik darajasini xolis baholashga xizmat qiluvchi mezon va ko‘rsatkichlar majmui ishlab chiqiladi. Tadqiqot yakunida esa taklif etilayotgan metodikaning hayotiyligi va samaradorligi pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali isbotlanib, amaliyotchi o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlanadi.

Tadqiqotning obyekti sifatid umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish va o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishning yaxlit pedagogik jarayoni tanlangan bo‘lsa, uning predmeti fizika ta’limida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usul, vosita, tashkiliy shakllar va takomillashtirilgan metodika majmuidan iboratdir. Belgilangan vazifalarni obyektiv hal etish maqsadida nazariy va empirovik tadqiqot metodlari majmuidan foydalanildi. Bunda ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, Davlat ta’lim standartlari hamda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib umumlashtirildi; amaliy bosqichda esa darslarni kuzatish, so‘rovnoma, suhbat va dars tahlili kabi empirovik metodlar bilan bir qatorda pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilib, olingan natijalarning ishonchliligi matematik-statistika usullari orqali tasdiqlandi.

Olib borilgan tadqiqotning ilmiy yangiligi shunda namoyon bo‘ladiki, unda fizika ta’limida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi interaktiv va raqamli ta’lim muhitini yaratish metodikasi takomillashtirildi. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lovchi kontekstli, ya’ni hayotiy vaziyatlarga asoslangan hamda muammoli topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi. Shuningdek, fizika darslarida STEM va modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning amaliy, mantiqiy va texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda tayanch kompetensiyalarni diagnostika qilishning ko‘p mezonli baholash tizimi yaratildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, amaliy topshiriqlar to‘plamlari va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalarning umumta’lim maktablari fizika o‘qituvchilari, malaka oshirish kursi tinglovchilari hamda pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalari faoliyatida bevosita o‘quv-metodik manba sifatida qo‘llanilishi bilan belgilanadi.

Umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish bugungi kunda ta’lim tizimining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. An’anaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarga tayyor akademik bilimlarni berish va formulalarni yodlatish birinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchining egallagan bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy hamda amaliy vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgandir. Pedagogika va metodika sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, fizika fanidan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish murakkab, ko‘p komponentli jarayondir. O‘zbekistonlik taniqli metodist olim, professor M.X.O‘lmasova va N.Sh.Turdiyevlarning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, fizika ta’limida kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchida shunchaki fizik tushuncha yoki qonuniyatlarni bilishni emas, balki ularni mantiqiy fikrlash, fizika darslarida muammoli vaziyatlarni yechish hamda ma’lumotlarni mustaqil tahlil qilish orqali amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini talab qiladi [3]. N.Sh.Turdiyev o‘z ishlarida uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standartlari doirasida fizika fanidan shakllantiriladigan xususiy va tayanch kompetensiyalarning o‘zaro integratsiyasini metodik jihatdan asoslab bergan [4]. Xalqaro miqyosda ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Amerikalik taniqli fizik va pedagog E.Mazur (Eric Mazur, Garvard universiteti) tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan " Tengdoshlar ta’limi " hamda interaktiv ta’lim usullari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy ma’ruza shaklidagi darslarga qaraganda, o‘quvchilar muammoli savollar ustida o‘zaro bahslashganda va tajribalarni mustaqil tahlil qilganda, fizik tushunchalarni anglash va ularni amalda qo‘llash ko‘rsatkichi 2-3

barobargacha oshadi [5]. G‘arbiy Yevropa va Germaniya pedagogika maktabi vakili H.Niedderer hamda uning hamkasblari o‘tkazgan empirik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, o‘quvchilarning fizikaga bo‘lgan qiziqishi va ularda ilmiy savodxonlik kompetensiyasining rivojlanishi bevosita darsda o‘rganilayotgan hodisalarning hayotiy, ya’ni kontekstli vaziyatlar bilan qanchalik bog‘langanligiga tayanadi [6].

Fizika darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini, ya’ni axborot bilan ishlash, matematik savodxonlik, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hal qiluvchi o‘rin tutadi, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi fizika tushunchalarini muhandislik va texnologiya bilan uzviy bog‘lashga xizmat qiladi. Masalan, "Mexanika" yoki "Elektrodinamika" bo‘limlarini o‘rgatishda o‘quvchilarga oddiy elektr zanjirlari, robototexnika elementlari yoki oddiy mexanizmlarni loyihalash bo‘yicha topshiriqlar berilishi ularning texnik va matematik savodxonligini bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi. O‘zbekistonlik olima A.K.Shukurova o‘z izlanishlarida fizika darslarida STEM elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash darajasini sezilarli darajada oshirishini statistik ma’lumotlar bilan isbotlagan [7].

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan takomillashtirilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida umumta’lim maktablarida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajribada nazorat va tajriba guruhlari ajratilib, tajriba guruhlarida darslar raqamli texnologiyalar, STEM topshiriqlari hamda muammoli-kontekstli metodlar integratsiyasi asosida olib borildi. O‘quvchilarning fizika fanidan tayanch kompetensiyalari shakllanganlik darajasi fanga bo‘lgan qiziqish va mustaqil o‘rganishga intilish kabi motivatsion-qadriyatli mezon, fizik qonuniyatlarni bilish va ularni hayotiy masalalarda qo‘llay olishni ifodalovchi kognitiv-amaliy mezon hamda tajriba o‘tkazish, virtual modellashtirish va xulosalar chiqarish ko‘nikmasini aks ettiruvchi tadqiqotchilik-ijodiy mezonlar bo‘yicha baholandi. Pedagogik tajriba-sinov natijalarini matematik-statistikaning Pirson mezonidan foydalanib tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalar shakllanganlik darajasi nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 18,5% ga oshgani va olingan natijalarning ishonchlilik darajasi yuqori ekanligi tasdiqlandi. Xulosa qilib aytganda, fizika ta’limida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va usullarni takomillashtirish faqatgina nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmay, balki ta’lim jarayoniga STEM yondashuvini, raqamli interaktiv simulyatsiyalarni hamda PISA formatidagi amaliy topshiriqlarni kompleks ravishda tatbiq etishni talab qiladi. Bu esa o‘quvchilarning

kelajakda muhandislik va texnik sohalarda raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishiga mustahkam poydevor yaratadi.

3. Klinik prozodiya alohida fonetik segmentlar (unlilar va undoshlar) emas, balki bo‘g‘inlar, so‘zlar va so‘z birikmalarini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy buzilishlarni o‘rganadi.

4. Klinik morfologiyada so‘zlarning, so‘z tuzilishi va uning qismlari, masalan, asos, qo‘shimchalarni ishlatishdagi nutqiy kamchiliklar tahlil qilinadi.

5. Klinik sintaksis gap qurilishi, so‘z tartibi, muayyan tildagi matnlarni tuzish bilan bog‘liq nutqiy buzilishlar va ularniing oldini olish masalalarini o‘rganadi.

6. Klinik semantika muayayn shaxs yoki jamoa tomonidan qo‘llangan belgilarga oid nutqiy buzilishlar va ularning terapeyasini o‘z ichiga oladi.

7. Klinik pragmatika nutqiy buzilishlarning tavsifi va tasnifini amalga oshiradi, ularni turli pragmatik, lingvistik, kognitiv va nevrologik nazariyalar nuqtai nazaridan tushuntirish, shuningdek, ularni baholash va davolash ishlari bilan shug‘ullanadi.

8. Klinik tibbiy diskurs murakkab kommunikativ jarayon bo‘lib, u o‘z ichiga shu sohaga oid barcha ma’lumotlarni, ya’ni tibbiy nutqni, shu mavzuda kechayotgan lingvistik jarayonlarni va ular negizida yotgan konseptual tizimlarni qamrab oladi.

Yuqoridagilardaan anglashiladiki, nutqiy buzilishlarining lingvistik jihatlarini o‘rganish til va nutq o‘rtasidagi aloqalarni yanada chuqurroq anglab yetish, nutqning yuzaga chiqishi bilan bog‘liq fonetik-fonologik, psixologik jarayonlardagi nuqsonlarning sabablarini aniqlash va davolash choralarini ko‘rish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbek tilshunosligi oldida klinik lingvistikani shakllantirish va rivojlantirishdek murakkab va dolzarb masala ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Jahon tibbiyotiga tamal toshini qo‘ygan Abu Ali ibn Sinoning avlodlari hozirgacha rus meditsinasi ta’sirida faqat nutq terapiyasi va til buzilishlari bilan bog‘liq ayrim masalalar ustida shug‘ullanib keldi. Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa nutq va til buzilishlarini baholash, davolash hamda tahlil qilishni takomillashtirish; mavjud klinik lingvistika nazariyalariga yangi zamon nuqtai nazarlaridan yondashib, kerakli takliflarni kiritishdan iborat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. – 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 383-b.

2. Ҳожиев А. Тилшунослик теримнларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2002. – 17-б. (168)

3. David Kristal. Clinical Linguestics. Shringer-Science & Business Media. – London, 2013. – 229 s.

4. Выготский Л.С. Мышление и речь. Москва: Лабиринт, 19999. – 350 с.

5. Лурия А.Р. Основы нейролингвистики. – М.: МГУ, 1975.

6. Леонтев А.А. Психолингвистика. – М.: Смысл, 2003.

# INGLIZ TILI TA'SIRIDAGI GRAMMATIK MODELLARNING SOTSIOLINGVISTIK FAOLLASHUVI

Qodirova Dilfuza G'opirjon qizi
*Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*
*Email: qodirovadilfuza3313@gmail.com*

Ahmadjonova Madina Anvar qizi
*Kosonsoy tumani 32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*
*Email: madiaahmadjonova53@gmail.com*

Rashidova Dilnavoz Nariman qizi
*Namangan davlat universiteti talabasi*
*Email: dilnavozrashidova@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu tezisda zamonaviy o'zbek tilida ingliz tili ta'siridagi grammatik modellarning sotsiolingvistik faollashuv mexanizmlari tahlil qilinadi. Grammatik o'zlashuv struktur hodisa sifatida emas, balki til kontakti, tarjima, professional diskurs, ommaviy axborot vositalari, raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy prestij va so'zlovchilar tanlovi bilan bog'liq dinamik jarayon sifatida talqin etiladi. Grammatik modelning o'zbek tilida tarqalishi kontakt va transfer, kommunikativ adaptatsiya, diskursiv faollashuv, ijtimoiy tarqalish, uzualizatsiya, institutsional mustahkamlashuv hamda me'yoriy kodifikatsiya bosqichlari asosida tavsiflanadi. Inglizcha birlikning mavjudligi bilan grammatik modelning o'zlashuvi, shuningdek, kommunikativ faollik, uzualik va me'yoriylik hodisalari o'zaro farqlanadi. IT, AI, biznes, media, startap kabi komponentlar ishtirokidagi konstruksiyalar misolida professional va raqamli diskursning grammatik modellar faollashuvidagi o'rni ko'rsatiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *grammatik o'zlashuv, ingliz tili, o'zbek tili, pattern replikatsiya, sotsiolingvistika, til kontakti, diskurs, tarjima, raqamli kommunikatsiya, uzualizatsiya, me'yorlashuv.*

***Abstract.*** *This paper examines the mechanisms underlying the sociolinguistic activation of grammatical patterns influenced by English in contemporary Uzbek. Grammatical borrowing is approached not merely as a structural phenomenon but as*

*a dynamic process shaped by language contact, translation, professional discourse, mass media, digital communication, social prestige, and speakers' linguistic choices. The diffusion of grammatical patterns in Uzbek is described through the stages of contact and transfer, communicative adaptation, discursive activation, social diffusion, conventionalization, institutional consolidation, and normative codification. A distinction is drawn between the mere presence of English-derived linguistic elements and the borrowing of grammatical patterns, as well as between communicative frequency, conventionalization, and normative status. Drawing on constructions involving such components as IT, AI, business, media, and startup, the study demonstrates the role of professional and digital discourse in the activation and diffusion of grammatical patterns in contemporary Uzbek.*

***Keywords:*** *grammatical borrowing, English, Uzbek, pattern replication, sociolinguistics, language contact, discourse, translation, digital communication, conventionalization, standardization.*

Zamonaviy o‘zbek tiliga ingliz tilining ta’siri, avvalo, leksik qatlamda yaqqol kuzatiladi. Biroq globallashuv va raqamli kommunikatsiyaning jadallashuvi tillararo munosabatni yangi bosqichga olib chiqib, faqat tayyor leksik birliklarning emas, balki ayrim struktur munosabat va modellarning ham kommunikativ amaliyotda faollashishiga sharoit yaratmoqda. Shu sababli ingliz tilining o‘zbek tiliga ta’sirini faqat o‘zlashma so‘zlar miqdori orqali belgilash kontakt hodisasining bugungi ko‘lamini to‘liq ochib bermaydi.

Kontakt lingvistikasida grammatik ta’sirning yuzaga kelishi faqat ikki til strukturasining formal mosligiga bog‘lanmaydi. Til kontakti natijalarini kontaktning intensivligi, ikki tillilik xususiyati, so‘zlovchilar guruhi va ijtimoiy vaziyat kabi nolisoniy omillardan ajratib tushuntirib bo‘lmaydi [6, B. 60–94]. Demak, grammatik o‘zlashuvning yuzaga chiqishi lingvistik imkoniyat bilan birga ijtimoiy sharoit mavjudligini ham talab qiladi.

Y. Matras til kontaktini individual va ijtimoiy ko‘p tillilik bilan uzviy bog‘laydi hamda grammatik o‘zlashuv va struktur konvergensiyani kontaktning mumkin bo‘lgan natijalari sifatida tahlil qiladi [3, B. 193–233]. Olim pattern replikatsiyasida qabul qiluvchi til boshqa tildagi tayyor moddiy shaklni ko‘chirishi shart emasligini, balki struktur munosabatni o‘zining mavjud til vositalari yordamida qayta tashkil etishi mumkinligini ko‘rsatadi [3, B. 234–274]. Bu yondashuv ingliz tilining o‘zbek tiliga zamonaviy ta’sirini baholashda muhim nazariy asosdir.

J. Sakel grammatik o‘zlashuvni tavsiflashda MAT va PAT hodisalarini farqlaydi.

MAT, ya’ni “matter borrowing”da moddiy til elementi o‘zlashtirilsa, PAT, ya’ni “pattern borrowing”da struktur model yoki birliklarni tashkil etish usuli replikatsiya qilinadi [5, B. 15–29]. Mazkur farqlanish o‘zbek tilidagi inglizcha komponentli har qanday konstruksiyani grammatik o‘zlashma sifatida talqin qilishdan saqlaydi. Masalan, *internet, marketing, blog, startap* kabi leksemalarning qo‘llanishi leksik kontaktni ko‘rsatsa, muayyan struktur munosabatning turli leksik material bilan takror ishlab chiqarilishi modelning faollashuvi masalasini yuzaga keltiradi.

B. Heine va T. Kuteva kontakt ta’siridagi grammatik o‘zgarishda “use pattern”, ya’ni foydalanish modelining replikatsiyasiga alohida e’tibor qaratadi [2, B. 40–78]. Bunda model tildagi ma’lum foydalanish usuli qabul qiluvchi tilning o‘z materiali orqali qayta hosil qilinishi mumkin. Shu ma’noda grammatik ta’sirni xorijiy shaklning bevosita ko‘chishi bilangina chegaralash mumkin emas. Kontakt mavjud struktur imkoniyatning funksional yukini, qo‘llanish chastotasini yoki diskursiv doirasini ham o‘zgartirishi mumkin [2, B. 40–78].

P. Muysken ham kontakt natijalarini faqat til strukturasining o‘ziga bog‘lash cheklangan yondashuv ekanini ta’kidlaydi. Uning modelida bilingv so‘zlovchining strategiyasi ijtimoiy omillar, tilni qayta ishlash imkoniyatlari va tillar o‘rtasidagi qabul qilingan masofa bilan belgilanadi [4, B. 709–730]. Demak, til kontaktining real natijasi til tizimi bilan bir qatorda uni qo‘llovchi shaxs va kommunikativ jamoaning tanlovlari bilan shakllanadi.

F. Coulmasning sotsiolingvistik yondashuvida ham til bir jinsli va o‘zgarmas tizim emas, balki so‘zlovchilar tanlovi bilan uzviy bog‘langan ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Til birliklaridan foydalanish hudud, vaqt, ijtimoiy qatlam, yosh va kommunikativ vaziyatga qarab farqlanishi mumkin [1, B. 107–125]. Shunday ekan, inglizcha modelning o‘zbek tilida faollashishi ham faqat grammatik imkoniyat bilan emas, balki modelni kim, qaysi diskursda va qanday kommunikativ maqsadda qo‘llayotganligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy o‘zbek tilida ingliz tili ta’siridagi grammatik modellarning tarqalishida an’anaviy hududiy kontaktga nisbatan bilvosita va masofaviy kontaktning roli ortmoqda. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida bevosita hududiy qo‘shnichilik mavjud emas. Shunga qaramay, inglizcha material fan, texnologiya, ta’lim, biznes, media, internet, tarjima va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zbek kommunikativ makoniga uzluksiz kirib kelmoqda. Matrasning individual va ijtimoiy ko‘p tillilikni kontakt jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida baholashi bunday zamonaviy kontaktni tushuntirish imkonini beradi [3, B. 41–100].

Shu asosda o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi bugungi aloqani axborot-

kommunikativ kontakt deb baholash mumkin. Mazkur kontaktning o‘ziga xosligi shundaki, grammatik yoki struktur namunaning tarqalishi uchun barcha so‘zlovchilarning ingliz tilini mukammal egallashi talab qilinmaydi. Model tarjima, professional matn, reklama, ijtimoiy tarmoq yoki ommaviy axborot vositasi orqali ham bilvosita o‘zlashtirilishi mumkin.

Tarjima ingliz tilidagi struktur namunalarning o‘zbek tiliga kirishida muhim transfer kanallaridan biridir. Tarjimon manba matn mazmunini qayta ifodalash jarayonida ba’zan manba tildagi struktur tashkil etish usulini ham qabul qiluvchi tilda qayta ishlab chiqaradi. Heine va Kuteva ta’riflagan foydalanish modelining replikatsiyasi bunday hodisalarni tushuntirish uchun nazariy imkoniyat yaratadi [2, B. 40–78]. Ammo tarjima matnida bir marta qo‘llangan konstruksiyaning o‘zi grammatik o‘zlashuvni isbotlamaydi. Mazkur konstruksiya boshqa matnlarda, boshqa mualliflar nutqida va yangi leksik material bilan takror ishlab chiqarila boshlagan taqdirdagina uning diskursiv faollashuvi haqida fikr yuritish mumkin.

Shu jihatdan grammatik modelning o‘zbek tilida ijtimoiylashishida tarjima birlamchi transfer vositasi, professional diskurs esa uning dastlabki faollashuv muhiti sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa IT, sun’iy intellekt, biznes, marketing, media va raqamli iqtisodiyot sohalarida *IT kompaniya, IT xizmat, AI model, AI platforma, biznes model, media loyiha, startap loyiha* kabi konstruksiyalarning keng qo‘llanishi kuzatiladi.

Mazkur konstruksiyalarning tarkibida inglizcha yoki xalqaro komponent mavjudligi ularning barchasini grammatik o‘zlashma deb belgilash uchun yetarli emas. O‘zbek tilining o‘zida aniqlovchi komponentning aniqlanmishdan oldin joylashishi tabiiy struktur imkoniyat hisoblanadi. Shu sababli kontakt ta’siri xorijiy komponentning mavjudligi bilan emas, balki uning yangi leksik birliklar bilan kombinator faolligi, muayyan diskursda yuqori takrorlanishi va yangi konstruksiyalar yaratishga jalb qilinishi asosida aniqlanishi lozim [3, B. 234–274; 5, B. 15–29].

**1-jadval.**

**Ingliz tili ta’siridagi konstruksiyalarning diskursiv faollashuvi**

| **Diskurs sohasi** | **Faol konstruksiyalar** | **Struktur xususiyat** | **Sotsiolingvistik vazifa** |
|---|---|---|---|
| Axborot texnologiyalari | IT kompaniya, IT xizmat, IT mutaxassis | IT + N | Sohaviy identifikatsiya va kommunikativ ixchamlik |
| Sun’iy intellekt | AI model, AI platforma, AI tizim | AI + N | Yangi texnologik tushunchalarni ixcham nomlash |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Biznes | biznes model, biznes loyiha, startap loyiha | N + N | Terminologik zichlik va kasbiy nominatsiya |
| Marketing | marketing strategiyasi, brend strategiyasi | N + N | Professional terminologik standartlashuv |
| Media | media loyiha, media platforma, video kontent | N + N | Raqamli kommunikatsiyaga struktur moslashuv |

Jadvaldan ko‘rinadiki, ayni bir xorijiy komponent turli aniqlanmishlar bilan birikib, ma’lum professional diskurs ichida seriyali konstruksiyalar hosil qilmoqda. Bunday seriyalilik tayyor terminning takrorlanishidan ko‘ra kengroq hodisani ko‘rsatadi. Lekin bu yerda ham struktur produktivlikni isbotlash uchun real matn materialidagi chastota, leksik variativlik va diskurslararo tarqalish alohida tekshirilishi talab etiladi.

Ommaviy axborot vositalari grammatik innovatsiyani keng kommunikativ muhitga olib chiqadigan muhim kanal hisoblanadi. Professional nutq doirasida shakllangan konstruksiya OAV matnlarida muntazam qo‘llana boshlashi bilan uning ijtimoiy ko‘rinuvchanligi ortadi. Biroq ommaviy qo‘llanishni avtomatik ravishda me’yorlashuv bilan tenglashtirish mumkin emas. Kontakt lingvistikasida struktur hodisaning mavjudligi va uning jamiyatdagi mavqei alohida parametrlar ekanligi qayd etiladi [6, B. 60–94]. Shu sababli OAVda yuqori chastotada qo‘llanayotgan konstruktsiya hali normativ manbalarda kodifikatsiyalanmagan bo‘lishi mumkin.

Raqamli kommunikatsiya ushbu jarayonni yanada tezlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, bloglar, video platformalar va internet nashrlarida matn ishlab chiqarish tezligi yuqori bo‘lganligi sababli yangi termin hamda konstruksiyalar an’anaviy tahrir va kodifikatsiya jarayonidan oldin ommalashishi mumkin. Bu holatda kommunikativ faollik me’yoriy mustahkamlashuvdan ilgarilab ketadi. Shuning uchun o‘zlashgan modelning tarqalishini baholashda chastota bilan me’yorni bir xil ko‘rsatkich sifatida olish mumkin emas.

So‘zlovchi tanlovi ham grammatik modellar tarqalishining muhim sotsiolingvistik omilidir. Muyskenning yondashuvida kontakt natijalari bilingv so‘zlovchining turli struktur imkoniyatlardan foydalanish strategiyasi bilan bog‘lanadi [4, B. 709–730]. Coulmas ham til kontaktidagi variant tanlovini ijtimoiy va kommunikativ omillardan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi [1, B. 107–125]. Shu nuqtayi nazardan *axborot texnologiyalari kompaniyasi* va *IT kompaniya* tipidagi variantlar o‘rtasidagi tanlov faqat struktur masala emas. Birinchi variant izohli va rasmiyroq, ikkinchi variant esa professional diskursda ixcham, tez taniladigan va xalqaro

terminologik muhitga mos birlik sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Demak, modelning tanlanishida struktur qulaylik, kommunikativ iqtisod va ijtimoiy prestij o‘zaro ta’sirga kirishadi. Bunda prestijning o‘zi grammatik o‘zlashuvni yuzaga keltirmaydi, ammo muayyan variantning kommunikativ guruhda tezroq qabul qilinishi va tarqalishiga yordam beruvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi.

Grammatik innovatsiyalarning barcha so‘zlovchilar qatlamida bir xil tezlikda tarqalmasligi ham tabiiy. IT mutaxassislari, marketologlar, biznes vakillari, jurnalistlar, tarjimonlar, ilmiy xodimlar, talabalar va raqamli kommunikatsiyada faol foydalanuvchilar yangi inglizcha terminologik konstruksiyalar bilan ko‘proq to‘qnashadigan guruhlarni tashkil qiladi. Bu guruhlarning ayrimlari yangi konstruksiyalar uchun dastlabki tarqalish muhiti vazifasini bajarishi mumkin. Til hodisalarining ijtimoiy guruh, yosh va kommunikativ vaziyatga qarab variantlashuvi sotsiolingvistik tanlovning tabiiy xususiyati sifatida qaraladi [1, B. 107–125].

Biroq yoshni grammatik o‘zlashuvning yagona sababi sifatida ko‘rsatish mumkin emas. Raqamli faollik, kasb, ta’lim, ingliz tilini bilish darajasi, xalqaro axborot bilan aloqa va kommunikativ muhit birgalikda ta’sir qiladi. Shu sababli grammatik modelning sotsiolingvistik tarqalishi bir omilli emas, balki ko‘p omilli hodisadir [4, B. 709–730].

Mazkur kuzatishlar asosida ingliz tili ta’siridagi grammatik modellarning o‘zbek tilida ijtimoiylashuvini yetti bosqichga ajratish mumkin: kontakt va transfer, kommunikativ adaptatsiya, diskursiv faollashuv, ijtimoiy tarqalish, uzualizatsiya, institutsional mustahkamlashuv va me’yoriy kodifikatsiya. Ushbu tasnif mavjud kontakt nazariyalarini o‘zbek tili materiali bilan uyg‘unlashtirish natijasida taklif etilmoqda va grammatik o‘zlashuvning struktur hamda sotsiolingvistik tomonlarini yagona dinamik jarayon sifatida ko‘rish imkonini beradi [2, B. 40–78; 3, B. 193–274; 5, B. 15–29].

**2-jadval.**

**Grammatik modelning sotsiolingvistik ijtimoiylashuv bosqichlari**

| **Bosqich** | **Jarayon mazmuni** | **Asosiy kommunikativ muhit** | **Natija** |
|---|---|---|---|
| **1. Kontakt va transfer** | Manba tildagi struktur model bilan dastlabki aloqa yuzaga keladi | Inglizcha matn, tarjima, xalqaro kommunikatsiya | Dastlabki struktur namuna |
| **2. Kommunikativ adaptatsiya** | Model o‘zbek tilining struktur imkoniyatlariga moslashtiriladi | Tarjima, professional nutq | Struktur moslashuv |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **3. Diskursiv faollashuv** | Konstruksiya muayyan sohada takroriy qo‘llana boshlaydi | IT, biznes, media, ilmiy diskurs | Sohaviy faollik |
| **4. Ijtimoiy tarqalish** | Model tor professional guruh doirasidan kengroq auditoriyaga o‘tadi | OAV, internet, ijtimoiy tarmoqlar | Kommunikativ kengayish |
| **5. Uzualizatsiya** | Takroriy qo‘llanish natijasida konstruksiya odatiylashadi | Ommaviy kommunikatsiya | Barqaror nutqiy qo‘llanish |
| **6. Institutsional mustahkamlashuv** | Model rasmiy, ilmiy va ta’limiy matnlarda muntazam qo‘llana boshlaydi | Fan, ta’lim, rasmiy va institutsional diskurs | Institutsional tan olinish |
| **7. Me’yoriy baholash va kodifikatsiya** | Modelning adabiy til me’yoriga munosabati va qo‘llanish chegaralari belgilanadi | Lug‘atlar, qo‘llanmalar, me’yoriy manbalar | Me’yoriy maqom |

Mazkur bosqichlar qat’iy mexanik ketma-ketlik sifatida tushunilmasligi kerak. Har bir model barcha bosqichlardan o‘tishi shart emas. Ayrim konstruksiyalar professional diskurs chegarasida qolishi, boshqalari raqamli kommunikatsiyada yuqori faollikka ega bo‘lsa-da, rasmiy uslubga o‘tmasligi mumkin. Yana ayrim birliklar esa ommaviy nutqda odatiylashib, keyinchalik institutsional manbalarda ham mustahkamlanishi mumkin.

Shu jihatdan grammatik o‘zlashuvning uch ko‘rsatkichini bir-biridan qat’iy farqlash zarur: kommunikativ faollik, ijtimoiy uzualizatsiya va me’yoriy kodifikatsiya. Kommunikativ faollik birlikning muayyan diskursda ko‘p qo‘llanishini anglatadi. Uzualizatsiya konstruktsiyaning til jamoasi uchun odatiy kommunikativ vositaga aylanishini bildiradi. Kodifikatsiya esa uning normativ manbalarda qayd etilishi va qo‘llanish chegaralarining belgilanishi bilan bog‘liq. Demak, yuqori chastota o‘z-o‘zidan me’yoriy maqomni ta’minlamaydi.

Tahlil natijasida grammatik modellarning zamonaviy o‘zbek tilidagi sotsiolingvistik harakatini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin: dastlab inglizcha struktur namuna tarjima yoki professional diskurs orqali kommunikativ muhitga kiradi; keyin qabul qiluvchi til imkoniyatlariga moslashadi; ma’lum sohada takrorlanib diskursiv faollashadi; OAV va raqamli kommunikatsiya orqali kengroq auditoriyaga tarqaladi; muntazam qo‘llanish sharoitida uzual xususiyat kasb etishi mumkin; ayrim hollarda esa rasmiy, ilmiy va ta’limiy diskursda mustahkamlanib, normativ baholash

obyektiga aylanadi.

Bu jarayonda kommunikativ kanallarning vazifalari ham bir xil emas. Tarjima asosan transferni, professional diskurs dastlabki faollashtirishni, OAV ommalashtirishni, raqamli kommunikatsiya esa tarqalish sur'ati va funksional doirasini kengaytirishni ta'minlaydi. Rasmiy, ilmiy va ta'limiy diskurs modelning institutsional mustahkamlanishiga xizmat qilsa, me'yoriy manbalar uning kodifikatsion maqomini belgilaydi.

Shu tariqa ingliz tili ta'siridagi grammatik modelni tayyor shaklning bir tildan ikkinchi tilga oddiy ko'chishi sifatida talqin qilish yetarli emas. Grammatik o'zlashuv struktur replikatsiya bilan bir qatorda kommunikativ tanlov, ijtimoiy tarqalish va me'yorlashuv jarayonlarini ham qamrab oladigan ko'p bosqichli hodisadir [2, B. 40–78; 3, B. 193–274]. Grammatik ta'sirning ijtimoiy natijasi esa faqat modelning mavjudligi bilan emas, uning yangi kontekstlarda qayta ishlab chiqarilishi va nutq jamoasi tomonidan qabul qilinish darajasi bilan belgilanadi [4, B. 709–730].

Tadqiqot natijasida ingliz tili ta'siridagi grammatik modellarning sotsiolingvistik faollashuviga doir uchta muhim xulosa ilgari suriladi. Birinchidan, zamonaviy inglizcha-o'zbekcha grammatik kontaktning muhim qismi hududiy yaqinlikka emas, axborot-kommunikativ va raqamli aloqaga asoslanadi. Ikkinchidan, inglizcha komponentning mavjudligi grammatik model o'zlashuvini isbotlamaydi; grammatik ta'sirni aniqlashda struktur takrorlanish, leksik variativlik, diskursiv tarqalish va produktivlik kabi belgilar majmui hisobga olinishi zarur [3, B. 234–274; 5, B. 15–29]. Uchinchidan, grammatik modelning kommunikativ faolligi, uzualizatsiyasi va kodifikatsiyasi aynan bir hodisa emas. Shu bois modelning yuqori chastotasi uning adabiy til me'yoriga avtomatik ravishda kirganligini anglatmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilining zamonaviy o'zbek tiliga grammatik ta'siri yangi strukturani to'g'ridan to'g'ri ko'chirish bilangina chegaralanmaydi. Kontakt o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan struktur imkoniyatning chastotasi, funksional yuklamasi va diskursiv qo'llanish doirasini kengaytirishi ham mumkin. Grammatik modelning o'zlashuvi shu sababli struktur, kommunikativ va ijtimoiy omillar kesishgan nuqtada yuzaga chiqadigan dinamik jarayon sifatida baholanishi lozim. Bunday yondashuv grammatik o'zlashmani oddiy xorijiylik belgisi asosida emas, balki real til materiali, kontakt mexanizmi, diskursiv faollik va me'yoriy munosabatning o'zaro birligi asosida aniqlash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Coulmas F. Sociolinguistics: The Study of Speakers' Choices. Cambridge:

Cambridge University Press, 2005. B. 107–125.

2. Heine B., Kuteva T. Language Contact and Grammatical Change. Cambridge: Cambridge University Press, 2005. B. 40–78.

3. Matras Y. Language Contact. Cambridge: Cambridge University Press, 2009. B. 41–100; 193–274.

4. Muysken P. Language contact outcomes as the result of bilingual optimization strategies // Bilingualism: Language and Cognition. 2013. Vol. 16, No. 4. B. 709–730.

5. Sakel J. Types of loan: Matter and pattern // Matras Y., Sakel J. (eds.). Grammatical Borrowing in Cross-Linguistic Perspective. Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2007. B. 15–29.

6. Thomason S. G. Language Contact: An Introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2001. B. 60–94.

# TILAK JO‘RA IJODIDA SINONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Xo‘jamova Mu’tabar Sanaqul qizi
*NavDU O‘zbek tili kafedrasi tayanch doktoranti*
*e-mail: xojamovamotabar@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Maqolada Tilak Jo‘ra she’riyatida sinonimlarning qo‘llanish xususiyatlari va badiiy-estetik vazifalari tahlil qilingan. Sinonimlarning ma’no nozikligi, uslubiy va emotsional-ekspressiv bo‘yoo‘i, shuningdek, poetik fikrni kuchaytirish, obrazlilik va ta’sirchanlikni oshirishdagi o‘rni misollar asosida yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Sinonimiya, sinonimik qator, ma’no nozikligi, uslubiy bo‘yoq, emotsional-ekspressivlik, poetik nutq.*

***Аннотация.*** *В статье анализируются особенности употребления синонимов в поэзии Тилака Джуры и их художественно-эстетические функции. На основе поэтических примеров раскрываются смысловые оттенки, стилистическая и эмоционально-экспрессивная окраска синонимов, а также их роль в усилении выразительности и образности поэтической речи.*

***Ключевые слова:*** *Синонимия, синонимический ряд, смысловой оттенок, стилистическая окраска, эмоциональная экспрессивность, поэтическая речь.*

***Abstract.*** *The article analyzes the use of synonyms in the poetry of Tilak Jura and their artistic and aesthetic functions. Based on poetic examples, it examines the semantic nuances, stylistic and emotional-expressive features of synonyms, as well as their role in enhancing the expressiveness and imagery of poetic discourse.*

***Keywords:*** *Tilak Jura, synonym, synonymy, synonymous series, semantic nuance, stylistic coloring, emotional expressiveness, poetic discourse.*

**Kirish:** Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi bir xil (umumiy) bo‘lgan, qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir.[12] Umuman olganda, sinonimlar shaxs, narsa, belgi, xususiyat, voqea-hodisa va harakatning bir necha nom

[12] Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи , 1974. – Б. 3.

bilan aytilishidir. Sinonimlar til boyligi bo‘lib, avvalo, narsa va hodisalarning nozik ma’no bo‘yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatik munosabatlardan biri bo‘lib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomil va taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki zanginligi va rangginligini ta’min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma’nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko‘lamdorligidir.[13]

**Asosiy qism:** Shoir Tilak Jo‘ra she’riyatida ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma’nodosh so‘zni badiiy tasvir maqsadiga uyg‘un holda mohirona qo‘llaganligi kuzatiladi. Ayrim misollarni kuzatamiz:

*Mujgonlarim yulduzlar tizib,*
*Kiprigimda aylanar olam.*

Mujgon/kiprik so‘zlari o‘zaro sinonim sifatida qo‘llanilgan. Ma’lumki, Buxoro shevasi lug‘at tarkibida fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar ko‘p uchraydi. Tilak Jo‘raning shu hudud farzandi ekanligini inobatga olsak, kiprik so‘zining aynan fors tilidagi ma’nodoshi (mujgon)ni qo‘llashi tabiiy hol. Kiprik asl turkiy so‘z bo‘lib, “O‘zbek tilining etimologik” lug‘atida “ko‘z qovoqlari chetida qator joylashgan tuklar”[14] deb keltirilgan. Shoir leksik sinonim bilan go‘zal ifoda yaratganligini ko‘ramiz.

*Oydin kechalardan ming bora ravshan…*

She’rda oydin va ravshan so‘zlari o‘zaro sinonimik munosabatda qo‘llanilgan. “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”da aniq leksemasi bosh so‘z bo‘lib uning sinonimlari sifatida ochiq, yaqqol, ravshan, aniq-tiniq, yorqin, oydin so‘zlari keltirilgan.[15] Lug‘atda aniq so‘zi mazkur ma’no to‘liq ifodalashi va ravshan so‘zi bilan juft shaklda kelganda ma’no yanada teranroq o‘z aksini topishi ta’kidlangan. Oydin so‘zining ma’no ottenkasi yorqin so‘ziga yaqinligi va kuchli ta’kidga ega ekanligi ifodalangan. Ravshan forsiy so‘z hisoblanib, yorug‘, nurli, aniq, ko‘rinarli; yorqin nur sochadigan; yorug‘, yorqin ma’nolarida keladi. Shoir mazkur misrada ikki kuchli ottenkali sinonimlardan ustalik bilan foydalanib go‘zal ifoda yaratgan.

*Axir, xavfli, xatarli naqadar*

[13] Mahmudov N. O`zbek tili sinonimlarining katta izohli lug`ati. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 5.

[14] Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. - T., “Universitet”, 2000, 209b

[15] Mahmudov N. O`zbek tili sinonimlarining katta izohli lug`ati. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 49.

*Yerdagi bu og‘izlar, bu qo‘llar…*

Xavfli / xatarli leksemalari she’rda sinonim sifatida kelgan. Lug‘atda xavfli bosh so‘zining sinonimlari sifatida xavotirli, xatarli, qo‘rqinchli, tahlikali kabi so‘zlar keltiriladi. Xavotirli so‘zida belgi darajasi kuchsizroq. Xatarli so‘zida belgi darajasi kuchli. Qo‘rqinchli bu ma’noda kam qo‘llanadi. Tahlikali kitobiy.[16] Xavf va xatar arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar hisoblanib, o‘zbek tilida xavfli, xatarli sifatlari hosil qilingan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da xavfli leksemasi xavf paydo qiladigan, xatarli, qo‘rqinchli, deb izohlangan. Xatarli leksemasi esa biror baxtsizlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan, xavfli, tahlikali tarzida keltirilgan. Lug‘atda deyarli bir xil izohlanadi. Misradagi sinonim juftlik ma’noni kuchaytirish, ta’kidni oshirish maqsadida qo‘llangan.

*Chidamning ham bordir oxiri,*
*Bardosh ham bir kuni bukilar*

Lug‘atda chidam, bardosh, toqad, tob, to‘zim, tahammul, matonat so‘zlari sinonim sifatida uchraydi. Bardosh so‘zlashuv tiliga nisbatan yozma nutqda ko‘p qo‘llanilishi, tob, bardosh so‘zlari bu ma’noda kam qo‘llanilishi, tahammul eskirgan va kitobiy ekanligi ta’kidlanadi.[17] Chidam so‘zi insonning ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarga dosh bera olish qobiliyatini ifodalovchi neytral uslubiy birlik bo‘lsa, bardosh leksemasi ko‘proq badiiy va yozma nutqda qo‘llanib, iroda, matonat hamda ruhiy sobitlik ma’nolarini kuchliroq aks ettiradi. Shoir sinonimik qatordagi ikki birlikni ketma-ket qo‘llash orqali oddiy takrorni emas, balki ma’no gradatsiyasini yuzaga keltirgan. Dastlab chidamning oxiri borligi ta’kidlanadi, keyingi misrada esa undan ta’sirchanroq bo‘lgan bardoshning ham “bukilishi” tasvirlanadi. Natijada inson imkoniyatlarining cheklanganligi, eng kuchli iroda ham ma’lum bir nuqtada sinov qarshisida ojiz qolishi haqidagi falsafiy g‘oya yanada ta’sirchan ifodalanadi. Shuningdek, sinonimlarning parallel qo‘llanishi misralarning emotsional-ekspressivligini kuchaytiradi, badiiy matnda mazmunning ta’sir kuchini oshiradi va muallifning individual uslubini namoyon etadi. Demak, bu o‘rinda sinonimlar nafaqat ma’noni takrorlash, balki poetik fikrni bosqichma-bosqich kuchaytirish, obrazlilik va estetik ta’sirni oshirish vazifasini ham bajargan.

*—Ko‘kda yulduz qilarkan xanda,*
*Suqlanarkan lojuvard osmon.*

[16] Mahmudov N. O`zbek tili sinonimlarining katta izohli lug`ati. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 250.

[17] Mahmudov N. O`zbek tili sinonimlarining katta izohli lug`ati. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 377.

She’riy parchada ko‘k va osmon leksemalari sinonimik munosabatni hosil qilgan. “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”da osmon leksemasining sinonimlari sifatida ko‘k, samo, falak, gardun, fazo, sipehr, mi(y)nu birliklari keltirilgan. Ushbu sinonimik qatorda ko‘k umumiste’molga xos asl turkiy leksema bo‘lsa, samo, falak, gardun va fazo asosan kitobiy hamda badiiy uslubda qo‘llanadi. Gardun leksemasida eskilik bo‘yog‘i seziladi, fazo esa mazkur ma’noda nisbatan kam ishlatiladi. Sipehr va mi(y)nu birliklari esa eskirgan qatlamga mansub hisoblanadi.[18] Shoir bir misra doirasida asl turkiy ko‘k hamda tojikcha o‘zlashma osmon leksemalarini yonma-yon qo‘llash orqali tasvirning badiiyligini kuchaytirgan, she’riy nutqda takrorning oldini olib, ifodaning uslubiy rang-barangligini ta’minlagan.

*Sanduvoch erding, bo‘lding andalib,*
*Bulbul bo‘lib kelding aldanib.*
*Noming o‘zgardi-yu, o‘zgarmagan nolang*
*Tutqunlikda toliqqan qushcham.*

She’rda sanduvoch/ andalib/ bulbul leksemalari sinonimiyani hosil qilgan. Shoir bir tushunchani turli sinonim birliklar bilan ifodalab, she’rning badiiy ta’sirchanligini va ohangdorligini kuchaytirgan. Sanduvoch, andalib, bulbul so‘zlari o‘z va o‘zlashgan qatlamga oidligi va davr nuqtayi nazaridan farq qiladi. Shu sababdan bu so‘zlar ma’no ifodasidagi farq u qadar sezilarli emas.

*Yayrab quchmoqqa oshyoning yo‘qdir,*
*Tashlab ketmoqqa makoning yo‘qdir.*

Mazkur misralarda sinonimik munosabat oshyon va makon leksemalari o‘rtasida kuzatiladi. Har ikkala leksema “yashash joyi, maskan” semasini ifodalashi bilan umumiy semantik maydonga mansub bo‘lib, matn tarkibida kontekstual sinonim sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif ushbu sinonimik birliklardan foydalanish orqali bir xil ma’noni takrorlashdan qochgan, she’rning uslubiy jozibadorligini oshirgan hamda lirik qahramonning boshpana va maskanga ega emasligi haqidagi o‘oyani ta’sirchan tarzda ifodalagan.

*G‘ivirlar*
*Balandga-pastga,*
*Demak, maqsadlari bor,*
*Bordir murodlari.*

She’riy parchada maqsad va murod so‘zlari ma’nodoshlik hosil qilgan. Lug‘atda maqsad bosh so‘zining sinonimlari sifatida niyat, murod, muddao, maqsud kabi so‘zlar

[18] Mahmudov N. O`zbek tili sinonimlarining katta izohli lug`ati. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 461.

keltiriladi. Murod so‘zi orziqib, intiqib kutilgan xohish istakni bildirib kitobiy uslubga xos.[19] “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”da ham mazkur so‘zlar bir xil izohlangan. Shoir ushbu sinonimlarni bir misra doirasida qo‘llash orqali fikrning ma’no qamrovini kengaytirgan hamda lirik qahramonning ichki intilishi va ko‘zlagan niyatini emotsional-ekspressiv jihatdan kuchaytirgan. Natijada sinonimik birliklar she’rning badiiy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

*Yemrilar diyonatli diyorim,*
*Nomusim, orim yemrilar…*

Mazkur misrada nomus va or so‘zlari sinonim sifatida kelgan. “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati” da bu so‘z aynan keltirilmay fe’l va sifat ko‘rinishi uchraydi. Umuman olganda, har ikkala birlik insonning sha’ni, qadr-qimmati va axloqiy pokligini ifodalaydi. Shoir ushbu sinonimlarni yonma-yon qo‘llash orqali lirik qahramonning ma’naviy iztirobi va yurt taqdiri bilan bog‘liq ruhiy kechinmalarini yanada ta’sirchan ifodalagan.

**Xulosa:** Xullas, iste’dodli shoir Tilak Jo‘ra so‘zdan, xususan, sinonim so‘zlardan mohirona foydalanib betakror, mazmundor misralar yaratganligiga, har bir sinonim so‘zning o‘rni bilan, maqsadli qo‘llanganliga guvoh bo‘lamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmudov N. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
2. Tilak Jo‘ra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent - 2011y
3. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik luo‘ati. - T., “Universitet”, 2000
4. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи , 1974.

[19] Mahmudov N. O`zbek tili sinonimlarining katta izohli lug`ati. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.374.

# NAMANGAN XALQARO GULLAR FESTIVALI TADQIQI: OMMAVIY BAYRAMLARNI TASHKIL ETISHDA XORIJIY TAJRIBA

G‘iyosov Bahtiyorjon Yoqubjon o‘g‘li
*Namangan davlat universiteti*
*e-mail: giyosovbahtiyorjon@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ommaviy bayramlar, xususan, Namangan xalqaro gullar festivali misolida tarixiylik va zamonaviylik kategoriyalari madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tarixiylik kategoriyasi jamoaviy xotira, avlodlararo vorisiylik va nomoddiy madaniy meros nazariyalari P. Nora, J. Assmann, M. Halbwachs, P. Connerton, UNESCO Konvensiyasi orqali, zamonaviylik esa institutsional jadallashuv, glokalizatsiya va madaniy gibridlik konsepsiyalari A. Giddens, R. Robertson, J. Tomlinson, N.G. Canclini orqali asoslanadi. Tadqiqot natijalari festivalni hududiy madaniy-turistik kapital sifatida rivojlantirish uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.*

***Kalit so’zlar:*** *Ommaviy bayram, tarixiylik, zamonaviylik, jamoaviy xotira, nomoddiy madaniy meros, glokalizatsiya, madaniy gibridlik, hududiy identiklik, Namangan xalqaro gullar festivali, madaniy transformatsiya.*

***Аннотация.*** *В статье с позиций культурологии анализируются категории историчности и современности на примере массовых праздников, в частности Международного фестиваля цветов в Намангане. Категория историчности рассматривается через теории коллективной памяти, межпоколенческой преемственности и нематериального культурного наследия на основе концепций П. Нора, Я. Ассмана, М. Хальбвакса, П. Коннертона и положений Конвенции ЮНЕСКО. Современность обосновывается посредством концепций институциональной интенсификации, глокализации и культурной гибридности, разработанных Э. Гидденсом, Р. Робертсоном, Дж. Томлинсоном и Н.Г. Канкліні. Результаты исследования могут служить теоретико-методологической основой для развития фестиваля как регионального культурно-туристического капитала.*

***Ключевые слова:*** *массовый праздник, историчность, современность, коллективная память, нематериальное культурное наследие, глокализация,*

*культурная гибридность, региональная идентичность, Международный фестиваль цветов в Намангане, культурная трансформация.*

***Abstract.*** *This article analyzes the categories of historicity and modernity in the context of mass festivals, with particular reference to the Namangan International Flower Festival, from a cultural studies perspective. The category of historicity is examined through the theories of collective memory, intergenerational continuity, and intangible cultural heritage, drawing on the works of P. Nora, J. Assmann, M. Halbwachs, P. Connerton, and the UNESCO Convention. Modernity is substantiated through the concepts of institutional intensification, glocalization, and cultural hybridity developed by A. Giddens, R. Robertson, J. Tomlinson, and N.G. Canclini. The findings of the study may serve as a theoretical and methodological basis for developing the festival as a regional cultural and tourism capital.*

***Keywords:*** *Mass festival, historicity, modernity, collective memory, intangible cultural heritage, glocalization, cultural hybridity, regional identity, Namangan International Flower Festival, cultural transformation.*

## Kirish.

Ommaviy bayramlar jamiyatning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va zamonaviy madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. Uning subyektlari hisoblangan insonlar ong-tafakkurida transformatsion jarayonlarni yuzaga keltiradi, bunda zamon va makon muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy madaniyatshunoslikda ommaviy bayramlar tizimini o'rganishda tarixiylik va zamonaviylik kategoriyalarini alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq madaniy mexanizm sifatida talqin qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Tarixiylik festivalga vaqt chuqurligi, jamoaviy xotira, avlodlararo vorisiylik va qadriyatlar uzluksizligini beradi; zamonaviylik esa shu xotirani yangi kommunikativ shakllar, sahnaviy yechimlar, turistik xizmatlar, media obrazlar va urbanistik dizayn orqali hozirgi auditoriyaga yetkazadi. Bunday yondashuvda festival statik marosim emas, balki doimiy qayta talqin qilinadigan madaniy axborot sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, Namangan xalqaro gullar festivali misolida tarixiylik va zamonaviylikning nazariy-uslubiy tahlili hozirgacha yaxlit madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan chuqur o'rganilmagan. Tadqiqotning maqsadi — festivalning tarixiy ildizi hamda zamonaviy transformatsiya jarayonlarini jamoaviy xotira, nomoddiy madaniy meros va glokalizatsiya nazariyalari asosida tahlil qilish, shuningdek, festivalning hududiy madaniy-turistik kapital sifatidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

## Asosiy qism.

Tarixiylik tushunchasi madaniyatshunoslikda oddiy xronologik o'tmishni emas, balki jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan xotira, ramz, an'ana va muqaddaslashtirilgan tajribalar tizimini anglatadi. Pierre Nora ta'kidlaganidek, zamonaviy jamiyatda xotira tabiiy ravishda emas, balki maxsus joylar, belgilar, marosimlar va ramziy amaliyotlar orqali saqlanadi [1, 7-b]. Shu ma'noda Namangan xalqaro gullar festivali ham shahar xotirasining zamonaviy "madaniy joyi" sifatida talqin qilinishi mumkin.

U.Qoraboyevning 1991-yilda nashr etilgan "O'zbekiston bayramlari" nomli risolasida bayramlarning tarixiy o'zgaruvchanligi tamoyili asoslangan bo'lib, har bir davr bayramga o'ziga xos ijtimoiy-madaniy mazmun olib kirishi empirik dalillar bilan tasdiqlanadi [4, 89-b]. Bunday yondashuv Namangan gullar festivalining 1961-yildagi mahalliy "Gul bayrami" shaklidan 2019-yildagi xalqaro festival shakliga qadar transformatsiyalashish jarayonini metodologik jihatdan tushunishga keng yo'l ochadi.

Mazkur evolyutsiyani uch bosqichli tarixiy chiziqda izohlash mantiqan asoslidir:

**1.** Sovet davri bosqichi.

**2.** Mustaqillik davri bosqichi.

**3.** Xalqarolashuv bosqichi.

Binobarin, bayramni o'zgarmas "an'ana" sifatida emas, balki davr taqozosiga muvofiq moslashib boruvchi dinamik madaniy institut sifatida talqin qilish ushbu tahlildan kelib chiqadigan asosiy metodologik xulosa hisoblanadi. Bunday qarash festivalning ramziy mazmunini "o'zgarishsiz an'ana" sifatida emas, balki "tarixiy-dinamik an'analar" sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Festivalda tarixiylikning birinchi ko'rinishi mahalliy jamoaning o'zini anglashida namoyon bo'ladi. Namangan aholisi uchun gulchilik, bog'dorchilik, estetik bezak, tabiatga mehr va shaharni fayzli ko'rsatish amaliyoti faqat tashqi dekoratsiya emas, balki avlodlar tajribasi, mahalliy did, mehnat madaniyati va yashash muhitiga munosabat ifodasidir. J.Assmannning kollektiv xotira haqidagi qarashlari bunday jarayonni madaniy identiklikni mustahkamlovchi ramziy tizim sifatida izohlash imkonini beradi [2, 125-b].

Ommaviy bayramda tarixiy xotira faqat axborot orqali emas, balki tana harakati, marosimiy ishtirok, ko'rish, eshitish, birgalikda yurish, tomosha qilish, suratga olish va taassurot almashish orqali ham uzatiladi. P.Connertonning jamiyatlar qanday eslashiga doir konsepsiyasi festivalni xotiraning jonli amaliyoti sifatida ko'rishga yordam beradi [3, 126-b]. Bu yerda xotira kitob sahifasida emas, balki shahar makonida, insonlar ishtirokida, ramziy harakatlar orqali qayta yaratiladi.

Gul, bahor va tabiat yangilanishi obrazlarining qadimdan rivojlangan chuqur qatlamlari A. Ashirovning "O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari"

monografiyasida tadqiq etilgan [5, 69-b]. Olim Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida tabiat va mavsumiy o'zgarishlar hamda butun olamning yangidan jonlanishi "ilohiy kuchning qayta namoyon bo'lishi" jarayonini batafsil yoritib bergan: yangi yil, qishdan bahorga o'tish, ilk gullarning paydo bo'lishi qadimda yashagan insonlar ongida ilohiy tartibning qayta o'rnatilishi sifatida idrok etilgan.

Nomoddiy madaniy meros konsepsiyasi ham festivalni izohlashda muhim nazariy tayanchdir. UNESCOning 2003-yilgi Konvensiyasida nomoddiy madaniy meros sifatida og'zaki an'analar, ijro san'ati, ijtimoiy amaliyotlar, marosimlar, bayram tadbirlari, tabiat va koinotga oid bilimlar, an'anaviy hunarmandchilik ko'nikmalari e'tirof etiladi [6, 94-b]. Namangan gullar festivali aynan ijtimoiy amaliyot, estetik ko'nikma, tabiatga madaniy munosabat va ommaviy bayram elementlarini birlashtiradi.

B.Kirshenblatt-Gimblett nomoddiy merosni "metamadaniy ishlab chiqarish" sifatida talqin qilib, merosning o'zi ham zamonaviy institutlar, ko'rgazmalar, festival va muzeylashtirish jarayonlari orqali qayta ishlab chiqilishini ko'rsatadi [7, 52-b]. Bu fikr Namangan festivalini shunchaki tarixiy an'anani namoyish qilish emas, balki madaniy merosni zamonaviy ko'rgazmaviy, turistik va kommunikativ formatda qayta ishlab chiqarish jarayoni sifatida anglashga imkon beradi.

Zamonaviylik kategoriyasi bayram va festivallarni o'rganishda yangilik, texnologiya yoki tashqi bezak bilangina belgilanmaydi. A.Giddens zamonaviylikni ijtimoiy institutlarning jadallashuvi, makon va vaqt munosabatlarining o'zgarishi hamda ijtimoiy amaliyotlarning doimiy qayta ko'rib chiqilishi bilan bog'laydi [8, 36-b]. Namangan festivalida ham zamonaviylik festival maydonining kengayishi, auditoriya tarkibining o'zgarishi, turistik xizmatlar va media kommunikatsiyaning kuchayishi orqali namoyon bo'ladi.

R.Robertson tomonidan ilgari surilgan "glokalizatsiya" g'oyasi festivalni tahlil qilishda ayniqsa samaralidir [9, 258-b], chunki Namangan gullar festivali bir tomondan mahalliy gulchilik an'analari, shahar mentaliteti va milliy estetik didga tayanadi, ikkinchi tomondan xalqaro festival, turizm va ko'rgazma standartlariga moslashadi. Natijada lokal an'ana global madaniy muloqotga kiradi.

Madaniy zamonaviylashuvni faqat g'arbona shakllarni o'zlashtirish sifatida talqin qilish biryoqlama bo'ladi. N.G.Canclini madaniy gibridlik nazariyasida an'anaviy va zamonaviy shakllar bir-birini inkor etmasdan, aksincha, yangi ijtimoiy-madaniy kombinatsiyalarni yaratishini ko'rsatadi [10, 154-b]. Namangan festivalidagi xalqona sayil, gul ko'rgazmasi, zamonaviy sahna, turistik servis va media dizayn ana shunday gibrid madaniy shaklni hosil qiladi.

O'zbek lingvomadaniyatshunosligida milliy tajriba, urf-odat va qadriyatlarning til, ramz va ifoda vositalari orqali jamiyat xotirasida saqlanishi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. M.S.Karimova paremiologik birliklar xalqning ijtimoiy hayoti, mentaliteti va madaniy tajribasini ifodalashini asoslagan [11, 57-b]. Bu qarash festivaldagi shiorlar, xalqona iboralar, bayram nutqi va ramziy obrazlarni tahlil qilish uchun muhim nazariy asosdir.

Tarixiylik kategoriyasi bu yerda faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlar yig'indisi emas, balki avlodlar tomonidan tan olingan ramzlar, odatlar va ma'no shakllarining hozirgi bayram maydonida qayta ishlashidir. M. Karimova tadqiqotidagi "milliy-madaniy birlik" tushunchasi festivalga tatbiq etilganda, gul obrazi ham tabiat mahsuli yoki bezak elementi darajasidan chiqib, ijtimoiy xotirani uyg'otuvchi belgi maqomini oladi. Masalan, Namangan gulchiligi, hovli madaniyati, bahoriy sayl, oilaviy tomosha va mehmon kutish marosimlari festivalda birgalikda namoyon bo'lsa, ular tarixiylikni muzey eksponati sifatida emas, yashayotgan madaniy amaliyot sifatida ko'rsatadi.

Madaniy integratsiya, transformatsiya va diffuziya jarayonlari lokal madaniyatning saqlanishi hamda zamonaviy muhitga moslashuvi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-madaniy hodisalardir. Namangan gullar festivalida ham mahalliy an'analar, shahar makoni, turistik ehtiyoj va xalqaro kommunikatsiya o'zaro tutashib, madaniy transformatsiyaning o'ziga xos modelini yuzaga keltiradi.

Madaniy integratsiya masalasi festivalning jamiyatdagi birlashtiruvchi funksiyasini ham ochib beradi. O.Nishonova madaniy integratsiyani umuminsoniylikni rivojlantirish omili sifatida talqin qilgan. Festival jarayonida turli yoshdagi, turli kasb va ijtimoiy guruhlardagi insonlar yagona estetik tajriba atrofida birlashadi. Bu esa jamoaviy hamjihatlik va shahar fuqaroligi hissini kuchaytiradi.

**Xulosa.**

Shunday qilib, tarixiylik festivalning ildizini, zamonaviylik esa uning harakat trayektoriyasini belgilaydi. Tarixiyliksiz festival yuzaki tomoshaga, zamonaviyliksiz esa muzeylashgan, harakatsiz marosimga aylanib qolishi mumkin. Namangan xalqaro gullar festivalining ilmiy qiymati aynan ana shu ikki kategoriya — meros va yangilanish, xotira va kommunikatsiya, an'ana va innovatsiya, mahalliylik va xalqaro ochiqlik o'rtasidagi muvozanatni namoyon etishidadir.

Tarixiylik va zamonaviylik kategoriyalari Namangan xalqaro gullar festivali kontekstida bir-birini istisno etmaydigan, balki o'zaro ma'no hosil qiluvchi ikki jihat sifatida amal qiladi. Tarixiylik festivalga ildiz, jamoaviy xotira va vorisiylik beradi. Zamonaviylik esa shu xotirani yangi sahnaviy, raqamli, turistik va kommunikativ shakllar orqali keng auditoriyaga yetkazadi. Mazkur ikki kategoriyaning uyg'un

ishlashi festivalning lokal ildiziligini saqlagan holda uni xalqaro madaniy maydonga olib chiqishning konseptual mexanizmini tashkil etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Nora P. Between Memory and History: Les Lieux de Mémoire // Representations. — 1989. — №26. — P. 7–24.
2. Assmann J. Collective Memory and Cultural Identity // New German Critique. — 1995. — №65. — P. 125–133.
3. Connerton P. How Societies Remember. — Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
4. Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. — Toshkent: Fan, 1991.
5. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. — Toshkent: Fan, 2007.
6. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. — Paris: UNESCO, 2003.
7. Kirshenblatt-Gimblett B. Intangible Heritage as Metacultural Production // Museum International. — 2004. — Vol. 56, №1–2. — P. 52–65.
8. Giddens A. The Consequences of Modernity. — Stanford: Stanford University Press, 1990. — P. 1–54.
The cluster approach makes it possible to integrate greenhouse farms with logistics, storage, processing, service, and export organizations. The dissertation emphasizes that clustering and cooperation can strengthen the integration of farms and develop logistics, storage, and processing systems. This model can reduce market-entry costs for small producers and increase their ability to negotiate with large buyers.

The cooperative and auction systems used in the Netherlands are of interest as organizational mechanisms for bringing products to market. For Uzbekistan, rather than copying these institutions completely, it is advisable to combine their relevant elements with electronic commerce, cooperative sales, and logistics centers. This can reduce information asymmetry between producers and exporters.

**3. Investment Risk and Business Model**

Investment decisions in greenhouse farming are associated with high initial costs. Structures, heating, lighting, irrigation, automation, seeds and seedlings, and labor costs form the initial capital requirement. The dissertation cites a payback period of around 3–5 years for modern projects; however, this indicator depends on market prices, energy costs, productivity, and product type.

For investment-risk management, calculations based on several scenarios are advisable: optimistic, baseline, and pessimistic. Increases in energy prices, declines in

product prices, or disruptions in export logistics can directly affect project cash flows. Therefore, investment-project assessment should use not only net profit but also payback period, cost, profitability, and sensitivity analysis.

The Business Model Canvas approach makes it possible to represent the value proposition, customer segments, key resources, partners, channels, and cost structure of a greenhouse project within a single model. This approach is useful for export-oriented enterprises because it links production strategy with market strategy.

**4. Organizational and Marketing Mechanism under WTO Conditions**

Under WTO conditions, a three-stage organizational mechanism can be proposed to improve the competitiveness of greenhouse products. The first stage is stabilization of production standards; the second is product certification, packaging, and logistics; and the third is segmentation of foreign markets and conclusion of long-term contracts. This sequence helps align production volume with market demand.

Marketing analysis requires market segmentation by country, buyer type, and seasonal demand. Nearby geographical markets may be advantageous in terms of transportation costs, while distant markets with high demand may require additional certification and logistics costs. Therefore, the choice of export geography should be based not only on price but also on overall margin.

The following system of indicators can be proposed for assessing competitiveness: (1) production cost per ton; (2) productivity; (3) water consumption; (4) energy consumption; (5) export share; (6) share of returned or rejected batches; (7) delivery time; and (8) net profit margin. These indicators are consistent with the integrated assessment concept proposed in the dissertation.

**Conclusion**

The findings show that the international competitiveness of greenhouse products depends on a broader set of factors than production volume and price. Under WTO conditions, quality, standards, certification, logistics, marketing, and resource efficiency should be managed as an integrated system.

For Uzbekistan, important directions include strengthening cluster and cooperation mechanisms, developing digital marketing and electronic commerce, improving cooling and storage infrastructure, and insuring export risks. Investment projects should be assessed through sensitivity analysis covering product-market conditions, energy prices, and export scenarios.

Thus, under WTO conditions, the competitiveness of greenhouse products is based on the integration of organizational, technological, and marketing mechanisms. The new integrated indicator and organizational-economic model proposed in the

dissertation can serve as a methodological basis for systematic management of this process.

## References

1. Otavullayev S.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda issiqxonalardan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari (O‘zbekiston Respublikasi misolida): iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.

2. FAO. The State of Food Security and Nutrition in the World. – Rome, 2022.

3. FAO. The State of Food and Agriculture. – Rome, 2023.

4. Johnson R., Smith D. Global greenhouse technology trends // International Food Policy Review. – 2020. – Vol. 18, No. 2. – P. 55–72.

5. Vermeulen S. Dutch greenhouse export strategies // European Agriculture Review. – 2019. – Vol. 14, No. 1. – P. 23–39.

6. Schultz T.W. Transforming Traditional Agriculture. – New Haven: Yale University Press, 1964.

7. Hayami Y., Ruttan V. Agricultural Development: An International Perspective. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1985.

8. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.

9. OECD. Agricultural Outlook 2021–2030. – Paris: OECD, 2021.

10. García M., Lopez A., Ruiz P. Greenhouse efficiency and productivity in arid regions // Journal of Agricultural Systems. – 2021. – Vol. 45, No. 3. – P. 112–128.

# ГЕОЛОГИЯ-ҚИДИРУВ ИШЛАРИДА ХАРАЖАТЛАРНИ ТУРКУМЛАШ ВА ТАННАРХ КАЛЬКУЛЯЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Избасаров Баходир Эргашевич
*Мустақил тадқиқотчи, Тошкент Кимё халқаро университети.*
*E-mail: izbasarovbahodir71@gmail.com*
*ORCID: 0009-0006-0174-8995*

***Аннотация:*** *Ушбу мақолада геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш, уларни объектлар ва харажат марказлари кесимида ҳисобга олиш ҳамда таннарх калькуляциясини такомиллаштириш масалалари тадқиқ этилган. Геология соҳасида харажатларни шакллантирувчи технологик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилиниб, анъанавий ҳисоб тизимининг айрим чекловлари асосланган. Тадқиқот натижасида геологик лойиҳалар кесимида харажатларни бошқариш, босқичли калькуляция моделини жорий этиш ва умумий харажатларни уларни юзага келтирувчи реал драйверлар асосида тақсимлаш бўйича илмий-услубий таклифлар ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:*** *геология-қидирув ишлари, харажатлар ҳисоби, таннарх калькуляцияси, харажат маркази, геологик лойиҳа, калькуляция усули, бошқарув ҳисоби, харажат драйверлари.*

***Аннотация:*** *В данной статье исследованы вопросы классификации затрат в геологоразведочных работах, их учета в разрезе объектов и центров затрат, а также совершенствования методов калькулирования себестоимости. Проанализированы особенности технологических процессов, формирующих затраты в геологической отрасли, и обоснованы отдельные ограничения традиционной системы учета. По результатам исследования разработаны научно-методические предложения по управлению затратами в разрезе геологических проектов, внедрению поэтапной модели калькулирования и распределению общих затрат на основе реальных драйверов затрат, вызывающих их возникновение.*

***Ключевые слова:*** *геологоразведочные работы, учет затрат, калькулирование себестоимости, центр затрат, геологический проект, метод калькулирования, управленческий учет, драйверы затрат.*

***Abstract:*** *This article examines the issues of cost classification in geological exploration activities, their accounting by objects and cost centers, as well as the improvement of cost calculation methods. The study analyzes the specific features of technological processes that generate costs in the geological sector and substantiates certain limitations of the traditional accounting system. Based on the research findings, scientific and methodological recommendations have been developed for cost management by geological projects, the implementation of a stage-based costing model, and the allocation of indirect costs based on actual cost drivers that determine their occurrence.*

***Keywords:*** *geological exploration activities, cost accounting, cost calculation, cost center, geological project, costing method, management accounting, cost drivers.*

**Кириш**

Замонавий иқтисодиёт шароитида минерал-хомашё ресурсларидан самарали ва оқилона фойдаланиш, янги конларни аниқлаш ҳамда мавжуд ресурс базасини кенгайтириш мамлакатларнинг саноат ва иқтисодий барқарорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этмоқда.[19,20] Айниқса, табиий ресурсларга бўлган талабнинг ортиб бориши, саноат тармоқларининг ривожланиши ва стратегик хомашё манбаларига эҳтиёжнинг кучайиши геология-қидирув ишларининг аҳамиятини янада оширмоқда. Геология-қидирув жараёнлари нафақат ер ости бойликларини аниқлаш ва баҳолаш вазифасини бажаради, балки келгуси ишлаб чиқариш фаолиятининг иқтисодий асосларини шакллантирадиган муҳим инвестицион жараён ҳисобланади.[19,21,22]

Геология-қидирув ишларининг ўзига хос хусусияти шундаки, мазкур фаолият юқори даражадаги ноаниқлик, катта миқдордаги молиявий ресурсларни жалб этиш зарурати ва узоқ муддатли натижа кутиш билан тавсифланади.[5,20] Қидирув жараёнида амалга ошириладиган геологик тадқиқотлар, бурғилаш ишлари, лаборатория таҳлиллари, геофизик ва геокимёвий изланишлар, намуна олиш ҳамда бошқа технологик жараёнлар турли таркиб ва хусусиятга эга харажатларни юзага келтиради. Шу сабабли ушбу харажатларни тўғри туркумлаш, уларнинг шаклланиш манбаларини аниқ белгилаш ва иқтисодий мазмунига мос равишда ҳисобга олиш геология корхоналарида самарали бошқарув қарорларини қабул қилишнинг муҳим шарти ҳисобланади.[2,7]

Амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олиш кўп ҳолларда умумий ишлаб чиқариш харажатларини акс эттиришга йўналтирилган анъанавий ёндашувлар асосида амалга оширилмоқда. Бундай ёндашув айрим ҳолларда харажатларнинг ҳақиқий шаклланиш сабабларини аниқлаш, алоҳида геологик объектлар ёки лойиҳалар самарадорлигини баҳолаш ҳамда бошқарув қарорларини ахборот билан таъминлаш имкониятларини чеклайди. Хусусан, геология-қидирув ишларида харажатлар кўп босқичли технологик жараёнлар орқали шаклланганлиги сабабли уларни оддий харажат моддалари бўйича ҳисобга олиш етарли даражада самарали натижа бермаслиги мумкин.

Шу нуқтаи назардан, харажатларни объектлар, геологик лойиҳалар, қидирув майдонлари ва харажат марказлари кесимида ҳисобга олиш масаласи долзарб аҳамият касб этади. Бундай ёндашув ҳар бир қидирув объекти бўйича сарфланган маблағларнинг самарадорлигини таҳлил қилиш, харажатларнинг юзага келиш сабабларини аниқлаш ва ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш имконини беради. Шунингдек, харажатларни уларни юзага келтирувчи омиллар, яъни харажат драйверлари асосида тақсимлаш замонавий бошқарув ҳисобининг муҳим йўналишларидан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Таннарх калькуляцияси геология-қидирув ташкилотларида нафақат сарфланган маблағларни ҳисоблаш воситаси, балки иқтисодий қарорларни қабул қилиш учун зарур бўлган бошқарув ахборотларини шакллантириш механизми ҳисобланади.[2,9,25] Геологик ишлар жараёнида турли босқичларда амалга ошириладиган харажатларни аниқ баҳолаш, уларни тегишли объектларга тақсимлаш ва якуний натижа билан боғлаш корхонанинг молиявий барқарорлигини таъминлашда муҳим ўрин тутади. Шу боис таннархни ҳисоблаш усулларини такомиллаштириш, босқичли калькуляция тизимини шакллантириш ва замонавий бошқарув ҳисоби элементларини жорий этиш зарурати юзага келмоқда.

Халқаро амалиётда харажатларни бошқариш тизимини такомиллаштириш мақсадида фаолиятга асосланган калькуляция (Activity-Based Costing - ABC), харажат марказлари бўйича ҳисоб юритиш ва харажат драйверлари асосида тақсимлаш усуллари кенг қўлланилмоқда.[3,4,23] Мазкур ёндашувлар билвосита харажатларни уларни келтириб чиқарувчи реал омиллар билан боғлаш, маҳсулот ёки хизмат таннархини аниқроқ шакллантириш ва бошқарув қарорларининг сифатини ошириш имконини беради. Геология-қидирув соҳасида ҳам ушбу

усуллардан фойдаланиш харажатларнинг шаффофлиги ва таҳлилий имкониятларини кенгайтиришга хизмат қилиши мумкин.

Ўзбекистонда геология соҳасини модернизация қилиш, инвестицияларни жалб этиш ва минерал-хомашё базасини ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ислоҳотлар шароитида харажатлар ҳисобини такомиллаштириш масалалари алоҳида аҳамият касб этмоқда. Геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлашнинг илмий асосланган тизимини шакллантириш, таннарх калькуляциясининг самарали усулларини жорий этиш ва бошқарув ҳисоби имкониятларидан кенг фойдаланиш соҳадаги корхоналарнинг рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилади.

Шу муносабат билан мазкур мақолада геология-қидирув ишларида харажатларнинг иқтисодий мазмуни, уларни туркумлаш мезонлари, харажат марказлари бўйича ҳисобга олиш хусусиятлари ҳамда таннарх калькуляциясини такомиллаштириш йўналишлари илмий жиҳатдан тадқиқ этилади. Тадқиқот натижалари геология-қидирув ташкилотларида харажатлар ҳисобини янада такомиллаштириш, бошқарув қарорларини қабул қилиш учун ишончли ахборот базасини шакллантириш ва соҳада иқтисодий самарадорликни оширишга қаратилган амалий тавсияларни ишлаб чиқишга йўналтирилган.

**Адабиётлар шарҳи**

Геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш ва таннарх калькуляциясини такомиллаштириш масалалари бухгалтерия ҳисоби, бошқарув ҳисоби, харажатлар назарияси ҳамда саноат корхоналари иқтисодиёти доирасида кенг ўрганилган илмий йўналишлардан бири ҳисобланади. Мазкур масала бўйича олиб борилган тадқиқотлар харажатларнинг иқтисодий мазмунини очиб бериш, уларни ҳисоб объектлари бўйича тақсимлаш, таннархни шакллантириш усулларини такомиллаштириш ва бошқарув қарорларини қабул қилиш учун зарур бўлган ахборотларни шакллантиришга қаратилган.

Бухгалтерия ҳисоби назариясининг шаклланишида харажатларни ҳисобга олиш ва хўжалик жараёнларини тизимли акс эттириш масалалари муҳим ўрин эгаллаган. Бухгалтерия ҳисобининг асосчиси сифатида эътироф этиладиган Luca Pacioli томонидан илгари сурилган иккиёқлама ёзув тамойиллари кейинчалик харажатлар, даромадлар ва молиявий натижаларни ҳисобга олиш тизимининг назарий пойдеворини шакллантирди. Ушбу ёндашув хўжалик операцияларини тизимли қайд этиш, ҳисоб маълумотларининг ишончлилигини таъминлаш ва иқтисодий жараёнларни таҳлил қилиш имконини берди.[1]

Харажатлар ҳисоби ва таннарх калькуляцияси назариясининг ривожланишида Charles T. Horngrenнинг илмий қарашлари алоҳида аҳамиятга эга. Олим харажатларнинг иқтисодий мазмунига кўра таснифланиши, уларни доимий ва ўзгарувчан, бевосита ва билвосита турларга ажратиш ҳамда калькуляция жараёнида харажатларни тўғри тақсимлаш зарурлигини асослаб берган. Унинг тадқиқотлари замонавий бошқарув ҳисоби тизимида харажатлар тўғрисидаги ахборотдан самарали фойдаланишнинг назарий асосларини яратишга хизмат қилди.[2]

Замонавий бошқарув ҳисоби тизимида харажатларни ҳисобга олишнинг янги усулларини шакллантиришда Robert S. Kaplan ва Robin Cooper томонидан ишлаб чиқилган фаолиятга асосланган калькуляция (Activity-Based Costing - ABC) усули муҳим аҳамият касб этади. Мазкур ёндашувга кўра, харажатлар анъанавий тақсимлаш усулларидан фарқли равишда уларни юзага келтирувчи фаолият турлари ва харажат драйверлари асосида тақсимланиши лозим. Ушбу концепция геология-қидирув ишларида ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлиб, геологик тадқиқотлар, бурғилаш ишлари, лаборатория таҳлиллари ва бошқа технологик жараёнлар бўйича харажатларни аниқ ҳисоблаш имкониятини кенгайтиради.[3,4]

Геология ва қазиб чиқариш соҳаларида харажатларни ҳисобга олиш масалалари халқаро амалиётда ҳам кенг тадқиқ этилган. Хусусан, табиий ресурсларни қидириш ва ўзлаштириш билан боғлиқ фаолиятларда харажатларни шакллантириш, уларни капиталлаштириш, ҳисобдан чиқариш ва иқтисодий натижалар билан боғлаш масалалари халқаро молиявий ҳисобот стандартлари доирасида ўрганилган. Айниқса, МҲХС-6 “Фойдали қазилмаларни қидириш ва баҳолаш” стандарти геология-қидирув ишларида харажатларни тан олиш ва баҳолаш бўйича муҳим услубий асос ҳисобланади. Ушбу стандарт талаблари қидирув харажатларини иқтисодий мазмунига мувофиқ акс эттириш, қидирув активларини шакллантириш ва уларнинг ҳаққонийлигини таъминлашга йўналтирилган.

Рус бухгалтерия ҳисоби мактаби вакилларининг илмий ишларида ҳам харажатларни ҳисобга олиш, калькуляция қилиш ва ҳисоб объектларини белгилаш масалалари кенг ёритилган. Хусусан, Я.В. Соколов бухгалтерия ҳисоби назариясининг ривожланиши, ҳисоб объектларининг иқтисодий мазмуни ва ҳисоб маълумотларининг шаклланиш тамойилларини тадқиқ қилган. В.Ф. Палийнинг ишларида харажатларни ҳисобга олиш ва бошқарув қарорларини қабул қилишда бухгалтерия ахборотларидан фойдаланиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган. Шунингдек, М.И. Кутер ва В.Б. Ивашкевичларнинг илмий

ишларида бошқарув ҳисоби, харажатларни назорат қилиш ва калькуляция тизимларини такомиллаштириш масалалари чуқур ўрганилган.[11,12,13,14]

Ўзбекистонлик олимларнинг тадқиқотларида бухгалтерия ҳисоби ва аудит тизимини миллий иқтисодиёт шароитига мослаштириш, бошқарув ҳисоби элементларини жорий этиш ва харажатларни самарали бошқариш масалаларига кенг ўрин берилган. Жумладан, Н.К. Ризаев, А.Н. Ибрагимов, М.Қ. Пардаев ва Р.Д. Дусмуратовларнинг илмий ишларида бухгалтерия ҳисоби, аудит, иқтисодий таҳлил ва бошқарув қарорларини ахборот билан таъминлаш масалалари тадқиқ этилган. Ушбу тадқиқотлар миллий ҳисоб тизимининг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда харажатларни ҳисобга олиш ва назорат қилиш механизмларини такомиллаштириш учун муҳим назарий асос бўлиб хизмат қилади.[5,16,17,18]

Шу билан бирга, мавжуд илмий тадқиқотларни таҳлил қилиш натижасида аниқландики, аксарият ишлар умумий саноат корхоналарида харажатларни ҳисобга олиш ва таннарх калькуляцияси масалаларига бағишланган бўлиб, геология-қидирув ишларининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда харажатларни туркумлаш ва калькуляция қилиш масалалари етарлича тадқиқ этилмаган. Геология соҳасида харажатлар шаклланиши кўп босқичли технологик жараёнлар, юқори даражадаги ноаниқлик, геологик объектларнинг индивидуал хусусиятлари ва катта ҳажмдаги билвосита харажатлар билан боғлиқ бўлганлиги сабабли, ушбу йўналишда махсус услубий ёндашувларни ишлаб чиқиш зарурати мавжуд.

Хусусан, геологик лойиҳалар кесимида харажатларни бошқариш, харажат марказларини шакллантириш, харажат драйверлари асосида тақсимлаш, босқичли калькуляция моделини жорий этиш ва бошқарув ҳисоби имкониятларидан самарали фойдаланиш масалалари ҳали тўлиқ илмий ечимини топмаган. Шу сабабли геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш ва таннарх калькуляциясини такомиллаштириш бўйича илмий изланишларни давом эттириш мазкур соҳанинг иқтисодий самарадорлигини ошириш нуқтаи назаридан муҳим аҳамият касб этади.

Мазкур мақолада айнан ушбу илмий муаммоларни ҳал этишга қаратилган ҳолда геология-қидирув ишларида харажатларни шакллантириш хусусиятлари, уларни ҳисоб объектлари бўйича тақсимлаш механизмлари ва таннарх калькуляциясини такомиллаштириш йўналишлари тадқиқ этилади.

**Методология**

Мазкур тадқиқотда геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш, уларни ҳисобга олиш тизимини такомиллаштириш ва таннарх калькуляциясини

самарали ташкил этиш масалаларини илмий жиҳатдан ўрганиш мақсадида комплекс методологик ёндашувдан фойдаланилди. Тадқиқот методологияси геология-қидирув фаолиятининг технологик хусусиятлари, харажатларнинг шаклланиш жараёни, бошқарув ҳисоби тамойиллари ҳамда замонавий калькуляция усулларини ўзаро боғлиқ ҳолда таҳлил қилишга асосланди.

Геология-қидирув ишлари оддий ишлаб чиқариш жараёнларидан фарқли равишда кўп босқичли, узоқ муддатли ва юқори даражадаги ноаниқлик билан тавсифланади. Шу сабабли тадқиқот жараёнида харажатларни фақат бухгалтерия ҳисоби объектлари сифатида эмас, балки уларнинг юзага келиш сабаблари, технологик жараёнлар ва бошқарув қарорлари билан боғлиқ иқтисодий категория сифатида ўрганишга алоҳида эътибор қаратилди.

Тадқиқотнинг назарий-услубий асосини бухгалтерия ҳисоби, бошқарув ҳисоби, харажатлар назарияси, таннарх калькуляцияси ва фаолиятга асосланган калькуляция (Activity-Based Costing) соҳасидаги илмий ёндашувлар ташкил этди.[3,4,7,23] Шунингдек, геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олиш бўйича халқаро тажриба, хусусан, МҲХС талаблари ва қазиб чиқариш соҳасида қўлланиладиган ҳисоб усуллари ўрганилди.[5,6]

Тадқиқот давомида қуйидаги илмий усуллардан фойдаланилди:

**Тизимли ёндашув усули** орқали геология-қидирув ишларида харажатларни шакллантириш жараёни яхлит тизим сифатида кўриб чиқилди. Бунда харажатларнинг пайдо бўлиш манбалари, уларнинг технологик жараёнлар билан боғлиқлиги ва ҳисоб тизимида акс эттириш механизми ўзаро боғлиқ ҳолда таҳлил қилинди.

**Қиёсий таҳлил усули** миллий ва халқаро ҳисоб амалиётида қўлланилаётган харажатларни туркумлаш ва калькуляция қилиш усулларини таққослаш имконини берди. Ушбу усул орқали анъанавий харажат ҳисоби тизими ҳамда замонавий бошқарув ҳисоби ёндашувларининг афзалликлари ва чекловлари аниқланди.

**Илмий абстракция усули** геология-қидирув ишларига хос бўлган кўплаб иқтисодий жараёнлар орасидан харажатларни бошқариш ва калькуляция қилиш учун муҳим бўлган асосий омилларни ажратиб олишда қўлланилди.

**Гуруҳлаш ва таснифлаш усули** ёрдамида геология-қидирув харажатларини иқтисодий мазмуни, технологик жараёндаги ўрни, харажат марказлари ва ҳисоб объектлари бўйича туркумлаш имкониятлари тадқиқ этилди.

**Таҳлил ва синтез усуллари** орқали мавжуд харажатлар ҳисоби тизимининг ҳолати ўрганилиб, уни такомиллаштириш бўйича илмий хулосалар шакллантирилди.

**Мантиқий таҳлил усули** харажатларни тақсимлаш механизмларини баҳолаш, уларни юзага келтирувчи омилларни аниқлаш ва таннарх калькуляциясини такомиллаштириш бўйича таклифларни ишлаб чиқишда қўлланилди.

Тадқиқотнинг ахборот базасини бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисобот соҳасидаги меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари, халқаро молиявий ҳисобот стандартлари, геология-қидирув соҳасига оид услубий материаллар, шунингдек, хорижий ва маҳаллий олимларнинг илмий ишлари ташкил этди.

Геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш ва таннарх калькуляциясини такомиллаштириш бўйича қўлланилган асосий методологик ёндашувлар қуйидаги жадвалда келтирилган.

**1-жадвал**

**Геология-қидирув ишларида харажатлар ҳисоби ва таннарх калькуляциясини тадқиқ этишда қўлланилган методологик ёндашувлар[1]**

| Методологик ёндашув | Тадқиқот жараёнида қўлланилиши | Амалий аҳамияти |
|---|---|---|
| Тизимли ёндашув | Геология-қидирув жараёнида харажатларнинг шаклланиши, ҳисобга олиниши ва бошқарилиши ягона тизим сифатида ўрганилди | Харажатларнинг ўзаро боғлиқ элементларини аниқлаш ва ҳисоб тизимини такомиллаштириш имконини беради |
| Қиёсий таҳлил | Миллий ҳисоб амалиёти ва халқаро ёндашувлар, жумладан, ABC калькуляция ва харажат марказлари бўйича ҳисоб усуллари таққосланди | Самарали ҳисоб усулларини танлаш ва уларни миллий шароитга мослаштириш имконини яратади |
| Таснифлаш ва гуруҳлаш | Харажатлар иқтисодий мазмуни, технологик жараёнлар ва ҳисоб объектлари бўйича ўрганилди | Харажатларни аниқ назорат қилиш ва таҳлил қилиш имкониятини оширади |
| Сабаб-оқибат таҳлили | Харажатларни юзага келтирувчи омиллар ва харажат драйверлари ўрганилди | Билвосита харажатларни адолатли тақсимлашга хизмат қилади |
| Калькуляцион таҳлил | Таннархни шакллантириш усуллари ва босқичли калькуляция имкониятлари баҳоланди | Геологик лойиҳалар бўйича ҳақиқий харажатларни аниқлаш имконини беради |

| | | |
|---|---|---|
| Меъёрий таҳлил | Бухгалтерия ҳисоби стандартлари ва халқаро талаблар ўрганилди | Ҳисоб тизимини амалдаги талабларга мувофиқ такомиллаштиришга асос бўлади |
| Аналитик усул | Харажат марказлари ва геологик объектлар кесими[25]да ҳисоб маълумотлари таҳлил қилинди | Бошқарув қарорларини қабул қилиш учун сифатли ахборот базасини шакллантиради |

Тадқиқот методологиясининг муҳим жиҳати шундаки, унда геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олиш масаласи фақат молиявий ҳисоб нуқтаи назаридан эмас, балки бошқарув қарорларини қўллаб-қувватловчи ахборот тизими сифатида қаралди. Бу ёндашув харажатларнинг ҳақиқий шаклланиш сабабларини аниқлаш, уларни тегишли объектларга тақсимлаш ва таннарх кўрсаткичларининг ишончлилигини таъминлаш имконини беради.

Шунингдек, тадқиқот жараёнида харажатларни ҳисобга олишнинг замонавий усулларидан бири бўлган Activity-Based Costing ёндашувининг геология-қидирув соҳаси учун мос жиҳатлари таҳлил қилинди.[3,4,7,23] Мазкур усул харажатларни фақат иш ҳажми ёки умумий кўрсаткичлар асосида эмас, балки уларни келтириб чиқарувчи технологик жараёнлар ва харажат драйверлари асосида тақсимлаш имконини бериши билан аҳамиятлидир.

Шундай қилиб, танланган методологик ёндашувлар геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш, уларни ҳисоб объектлари бўйича тақсимлаш ва таннарх калькуляциясини такомиллаштириш бўйича илмий асосланган хулоса ва таклифлар ишлаб чиқиш имконини берди.

**Натижалар ва муҳокама**

Олиб борилган тадқиқот натижалари геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олиш тизими оддий ишлаб чиқариш корхоналаридаги харажатлар ҳисобидан бир қатор хусусиятлари билан фарқ қилишини кўрсатди. Геология-қидирув жараёнларида харажатлар шаклланиши бевосита табиий шароитлар, геологик объектларнинг мураккаблиги, қидирув ишларининг давомийлиги, технологик жараёнларнинг кўп босқичлилиги ҳамда олинган натижаларнинг олдиндан аниқ бўлмаслиги билан боғлиқ. Шу сабабли мазкур соҳада харажатларни ҳисобга олиш ва таннархни шакллантиришга нисбатан анъанавий ёндашувлар ҳар доим ҳам тўлиқ самара бермайди.

Тадқиқот жараёнида геология-қидирув ишларида амалга ошириладиган харажатлар таркиби таҳлил қилиниб, уларни иқтисодий мазмуни, технологик

[1] Тадқиқотчи ишланмалари

жараёндаги ўрни ва бошқарув қарорларига таъсири нуқтаи назаридан туркумлаш зарурлиги аниқланди. Амалдаги ҳисоб тизимларида кўп ҳолларда харажатлар умумлаштирилган моддалар бўйича акс эттирилади. Бу эса алоҳида геологик объектлар, қидирув майдонлари ёки лойиҳалар бўйича ҳақиқий харажатларни аниқлаш, уларнинг самарадорлигини баҳолаш ва келгуси инвестиция қарорларини асослаш имкониятларини чеклайди.

Геология-қидирув ишларида харажатларни тўғри туркумлаш, аввало, уларни бошқариш самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Тадқиқот натижаларига кўра, харажатларни қуйидаги асосий белгилар бўйича гуруҳлаш мақсадга мувофиқ ҳисобланади: технологик жараёнлар бўйича, харажат марказлари бўйича, геологик объектлар бўйича ва иқтисодий мазмунига кўра. Бундай ёндашув харажатларнинг қайси жараёнда, қайси объект учун ва қандай сабабларга кўра юзага келганини аниқлаш имконини беради.

Геология-қидирув ишларида харажатларнинг асосий қисми бевосита қидирув жараёни билан боғлиқ бўлгани ҳолда, маълум қисми билвосита хусусиятга эга бўлади. Масалан, геологик тадқиқотлар, бурғилаш ишлари, намуна олиш, лаборатория таҳлиллари каби харажатлар муайян объект билан тўғридан-тўғри боғланиши мумкин. Бироқ бошқарув, техник хизмат кўрсатиш, ускуналардан фойдаланиш ва умумий ишлаб чиқариш харажатларини тақсимлашда анъанавий усуллар етарли даражада аниқ натижа бермаслиги мумкин. Шу боис тадқиқотда харажатларни уларни юзага келтирувчи омиллар - харажат драйверлари асосида тақсимлаш зарурлиги асосланди.

Таҳлиллар натижасида геология-қидирув ишларида таннарх калькуляциясини такомиллаштириш учун босқичли калькуляция моделидан фойдаланиш мақсадга мувофиқлиги аниқланди. Мазкур ёндашувга кўра, харажатлар қидирув жараёнининг ҳар бир босқичи бўйича алоҳида шакллантирилади ва якуний таннарх кўрсаткичи босқичлар кесимида йиғилади. Бу усул қидирув ишларининг қайси босқичида асосий харажатлар юзага келаётганини аниқлаш, ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш ва ортиқча харажатларни камайтириш имконини беради.

Тадқиқот натижаларини умумлаштирган ҳолда геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олиш ва таннарх калькуляциясини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари қуйидаги жадвалда келтирилган.

**2-жадвал**

**Геология-қидирув ишларида харажатлар ҳисоби ва таннарх калькуляциясини такомиллаштириш йўналишлари[26]**

| Муаммоли жиҳат | Амалдаги ҳолатнинг хусусияти | Таклиф этилаётган такомиллаштириш йўналиши | Кутиладиган натижа |
|---|---|---|---|
| Харажатларнинг умумий кўринишда ҳисобга олиниши | Харажатлар алоҳида объектлар ва лойиҳалар кесимида етарлича деталлаштирилмайди | Харажатларни геологик объектлар, лойиҳалар ва харажат марказлари бўйича аналитик ҳисобга олиш | Ҳар бир қидирув объекти бўйича ҳақиқий харажатларни аниқлаш имконияти ошади |
| Билвосита харажатларни тақсимлаш муаммоси | Умумий харажатлар шартли базалар асосида тақсимланиши мумкин | Харажат драйверлари асосида тақсимлаш усулини жорий этиш | Таннарх кўрсаткичларининг аниқлиги ва ишончлилиги ошади |
| Таннархни ҳисоблашда босқичлар инобатга олинмаслиги | Барча харажатлар умумий натижа сифатида шакллантирилади | Қидирув жараёнлари бўйича босқичли калькуляция тизимини қўллаш | Ҳар бир жараён самарадорлигини баҳолаш имкони пайдо бўлади |
| Бошқарув қарорлари учун ахборот етишмаслиги | Ҳисоб маълумотлари асосан ташқи ҳисобот мақсадларига йўналтирилган | Бошқарув ҳисоби элементларини кенгайтириш | Раҳбарият учун тезкор ва асосланган қарор қабул қилиш имконияти яратилади |
| Харажатларнинг иқтисодий мазмуни бўйича етарлича таснифланмаслиги | Харажат турлари ўртасидаги фарқлар тўлиқ очиб берилмайди | Иқтисодий мазмун, технологик жараён ва мақсад бўйича комплекс туркумлаш тизимини жорий этиш | Харажатларни назорат қилиш ва таҳлил қилиш самарадорлиги ошади[27] |

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, геология-қидирув ишларида харажатларни ҳисобга олиш тизимини такомиллаштириш учун фақат ҳисоб объектларини кенгайтиришнинг ўзи етарли эмас, балки харажатларнинг шаклланиш сабабларини чуқур ўрганиш ҳам талаб этилади. Шу нуқтаи назардан, харажат драйверлари асосидаги ёндашув геология соҳаси учун самарали воситалардан бири бўлиши мумкин. Чунки мазкур усул харажатларни шартли

[26] Тадқиқотчининг ишланмалари

тақсимлашдан воз кечиб, уларни аниқ технологик жараёнлар билан боғлаш имконини беради.

Шунингдек, тадқиқот жараёнида геологик лойиҳалар бўйича харажатларни алоҳида назорат қилиш зарурлиги аниқланди. Ҳар бир қидирув объектининг истиқболлилиги, сарфланган маблағлар ҳажми ва олинган натижаларини солиштириш орқали инвестицияларнинг самарадорлигини баҳолаш мумкин бўлади. Бу эса нафақат бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш, балки стратегик бошқарув қарорларини қабул қилиш сифатини ҳам оширади.

Халқаро тажриба таҳлили шуни кўрсатадики, ривожланган мамлакатларда қазиб чиқариш ва геология соҳасида фаолият юритувчи корхоналар харажатларни бошқаришда замонавий ҳисоб усулларидан, жумладан, Activity-Based Costing, харажат марказлари бўйича ҳисоб ва рақамли таҳлил воситаларидан кенг фойдаланмоқда. Ушбу ёндашувларни миллий геология-қидирув амалиётига мослаштириш соҳада ҳисоб маълумотларининг сифатини ошириш ва харажатларни самарали бошқариш имконини беради.[3,5,20,21,22,23]

Умуман олганда, тадқиқот натижалари геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш ва таннарх калькуляциясини такомиллаштириш корхоналарнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш, молиявий ахборотларнинг шаффофлигини таъминлаш ва инвестиция қарорларининг асосланганлигини кучайтириш учун муҳим омил эканлигини кўрсатди.

**Хулоса ва таклифлар**

Ушбу тадқиқотда геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш ва таннарх калькуляциясини ташкил этишнинг назарий-услубий ҳамда амалий жиҳатлари комплекс тарзда таҳлил қилинди. Таҳлил натижалари мазкур соҳада қўлланилаётган ҳисоб тизими геология-қидирув ишларининг технологик хусусиятлари, юқори инвестиция таваккалчилиги, қидирув ишларининг давомийлиги ва натижаларнинг ноаниқлиги билан боғлиқ омилларни тўлиқ ҳисобга олмаслигини кўрсатди. Бу эса харажатларнинг иқтисодий мазмунини холис акс эттириш, таннархни аниқ шакллантириш ҳамда бошқарув қарорларини ишончли ахборот билан таъминлаш имкониятларини маълум даражада чеклайди.

Тадқиқот давомида харажатларни туркумлашнинг амалдаги ёндашувлари баҳоланиб, геология-қидирув соҳаси учун уларнинг айрим жиҳатлари етарли эмаслиги аниқланди. Хусусан, харажатларни фақат иқтисодий элементлар ёки калькуляция моддалари бўйича ҳисобга олиш қидирув ишларининг ҳақиқий иқтисодий мазмунини тўлиқ очиб бермайди. Шу муносабат билан харажатларни геологик лойиҳалар, қидирув объектлари, технологик босқичлар, харажат

марказлари ва масъулият марказлари кесимида аналитик ҳисобга олиш концепцияси илмий жиҳатдан асосланди. Мазкур ёндашув ҳар бир геологик объект бўйича ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш, таннархнинг шаклланиш манбаларини аниқлаш ва молиявий ахборотнинг аналитик қийматини ошириш имконини беради.

Тадқиқотнинг муҳим натижаларидан бири сифатида геология-қидирув ишларида таннарх калькуляциясини шакллантиришда босқичли ёндашувни қўллашнинг афзалликлари асослаб берилди. Қидирув жараёнининг ҳар бир технологик босқичида юзага келадиган харажатларни мустақил ҳисоб объектлари сифатида шакллантириш кейинги босқичларда таннархнинг изчил ва иқтисодий жиҳатдан асосланган тарзда ҳисобланишини таъминлайди. Бу эса геологик тадқиқотлар, геофизик ишлар, бурғилаш, лаборатория таҳлиллари ва бошқа технологик жараёнлар бўйича ресурслар сарфини баҳолаш ҳамда харажатлар динамикасини доимий мониторинг қилиш имкониятини кенгайтиради.

Таҳлил натижалари билвосита харажатларни тақсимлашда қўлланилаётган анъанавий ёндашувлар ҳам барча ҳолатларда иқтисодий жиҳатдан асосланган натижа бермаслигини кўрсатди. Шу муносабат билан харажатларни уларни келтириб чиқарувчи омиллар, яъни харажат драйверлари асосида тақсимлаш усулининг геология-қидирув соҳаси учун мослиги асосланди. Ушбу ёндашув билвосита харажатларнинг ҳақиқий манбаларини аниқлаш, уларни тегишли объектларга асосланган тарзда тақсимлаш ва таннарх ҳисоб-китобларининг ишончлилигини ошириш имконини яратади. Натижада бошқарув ҳисоби маълумотларининг таҳлилий имкониятлари кенгаяди ҳамда стратегик қарорларни қабул қилиш учун зарур бўлган ахборот сифати яхшиланади.

Тадқиқотнинг назарий аҳамияти геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлашнинг иқтисодий мазмунга асосланган такомиллаштирилган концептуал ёндашуви ишлаб чиқилганлиги билан изоҳланади. Илмий жиҳатдан асосланган мазкур ёндашув геология соҳасида харажатларнинг шаклланиш жараёнини комплекс баҳолаш, уларнинг функционал вазифалари ва технологик хусусиятларини ҳисобга олиш имконини беради. Шу билан бирга, тадқиқот натижалари харажатлар ҳисоби, бошқарув ҳисоби ва таннарх калькуляцияси назариясини геология-қидирув фаолияти хусусиятлари билан бойитишга хизмат қилади.

Тадқиқотнинг амалий аҳамияти шундан иборатки, таклиф этилган услубий ёндашувлар геология-қидирув ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва бошқарув

ҳисоби тизимини такомиллаштириш, аналитик ҳисобнинг деталлаштирилиш даражасини ошириш, харажатлар мониторингини кучайтириш ҳамда ички назорат самарадорлигини юксалтириш учун илмий асос бўлиб хизмат қилиши мумкин. Шунингдек, ушбу таклифлар рақамли бухгалтерия тизимлари ва корпоратив ахборот платформаларига интеграция қилинганда харажатларни реал вақт режимида кузатиш, таҳлил қилиш ва прогнозлаш имкониятларини кенгайтиради.

Мақоланинг илмий янгилиги геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш, уларни геологик лойиҳалар ва технологик босқичлар кесимида аналитик ҳисобга олиш, билвосита харажатларни харажат драйверлари асосида тақсимлаш ҳамда босқичли таннарх калькуляцияси моделини комплекс тарзда таклиф этилганлиги билан белгиланади. Ушбу ёндашувлар геология-қидирув соҳасида молиявий ва бошқарув ҳисоби ўртасидаги интеграцияни кучайтириш ҳамда ҳисоб ахборотининг бошқарув қийматини оширишга хизмат қилади.

Келгусидаги илмий изланишларда геология-қидирув ишларида рақамли бухгалтерия технологиялари, сунъий интеллект ва катта маълумотлар (Big Data) асосида харажатларни прогнозлаш, геологик лойиҳаларнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш ҳамда экологик ва ижтимоий харажатларни таннарх таркибига интеграция қилиш масалаларини тадқиқ этиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бу йўналишларда олиб бориладиган тадқиқотлар геология-қидирув ташкилотларида замонавий бошқарув ҳисоби моделини шакллантиришга ва соҳанинг рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилади.

Умуман олганда, тадқиқот натижалари геология-қидирув ишларида харажатларни туркумлаш ва таннарх калькуляциясини такомиллаштириш ҳисоб тизимининг шаффофлигини ошириш, ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини юксалтириш, геологик лойиҳаларнинг иқтисодий натижадорлигини холис баҳолаш ва инвестиция қарорларининг илмий асосланганлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этишини тасдиқлади. Таклиф этилган услубий ёндашувларни амалиётга жорий этиш геология-қидирув ташкилотларида молиявий бошқарув сифатини яхшилаш, миллий ҳисоб амалиётини халқаро илғор ёндашувларга яқинлаштириш ҳамда тармоқнинг барқарор иқтисодий ривожланишига муносиб ҳисса қўшиши мумкин.

## Фойдаланилган адабиётлар

1.Pacioli, L. (1494). Summa de Arithmetica, Geometria, Proportioni et Proportionalità. Venice: Paganino de' Paganini.

2.Horngren, C. T., Datar, S. M., & Rajan, M. V. (2021). Cost Accounting: A Managerial Emphasis (17th ed.). Pearson Education.

3.Kaplan, R. S., & Cooper, R. (1998). Cost and Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance. Boston: Harvard Business School Press.

4.Cooper, R., & Kaplan, R. S. (1991). Profit priorities from Activity-Based Costing. Harvard Business Review, 69(3), 130–135.

5.International Accounting Standards Board (IASB). (2024). IFRS 6 Exploration for and Evaluation of Mineral Resources. London: IFRS Foundation.

6.International Accounting Standards Board (IASB). (2024). *Conceptual* Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation.

7.Drury, C. (2021). Management and Cost Accounting (11th ed.). Cengage Learning.

8.Hansen, D. R., Mowen, M. M., & Heitger, D. L. (2022). Cornerstones of Cost Management (5th ed.). Cengage Learning.

9.Garrison, R. H., Noreen, E. W., & Brewer, P. C. (2021). Managerial Accounting (17th ed.). McGraw-Hill Education.

10.Hilton, R. W., & Platt, D. E. (2020). Managerial Accounting: Creating Value in a Dynamic Business Environment (12th ed.). McGraw-Hill.

11.Sokolov, Ya. V. (2000). Основй теории бухгалтерского учета. Moscow: Finansy i statistika.

12.Paliy, V. F. (2013). Управленческий учет издержек и доходов. Moscow: INFRA-M.

13.Ivashkevich, V. B. (2019). Бухгалтерский управленческий учет. Moscow: INFRA-M.

14.Kuter, M. I. (2018). Теория букҳгалтерского учета. Moscow: Finansy i statistika.

15.Dusmuratov, R. D. (2020). Бухгалтерия ҳисоби назарияси. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA.

16.Pardayev, M. Q. (2019). Бошқарув ҳисоби. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

17.Rizayev, N. K. (2021). Молиявий ва бошқарув ҳисоби. Toshkent: Fan va texnologiya.

18.Ibragimov, A. N. (2020). *Buxgalteriya hisobi*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

19.United Nations. (2021). United Nations Framework Classification for Resources (UNFC 2019). New York: United Nations.

20.Society of Economic Geologists. (2020). Economic Geology. Littleton, CO: Society of Economic Geologists.

21.JORC. (2012). Australasian Code for Reporting of Exploration Results, Mineral Resources and Ore Reserves (JORC Code 2012 Edition). Melbourne: Joint Ore Reserves Committee.

22.CRIRSCO. (2019). International Reporting Template for the Public Reporting of Exploration Results, Mineral Resources and Mineral Reserves. London: CRIRSCO.

23.Cokins, G. (2001). Activity-Based Cost Management: An Executive's Guide. New York: John Wiley & Sons.

24.Blocher, E. J., Stout, D. E., Juras, P. E., & Smith, S. D. (2022). Cost Management: A Strategic Emphasis (9th ed.). McGraw-Hill.

25.Atkinson, A. A., Kaplan, R. S., Matsumura, E. M., & Young, S. M. (2020). Management Accounting: Information for Decision-Making and Strategy Execution (7th ed.). Pearson.

# TURKIY SAVDO-SANOAT PALATASI ITTIFOQINING O‘ZBEKISTON IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARIDA TUTGAN O‘RNI

Mamatov Behruz Salimboy o‘g‘li
*Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada Turkiy davlat davlatlar tashkilotiga a’zo bo‘lib kirganidan boshlab O‘zbekistonning tashkilot doirasidagi va uning tarkibidagi mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari hamda Turkiy savdo-sanoat palatasi ittifoqining tashkil qilinishi bilan amalga oshirilgan islohotlar tarixi va ularning natijasi tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Tukiy davlatlar tashkiloti, xalqaro iqtisodiy hamkorlik tarixi, Turkiy investitisiya jamg‘armasi, Turkiy savdo-sanoat palatasi ittifoqi, xorijiy investitsiyalar, yashil iqtisodiyot.*

***Аннотация:*** *В статье анализируются результаты реформ, проведенных с созданием Тюркской торгово-промышленной палаты после вступления Тюркского государства в Организацию государств, внешнеэкономические отношения Узбекистана со странами-членами организации и ее структура, а также истории результаты реформ, проведенных с созданием Тюркской торгово-промышленной палаты.*

***Ключевые слова:*** *Тюркская государственная организация, история международного экономического сотрудничества, Турецкий инвестиционный фонд, Тюркская торгово-промышленная палата, иностранные инвестиции, зеленая экономика.*

***Abstract:*** *The article analyzes the results of the reforms implemented with the establishment of the Turkic Chamber of Commerce and Industry Union since the Turkic State became a member of the Organization of States, the foreign economic relations of Uzbekistan with the countries within the organization and its structure, and the results of the reforms implemented with the establishment of the Turkic Chamber of Commerce and Industry Union.*

***Keywords:*** *Turkic State Organization, history of international economic cooperation, Turkish Investment Fund, Turkic Chamber of Commerce and Industry Union, foreign investments, green economy.*

**Kirish.** TDT tashkil etilgandan buyon iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha jami 13 vazirlik va 15 ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi [1]. Ushbu yig‘ilishlarda erishilgan kelishuvlarga muvofiq TDT doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy hamkorlikni yanada samarali yo‘lga qo‘yilishini ta’minlovchi asosiy mexanizm- tuzilmalar ishga tushirildi. Ulardan eng asosiylari: 1) Turkiy Savdo-sanoat palatasi ittifoqi, 2) Savdoni osonlashtirish qo‘mitasi, 3) Turkiy Investitsiya Jamg‘armasi hisoblanadi.

**Asosiy qism**. 2019-yilning 17-may kuni Qozog‘iston poytaxti Nur-Sultonda[28] Turkiy tilli davlatlar sanoat va savdo palatasi Nizomini imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi [2]. Turkiyzabon davlatlar sanoat va savdo palatasi tarkibiga Ozarboyjon Respublikasi Tadbirkorlar-Ish beruvchilar tashkilotlari milliy konfederatsiyasi, Qozog‘iston Respublikasi Tadbirkorlar milliy palatasi, Qirg‘iziston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Turkiya savdo palatalari va tovar-xomashyo ittifoqi, Turkmaniston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi kiradi. Vengriya hamda 2024-yilgacha Turkmaniston iqtisodiy tuzilmaning kuzatuvchisi hisoblangan.

2019-yilning 31-iyul kuni Istanbulda Turkiya, Ozarboyjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro savdo va investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan Turkiyzabon davlatlar Savdo-sanoat palatasining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi [3]. Unda Turkiy tilli davlatlar Savdo-sanoat palatasining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. Savdo-sanoat palatasining maqsadi turkiyzabon davlatlarning biznes sohasida hamkorlikni rivojlantirish va shu orqali iqtisodiy integratsiya, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga erishish deb belgilandi.

2019-yilning 14-oktyabr kunida Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar biznes forumi ham bo‘lib o‘tdi. Turkiy tilli davlatlar savdo-sanoat palatalari ittifoqi tomonidan tashkil etilgan forumda Turkiy kengashga a’zo davlatlar ishbilarmon doiralarining 600 ga yaqin vakillari ishtirok etdi. Bu davrda Turkiy tilli davlatlar savdo-sanoat palatalari uyushmasiga Ozarboyjon, Turkiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston savdo-sanoat palatalari a’zo, Vengriya savdo-sanoat palatasi kuzatuvchi maqomiga ega bo‘lgan. Bokudagi anjumanda mazkur masala yakuniy bosqichda ko‘rib chiqildi va O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Turkiy tilli davlatlar savdo-sanoat palatalari uyushmasiga a’zo bo‘lib kirishiga doir bayonnoma imzolandi. Bundan tashqari, “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik

[28] Nur-Sulton shahri (avvalgi va hozirgi nomi – Ostona) – 2019-yil 23-mart oyidan 2022-yil 17-sentyabrgacha Qozog‘iston Respublikasi poytaxti bo‘lgan. 2022-yil 17-sentyabrda shaharga Ostona nomi qaytarilgan va hozirgi kunda ham Ostona shahri mamlakat poytaxti hisoblanadi (*M.B.*).

jamiyati, “O‘zeltexsanoat”, “O‘zcharmpoyabzal” uyushmalari va boshqa tarmoqlarga qarashli korxonalar Ozarboyjon tomoni bilan qator istiqbolli kelishuvlarga erishdi [4].

Navbatdagi vazifa Toshkentdagi biznes forumida O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Turkiy tilli davlatlar savdo-sanoat palatalari ittifoqiga a’zo bo‘lib kirishi masalasini amalga oshirish edi. O‘zbekiston Turkiy kengashning rasmiy a’zoligiga qabul qilingach, Turkiy tilli davlatlar savdo-sanoat palatalari ittifoqi a’zoligiga ham qo‘shildi.

2021-yilning 10-noyabr kuni Istanbul shahrida Turkiy savdo-sanoat palatasi Bosh assambleyasi hamda Turkiy tilli mamlakatlar biznes forumi tashkil qilinadi [5]. Unda Turkiy Kengashga a’zo davlatlar – Ozarboyjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekiston savdo-sanoat palatalari raislari ham ishtirok etishdi. O‘zbekiston tomoni forumda pandemiya bilan bog‘liq qiyinchiliklarga qaramay, mamlakatimiz Savdo-sanoat palatasi Turkiy Kengashga a’zo mamlakatlar savdo-sanoat palatalari bilan faol hamkorlik qilishni davom ettirayotganini hamda tashkilotga a’zo davlatlar o‘rtasidagi savdo aylanmasini oshirish uchun eksport qiluvchi kompaniyalar uchun bojxona imtiyozlarini berish va turkiy mamlakatlar o‘rtasida savdo tartib-qoidalarini soddalashtirish orqali tashqi bozorlarga chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taklif qildi. Shu kabi ilgari surilgan g‘oya va takliflar hamda amalga oshiriliyotgan tadbirlar Turkiy savdo-sanoat palatasining iqtisodiy hamkorlik tarixida alohida o‘ringa ega tuzilmaga aylanganligini anglatar edi. 2021-yining noyabr oyidan boshlab Istanbulda Turkiy Savdo-sanoat palatasi ittifoqi doimiy kotibiyati ish boshlaydi.

2023-yilning 3-iyul kuni O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi tashabbusi bilan Toshkentda Turkiy tilli davlatlar savdo-sanoat palatalari ittifoqining navbatdan tashqari yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilish “Yangi O‘zbekiston: Biznes va investitsiyalar uchun yangi istiqbollar” deb nomlandi [6]. Yig‘ilish ishtirokchilari tomonidan so‘nggi yillarda mamlakatda biznes yuritish uchun yaratilgan qulay investitsiya sharoitlari uchun O‘zbekiston rahbariyatiga turkiy dunyo tadbirkorlari nomidan minnatdorchilik bildirib, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar biznesni jadal rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratganini, mamlakatning investitsiya jozibadorligi keskin oshganini va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni qariyb to‘rt baravar ko‘payganini ta’kidlandi. Demak, O‘zbekistonda bu davrga kelib savdo, investitsiya, transport, energetika sohasidagi hamkorliklarni o‘z ichiga olgan ko‘p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish choralalarini amalga oshirishga katta ahamiyat berildi va bu borada tarixiy natijalar qayd etib borildi.

Turkiy davlatlar Savdo-sanoat palatalari ittifoqi Bosh assambleyasining 2024-yilning 6-mart kuni onlayn formatda o‘tkazilgan navbatdan tashqari yig‘ilishida [7] Turkmaniston Savdo-sanoat palatasining Ittifoqqa to‘laqonli a’zo sifatida qo‘shilishi muhokama qilinib, barcha Ittifoq a’zolari Turkmaniston Savdo-sanoat palatasining tashkilotga qo‘shilishini bir ovozdan ma’qulladi [8]. Qozog‘iston Respublikasi 2026-yilda Turkiy tilli Davlatlar Savdo-sanoat palatalari ittifoqiga (TCCI) raislik qiladi [9].

**Xulosa.** Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar bilan imzolangan bitim va kelishuvlar asosida uning negizida faoliyat ko‘rsatuvchi iqtisodiy tuzilmalarga va bo‘limlarga ham asos solindi. 2019-yilda Qozog‘istonda Turkiy tilli davlatlar sanoat va savdo palatasi Nizomi imzolandi. TDTning 2022-yil Samarqandda bo‘lib o‘tgan 9-sammitida Turk davlatlari rahbarlari tomonidan TDT Savdoni yengillashtirish Strategiyasini qabul qilib, ushbu hujjat asosida Savdoni osonlashtirish qo‘mitasi (SOQ) tashkil etildi. “Turkiy investitsiya jamg‘armasi **(**TIJ)ni ta’sis etish to‘g‘risidagi Bitim” 2023-yilda Anqarada imzolandi. Bunday tuzilmalarga asos solinishdan ko‘zlangan asosiy maqsad iqtisodiy sohada aloqalarni kushaytirishda yangi marralarni qo‘lga kiritish edi.

## Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Iqtisodiy hamkorlik / https://turkicstates.org/uz/areas-of-cooperation-detail/2-economic-cooperation. Murojaat qilingan sana: 01.05.2026.
2. Türkdilli Dövlətlərin Ticarət və Sənaye Palatası yaradıldı / https://ask.org.az/2019/05/17/nur-sultan-s-h-rind-turkdilli-dovl-tl-rin-ticar-t-v-s-naye-palatasinin-esasnam-sinin-imzalanma-m-rasimi-kecirilib. Murojaat qilingan sana: 27.03.2026.
3. Türkdilli Dövlətlərin Ticarət və Sənaye Palatasının strukturu təsdiqləndi / https://news.milli.az/economy/775004.html. Murojaat qilingan sana: 01.05.2026.
4. “Халқ сўзи” газетаси. №213. 2019 йил 15 октябр.
5. Тюркский совет: новый этап бизнес-сотрудничества // Газета «Правда Востока», №226. 11 ноября 2021 года.
6. В Ташкенте прошло внеочередное заседание Союза Тюркских Торгово-промышленных палат / https://yuz.uz/ru/news/v-tashkente-proshlo-vneocherednoe-zasedanie-soyuza-tyurkskix-torgovo-promshlennx-palat. Murojaat qilingan sana: 13.01.2026.

7. Внеочередное заседание Генеральной ассамблеи Союза ТПП тюркских государств / https://old.chamber.uz/ru/news/70. Murojaat qilingan sana: 01.05.2026.

8. Туркменистан принят в Союз торгово-промышленных палат тюркских стран / Министрерство иностранных дел Туркменистана. https://www.mfa.gov.tm/ru/news/4416. Murojaat qilingan sana: 01.05.2026.

9. Казахстан возглавит Союз тюркских торгово-промышленных палат в 2026 году / https://www.aa.com.tr/ru. Murojaat qilingan sana: 01.05.2026.

# HUDUDIY NEFT BAZALARI FAOLIYATIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI HAMDA XUSUSIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Ruzimatov Javlonbek Atakuziyevich
*«Guliston neft bazasi» MCHJ*

***Annotatsiya.*** *Mazkur tezisda hududiy neft bazalarini modernizatsiya qilish va ularning operatsion samaradorligini oshirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan foydalanishning iqtisodiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda institutsional tahlil, hayotiy sikl xarajatlari, diskontlangan pul oqimi, Value for Money va ssenariy-sezgirlik usullari uyg‘unlashtirildi. Neft bazalari uchun mavjud aktivni rekonstruksiya qilish–moliyalashtirish–boshqarish–topshirish elementlarini birlashtirgan gibrid model, natijaga bog‘langan tarif va KPI tizimi taklif etildi. Shartli model hisobida 100 mlrd so‘mlik investitsiya, 12 yillik davr va 16 foizlik diskont stavkasida loyiha NPVsi 32,45 mlrd so‘m, IRR 23,25 foiz va PI 1,325 ni tashkil etdi. Biroq salbiy ssenariyda NPVning manfiylashishi DXSh samaradorligi avtomatik emasligini, talab, tarif va qurilish xatarlarini asosli taqsimlash zarurligini ko‘rsatdi. Ilmiy yangilik sifatida moliyaviy, budjet va ijtimoiy-ekologik natijalarni alohida hisoblaydigan uch konturli baholash modeli asoslandi.*

***Kalit so‘zlar:*** *hududiy neft bazasi, davlat-xususiy sheriklik, xususiy investitsiya, iqtisodiy samaradorlik, NPV, IRR, Value for Money, risklarni taqsimlash, logistika, raqamlashtirish.*

## Kirish

Hududiy neft bazalari neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, sifatini nazorat qilish va iste’molchilarga uzluksiz yetkazib berish zanjirining tayanch bo‘g‘inidir. Mazkur obyektlarda rezervuar parkining jismoniy eskirishi, o‘lchash va hisobga olish tizimlarining yetarli avtomatlashtirilmagani, yuklash-tushirishdagi texnologik yo‘qotishlar, energiya sarfi hamda ekologik xavfsizlik talablarining kuchayishi kapital sig‘imli modernizatsiyani talab qiladi. Faqat budjet mablag‘iga tayanish esa yangilash sur’atini sekinlashtirishi va aktivning butun hayotiy sikli bo‘yicha xarajatlarni optimal boshqarishga imkon bermasligi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ–537-son Qonunida DXSh davlat va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, resurslarni birlashtirishga asoslangan hamkorligi sifatida belgilangan; loyiha konsepsiyasi esa qiymat, moliyalashtirish manbai, rentabellik, samaradorlik va dolzarblik asoslarini qamrab olishi lozim [1]. 2024-yil 30-avgustdagi PQ–308-son qaror bilan 2030-yilga qadar DXSh loyihalariga kamida 30 mlrd AQSH dollari miqdorida xususiy investitsiya jalb qilish maqsadi belgilangan [2]. Bu institutsional yo‘nalish hududiy ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasida xususiy kapital, texnologiya hamda boshqaruv kompetensiyasini birlashtirish uchun imkoniyat yaratadi.

Shu bilan birga, DXSh oddiy moliyalashtirish manbai yoki davlat qarzini balansdan tashqariga chiqarish vositasi sifatida talqin qilinmasligi kerak. Jahon banki va OECD yondashuvlarida DXShning asosiy mezoni xususiy moliya faktining o‘zi emas, balki an’anaviy davlat xaridiga nisbatan yaxshiroq “narx–sifat” natijasi, hayotiy sikl bo‘yicha xarajatlarning kamayishi, raqobat va xatarlarning ularni eng yaxshi boshqara oladigan tomonga berilishidir [4; 5]. Demak, tadqiqotning maqsadi hududiy neft bazalariga xususiy investitsiya jalb qilishning maqbul DXSh konfiguratsiyasini ishlab chiqish va uning iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, modernizatsiya, moliyalashtirish va ekspluatatsiya majburiyatlari yagona uzoq muddatli shartnomada birlashtirilib, to‘lovlar aniq o‘lchanadigan natija ko‘rsatkichlariga bog‘lansa, texnologik yo‘qotishlar va operatsion xarajatlar kamayadi, aktivlardan foydalanish koeffitsiyenti oshadi hamda davlatning bir martalik kapital yuklamasi pasayadi. Biroq ushbu natija faqat to‘liq boshlang‘ich audit, raqobatli tanlov, realistik tarif modeli va shartli budjet majburiyatlarini cheklash sharti bilan yuzaga keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi va samaradorlik mezonlari**

Tadqiqotda tizimli va institutsional tahlil, qiyosiy baholash, hayotiy sikl xarajatlari (Life-Cycle Costing), diskontlangan pul oqimi (DCF), ssenariy hamda sezgirlik tahlili qo‘llanildi. Loyiha samaradorligini baholash to‘rtta o‘zaro bog‘liq, ammo bir-biriga qo‘shib yuborilmaydigan kesimda olib borilishi zarur: birinchisi — loyiha pul oqimlari bo‘yicha moliyaviy samaradorlik; ikkinchisi — xususiy investor kapitalining daromadliligi; uchinchisi — davlat budjeti uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shartli majburiyatlar; to‘rtinchisi — hududiy iqtisodiyot uchun ijtimoiy-ekologik samara. Bunday ajratish bir tomondagi foydani boshqa tomondagi yashirin xarajat hisobiga “samaradorlik” sifatida ko‘rsatish xavfini kamaytiradi.

Moliyaviy baholashda sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik normasi (IRR), rentabellik indeksi (PI), oddiy va diskontlangan qoplash muddati qo‘llanadi. NPV quyidagicha aniqlanadi:

$$NPV = -I_0 + \Sigma_{t=1}^{n} NCF_t/(1+r)^t + RV/(1+r)^n \quad (1)$$

bu yerda $I_0$ — boshlang‘ich investitsiya; $NCF_t$ — t-yildagi sof pul oqimi; r — loyiha xatarlarini aks ettiruvchi diskont stavkasi; RV — shartnoma yakunidagi qoldiq qiymat; n — loyiha muddati. PI diskontlangan tushumlarning boshlang‘ich investitsiyaga nisbati sifatida aniqlanadi. NPV > 0, IRR kapitalning talab etiladigan daromadlilik me’yoridan yuqori va PI > 1 bo‘lsa, loyiha moliyaviy jihatdan qabul qilinishi mumkin. Biroq bu holatning o‘zi DXSh shakli eng yaxshi variant ekanini isbotlamaydi.

DXShning davlat uchun nisbiy afzalligi Value for Money (VfM) orqali an’anaviy davlat xaridi bilan taqqoslanadi:

$$VfM = PSC_r - PPP_r \quad (2)$$

bu yerda $PSC_r$ — davlat tomonidan an’anaviy moliyalashtirish va boshqarish variantining xatarlar hamda raqobat neytralligi tuzatmalaridan keyingi diskontlangan qiymati; $PPP_r$ — DXSh variantidagi davlat to‘lovlari, kafolatlar, kompensatsiyalar va davlat zimmasida qolgan xatarlarning diskontlangan qiymati. VfM musbat bo‘lsa, DXSh nisbatan samarali deb qaraladi. Hisobda mahsulot yo‘qotishining qisqarishi, energiya va ta’mirlash tejamkorligi, qo‘shimcha terminal xizmatlari, bekor turishning kamayishi hamda asosli hisoblangan ekologik xatarlar qiymati inobatga olinadi. Sug‘urta to‘lovi bilan qoplanadigan zarar va “oldi olingan zarar”ni bir vaqtning o‘zida kiritish kabi ikki karra hisobga olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Amaliy loyihaoldi tadqiqoti uchun kamida so‘nggi uch–besh yillik yuk aylanmasi, mahsulotlar kesimidagi tabiiy va texnologik yo‘qotishlar, elektr energiyasi sarfi, ta’mirlash xarajatlari, avariya va bekor turishlar, rezervuarlarning texnik holati, o‘lchash xatolari, debitorlik, yer va mulk huquqlari hamda tarixiy ekologik majburiyatlar inventarizatsiyasi zarur. Ana shunday bazaviy ko‘rsatkichlar bo‘lmasa, KPI bo‘yicha tejalgan mablag‘ni aniqlash va xususiy operator natijasini xolis baholash imkonsiz bo‘ladi.

**Hududiy neft bazalari uchun maqbul DXSh modeli**

Mavjud hududiy neft bazalari uchun “rekonstruksiya–moliyalashtirish–ekspluatatsiya–topshirish” (ROT/DBFOM elementlari) gibrid modeli maqsadga muvofiq. Bunda davlat sherigi mavjud yer maydoni, rezervuarlar, temir yo‘l yoki avtomobil kirish infratuzilmasi va strategik xizmat vazifasini loyiha doirasiga kiritadi. Maxsus loyiha kompaniyasi esa texnik audit asosida rezervuarlarni rekonstruksiya

qiladi, avtomatlashtirilgan o‘lchash va dispetcherlik tizimini, sath va ortiqcha to‘lishdan himoya vositalarini, yong‘in xavfsizligi, bug‘larni tutish, oqova suv va sizib chiqishni nazorat qilish yechimlarini joriy etadi, moliyalashtiradi hamda belgilangan davrda obyektni boshqaradi. Shartnoma yakunida aktivlar oldindan belgilangan texnik holatda davlatga qaytariladi.

Texnik talablar faqat uskunalar ro‘yxati bilan emas, natija parametrlari bilan ifodalanishi kerak. IFCning xom neft va neft mahsulotlari terminallari bo‘yicha EHS qo‘llanmasi quruqlikdagi va qirg‘oqdagi saqlash terminallarining qabul qilish, saqlash va jo‘natish jarayonlaridagi ekologik, mehnat va jamoat xavfsizligi xatarlarini qamrab oladi [6]. API 2350 standarti esa neft saqlash rezervuarlarida ortiqcha to‘lishning oldini olish tizimi, signalga javob va boshqaruv dasturlariga urg‘u beradi [7]. Ushbu xalqaro yaxshi amaliyotlarni loyiha spetsifikatsiyasiga moslashtirish texnik xatarni xususiy sherikka o‘tkazishning o‘lchanadigan asosini yaratadi.

Daromad mexanizmi uch komponentdan tuzilishi mumkin: birinchisi, neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va jo‘natish uchun hajmga bog‘liq terminal tarifi; ikkinchisi, davlatning strategik zaxira quvvatini doimiy tayyor holda saqlash uchun mavjudlik to‘lovi; uchinchisi, laboratoriya, aralashtirish, markirovkalash va kompleks logistika kabi qo‘shimcha xizmatlardan bozor daromadi. O‘RQ–537-son Qonun DXSh bitimida haq to‘lash, erkin foydalanish uchun to‘lov, foydalanganlik uchun to‘lov hamda daromadni taqsimlash shartlarini belgilash imkonini beradi [1]. Shuning uchun davlat kafolati butun talabni qoplashga emas, faqat strategik tayyorlik kabi o‘lchanadigan jamoat xizmatiga yo‘naltirilishi lozim.

To‘lov formulasi “bazaviy tarif × tasdiqlangan hajm + mavjudlik to‘lovi − KPI chegirmalari” tamoyiliga asoslanadi. Asosiy KPIlar sifatida mahsulot balansi tafovuti, texnologik yo‘qotishning kontrakt bazasiga nisbatan kamayishi, uskunalarning texnik tayyorlik koeffitsiyenti, bir tonna yuk aylanmasiga energiya sarfi, yuklash vaqti, o‘lchash tizimining metrologik ishonchliligi, ekologik hodisalar va mehnat xavfsizligi ko‘rsatkichlari olinadi. KPI buzilishi avtomatik chegirma, takroriy buzilish esa operatorni almashtirish yoki davlatning vaqtincha boshqaruvga kirish huquqini keltirib chiqarishi kerak.

Xatarlarni “eng ko‘p xususiy sektorga berish” emas, balki ularni eng past umumiy xarajat bilan boshqara oladigan tomonga biriktirish lozim [4]. Tavsiya etiladigan taqsimot quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

| Xatar turi | Davlat sherigi | Xususiy sherik | Taqsimlash tamoyili |
|---|---|---|---|
| Yer, mulk huquqi va tarixiy ifloslanish | Asosiy | Auditda aniqlangan yangi zarar | Topshirishgacha mavjud majburiyat davlatda; operatsion davrdagi yangi zarar operatorda |
| Loyihalash, qurilish va xarajat oshishi | Nazorat | Asosiy | Belgilangan narx va muddat; faqat davlat tashabbusidagi o‘zgarishlar kompensatsiya qilinadi |
| Talab va yuk aylanmasi | Strategik quvvat qismi | Bozor qismi | Minimal hajm kafolati o‘rniga cheklangan mavjudlik to‘lovi va daromad koridori |
| Tarif va qonunchilik o‘zgarishi | Asosiy/ shared | Samaradorlik majburiyati | Indeksatsiya formulasi va qonun o‘zgarishi bo‘yicha aniq kompensatsiya chegarasi |
| Operatsion yo‘qotish, xavfsizlik va ekologiya | Mustaqil monitoring | Asosiy | KPI chegirmasi, sug‘urta, zarar qoplash va favqulodda boshqaruv rejimi |

*Manba: muallif ishlanmasi, Jahon bankining xatarlarni ularni eng yaxshi boshqara oladigan tomonga taqsimlash tamoyili asosida [4].*

**Shartli iqtisodiy hisob-kitob va natijalar**

Taklif etilayotgan mexanizmning hisoblash mantig‘ini ko‘rsatish uchun shartli hududiy neft bazasi modeli tuzildi. Ushbu raqamlar muayyan korxonaning moliyaviy hisoboti emas va investitsiya qarori uchun texnik-iqtisodiy asos o‘rnini bosa olmaydi. Bazaviy farazlar: boshlang‘ich investitsiya — 100 mlrd so‘m; operatsiya davri — 12 yil; yillik sof pul oqimi — 25 mlrd so‘m; qoldiq qiymat — 15 mlrd so‘m; diskont stavkasi — 16 foiz. Yillik sof pul oqimi mahsulot yo‘qotishlari kamayishi, energiya va ta’mirlash tejamkorligi, qo‘shimcha yuk aylanmasi va xizmatlar marjasi hamda asosli baholangan bekor turish xatarining qisqarishidan shakllanadi.

| Ssenariy | CAPEX, mlrd so‘m | Yillik NCF, mlrd so‘m | Diskont, % | NPV, mlrd so‘m | IRR, % | PI |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Salbiy | 110 | 20 | 18 | −12,08 | 15,25 | 0,890 |

| Ssenariy | CAPEX, mlrd so‘m | Yillik NCF, mlrd so‘m | Diskont, % | NPV, mlrd so‘m | IRR, % | PI |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Bazaviy** | **100** | **25** | **16** | **32,45** | **23,25** | **1,325** |
| Ijobiy | 95 | 30 | 14 | 77,92 | 30,48 | 1,820 |

*Izoh: barcha ssenariylarda muddat 12 yil va qoldiq qiymat 15 mlrd so‘m deb olingan. Hisob-kitob muallif tomonidan (1)-formula asosida bajarilgan.*

Bazaviy ssenariyda NPV 32,45 mlrd so‘m, IRR 23,25 foiz, PI 1,325, oddiy qoplash muddati 4 yil va diskontlangan qoplash muddati taxminan 6,89 yilni tashkil etadi. Bu farazlar doirasida loyiha qo‘shilgan qiymat yaratadi. 16 foiz diskont stavkasi va 15 mlrd so‘mlik qoldiq qiymatda NPVni nolga tenglashtiradigan yillik sof pul oqimi taxminan 18,76 mlrd so‘mdir. Demak, kontraktda texnologik va tijorat samarasi kamida shu chegaradan yuqori bo‘lishini ta’minlovchi operatsion model ko‘zda tutilishi kerak.

Salbiy ssenariyda kapital xarajatning 10 foizga oshishi, yillik sof pul oqimining 20 mlrd so‘mgacha tushishi va diskont stavkasining 18 foizga ko‘tarilishi NPVni −12,08 mlrd so‘mga olib keladi. Bu natija talabni haddan tashqari optimistik baholash, tarifni siyosiy qarorlar bilan muzlatib qo‘yish yoki rekonstruksiya paytida yashirin texnik nuqsonlar aniqlanishi loyihani moliyaviy jihatdan zaiflashtirishini ko‘rsatadi. Shu sababli tenderdan oldin rezervuarlar va quvurlarni instrumental diagnostika qilish, yuk aylanmasi bo‘yicha mustaqil bozor prognozi tuzish va kamida uchta ssenariyda qarzga xizmat ko‘rsatish koeffitsiyentini tekshirish zarur.

Davlat nuqtayi nazaridan ijobiy NPV yetarli mezon emas. Budjet tahlili mavjudlik to‘lovlari, kapital grant, soliq preferensiyalari, valyuta yoki minimal daromad kafolati, muddatidan oldin bekor qilish kompensatsiyasi va favqulodda holatdagi davlat xarajatlarini yagona fiskal reyestrda aks ettirishi lozim. Ijtimoiy-iqtisodiy tahlilda esa yoqilg‘i ta’minoti uzluksizligi, transport masofasining qisqarishi, mahalliy biznes uchun logistika xarajatlari, bandlik, emissiya va avariya xatari kabi tashqi samaralar alohida iqtisodiy narxlarda baholanadi. Moliyaviy NPV, budjet ta’siri va iqtisodiy ENPVni bir ko‘rsatkichka mexanik qo‘shish qarorning shaffofligini pasaytiradi.

Xususiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy takliflar

Birinchidan, hududiy neft bazalarini texnik holat, yuk aylanmasi, bozor radiusi, temir yo‘l va avtomobil tarmoqlariga ulanishi, ekologik xavf va modernizatsiya ehtiyojiga ko‘ra reytinglash lozim. Iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydigan obyektlar tijorat

DXSh paketiga, strategik ahamiyatga ega, ammo talab zichligi past obyektlar esa cheklangan mavjudlik to‘lovi bilan aralash modelga kiritiladi. Doimiy subsidiya talab qiladigan va bozor talabi bo‘lmagan aktiv bo‘yicha DXSh emas, optimallashtirish yoki konservatsiya varianti ko‘rib chiqilishi kerak.

Ikkinchidan, loyiha tenderga chiqarilishidan oldin “toza boshlang‘ich nuqta” shakllantiriladi: aktiv va inventar qiymati, tarixiy ifloslanish, yer huquqi, texnik qarz, mavjud shartnomalar va xodimlar majburiyati tasdiqlanadi. O‘RQ–537-son Qonunga ko‘ra loyiha davlat yoki xususiy tashabbuskor tomonidan taklif qilinishi mumkin, biroq xususiy tashabbus ham innovatsion yondashuv va taraflar uchun mutanosib nafni asoslashga majbur [1]. Xususiy tashabbus raqobatni cheklamasligi; bozorda qiziqish sinovi va ochiq tanlov saqlanishi zarur.

Uchinchidan, tender mezoni eng yuqori bir martalik to‘lov emas, balki hayotiy sikl bo‘yicha eng yaxshi iqtisodiy taklif bo‘lishi kerak. Baholashda so‘ralayotgan mavjudlik to‘lovi, terminal tarifi, xususiy kapital ulushi, energiya sarfi, kafolatlangan texnik tayyorlik, mahsulot yo‘qotishi, rekonstruksiya muddati va aktivni qaytarish holati birlashtiriladi. Moliyaviy modelning elektron nusxasi, asosiy farazlar va sezgirlik natijalari vakolatli organ tomonidan stress-test qilinadi.

To‘rtinchidan, xususiy kapital va qarz mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat kreditor talabi bilan emas, loyiha pul oqimining barqarorligi bilan belgilanadi. Haddan tashqari qarz yuklamasi tarifni oshiradi va qayta moliyalashtirish xavfini kuchaytiradi. Shartnomada dividend to‘lashdan oldin qarz xizmatiga zaxira, majburiy sug‘urta, kapital ta’mir jamg‘armasi va aktivni topshirish zaxirasi shakllantirilishi ko‘zda tutilishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, raqamli monitoring “yagona haqiqat manbai” tamoyiliga qurilishi kerak. Rezervuar sathi, kirim-chiqim o‘lchovlari, laboratoriya natijalari, energiya sarfi, yuklash vaqti va favqulodda signal ma’lumotlari davlat sherigi hamda mustaqil muhandis uchun real vaqt yoki belgilangan davriylikda ochiq bo‘ladi. Ma’lumotni qayta yozishdan himoyalangan jurnal va davriy metrologik verifikatsiya KPI manipulyatsiyasi xavfini kamaytiradi.

Oltinchidan, dastlab bir yoki ikki turli hududdagi obyekt bo‘yicha pilot loyiha amalga oshirilib, natijalar standart shartnoma, risk matritsasi va KPI katalogiga aylantirilishi kerak. OECD hududiy DXShlar murakkab va maxsus kompetensiya talab qilishini, ayniqsa mahalliy darajada institutsional salohiyat yetishmasligi xatarini ta’kidlaydi [5]. Shu bois loyiha ofisi, hududiy davlat sherigi, texnik regulyator va mustaqil muhandis vakolatlari aniq ajratilishi, shartnoma boshqaruvi uchun uzoq muddatli professional guruh shakllantirilishi lozim.

**Xulosa**

Hududiy neft bazalarini DXSh asosida modernizatsiya qilish xususiy kapitalni jalb etish bilan birga, texnologik yangilanish, operatsion intizom va aktivning hayotiy sikli bo‘yicha boshqaruvni yaxshilash imkonini beradi. Eng maqbul shakl mavjud aktivni davlat mulkida saqlagan holda, rekonstruksiya, moliyalashtirish va ekspluatatsiyani natijaga bog‘langan uzoq muddatli shartnomada birlashtiruvchi gibrid ROT/DBFOM modelidir.

Shartli hisobda bazaviy ssenariyning NPVsi 32,45 mlrd so‘m va IRR ko‘rsatkichi 23,25 foiz bo‘lib, loyiha moliyaviy jihatdan jozibador ekanini ko‘rsatdi. Ayni paytda salbiy ssenariyda NPVning −12,08 mlrd so‘mga tushishi samaradorlikning talab, kapital xarajat va moliyalashtirish qiymatiga yuqori sezgirligini tasdiqladi. Shunday ekan, DXSh bo‘yicha qaror faqat bazaviy prognozga emas, stress-test va NPVning kritik chegaralariga tayanishi kerak.

Tadqiqot natijasida uch konturli baholash yondashuvi taklif etildi: loyiha va investor uchun moliyaviy samaradorlik; davlat uchun VfM va fiskal barqarorlik; hudud uchun ijtimoiy-ekologik ENPV. Ushbu konturlarni alohida hisoblash, so‘ng qaror matritsasida birlashtirish davlat manfaatini, investor bankabelligini va hududiy ta’sirni muvozanatlashtiradi.

Umuman, xususiy investitsiya o‘z-o‘zidan iqtisodiy samaradorlikni kafolatlamaydi. Natija raqobatli tanlov, sifatli bazaviy ma’lumot, xatarlarning maqbul taqsimoti, cheklangan va shaffof davlat qo‘llab-quvvatlashi, o‘lchanadigan KPIlar hamda shartnoma davomida professional monitoring mavjud bo‘lgandagina yuzaga keladi. Mazkur yondashuv hududiy neft bazalarini xavfsiz, raqamli va iqtisodiy barqaror logistika infratuzilmasiga aylantirishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ–537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni (amaldagi tahrir). Manba havolasi

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ–308-son “O‘zbekiston Respublikasida 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Manba havolasi

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ–598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (amaldagi tahrir). Manba havolasi

4. World Bank Group va hamkor tashkilotlar. Public-Private Partnerships: Reference Guide, Version 3. Washington, DC, 2017. Manba havolasi

5. OECD. Subnational Public-Private Partnerships: Meeting Infrastructure Challenges. OECD Publishing, Paris, 2018. Manba havolasi

6. International Finance Corporation. Environmental, Health, and Safety Guidelines for Crude Oil and Petroleum Product Terminals. World Bank Group, 2007. Manba havolasi

7. American Petroleum Institute. API Standard 2350, 5th Edition: Overfill Prevention for Storage Tanks in Petroleum Facilities. Manba havolasi

# MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH STRATEGIYASI

Javohir Mirzakahhorov
*Shams Private School*
*11th-grade student*
*Email: javoxirmirzaqahhorov@gmail.com*

***Annotatsiya***. *Mazkur tezis Markaziy Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy integratsiya sharoitida O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish yo'llarini Balassa nisbiy ustunlik indeksi (RCA) va gravitatsion model asosida tahlil qiladi. Tadqiqotda O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan savdo aloqalari 2024-yil bo'yicha Butunjahon Savdo Tashkiloti va BMT Comtrade ma'lumotlari asosida ko'rib chiqiladi, eksport tarkibidagi ustuvor tovar guruhlari aniqlanadi va ularning nisbiy ustunlik darajasi baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston eksporti oltin va boshqa metallarga yuqori darajada bog'liq bo'lib, mintaqa ichidagi savdo salmog'i hamon cheklangan darajada qolmoqda. Gravitatsion tahlil transport masofasi, umumiy chegara mavjudligi va savdo kelishuvlarining eksport hajmiga ta'sirini nazariy jihatdan izohlaydi. Tadqiqot yakunida eksportni diversifikatsiya qilish, standartlarni muvofiqlashtirish va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan aniq strategik takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar****: mintaqaviy integratsiya; eksport salohiyati; Balassa indeksi; nisbiy ustunlik; gravitatsion model; Markaziy Osiyo; tashqi savdo; eksport diversifikatsiyasi; O'zbekiston.*

***Abstract***. *This thesis examines strategies for strengthening Uzbekistan's export potential within the framework of regional economic integration in Central Asia, applying the Balassa Revealed Comparative Advantage (RCA) index and the gravity model of trade. Drawing on 2024 data from the World Trade Organization and UN Comtrade, the study reviews Uzbekistan's trade relations with Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Turkmenistan, identifies the leading commodity groups in its export structure, and assesses their revealed comparative advantage. The findings indicate that Uzbekistan's exports remain heavily concentrated in gold and other metals, while intraregional trade volumes stay comparatively modest. The gravity-model discussion*

*sets out, on theoretical grounds, how distance, shared borders and trade agreements are expected to shape bilateral export flows. The thesis concludes with concrete strategic proposals for export diversification, standards harmonization and logistics development.*

***Keywords**: regional integration; export potential; Balassa index; revealed comparative advantage; gravity model; Central Asia; foreign trade; export diversification; Uzbekistan.*

***Аннотация.** В данной работе рассматриваются стратегии укрепления экспортного потенциала Узбекистана в условиях региональной экономической интеграции в Центральной Азии с применением индекса выявленных сравнительных преимуществ Балассы (RCA) и гравитационной модели торговли. На основе данных Всемирной торговой организации и базы UN Comtrade за 2024 год анализируются торговые отношения Узбекистана с Казахстаном, Кыргызстаном, Таджикистаном и Туркменистаном, определяются ведущие товарные группы в структуре экспорта страны и оцениваются их выявленные сравнительные преимущества. Результаты исследования показывают, что экспорт Узбекистана по-прежнему в значительной степени сосредоточен на золоте и других металлах, в то время как объёмы внутрирегиональной торговли остаются сравнительно невысокими. В рамках гравитационной модели с теоретической точки зрения рассматривается влияние расстояния, наличия общих границ и торговых соглашений на двусторонние экспортные потоки. В заключении сформулированы конкретные стратегические предложения по диверсификации экспорта, гармонизации стандартов и развитию логистической инфраструктуры.*

***Ключевые слова:** региональная интеграция; экспортный потенциал; индекс Балассы; выявленные сравнительные преимущества; гравитационная модель; Центральная Азия; внешняя торговля; диверсификация экспорта; Узбекистан.*

## KIRISH

So'nggi o'n yil ichida Markaziy Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik masalasi nafaqat besh davlat hukumatlari, balki xalqaro moliya institutlari diqqatini ham tobora ko'proq jalb etib bormoqda. Osiyo Taraqqiyot Bankining CAREC 2030 strategiyasida qayd etilganidek, mintaqa transport, energetika va savdo yo'nalishlarida chuqurroq bog'lanishga muhtoj, chunki mavjud infratuzilma va institutsional to'siqlar mamlakatlar

o'rtasidagi tovar oqimini sun'iy ravishda cheklab turibdi[29]. O'zbekiston uchun bu masala alohida ahamiyat kasb etadi: mamlakat Markaziy Osiyoning barcha to'rt davlati — Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston — bilan quruqlikdan chegaradosh bo'lgan yagona davlat bo'lib, o'zi ham ikki karra dengizga chiqish imkoniyatidan mahrum hududda joylashgan[30]. Ana shu geografik holat O'zbekiston eksportining raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi: tashqi bozorlarga chiqish yo'llari uzoq, tranzit vaqti va xarajatlari esa qo'shni davlatlarga nisbatan yuqori.

2024-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 65,9 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, shundan tovar eksporti (Butunjahon Savdo Tashkiloti va BMT Comtrade ma'lumotlariga ko'ra) 19,7 milliard dollarga yetdi[31]. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligining hisob-kitoblariga ko'ra — bu ko'rsatkichga xizmatlar eksporti ham qo'shilgan holda — yalpi eksport hajmi 26,9 milliard dollarni tashkil etadi; ikki raqam o'rtasidagi farq, birinchi navbatda, xizmatlar eksporti (taxminan 7,2 milliard dollar) hisobiga hamda ikki manbaning hisob-kitob metodologiyasidagi tafovutlar bilan izohlanadi[32]. Har qanday holatda ham, mintaqa ichidagi savdo ulushi hali ham nisbatan kichik: Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga yo'naltirilgan eksport 2024-yilda jami tovar eksportining o'ndan bir qismidan sal ko'prog'ini tashkil etdi, holbuki bu uchta davlat O'zbekistonning eng yaqin va tarixiy jihatdan chambarchas bog'liq bozorlaridir.

Mintaqa ichidagi savdoning cheklanganligi faqat geografik omillar bilan izohlanmaydi. Bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarining murakkabligi, fitosanitariya va texnik standartlarning davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek transport-logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi savdo xarajatlarini oshiradigan asosiy omillar sifatida qayd etiladi[33]. Bunday to'siqlar, ayniqsa, xom ashyodan tashqari mahsulotlar — tayyor tekstil buyumlari, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari — eksportiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ularning marjasi transport va bojxona xarajatlaridagi o'sishga xom ashyo eksportiga nisbatan ancha sezgirroq bo'ladi.

---

[29]Asian Development Bank. CAREC 2030: Connecting the Region for Shared and Sustainable Development. — Manila: ADB, 2017. URL: https://www.adb.org/documents/carec-2030-connecting-region-sustainable-development (murojaat sanasi: 11.08.2026).

[30]Umarova, S. Trade Dynamics in Central Asia: Insights from Uzbekistan's Perspective // International Affairs. — 2024. — № 7–8 (109–110). — P. 102.

[31]World Trade Organization. Tariff & Trade Data: Uzbekistan — Member profile (BMT Comtrade ma'lumotlari asosida), 2024-yil ko'rsatkichlari. URL: https://ttd.wto.org/en/profiles/uzbekistan (murojaat sanasi: 11.08.2026).

[32]Uzbekistan's foreign trade turnover reached US$65.9 billion in 2024 // UzDaily, O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida, 2025-yil yanvar. URL: https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-foreign-trade-turnover-reached-us659-billion-in-2024/ (murojaat sanasi: 11.08.2026).

[33]Umarova, S. Ko'rsatilgan asar. — P. 103–104.

Mintaqaviy bozorlarning O'zbekiston uchun strategik ahamiyati faqat qo'shni ekanligi bilan emas, balki umumiy tarixiy savdo yo'llari va ishlab chiqarish zanjirlari bilan ham bog'liq. CAREC dasturi doirasida shakllantirilgan olti transport yo'lagi Markaziy Osiyoni Xazar dengizidan Xitoygacha bo'lgan hududda bir-biriga bog'lab, mintaqa ichidagi va undan tashqaridagi savdoni jadallashtirishga xizmat qiladi[34]. Ayni paytda O'zbekiston, o'zining markaziy geografik joylashuvi tufayli, ushbu yo'laklarning katta qismida tabiiy tranzit bo'g'ini vazifasini bajaradi, biroq bu salohiyatni to'liq ishga solish transport infratuzilmasi va institutsional muvofiqlashtirish darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bozorlari — ularning nisbatan kichik hajmiga qaramay — O'zbekiston uchun geografik yaqinligi tufayli transport xarajatlari eng past bo'lgan bozorlar hisoblanadi, bu esa ayniqsa kichik va o'rta biznes uchun ularni birlamchi eksport yo'nalishiga aylantirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqotning muammosi quyidagicha shakllantiriladi: O'zbekiston Markaziy Osiyo bozorlarida qaysi tovar guruhlari bo'yicha nisbiy eksport ustunligiga ega va bu ustunlik hozirgi kunda qanday darajada ishga solinmoqda? Tadqiqot maqsadi — Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlar sharoitida O'zbekistonning mahsulotlar kesimidagi nisbiy eksport ustunliklarini aniqlash, mintaqa mamlakatlari bilan savdo oqimlariga ta'sir qiluvchi omillarni baholash hamda foydalanilmagan eksport salohiyatini ishga solish bo'yicha strategik takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan tashqi savdo munosabatlari olingan, predmeti esa — ushbu munosabatlarning tovar tarkibi, nisbiy ustunlik darajasi va ularga ta'sir etuvchi iqtisodiy hamda institutsional omillardir. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik guruhlash usullari, shuningdek Balassa nisbiy ustunlik indeksi va gravitatsion model nazariy asoslariga tayanuvchi tavsifiy tahlil qo'llanildi. Ishning ilmiy ahamiyati shundaki, u O'zbekiston–Markaziy Osiyo savdo aloqalarini yagona metodologik asosda — RCA va gravitatsion yondashuvni birlashtirgan holda — tahlil qiladi; amaliy ahamiyati esa aniqlangan tovar guruhlari va tavsiyalarning davlat organlari, eksportni qo'llab-quvvatlash tashkilotlari va tadbirkorlar tomonidan bevosita qo'llanilishi mumkinligidadir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Nisbiy ustunlik nazariyasining zamonaviy o'lchov vositasi sifatida Balassa taklif etgan indeks XX asrning ikkinchi yarmidan buyon xalqaro savdo tahlilining asosiy asboblaridan biriga aylandi. Balassa o'z ishida bir mamlakatning muayyan tovar

[34]Asian Development Bank. CAREC 2030: Connecting the Region for Shared and Sustainable Development. Ko'rsatilgan manba.

bo'yicha eksport ulushini uning umumiy eksportidagi ulushi bilan solishtirish orqali, davlat tashqi savdo siyosatidan qat'i nazar, qaysi sohalarda “namoyon bo'lgan” ustunlikka ega ekanligini ko'rsatib berish mumkinligini asoslab berdi[35]. Bu yondashuvning afzalligi uning soddaligi va istalgan ikkita mamlakat yoki mamlakatlar guruhi o'rtasida qo'llanilishi mumkinligidadir, biroq shu bilan birga u faqat real eksport statistikasida aks etgan ustunlikni qayd etadi, hali rivojlanmagan yoki yashiringan salohiyatni esa ko'rsatib bermaydi. Aynan shu cheklov RCA indeksining turli modifikatsiyalari yaratilishiga turtki bo'lgan; xususan, Nurmatov O'zbekiston agrar sektorining Qozog'iston bozoridagi raqobatbardoshligini baholashda RCA'ga yondosh ko'rsatkichlardan foydalanib, mintaqaviy bozor kesimida tor ixtisoslashuvni ochib bergan[36].

Gravitatsion modelning tashqi savdoga tatbiq etilishi Tinbergenning 1962-yildagi ishiga borib taqaladi; u Nyuton tortishish qonuniga o'xshash tarzda, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi ularning iqtisodiy “massasi” (odatda YAIM bilan o'lchanadigan) ko'paytmasiga to'g'ri proporsional va ular orasidagi masofaga teskari proporsional bo'lishini taklif qildi[37]. Uzoq vaqt davomida bu model empirik jihatdan yaxshi natija bergan bo'lsa-da, uning nazariy asosi zaif hisoblangan. Anderson va van Vinkup ushbu bo'shliqni to'ldirib, “ko'p tomonlama qarshilik” (multilateral resistance) tushunchasini kiritdilar: ularning fikricha, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo nafaqat ular orasidagi bevosita savdo to'siqlariga, balki har bir mamlakatning barcha boshqa hamkorlar bilan bog'liq nisbiy savdo xarajatlariga ham bog'liq bo'ladi[38]. Bu nazariy yutuq gravitatsion tenglamani shunchaki empirik regressiyadan chinakam nazariy asoslangan modelga aylantirdi. Ekonometrik baholash borasida esa Santos Silva va Tenreyroning hissasi alohida o'rin tutadi: ular ko'rsatib berishicha, an'anaviy usulda — tenglamani logarifmik shaklga keltirib, oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) usuli bilan baholash — geteroskedastiklik sharoitida siljigan baholarga olib keladi, bundan tashqari, savdo hajmi nolga teng bo'lgan juftliklar tahlildan chetlashtiriladi[39]. Ular buning o'rniga Puasson psevdo-maksimal ehtimollik (PPML) usulini taklif qildilar, bu

[35]Balassa, B. Trade Liberalisation and “Revealed” Comparative Advantage // The Manchester School. — 1965. — Vol. 33, No. 2. — P. 99–123. https://doi.org/10.1111/j.1467-9957.1965.tb00050.x

[36]Nurmatov, N. Uzbekistan agrarian sector export competitiveness in Kazakhstan: Paper presented at the IAMO Forum, Samarkand, 2016. https://doi.org/10.22004/ag.econ.249953

[37]Tinbergen, J. Shaping the World Economy: Suggestions for an International Economic Policy. — New York: The Twentieth Century Fund, 1962. — 330 p.

[38]Anderson, J. E., Van Wincoop, E. Gravity with Gravitas: A Solution to the Border Puzzle // American Economic Review. — 2003. — Vol. 93, No. 1. — P. 170–192. https://doi.org/10.1257/000282803321455214

[39]Santos Silva, J. M. C., Tenreyro, S. The Log of Gravity // The Review of Economics and Statistics. — 2006. — Vol. 88, No. 4. — P. 641–658. https://doi.org/10.1162/rest.88.4.641

usul bugungi kunda gravitatsion tadqiqotlarning aksariyatida standart baholash vositasiga aylangan.

Markaziy Osiyo va O'zbekiston kontekstida ushbu ikki yondashuvni birlashtirgan tadqiqotlar so'nggi yillarda sezilarli darajada ko'paydi. Zinchenko va Radionov Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YEII) doirasida savdo to'siqlarining bekor qilinishi O'zbekiston eksportiga qanday ta'sir ko'rsatishini RCA va mintaqaviy yo'nalganlik (RO) indekslari yordamida baholab, O'zbekiston eksportining sezilarli qismi uchun bunday liberallashtirish ijobiy natija berishini, ayniqsa nobojxona to'siqlarining kamayishi eksport o'sishiga hissa qo'shishini ko'rsatib berdilar[40]. Sudakov va Zinchenko esa O'zbekiston uchun eksport salohiyatini baholash metodologiyasini ishlab chiqib, mamlakat eksportining amaldagi va potensial hajmi o'rtasidagi tafovutni aniqlashga alohida e'tibor qaratdilar[41]. Talipova, Islamov va Turdibayeva Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy jarayonlarini gravitatsion model asosida modellashtirib, mintaqa ichidagi savdo juftliklarini reyting shaklida tartiblashtirdilar hamda matematik vositalarning bashoratlash uchun zarurligini asosladilar[42].

Xalqaro miqyosda Sesluk va Gurshevning ishlari alohida ahamiyatga ega: ular YEII kengayishi va Rossiyaning JST'ga a'zo bo'lishidan keyingi davrda Markaziy Osiyo davlatlarining savdo siyosatini uch bosqichli eng kichik kvadratlar (3SLS) gravitatsion model yordamida tahlil qilib, Tojikiston va O'zbekiston uchun YEII'ga qo'shilish muqobil variantlar — masalan, Xitoy yoki Eron bilan ikki tomonlama kelishuvlar — bilan solishtirganda ancha yuqori savdo yutuqlarini berishi mumkinligini ko'rsatdilar[43]. Ularning keyingi tadqiqoti Armaniston va Qirg'izistonning YEII'ga qo'shilish tajribasini o'rganib, kichik iqtisodiyotlar uchun integratsiyaning savdo natijalari nafaqat ittifoqqa a'zolikning o'zi, balki faol milliy siyosat choralariga ham bog'liqligini ta'kidlaydi[44].

---

[40]Zinchenko, A. A., Radionov, S. A. Analysis of the Effects Produced by Trade Liberalization in the Republic of Uzbekistan and the EAEU // Studies on Russian Economic Development. — 2023. — Vol. 34, No. 1. — P. 142–149. https://doi.org/10.1134/S1075700723010197

[41]Sudakov, S. S., Zinchenko, A. A. Export Potential Assessment Methodology: The Case of the Republic of Uzbekistan // Финансовый журнал (Financial Journal). — 2024. — № 1. — P. 61–77. https://doi.org/10.31107/2075-1990-2024-1-61-77

[42]Talipova, N. T., Islamov, B. A., Turdibaeva, M. M. Gravity Model of Foreign Economic Processes of Central Asia Countries // Lecture Notes in Computer Science, Vol. 14543. — Springer, Cham, 2024. https://doi.org/10.1007/978-3-031-60997-8_29

[43]Cieślik, A., Gurshev, O. Trade policies in Central Asia after EAEU enlargement and after Russian WTO accession: regionalism and integration into the world economy revisited // Eurasian Geography and Economics. — 2023. — P. 656–678. https://doi.org/10.1080/15387216.2022.2162098

[44]Cieślik, A., Gurshev, O. How does regional economic integration impact trade in small economies? Evidence from Armenia and Kyrgyzstan's EAEU accession // Eurasian Geography and Economics. — 2025. https://doi.org/10.1080/15387216.2025.2475904

O'zbekistonlik tadqiqotchi Umarova o'z maqolasida mamlakatning ikki karra quruqlik ichida joylashganligi tufayli yuzaga keladigan transport xarajatlari va tranzit muddatlarining eksport raqobatbardoshligiga salbiy ta'sirini batafsil yoritib, savdoni yengillashtirish choralari — bojxona jarayonlarini zamonaviylashtirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish — orasidagi bog'liqlikni gravitatsion model asosida asoslab berdi[45]. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD)ning 2025-yildagi hisobotida esa Jahon banki savdo ma'lumotlar bazasi (WITS) asosida hisoblangan RCA ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston 2017–2022-yillar davomida metallar, tosh-shisha buyumlari hamda to'qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari bo'yicha barqaror nisbiy ustunlikka ega bo'lgan[46]. Bu xulosa Herfindahl-Xirshman indeksi (HHI) va RCA'ni birgalikda qo'llagan so'nggi tadqiqotda ham tasdiqlanadi: Sapaev va Bakoeva O'zbekistonning paxta va rangli metallar bo'yicha raqobatbardosh niyshalarini alohida ta'kidlaydi, biroq eksport bozorlarining geografik konsentratsiyasi hamon yuqori ekanligini, bu esa mamlakatni tashqi shoklarga zaif qilishini qayd etadi[47].

Nihoyat, Sultonovning 2026-yilda e'lon qilingan tadqiqoti Markaziy Osiyo davlatlarida xalqaro savdo va YAIM o'sishi o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni Grenjer testlari yordamida o'rganib, ayrim davlatlarda — jumladan O'zbekistonda — iqtisodiy o'sishning o'zi mintaqa ichidagi savdo hajmini avtomatik ravishda oshirmasligini, aksincha, bunday o'sishga erishish uchun maqsadli siyosat choralari zarurligini ko'rsatadi[48]. Shu tariqa, mavjud adabiyotda ikkita yo'nalish aniq ko'zga tashlanadi: birinchisi — RCA va gravitatsion model orqali O'zbekiston eksportining tarkibiy xususiyatlarini tasvirlash, ikkinchisi — integratsion jarayonlarning (YEII, JST, mintaqaviy kelishuvlar) savdo oqimlariga ta'sirini baholash. Biroq ushbu ikki yo'nalishni bitta tadqiqotda — aynan Markaziy Osiyoning to'rt davlati kesimida va eng so'nggi (2024-yil) statistik ma'lumotlar asosida — birlashtirgan ishlar hali yetarli emas; mazkur tezis aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

[45]Umarova, S. Ko'rsatilgan asar. — P. 108–109.
[46]OECD. Trade-investment nexus in Uzbekistan: Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. — 2025. — Table 3.4 (WITS ma'lumotlari asosida, 2017–2022-yillar). URL: https://www.oecd.org/en/publications/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_20865f29-en (murojaat sanasi: 11.08.2026).
[47]Sapaev, Sh. D., Bakoeva, G. M. Diversifying Uzbekistan's Export Markets: The Potential of South and Southeast Asian Countries // Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship. — 2025. — Vol. 1, No. 3. — P. 141–154.
[48]Sultonov, M. Trade-growth dynamics in Central Asia: a causal analysis of international trade and GDP interactions // Journal of Contemporary East Asia Studies. — 2026. — Vol. 14, No. 2. — P. 237–260. https://doi.org/10.1080/24761028.2026.2637289

Tadqiqot 2015–2025-yillar oralig'idagi ma'lumotlarga tayanishga harakat qildi, biroq 2025-yil bo'yicha bir qator ko'rsatkichlar — xususan, mahsulot kodlari kesimidagi ikki tomonlama eksport statistikasi — hali to'liq e'lon qilinmagani sababli, tahlilning asosiy qismi 2024-yilning yakuniy statistik ma'lumotlariga tayangan holda olib borildi; bu — mavjud eng so'nggi to'liq yil hisoblanadi va ushbu cheklov shu bilan ochiq qayd etiladi.

Asosiy ma'lumot manbalari sifatida quyidagilar xizmat qildi: Butunjahon Savdo Tashkilotining Tarif va Savdo Ma'lumotlar bazasi, u o'z navbatida BMT Comtrade ma'lumotlariga tayanadi va mahsulot hamda hamkor davlatlar kesimidagi eksport-import statistikasini taqdim etadi[49]; Jahon banki Jahon Taraqqiyot Ko'rsatkichlari (World Development Indicators) bazasi — YAIM va aholi jon boshiga daromad ko'rsatkichlari uchun[50]; O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligining rasmiy hisobotlari — milliy miqyosdagi tashqi savdo aylanmasi bo'yicha[51]; shuningdek Iqtisodiy Murakkablik Observatoriyasi (OEC) va Butunjahon Savdo Tashkilotining Global Savdo Istiqbollari hisoboti — jahon eksporti hajmlarini taqqoslash uchun asos sifatida[52]. Turkmaniston bilan bog'liq ba'zi ko'rsatkichlar uchun 2024-yilning to'liq yakuniy ma'lumotlari ochiq manbalarda topilmagani sababli, mavjud bo'lgan 2024-yil birinchi yarim yilligiga oid ma'lumotlar qo'llanildi va bu holat tegishli jadvalda alohida izohlandi.

Balassa nisbiy ustunlik indeksi quyidagi formula asosida hisoblab chiqildi: $RCA_{ij} = (X_{ij} / X_{it}) / (Xw_j / Xw_t)$, bu yerda $X_{ij}$ — O'zbekistonning j-mahsulot bo'yicha eksporti, $X_{it}$ — O'zbekistonning jami eksporti, $Xw_j$ — jahon miqyosida j-mahsulot bo'yicha eksport, $Xw_t$ — jahon miqyosidagi jami eksport hajmi. Bazaviy hudud sifatida jahon bozori tanlab olindi, chunki bu RCA indeksining klassik va xalqaro miqyosda taqqoslanadigan shaklidir; Markaziy Osiyo bozorini alohida baza sifatida olish, mintaqa ichidagi savdo hajmining o'zi hali nisbatan kichikligi sababli, natijalarni tasodifiy tebranishlarga ko'proq moyil qilgan bo'lar edi. RCA qiymati birdan katta bo'lsa — nisbiy ustunlik mavjud, ikkidan katta bo'lsa — sezilarli ustunlik, to'rtdan katta

[49]World Trade Organization. Tariff & Trade Data: Uzbekistan. Ko'rsatilgan manba.
[50]World Bank. World Development Indicators: GDP (current US$), GDP per capita (current US$) — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, 2024-yil. URL: https://data.worldbank.org (murojaat sanasi: 11.08.2026).
[51]UzDaily, O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi ma'lumotlari. Ko'rsatilgan manba.
[52]The Observatory of Economic Complexity (OEC). Cotton (HS: 52) Product Trade, Exporters and Importers, 2024. URL: https://oec.world/en/profile/hs/cotton (murojaat sanasi: 11.08.2026); World Trade Organization. Global Trade Outlook and Statistics, April 2025. — P. 4 (jahon tovar eksporti — 24,43 trln AQSh dollari, 2024-yil). URL: https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/trade_outlook25_e.pdf (murojaat sanasi: 11.08.2026).

bo'lsa — kuchli ixtisoslashuv sifatida talqin qilindi; birdan kichik qiymatlar aniqlangan ustunlikning yo'qligini bildiradi.

Hisob-kitoblar, imkon qadar, Garmonlashtirilgan Tizim (HS)ning ikkinchi darajasidagi (HS-2) kengroq tovar guruhlari darajasida olib borildi, chunki aynan shu darajada ham O'zbekiston, ham jahon eksporti bo'yicha tekshirilgan ma'lumotlar mavjud edi. Olti xonali (HS-6) darajadagi tor tovar toifalari — masalan, muayyan turdagi paxta ipi yoki mis simi — bo'yicha jahon eksporti hajmi haqida yetarlicha ishonchli, alohida-alohida tekshirilgan statistika ushbu tadqiqot doirasida topilmadi, shu sababli bunday tor toifalar uchun aniq RCA qiymati hisoblanmadi va tegishli jadval katakchalarida bu holat “hisoblash uchun ma'lumot yetarli emas” deb ochiq ko'rsatildi.

Gravitatsion model uchun quyidagi umumiy spesifikatsiya asos qilib olindi: $Export_{ijt} = \exp[\beta_0 + \beta_1 lnGDP_{it} + \beta_2 lnGDP_{jt} + \beta_3 lnDistance_{ij} + \beta_4 Border_{ij} + \beta_5 ExchangeRate_{ijt} + \beta_6 TradeAgreement_{ijt} + \beta_7 Logistics_{ijt} + \mu_{ij} + \tau_t] + \varepsilon_{ijt}$. Modelni real bilateral panel ma'lumotlar (masofa, yillik almashinuv kurslari, savdo kelishuvlari dammi o'zgaruvchilari va boshqalar) asosida to'liq ekonometrik baholash ushbu tezis doirasida amalga oshirilmadi, chunki bunday baholash uchun zarur bo'lgan to'liq panel ma'lumotlar to'plamiga (kamida 2015–2024-yillar uchun barcha besh davlat juftliklari bo'yicha) ushbu tadqiqot jarayonida to'liq kirish imkoniyati bo'lmadi. Shu sababli, quyida keltirilgan tahlil model spesifikatsiyasi, o'zgaruvchilar va ularning nazariy kutilayotgan ta'sir yo'nalishini tavsiflash bilan chegaralanadi; hech qanday regressiya koeffitsiyenti, standart xato yoki p-qiymat o'ylab topilmadi yoki taxminiy tarzda keltirilmadi. Buning o'rniga, mavjud rasmiy statistik ko'rsatkichlar (YAIM, masofa, umumiy chegara mavjudligi, savdo kelishuvlari) asosida faqat tavsifiy xulosalar chiqarildi — bu, real ekonometrik natijalarni emas, balki har bir o'zgaruvchining nazariy jihatdan qanday yo'nalishda ta'sir ko'rsatishi kutilishini aks ettiradi. Nol qiymatli savdo oqimlari va geteroskedastiklik muammosi tufayli, agar kelgusida to'liq panel ma'lumotlar mavjud bo'lganda, baholash uchun PPML usuli tavsiya etiladi, chunki u aynan shu ikki muammoni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yilda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo dinamikasi bir xil emas edi (1-jadval). Qozog'iston an'anaviy ravishda mintaqadagi eng yirik sherik bo'lib qolmoqda: unga yo'naltirilgan eksport 1,26 milliard dollarni, ya'ni jami tovar eksportining 6,4 foizini tashkil etdi[53]. Qirg'iziston va Tojikiston bilan savdo ancha kichik hajmda — mos ravishda 504 va 381,4 million dollar (2,6 va 1,9 foiz) — davom

[53]World Trade Organization. Tariff & Trade Data: Uzbekistan. Ko'rsatilgan manba.

etmoqda. Turkmaniston bilan munosabatlar boshqacha xususiyatga ega: bu yerda O'zbekiston, aksincha, importchi rolida ustunlik qiladi, chunki Turkmanistondan tabiiy gaz va boshqa energiya resurslari import qilinadi (2024-yilda O'zbekiston importining 2,9 foizi, ya'ni 1,02 milliard dollar Turkmanistonga to'g'ri keldi), O'zbekistonning Turkmanistonga eksporti esa ancha kamroq bo'lib, 2024-yilning birinchi yarim yilligida atigi 60 million dollarni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ham pasaygan[54]. Bu holat shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston–Turkmaniston savdo balansi tarkibiy jihatdan energetika mahsulotlari hisobiga shakllanadi va O'zbekistonning tayyor mahsulot eksporti uchun bu yo'nalish hali yetarlicha o'zlashtirilmagan.

**1-jadval. O'zbekistonning tashqi savdo tarkibi va Markaziy Osiyo davlatlariga eksporti, 2024-yil**

| Ko'rsatkich | Qiymati | Ulushi | Manba |
|---|---|---|---|
| Jami tovar eksporti (Comtrade, tovarlar bo'yicha) | 19 735,4 mln AQSh dollari | 100% | WTO / UN Comtrade |
| shu jumladan Qozog'istonga | 1 256,2 mln AQSh dollari | 6,4% | WTO / UN Comtrade |
| shu jumladan Qirg'izistonga | 504,0 mln AQSh dollari | 2,6% | WTO / UN Comtrade |
| shu jumladan Tojikistonga | 381,4 mln AQSh dollari | 1,9% | WTO / UN Comtrade |
| Turkmanistonga (2024-yil I yarim yillik, oraliq ko'rsatkich) | ≈ 60 mln AQSh dollari | ma'lumot yetarli emas (yillik) | Tashkent Times |
| Jami eksport, tovar va xizmatlar (Statistika Agentligi) | 26 940 mln AQSh dollari | — | O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi |

Eksport tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston eksporti yuqori darajada kontsentratsiyalashgan: yagona tovar guruhi — qayta ishlanmagan yoki yarim tayyor holdagi oltin — 2024-yilda jami tovar eksportining 37,9 foizini, ya'ni 7,48 milliard dollarni tashkil etdi[55]. Qolgan eksport tabiiy gaz (3,2%), rafinatsiyalangan mis (2,3%), mis simi (1,7%), paxta ipi (jami taxminan 3%), bug'doy uni (1,6%) va paxtali

[54]Uzbekistan's 2024 H1 international trade unveiled // Tashkent Times, 22.07.2024. URL: https://tashkenttimes.uz/economy/13394-uzbekistan-s-2024-h1-international-trade-unveiled (murojaat sanasi: 11.08.2026).

[55]World Trade Organization. Tariff & Trade Data: Uzbekistan — Exports by products HS 2022 (710813 — Gold). Ko'rsatilgan manba.

trikotaj buyumlari (1,5%) kabi tovar guruhlari o'rtasida taqsimlangan. Bu tarkib — quyida keltirilgan Balassa RCA hisob-kitoblari bilan birga ko'rib chiqilganda — O'zbekistonning nisbiy ustunligi, birinchi navbatda, qazib olish sanoati va uni dastlabki qayta ishlash mahsulotlarida mujassamlanganligini tasdiqlaydi (2-jadval).

**2-jadval. O'zbekiston eksportining asosiy tovar guruhlari va Balassa RCA indeksi, 2024-yil**

| HS kodi | Mahsulot guruhi | UZ eksportidagi ulushi | RCA qiymati | Talqin | Asosiy MO bozori | Kengaytirish imkoniyati |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 7108 | Oltin (yarim tayyor, monetar bo'lmagan) | 37,9% | ≈ 15,8 | Kuchli ixtisoslashuv | Markaziy Osiyodan tashqari bozorlar | Diversifikatsiya zarur — bitta tovarga bog'liqlikni kamaytirish |
| 52 | Paxta ipi (taroqlangan va taroqlanmagan) | ≈ 3,0% | ≈ 1,4 | Nisbiy ustunlik mavjud | Qozog'iston, Tojikiston | Qo'shilgan qiymatni oshirish — tayyor gazlama |
| 2711 / 2710 | Tabiiy gaz va neft mahsulotlari | 5,1% | ma'lumot yetarli emas | Sifat jihatdan yuqori (OECD, 2025) | Qozog'iston | Mintaqaviy energiya savdosini kengaytirish |
| 7403 / 7408 | Rafinatsiyalangan mis va mis simi | 4,0% | ma'lumot yetarli emas | Sifat jihatdan yuqori (OECD, 2025) | Qozog'iston | Qayta ishlash chuqurligini oshirish |
| 1101 | Bug'doy va meslin uni | 1,6% | ma'lumot yetarli emas | Sifat jihatdan o'rtacha | Tojikiston, Afg'oniston | Mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi zanjiri |
| 6109 | Paxtali trikotaj buyumlar (T-shirt) | 1,5% | ma'lumot yetarli emas | Sifat jihatdan yuqori (Sapaev-Bakoeva, 2025) | Qirg'iziston | Tayyor kiyim eksportini kengaytirish |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 999999 | Boshqa aniqlanmagan tovar guruhlari | 4,7% | hisoblanmagan | — | — | — |

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, oltin bo'yicha O'zbekistonning RCA qiymati g'oyat yuqori — bu ko'rsatkich mamlakatning jahon oltin savdosidagi taxminiy ulushi (jahon oltin eksporti ≈ 586,2 mlrd dollar, jami jahon tovar eksporti esa 24,43 trln dollarni tashkil etgani hisobga olinganda, taxminan 2,4 foiz)[56]ni uning umumiy eksportidagi oltin ulushi (37,9 foiz) bilan solishtirganda olingan bo'lib, kuchli ixtisoslashuv chegarasidan bir necha barobar yuqoridir. Bu — bir tomondan, O'zbekistonning tabiiy resurslarga boyligini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, eksport tarkibining diversifikatsiyalanmaganligidan dalolat beradi: yagona tovar guruhiga bunday yuqori bog'liqlik jahon bozoridagi narx tebranishlariga nisbatan zaiflikni keltirib chiqaradi. Paxta toifasi (HS-52, jahon savdosi ≈ 51,1 mlrd dollar) bo'yicha ham RCA birdan yuqori bo'lib[57], bu mamlakatning an'anaviy qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi hamon saqlanib qolganidan dalolat beradi, garchi paxta xomashyosining o'zi emas, balki undan ishlab chiqarilgan ip va gazlama mahsulotlari eksportda ustunlik qilsa-da. Rangli metallar, tabiiy gaz va g'alla mahsulotlari bo'yicha jahon miqyosidagi taqqoslanadigan eksport ko'rsatkichlari ushbu tadqiqot doirasida yetarlicha ishonchli tarzda topilmadi, shu sababli bu toifalar uchun RCA qiymati aniq son sifatida emas, balki OECD (2025) va Zinchenko–Radionov (2023) tadqiqotlarida qayd etilgan sifat jihatidan baholash — ya'ni metallar va tekstil-kiyim mahsulotlari bo'yicha barqaror nisbiy ustunlik mavjudligi — asosida talqin qilindi[58].

Eksportning tovar tarkibidan tashqari, uning geografik tarkibi ham yuqori konsentratsiyani namoyon etadi. Sapaev va Bakoeva Herfindahl–Xirshman indeksi (HHI) yordamida o'tkazgan hisob-kitoblarida O'zbekiston eksportining chegaralangan sondagi hamkor davlatlarga sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatib berishgan[59]; bu xulosa ushbu tezisda keltirilgan ma'lumotlar bilan ham uyg'un keladi — Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va Turkiya jami eksportning yarmidan ortig'ini o'z ichiga oladi, qolgan o'nlab davlatlar esa ancha kichik ulushlarga ega. Tovar va geografik konsentratsiyaning

[56]Tendata. Main Global Gold Exports by Country // Tendata Insight, 2024 (ITC Trade Map va BMT Comtrade ma'lumotlari asosida; jahon oltin — HS 7108 — eksporti taxminan 586,2 mlrd AQSh dollari, 2024-yil). URL: https://www.tendata.com/blogs/insight/6108.html (murojaat sanasi: 11.08.2026). Ushbu ko'rsatkich savdo ma'lumotlarini yig'uvchi tashkilotning hisob-kitobi bo'lib, rasmiy Comtrade so'rovi bilan farq qilishi mumkinligi alohida qayd etiladi.
[57]The Observatory of Economic Complexity (OEC). Ko'rsatilgan manba (jahon paxta — HS 52 — savdosi taxminan 51,1 mlrd AQSh dollari, 2024-yil).
[58]OECD. Ko'rsatilgan manba, Table 3.4; Zinchenko, A. A., Radionov, S. A. Ko'rsatilgan asar. — P. 145–147.
[59]Sapaev, Sh. D., Bakoeva, G. M. Diversifying Uzbekistan's Export Markets: The Potential of South and Southeast Asian Countries. Ko'rsatilgan asar.

bir vaqtda yuqori bo'lishi — ya'ni bitta tovar guruhi (oltin) ham, bitta yoki bir nechta hamkor davlat ham eksportning katta qismini belgilashi — mamlakat eksport daromadlarining tashqi shoklarga, masalan oltin narxining pasayishi yoki yirik hamkor bozoridagi talab qisqarishiga, nisbatan zaifligini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo bozorlarini kengaytirish nafaqat mintaqaviy integratsiya, balki umumiy eksport xavfsizligini mustahkamlash vositasi sifatida ham qaralishi mumkin.

Amaldagi savdo hajmi bilan kutilayotgan salohiyat o'rtasidagi tafovutni to'liq ekonometrik baholash, yuqorida qayd etilganidek, ushbu tezis doirasida amalga oshirilmadi. Biroq mavjud tavsifiy ma'lumotlar allaqachon ayrim tendensiyalarni ko'rsatib turibdi: Markaziy Osiyoning o'zi 2022-yilda jami 86 milliard dollarlik tovar eksport qilgan bo'lsa, undan atigi taxminan 15 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelgan, Qozog'iston esa 60 foizdan ortiq ulushni egallagan[60]; bu nisbat mintaqa ichidagi savdo salohiyatining katta qismi hamon energiya resurslariga boy Qozog'iston va Turkmaniston atrofida shakllanayotganini, O'zbekistonning tayyor mahsulot va qayta ishlangan tovarlar bilan bu bo'shliqni to'ldirish imkoniyati esa hali to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi.

Gravitatsion model nuqtai nazaridan olib qaraganda (3-jadval), O'zbekiston–Markaziy Osiyo savdosiga ta'sir etuvchi asosiy omillar orasida masofa va umumiy chegara mavjudligi alohida o'rin tutadi: nazariy jihatdan, masofa oshgani sari savdo hajmi kamayishi, umumiy chegara mavjudligi esa savdoni kengaytirishi kutiladi — bu, ayniqsa, Qozog'iston bilan savdoning nisbatan yuqori hajmini izohlashi mumkin. Iqtisodiy massa o'zgaruvchisi (YAIM) bo'yicha esa besh davlat o'rtasida katta assimetriya kuzatiladi (4-jadval): Qozog'istonning 2024-yildagi YAIM hajmi (291,5 milliard dollar) O'zbekistonnikidan (115 milliard dollar) va undan ham ko'proq Tojikiston (14,2 milliard dollar) hamda Qirg'iziston (17,5 milliard dollar) ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori[61]. Gravitatsion nazariyaga ko'ra, kattaroq iqtisodiy massaga ega davlat bilan savdo hajmi, boshqa sharoitlar teng bo'lganda, yuqoriroq bo'lishi kutiladi — bu, o'z navbatida, nima uchun Qozog'iston O'zbekiston eksportining eng yirik mintaqaviy iste'molchisi ekanligini nazariy jihatdan asoslaydi, biroq shu bilan birga Tojikiston va Qirg'iziston kabi kichikroq iqtisodiyotlar bilan savdoni kengaytirish imkoniyatlari ularning iqtisodiy hajmi bilan ham cheklanganligini ko'rsatadi.

**3-jadval. Gravitatsion model o'zgaruvchilari**

[60]Umarova, S. Ko'rsatilgan asar. — P. 105 (Jahon banki ma'lumotlari asosida).
[61]World Bank. World Development Indicators. Ko'rsatilgan manba.

| O'zgaruvchi | Belgisi | O'lchov birligi | Ma'lumot manbasi | Nazariy kutilayotgan ta'sir |
|---|---|---|---|---|
| Eksport importyor davlatiga | $Export_{ijt}$ | mln AQSh dollari | WTO / UN Comtrade | qaram o'zgaruvchi |
| Eksportyor YAIM | $GDP_{it}$ | mln AQSh dollari | World Bank WDI | musbat |
| Importyor YAIM | $GDP_{jt}$ | mln AQSh dollari | World Bank WDI | musbat |
| Masofa | $Distance_{ij}$ | km | CEPII GeoDist (ushbu tezisda qo'llanilmadi) | manfiy |
| Umumiy chegara | $Border_{ij}$ | dammi (0/1) | muallif kodlashtiruvi | musbat |
| Almashinuv kursi | $ExchangeRate_{ijt}$ | milliy valyuta / USD | Markaziy banklar | noaniq |
| Savdo kelishuvi mavjudligi | $TradeAgreement_{ijt}$ | dammi (0/1) | muallif kodlashtiruvi | musbat |
| Logistika sifati | $Logistics_{ijt}$ | indeks | World Bank LPI (ushbu tezisda qo'llanilmadi) | musbat |

**4-jadval. Markaziy Osiyo davlatlarining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, 2024-yil**

| Davlat | YAIM (joriy narxlarda, mlrd AQSh dollari) | Aholi jon boshiga YAIM (AQSh dollari) |
|---|---|---|
| O'zbekiston | 115,0 | 3 161,7 |
| Qozog'iston | 291,5 | 14 154,6 |
| Qirg'iziston | 17,5 | 2 420,2 |
| Tojikiston | 14,2 | 1 341,2 |
| Turkmaniston | 51,4 | 6 856,7 |

Savdo kelishuvlari o'zgaruvchisiga kelsak, O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida 2024-yilda amalga oshirilgan erkin savdo kelishuvi ijobiy misol bo'la oladi: uni joriy etilishidan so'ng ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi yilning birinchi choragida 23

foizga o'sgan[62]. Biroq bu o'sish, yuqorida qayd etilganidek, asosan Turkmanistondan O'zbekistonga eksport hisobiga — ya'ni bir tomonlama tarzda — sodir bo'lgan, bu esa savdo kelishuvining o'zi savdo hajmini oshirishi mumkinligini, biroq savdo balansining tarkibiy assimetriyasini avtomatik ravishda bartaraf eta olmasligini ko'rsatadi.

## O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH STRATEGIYASI

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonning Markaziy Osiyo bozorlaridagi eksport salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi strategik yo'nalishlar taklif etiladi (5-jadval). Takliflar shior darajasida emas, balki aniqlangan muammolarga — eksportning yuqori kontsentratsiyasi, mintaqa ichidagi savdoning cheklanganligi va tayyor mahsulot ulushining pastligiga — bevosita bog'liq holda shakllantirildi.

Birinchi yo'nalish yuqori RCA ko'rsatkichiga ega tovar guruhlarini — birinchi navbatda, paxta ipi va tolali mahsulotlar hamda rangli metallarni — mintaqa bozorlariga chuqurroq olib kirishga qaratilgan bo'lib, bu borada mavjud ustunlikni yo'qotmasdan turib, uni yangi bozorlarga tarqatish nazarda tutiladi. Ikkinchi yo'nalish xomashyo va yarim tayyor mahsulot eksportidan qo'shilgan qiymati yuqori tayyor mahsulotlarga o'tishni, xususan tekstil va oziq-ovqat sanoatida, taqozo etadi — bu, o'z navbatida, mavjud RCA ustunligini chuqurlashtirish, uni faqat xom ashyo darajasida emas, balki qayta ishlangan mahsulot darajasida ham saqlab qolish imkonini beradi. Uchinchi yo'nalish bojxona va standartlashtirish sohasidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan, chunki adabiyotlar tahlilida qayd etilganidek, aynan shu omillar savdo xarajatlarining sezilarli qismini tashkil etadi. To'rtinchi yo'nalish esa transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, xususan O'zbekiston–Qirg'iziston–Xitoy temir yo'li kabi loyihalarni jadallashtirishdir, bu esa nafaqat Markaziy Osiyo ichidagi, balki mintaqadan tashqariga chiqadigan savdo yo'llarini ham kengaytiradi.

**5-jadval. O'zbekiston eksport salohiyatini oshirish bo'yicha strategik takliflar**

| Aniqlangan muammo | Taklif qilinayotgan chora | Mas'ul institutlar | Amalga oshirish muddati | Kutiladigan iqtisodiy natija | Natijani o'lchash ko'rsatkichi |
|---|---|---|---|---|---|
| Eksportning oltin va xom ashyoga yuqori | Paxta ipi, tekstil va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi; | O'rta muddatli (3–5 yil) | Eksport tarkibida tayyor mahsulot | Oltindan tashqari eksportning |

[62]Uzbekistan and Turkmenistan Implement Free Trade Agreement // The Times of Central Asia, 13.03.2025. URL: https://timesca.com/uzbekistan-and-turkmenistan-implement-free-trade-agreement/ (murojaat sanasi: 11.08.2026).

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| bog'liqligi (37,9%) | quvvatlarini kengaytirish, qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish | Eksportni rivojlantirish agentligi | | ulushining oshishi | yillik o'sish sur'ati (%) |
| Bojxona va standartlar bo'yicha muvofiqlashtirilmaganlik | Fitosanitariya, texnik va sifat standartlarini Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro tan olish kelishuvlari orqali muvofiqlashtirish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish | Davlat bojxona qo'mitasi; Standartlashtirish agentligi | Qisqa-o'rta muddatli (2–4 yil) | Chegara o'tish vaqtining qisqarishi | O'rtacha bojxona rasmiylashtirish muddati (soat) |
| Tojikiston va Qirg'iziston kabi kichik bozorlarga past eksport hajmi | Chegaraoldi savdo va hududlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, kichik va o'rta biznes uchun mintaqaviy bozor ma'lumotlari platformasini yaratish | Hududiy hokimliklar; Eksportni rivojlantirish agentligi; Tadbirkorlar palatasi | Qisqa muddatli (1–3 yil) | Kichik eksportchilar sonining ortishi | Qirg'iziston va Tojikistonga eksport qiluvchi korxonalar soni |
| Transport-logistika infratuzilmasining yetarli emasligi | CAREC yo'laklari va O'zbekiston–Qirg'iziston–Xitoy temir yo'li loyihasini jadallashtirish, logistika | Transport vazirligi; «O'zbekiston temir yo'llari» AJ | Uzoq muddatli (5–7 yil) | Tranzit vaqti va xarajatlarining qisqarishi | O'rtacha tranzit muddati (kun) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | markazlarini rivojlantirish | | | | |
| Elektron savdo va raqamli sertifikatlashtirishning rivojlanmaganligi | Eksportchilar uchun elektron savdo platformalarini joriy etish, raqamli kelib chiqish sertifikatlari tizimini yo'lga qo'yish | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi; Raqamli texnologiyalar vazirligi | Qisqa-o'rta muddatli (2–3 yil) | Kichik eksportchilarning mintaqaviy bozorlarga kirishi osonlashishi | Elektron sertifikatlar orqali rasmiylashtirilgan bitimlar ulushi (%) |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi eksport salohiyati bugungi kunda faqat qisman ishga solingan. Mamlakat eksporti tarkibi hamon oltin va boshqa qazib olish sanoati mahsulotlariga yuqori darajada bog'liq bo'lib qolmoqda, bu esa, bir tomondan, tabiiy ustunlikni aks ettirsa, ikkinchi tomondan, tashqi bozor sharoitlariga nisbatan zaiflikni kuchaytiradi. Qozog'iston mintaqadagi eng yirik savdo sherigi bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, uning ulushi ham jami eksportning atigi olti foizidan sal ko'progini tashkil etadi; Tojikiston va Qirg'iziston bilan savdo esa undan ham kichikroq hajmda davom etmoqda. Gravitatsion nazariya nuqtai nazaridan bu holat qisman iqtisodiy massa assimetriyasi va masofa omillari bilan izohlansa-da, bojxona hamda standartlashtirish sohasidagi institutsional to'siqlar ham muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy natijalar quyidagilardan iborat: birinchidan, Balassa RCA indeksi bo'yicha O'zbekiston oltin va paxta mahsulotlarida yuqori nisbiy ustunlikka ega, biroq bu ustunlik asosan xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulot darajasida namoyon bo'lmoqda; ikkinchidan, mintaqa ichidagi savdo salmog'i Markaziy Osiyoning umumiy tashqi savdo salohiyatiga nisbatan sezilarli darajada past, bu esa foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi; uchinchidan, savdo kelishuvlari — masalan, O'zbekiston–Turkmaniston erkin savdo bitimi — savdo hajmini oshirishga qodir bo'lsa-da, savdo balansining tarkibiy assimetriyasini o'z-o'zidan bartaraf eta olmaydi, bu esa qo'shimcha, maqsadli siyosat choralarini talab qiladi.

Ushbu xulosalar asosida ishlab chiqilgan strategik takliflar — eksportni diversifikatsiya qilish, standartlarni muvofiqlashtirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va raqamli savdo vositalarini joriy etish —

O'zbekistonning nafaqat Markaziy Osiyodagi, balki undan tashqaridagi bozorlardagi raqobatbardoshligini ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlar uchun, ayniqsa, gravitatsion modelni to'liq bilateral panel ma'lumotlar asosida PPML usuli bilan real ekonometrik baholash, shuningdek HS-6 darajasidagi tor tovar toifalari bo'yicha jahon eksport ko'rsatkichlarini chuqurroq o'rganish tavsiya etiladi — bu, o'z navbatida, ushbu tezisda ochiq qoldirilgan ba'zi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, J. E., Van Wincoop, E. Gravity with Gravitas: A Solution to the Border Puzzle // American Economic Review. — 2003. — Vol. 93, No. 1. — P. 170–192. https://doi.org/10.1257/000282803321455214

2. Balassa, B. Trade Liberalisation and “Revealed” Comparative Advantage // The Manchester School. — 1965. — Vol. 33, No. 2. — P. 99–123. https://doi.org/10.1111/j.1467-9957.1965.tb00050.x

3. Cieślik, A., Gurshev, O. How does regional economic integration impact trade in small economies? Evidence from Armenia and Kyrgyzstan's EAEU accession // Eurasian Geography and Economics. — 2025. https://doi.org/10.1080/15387216.2025.2475904

4. Cieślik, A., Gurshev, O. Trade policies in Central Asia after EAEU enlargement and after Russian WTO accession: regionalism and integration into the world economy revisited // Eurasian Geography and Economics. — 2023. — P. 656–678. https://doi.org/10.1080/15387216.2022.2162098

5. Nurmatov, N. Uzbekistan agrarian sector export competitiveness in Kazakhstan: Paper presented at the IAMO Forum, Samarkand, 2016. https://doi.org/10.22004/ag.econ.249953

6. Santos Silva, J. M. C., Tenreyro, S. The Log of Gravity // The Review of Economics and Statistics. — 2006. — Vol. 88, No. 4. — P. 641–658. https://doi.org/10.1162/rest.88.4.641

7. Sapaev, Sh. D., Bakoeva, G. M. Diversifying Uzbekistan's Export Markets: The Potential of South and Southeast Asian Countries // Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship. — 2025. — Vol. 1, No. 3. — P. 141–154.

8. Sudakov, S. S., Zinchenko, A. A. Export Potential Assessment Methodology: The Case of the Republic of Uzbekistan // Финансовый журнал (Financial Journal). — 2024. — № 1. — P. 61–77. https://doi.org/10.31107/2075-1990-2024-1-61-77

9. Sultonov, M. Trade-growth dynamics in Central Asia: a causal analysis of international trade and GDP interactions // Journal of Contemporary East Asia Studies.

— 2026. — Vol. 14, No. 2. — P. 237–260. https://doi.org/10.1080/24761028.2026.2637289

10. Talipova, N. T., Islamov, B. A., Turdibaeva, M. M. Gravity Model of Foreign Economic Processes of Central Asia Countries // Lecture Notes in Computer Science, Vol. 14543. — Springer, Cham, 2024. https://doi.org/10.1007/978-3-031-60997-8_29

11. Tinbergen, J. Shaping the World Economy: Suggestions for an International Economic Policy. — New York: The Twentieth Century Fund, 1962. — 330 p.

12. Umarova, S. Trade Dynamics in Central Asia: Insights from Uzbekistan's Perspective // International Affairs. — 2024. — № 7–8 (109–110). — P. 102–111.

13. Zinchenko, A. A., Radionov, S. A. Analysis of the Effects Produced by Trade Liberalization in the Republic of Uzbekistan and the EAEU // Studies on Russian Economic Development. — 2023. — Vol. 34, No. 1. — P. 142–149. https://doi.org/10.1134/S1075700723010197

# 10. SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES, LAW, AND POLITICAL SCIENCE

# ADVOKATLAR FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Zaytov Sultanbek Jantoreevich
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*
*zaytov.sultanbek@mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini isloh qilishning hozirgi holati va istiqbollari chuqur ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e’tibori advokatlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash, shuningdek advokatlarning mustaqilligini ta’minlash hamda ularning sud protsessidagi teng huquqliligini oshirish masalalariga qaratilgan. Sohadagi mavjud qonunchilik bo‘shliqlari o‘rganilib, advokatlik tuzilmalarining tashkiliy shakllarini kengaytirish, advokaturani fuqarolik jamiyatining mustaqil instituti sifatidagi rolini oshirish va raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish bo‘yicha konkret takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari jismoniy va yuridik shaxslarga malakali huquqiy yordam ko‘rsatish sifatini oshirish hamda advokatlik kasbining nufuzini ko‘tarishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *advokatura, himoya, tashkiliy-huquqiy asos, advokatlik faoliyati, protsessual tenglik, malakali huquqiy yordam, islohot, huquqiy maqom, fuqarolik jamiyati, raqamlashtirish.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются современное состояние и перспективы реформирования института адвокатуры в Республике Узбекистан. Основное внимание в исследовании уделяется укреплению правовых механизмов организации адвокатской деятельности, а также обеспечению независимости адвокатов и повышению их равноправия в судебном процессе. Изучены существующие пробелы в законодательстве в данной сфере, выдвинуты предложения по расширению организационных форм адвокатских образований и внедрению процессов цифровизации.*

*Результаты исследования послужат повышению качества оказания квалифицированной юридической помощи физическим и юридическим лицам, а также поднятию престижа профессии адвоката.*

***Ключевые слова:*** *адвокатура, защита, организационно-правовая основа, адвокатская деятельность, процессуальное равенство, квалифицированная юридическая помощь, реформа, правовой статус.*

***Abstract:*** *This article analyzes the current state and prospects for reforming the institution of the bar in the Republic of Uzbekistan. The main focus of the study is on strengthening the legal mechanisms for organizing advocacy, as well as ensuring the independence of lawyers and increasing their equality in judicial proceedings. Existing legislative gaps in the field were studied, and proposals were put forward to expand the organizational forms of legal structures and introduce digitalization processes. The results of the study will serve to improve the quality of providing qualified legal assistance to individuals and legal entities, as well as to raise the prestige of the legal profession.*

***Keywords:*** *advocacy, defense, organizational and legal framework, advocacy, procedural equality, qualified legal assistance, reform, legal status, civil society, digitalization.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, aholiga malakali yuridik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish hamda odil sudlovni ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi advokatura institutini fuqarolik jamiyatining eng muhim va mustaqil bo‘g‘inlaridan biri sifatida mustahkamladi. Konstitutsiyaning 141-moddasida advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanishi qat’iy belgilab qo‘yildi [63]

Shunga qaramay, bugungi kunda advokatura faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, advokatlarning protsessual maqomini kuchaytirish hamda ularning faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu, o‘z navbatida, advokatlik tuzilmalarining faoliyatini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilishni va tegishli qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy O‘zbekiston advokaturasining tashkiliy tuzilishi ikkita o‘zaro chambarchas bog‘liq yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bular bir tomondan,

[63] O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. - T.: “O‘zbekiston”, 2023-yil. 141-modda.

advokatlarning aholi bilan faoliyat olib borishga mo‘ljallangan bevosita advokatlik tuzilmalarining tizimi bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa bu advokaturaga nisbatan rahbarlik va boshqaruv funksiyasini amalga oshiruvchi rahbariy advokatlik tuzilmalaridir (O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari). Advokaturani tashkiliy jihatidan mazkur ikkita yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlash yondashuviga nisbatan Rossiya advokaturasi misolida A.N.Vedernikov ham ma’qullab shu kabi o‘z fikrini bildiradi [64] .

Advokatura institutining samaradorligi ko‘p hollarda advokatlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllarining optimalligiga bog‘liqdir.

Bunda advokatlar faoliyatining tashkiliy shakllari bir tomondan advokaturaning o‘z oldida turgan vazifalarini bajarilishi bo‘yicha salohiyatini imkon qadar to‘laqonli ochib berilishiga va amalda namoyon qilinishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa, ular malakali yuridik yordamga muhtoj shaxslarga advokatura xizmatini olish imkoniyatiga zarur sharoit yaratadi.

Xususan, advokatlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari advokatlar faoliyatining samarali bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatorida muhimligi va dolzarbligi haqida A.I.Jo‘rayev e’tirof etadiki: “Advokatlik faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy shakllari fuqarolarning malakali yuridik yordamni olishda samarali imkoniyatlarni yaratishda, shuningdek advokaturaning mustaqilligini va professionalligini mustahkamlash vazifasini hal qilishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir” [65] .

Shuningdek, huquqshunos olim Yu.X.Tojiboyevning ta’kidlashicha: “Tashkiliy-huquqiy shaklning tanlanishi advokatlik faoliyatining samaradorligiga, uni aholi uchun yaqin bo‘lishiga, shuningdek ma’muriy va sud organlari tomonidan tashqi turli ta’sirlarga nisbatan mustahkamlikni saqlashga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatadi”[66] .

Shu o‘rinda, advokatlik kasbiy faoliyati bir qator talab va xosliklariga ega ekanligi bilan ajralib turadi va shu kabi xususiyatlar uni barcha boshqa turdagi malakali yuridik yordamni ko‘rsatish faoliyatlaridan chegaralab turadi. Bunda avvalambor advokatlik maqomiga ega bo‘lish uchun maxsus huquqiy talablarga rioya etilishi talab etiladi.

[64] Ведерников А.Н. Организационное построение современной российской адвокатуры как структуры гражданского общества // Вестник Томского государственного университета, 2011, № 345. – Б. 101-102.

[65] Жўраев А.И. Понятия и виды организационно-правовых форм осуществления адвокатской деятельности в Республике Узбекистан //INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, Volume 02, Issue 03, 2025, Belgium, Brussels. - Б. 36.

[66] Тожибоев Ю.Х. Адвокатура в системе правовой помощи населению. - Ташкент, 2019. - Б. 41.

Jumladan, har qanday shaxs ham advokat bo‘la olmaydi, buning uchun u avvalambor O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, u: birinchidan, oliy darajadagi yuridik ma’lumotga ega bo‘lishi;

ikkinchidan, mazkur faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkinligi haqidagi tegishli litsenziyasiga ega bo‘lishi; uchinchidan, muomalaga to‘la layoqatli;

to‘rtinchidan, bordi-yu ilgari sudlangan bo‘lsa, unda bunday holatda uning sudlanganlik holati tugallangan yoki sudlanganligi olib tashlangan bo‘lishi kerak [67].

Shu o‘rinda, advokatning faoliyatida mustaqillik va demak xolislikni ta’minlash maqsadida u tomonidan haq to‘lanishi orqali olib borilishi mumkin bo‘lgan faoliyatining sohalari va turlari qonunchilik bilan chegaralanib qo‘yiladi. Xususan, advokatga haq to‘lanilishiga yo‘l qo‘yilishi asosida faqatgina quyidagi yo‘nalishlarda bir vaqtda faoliyat olib borishi mumkin bo‘ladi: pedagogik va ilmiy faoliyat; advokatlar palatasi tuzilmalaridagi faoliyat; mediator va patent vakili sifatidagi faoliyat;

davlat tashkilotlaridagi yuridik xizmati xodimi maqomidagi faoliyat;

hakamlik va xalqaro sudlarida sudya maqomidagi faoliyat; iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarini yuritishni amalga oshirish bo‘yicha advokatlik faoliyati uchun litsenziya olgan taqdirda sud boshqaruvchisi sifatidagi faoliyat [68] .

Bundan tashqari, advokatlik maqomiga ega bo‘lish tegishli maxsus tartib orqali amalga oshiriladi. Xususan, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziya tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida adliya organlari tomonidan beriladi. Bunda litsenziyani qo‘lga kiritish uchun advokat maqomiga talabgor kamida uch oy biror-bir advokatlik tuzilmasida stajirovka o‘tashi va tegishli malaka imtihonini topshirishi kerak bo‘ladi.

Biroq, bordi-yu advokatlik maqomiga da’vogar shaxs kamida uch yil davlat tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi bo‘lib yoki sudya, tergovchi, surishtiruvchi, shuningdek prokuror lavozimida ishlagan va demak yuridik mutaxassisligi bo‘yicha tegishli ish stajiga ega bo‘lgan bo‘lsa, unda bunday holatda unga nisbatan advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o‘tish talabi qo‘llanilmaydi va u bevosita malaka imtihoniga qo‘yiladi.

Shuningdek, malaka imtihonini muvaffaqiyatsiz topshirgan taqdirda olti oy o‘tgach qayta topshirishga ruxsat beriladi.

[67] “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 1996-yil 27-dekabr. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

[68] O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 1998-yil 25-dekabr. (www.lex.uz).

Ijobiy topshirilgan malaka imtihonidan so‘ng da’vogar uch oy davrida tegishli darajadagi adliya organiga litsenziyani olish haqida o‘z murojaatini yo‘llashi kerak bo‘ladi, aks holda u imtihonni qayta topshirishi lozim bo‘ladi.

Shu o‘rinda, advokatlik faoliyatini litsenziyalash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi “Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 432-sonli qarori bilan yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarildi.[69] Ushbu qaror sohada byurokratiyani kamaytirib, «Yagona darcha» tamoyili asosida litsenziya berishning shaffof tizimini yaratdi.

O‘z navbatida, litsenziyaga ega bo‘lgan shaxs uch oydan kechiktirmay yakka tartibda yoki litsenziya olgan boshqa shaxslar bilan birgalikda o‘zining advokatlik tuzilmasini tuzishi yoxud boshqa biror bir faoliyat yuritayotgan advokatlik tuzilmasiga kirishi lozim bo‘ladi. Faoliyat olib borish uchun advokatlik tuzilmasining shakli rasmiy aniq bo‘lganidan so‘ng da’vogar shaxsga ikki ish kuni ichida advokatlik guvohnomasi taqdim etiladi.

Guvohnomani olganlik advokat maqomiga egalikni va advokatlar palatasi a’zosi bo‘lganlikni bildiradi.

Bunda guvohnomani olish bilan bog‘liq holatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-iyundagi “Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 226-sonli qarori bilan tartibga solingan [70] .

Endilikda maxsus QR-kodga ega bo‘lgan guvohnomalar advokatlarning vakolatlarini elektron tarzda tasdiqlash imkonini berib, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan muloqotni sezilarli darajada yengillashtirmoqda.

Bu yerda shuni alohida qayd etish joizki, advokatlik maqomini o‘ziga xoslik jihatlaridan biri shunda namoyon bo‘ladiki, unga ko‘ra advokatlikning bevosita faoliyati qonunchilikda batafsil belgilab qo‘yilgan faqatgina ma’lum advokatlik tuzilmalarida o‘tkazilishi mumkin.

Bunda e’tirof etish joizki, bu kabi belgilab qo‘yilgan shakllardan tashqarisida advokatlarning faoliyat olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi, shuningdek advokat faqatgina bitta o‘zi tanlagan advokatlik tuzilmasida o‘z faoliyatini olib borishi mumkin bo‘ladi.

[69] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi “Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 432-sonli qarori. (www.lex.uz).

[70] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-iyundagi “Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 226-sonli qarori. (www.lex.uz).

Shu tariqa, advokat maqomini olgan shaxsga uch oy ichida u mintaqaviy reestrga kiritilganidan so‘ng advokatlar palatasini u qaysi advokatlik tuzilmasining turini tanlaganligi haqida xabardor qilishi lozimligi majburiyati yuklatiladi. Uni bu kabi talabni inkor qilib bajarmasligi advokatlik maqomini bekor qilish oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Undan tashqari qayd etish joizki, advokatlik tuzilmalarining faoliyatiga oid boshqa turdagi munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi ularning o‘zlari tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan ustav yoki nizomlari, shuningdek ta’sis shartnomalari orqali amalga oshirib kelinadi. Bu kabi masalalar qatoriga advokatlik tuzilmalarini boshqarish bilan bog‘liq jihatlar, xususan, ularning rahbariy organlarini shakllantirish, a’zolarini maqomiga ko‘ra huquq va majburiyatlarini belgilash, ichki tuzilma va shtatlarini aniqlash, moliyalashtirish jihatlari taalluqlidir.

Bu yerda yana shuni e’tirof etish kerakki, agarda advokatlik tuzilmasi firma yoki hay’at shaklida tashkil etiladigan bo‘lsa, unda ularning joylashish joyi yashash uchun mo‘ljallanmagan binolarda (noturar joylarda) bo‘lishi lozim. Bundan farqli o‘laroq, advokatlik byurolari nafaqat noturar joylarida, balki qonuniy tartibda advokatlarning o‘zlariga taalluqli bo‘lgan turar joylarida ham joylashtirilishi mumkin. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, noturar joy fondi bilan bog‘liq cheklovlar ko‘pincha yosh advokatlarning firma yoki hay’atlar ochishiga to‘sqinlik qilmoqda, sababi tijorat binolarining ijara narxi yuqoriligi advokatlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta’sir etmoqda[71] .

Shu yerning o‘zida qayd etish joizki, mazkur nom mazmunan bu boradagi ijtimoiy munosabatlar subyektini to‘g‘ri aks ettirmagan. Buning boisi shundaki, advokatura bu ijtimoiy-huquqiy institut va bu institut bevosita ijtimoiy munosabatlar subyekti bo‘lolmaydi. Bunday subyekt sifatida faqatgina advokatlarning o‘zi va ularni tashabbusi asosida ularning o‘zlaridan tashkil topgan turli tuzilmalari bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, sud-tergov amaliyotida advokatlarning protsessual vakolatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq ayrim to‘siqlar saqlanib qolmoqda. Jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud protsessida tortishuvchanlik tamoyilini ta’minlash uchun advokat tomonidan dalillar to‘plash, turli davlat va nodavlat organlariga advokat so‘rovi yuborish mexanizmining ta’sirchanligini oshirish zarur[72] .

[71] Rahmonov Sh.N. Advokatura institutini raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalari va huquqiy kafolatlari // Huquq va hayot ilmiy jurnali, 2023-yil, №4. – B. 55-58.

[72] Ibragimov S. Jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud protsessida tortishuvchanlik tamoyilini ta’minlash: advokat maqomi va muammolar // Yuridik fanlar axborotnomasi, 2023-yil. - B. 112-115.

Amaldagi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda advokat so‘roviga javob bermaganlik uchun jarima miqdori belgilangan bo‘lsa-da, uning miqdori pastligi mansabdor shaxslarning mas’uliyatini to‘laqonli his qilishiga yetarli emas.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini va advokatlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi xulosa va takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish kiritish, ya’ni 4-moddaning nomini aniqlashtirish va qonunni “Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari” deb nomlanuvchi alohida 41-modda bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, advokatlik firmalari va hay’atlarini faqat noturar joylarda joylashtirish haqidagi talabni qayta ko‘rib chiqish. Ularni, xuddi advokatlik byurolari kabi, advokatlarga tegishli bo‘lgan turar joylarda (ko‘p qavatli uylarning birinchi qavatlarida) joylashtirishga ruxsat berish sohaning iqtisodiy jozibadorligini oshiradi.

Uchinchidan, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish tizimini to‘liq raqamlashtirish va shaffoflashtirish. Bunda advokatlarni ishga jalb qilish inson omilisiz, maxsus elektron tizim orqali avtomatik tarzda taqsimlanishi korrupsiya va mahalliychilikning oldini oladi.

To‘rtinchidan, advokat so‘rovini bajarmaslik, advokatning kasbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilish kabi holatlar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralarini yanada og‘irlashtirish, xususan, jarima miqdorlarini keskin oshirish zarur.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, advokatura instituti nafaqat fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi vosita, balki davlat boshqaruvi ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini o‘rnatuvchi, odil sudlovning ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham advokatlarning tashkiliy-huquqiy faoliyatini takomillashtirish orqali biz Yangi O‘zbekistonda qonun ustuvorligiga erishish yo‘lida katta qadam tashlagan bo‘lamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. - T.: “O‘zbekiston”, 2023-yil. 141-modda.

2. Ведерников А.Н. Организационное построение современной российской адвокатуры как структуры гражданского общества // Вестник Томского государственного университета, 2011, № 345. – Б. 101-102.

3. Жўраев А.И. Понятия и виды организационно-правовых форм осуществления адвокатской деятельности в Республике Узбекистан //INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-

HUMANITARIAN SCIENCES, Volume 02, Issue 03, 2025, Belgium, Brussels. - Б. 36.

4. Тожибоев Ю.Х. Адвокатура в системе правовой помощи населению. - Ташкент, 2019. - Б. 41.

5. “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 1996-yil 27-dekabr. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

6. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 1998-yil 25-dekabr. (www.lex.uz).

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi “Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 432-sonli qarori. (www.lex.uz).

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-iyundagi “Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 226-sonli qarori. (www.lex.uz).

9. Rahmonov Sh.N. Advokatura institutini raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalari va huquqiy kafolatlari // Huquq va hayot ilmiy jurnali, 2023-yil, №4. – B. 55-58.

10. Ibragimov S. Jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud protsessida tortishuvchanlik tamoyilini ta’minlash: advokat maqomi va muammolar // Yuridik fanlar axborotnomasi, 2023-yil. - B. 112-115.

# O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO BARQARORLIKNI TA’MINLASH VA ETNIK NIZOLAR PROFILAKTIKASIDA SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA MEXANIZMLARI

*Ahmedov Yunusjon Sharoboyevich,*
*O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyi*
E-mail: *ahmedovyunusjon5@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Maqolada O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni mustahkamlash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan etnik ziddiyatlarning oldini olishda siyosiy kommunikatsiyalarning roli tahlil qilinadi. Muallif respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga tayanib, nizolar profilaktikasida “yumshoq kuch” (soft power) usullarining samaradorligini ochib beradi. Tadqiqotda mahalla instituti va OAVning etnik xavfsizlikni ta’minlashdagi kommunikativ imkoniyatlari, shuningdek, davlat til siyosatining ijtimoiy barqarorlikka ta’siri yoritilgan. Maqolada hududiy etnik monitoring tizimini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston axborot maydonidagi millatlararo munosabatlarning istiqbolli ssenariylari prognoz qilingan. Tadqiqot yakunida etnik nizolarning oldini olishga qaratilgan kommunikativ strategiyalarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Etnik barqarorlik, nizolar profilaktikasi, siyosiy kommunikatsiya, yumshoq kuch, mahalla instituti, til siyosati, millatlararo totuvlik, kommunikativ monitoring, axborot xavfsizligi.*

***Аннотация:*** *В статье анализируется роль политических коммуникаций в укреплении межэтнического согласия и предупреждении возможных этнических конфликтов в условиях современного Узбекистана. На основе результатов проведённого социологического опроса автор раскрывает эффективность методов «мягкой силы» (soft power) в профилактике конфликтов. В исследовании освещаются коммуникативные возможности института махалли и СМИ в обеспечении этнической безопасности, а также влияние государственной языковой политики на социальную стабильность. Рассматриваются вопросы совершенствования системы регионального этнического мониторинга и прогнозируются перспективные сценарии развития межэтнических отношений в информационном пространстве Узбекистана. В завершении исследования*

*предложены практические рекомендации по развитию коммуникативных стратегий, направленных на предупреждение этнических конфликтов.*

***Ключевые слова:*** *межэтническая стабильность, профилактика конфликтов, политическая коммуникация, мягкая сила, институт махалли, языковая политика, межэтническое согласие, коммуникативный мониторинг, информационная безопасность.*

***Abstract:*** *The article analyzes the role of political communications in strengthening interethnic harmony and preventing potential ethnic conflicts in the context of modern Uzbekistan. Based on the results of a sociological survey, the author reveals the effectiveness of "soft power" methods in conflict prevention. The research highlights the communicative potential of the "Mahalla" institution and mass media in ensuring ethnic security, as well as the impact of state language policy on social stability. Issues of improving the regional ethnic monitoring system are considered, and promising scenarios for the development of interethnic relations in the information space of Uzbekistan are predicted. The study concludes with practical recommendations for developing communicative strategies aimed at the early prevention of ethnic conflicts.*

***Keywords:*** *interethnic stability, conflict prevention, political communication, soft power, Mahalla institution, language policy, interethnic harmony, communicative monitoring, information security.*

## KIRISH

Zamonaviy siyosiy jarayonlar shuni ko‘rsatmoqdaki, etnik barqarorlik va millatlararo totuvlik har qanday davlatning milliy xavfsizligi hamda barqaror rivojlanishining hal qiluvchi omili hisoblanadi.[73] Bugungi murakkab geosiyosiy vaziyatda axborot makonining globallashuvi va turli mafkuraviy qarama-qarshiliklarning avj olishi millatlararo munosabatlarni boshqarishda yangicha kommunikativ yondashuvlarni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyalarida jamiyatda bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo do‘stlik aloqalarini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.[74]

[73] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.b-3.

[74] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-21 Farmoni. «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo’nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida» - Toshkent, 2026-yil 16-fevral, https://lex.uz/uz/docs/-8050769

Shu nuqtai nazardan, siyosiy kommunikatsiya tizimi nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantirish va nizoli vaziyatlarni barvaqt prognoz qilishning strategik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.[75] Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, samarali yo‘lga qo‘yilgan muloqot va axborot almashinuvi jarayonlari etnik guruhlar o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish hamda umummilliy birdamlikni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Biroq, axborot xurujlari kuchaygan sharoitda milliy-etnik xavfsizlikni ta’minlashning kommunikativ jihatlarini transformatsiya qilish va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Etnik nizolar profilaktikasida an’anaviy ma’muriy-huquqiy usullardan ko‘ra, ko‘proq ijtimoiy-psixologik va kommunikativ ta’sir vositalari, xususan, “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasiga tayanish yuqori samaradorlikni ko‘rsatmoqda. J.Nay tomonidan asoslangan ushbu nazariya siyosiy kommunikatsiyalarda majburlash emas, balki jalb qilish, ishontirish va umumiy qadriyatlarni targ‘ib etish orqali barqarorlikka erishishni ko‘zda tutadi.[76] O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyatida millatlararo do‘stlikni targ‘ib qilishda aynan qaysi kommunikativ usullar kutilgan natijani berayotganini aniqlash tadqiqotimizning muhim qismini tashkil etdi. Shu maqsadda o‘tkazilgan so‘rovnomada respondentlarning “yumshoq kuch” vositalariga munosabatini tahlil qilish orqali nizolar profilaktikasining eng samarali yo‘nalishlarini belgilab oldik.

Siyosiy kommunikatsiyalarda “yumshoq kuch” usullarini qo‘llashdan avval, raqamli makon orqali kirib kelayotgan destruktiv tahdidlarning tabiatini aniqlash muhim ahamiyatga ega.[77] Shu maqsadda respondentlarga "Bugungi kunda raqamli makondagi qaysi destruktiv (vayronkor) kommunikatsiya strategiyalari milliy xavfsizlikka eng katta tahdid solmoqda?" degan savol bilan murojaat qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning eng katta qismi, ya’ni 39 foizi milliy xavfsizlikka asosiy tahdid sifatida ”radikal diniy-siyosiy guruhlarning faoliyati”ni belgilaganlar. Bu ko‘rsatkich raqamli makonda diniy omildan siyosiy maqsadlarda foydalanish va radikallashuv jarayonlari hamon eng xatarli kommunikativ strategiya bo‘lib qolayotganidan dalolat beradi. (Diagramma №1)

[75] Почепцов. Г.Г. Терия коммуникации. – Москва.: Refl-buk. 2011. с-26.
[76] Nye, J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. PublicAffairs. 2004.
[77] Nye, J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. PublicAffairs. 2004.p-124.




Shuningdek, so‘rovnomada ishtirok etgan mutaxassislarning 28 foizi “ijtimoiy tarmoqlarda etnosentrik millatchilikning kuchayishi”ni hamda 26 foizi “o‘zaro gina-quduratlarni avj oldirish uchun tarixiy voqealardan foydalanish”ni jiddiy xavf sifatida baholaganlar. E’tiborli jihati shundaki, millatchilik va tarixiy omillarning jami 54 foiz ovoz to‘plashi, raqamli kommunikatsiyalarda “tarixni siyosiylashtirish” va “etnik tuyg‘ularni manipulyatsiya qilish” strategiyalari millatlararo barqarorlikka zarba berishning asosiy quroliga aylanayotganini ko‘rsatmoqda.

Eng kam ko‘rsatkich - 7 foiz respondent tomonidan ”etnik ozchiliklarning kamsitilishi haqida maqsadli feyklar tarqatish” varianti tanlangan. Garchi bu strategiya eng kam ovoz to‘plagan bo‘lsa-da, harbiy ekspertlar nazarida yuqoridagi uchta omil (radikalizm, etnosentrizm va tarixiy revizionizm) raqamli makonda ancha tizimli va xavfliroq xarakterga ega ekanligi namoyon bo‘ldi.

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli makonda milliy-etnik ziddiyatlarni keltirib chiqarishga qaratilgan kommunikatsiyalar ko‘pincha diniy radikalizm va tarixiy adovatlar niqobi ostida amalga oshirilmoqda. Bu esa davlatning kommunikativ profilaktika ishlarida aynan shu yo‘nalishlarga urg‘u berish zaruriyatini tug‘diradi.

Raqamli makondagi destruktiv tahdidlarning tabiati va ularning milliy xavfsizlikka ta’sir doirasi aniqlangach, ushbu xurujlarga nisbatan eng zaif va moyil ijtimoiy qatlamlarni tahlil qilish mantiqiy zaruriyatga aylanadi.[78] Shu sababli, tadqiqotimizning keyingi bosqichida respondentlarga ”Aholining qaysi guruhlari destruktiv siyosiy kommunikatsiyalarning salbiy ta’siriga ko‘proq moyil?” degan savol bilan murojaat qilindi.

[78] Castells M. Communication Power. Oxford University Press.2009. p-28.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, harbiy ekspertlar xavf guruhlarini aniqlashda asosan ikki muhim omilga - yosh xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy holatga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Xususan, respondentlarning 42 foizi destruktiv kommunikatsiyalar ta’siriga eng ko‘p ”yoshlar (14–25 yosh)” tushishini ta’kidlaganlar. Ekspertlar buni yoshlarda hali axborotni saralash va unga nisbatan tanqidiy fikrlash ko‘nikmasining to‘liq shakllanmaganligi bilan izohlaydilar.[79] Bu ko‘rsatkich yosh avlodning raqamli makonda eng faol foydalanuvchi ekanligini hisobga olgan holda, ularning ongini manipulyatsiyalardan himoya qilish nafaqat pedagogik, balki milliy xavfsizlik masalasi ekanligini tasdiqlaydi. (Diagramma №2)




Shu bilan birga, so‘rovnomada ishtirok etgan mutaxassislarning salmoqli qismi - 40 foizi “daromadi past bo‘lgan shaxslar”ni xavf guruhi sifatida belgilagan. Bu juda muhim signal bo‘lib, iqtisodiy yetishmovchiliklar sharoitida insonlarning turli populistik va radikal kommunikativ va’dalarga uchuviyroq bo‘lib qolishini ko‘rsatadi. Demak, destruktiv siyosiy kommunikatsiyalar ko‘pincha jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan oziqlanadi va ushbu qatlamni davlatga qarshi kayfiyatda shakllantirishga urinadi.

Respondentlarning 18 foizi esa ”xorijdan qaytayotgan mehnat migrantlari” variantini tanlaganlar. Garchi bu ko‘rsatkich boshqalarga nisbatan pastroq bo‘lsa-da, uzoq vaqt davomida begona axborot va mafkuraviy muhitda bo‘lgan shaxslarning vataniga qaytganidan so‘ng yangi siyosiy-ijtimoiy voqelikka moslashishi va ularning kommunikativ muhofazasini ta’minlash ham harbiy mutaxassislar diqqat markazida ekanligidan dalolat beradi.

[79] Сулейманова Г. Межэтническое согласие как фактор стабильности общества. - Ташкент. 2021. с-29.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, destruktiv siyosiy kommunikatsiyalarga moyillik omillari jamiyatda bir xil taqsimlanmagan. Yoshlarning psixologik zaifligi va daromadi past aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati vayronkor kuchlar uchun asosiy nishon bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa milliy-etnik xavfsizlikni ta’minlashda faqat umumiy choralarni emas, balki aynan shu maqsadli guruhlar bilan alohida, manzilli kommunikativ ishlarni olib borishni taqozo etadi.

Destruktiv kommunikatsiyalarga eng moyil ijtimoiy qatlamlar (yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar) aniqlanganidan so‘ng, ushbu guruhlarga yo‘naltirilgan xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish mexanizmlarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, so‘rovnomada respondentlarning raqamli makondagi faollikni nazorat qilishga bo‘lgan munosabati o‘rganildi va ularga ”Milliy ziddiyatlardan barvaqt ogohlantirish vositasi sifatida ijtimoiy tarmoqlar monitoringining ahamiyatini baholang” degan savol bilan murojaat qilindi.

Olingan natijalar harbiy ekspertlar o‘rtasida zamonaviy xavfsizlik tizimida raqamli monitoringning o‘rni haqida deyarli yakdil fikr shakllanganini ko‘rsatdi. Respondentlarning mutlaq ko‘pchiligi, ya’ni 62 foizi ushbu vositani ”o‘ta muhim vosita” deb baholaganlar. Ushbu yuqori ko‘rsatkich harbiy soha vakillari ijtimoiy tarmoqlarni nafaqat axborot almashish maydoni, balki milliy-etnik ziddiyatlarning belgilari paydo bo‘ladigan va ularni operativ aniqlash zarur bo‘lgan strategik nuqta deb bilishlarini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, so‘rovnoma ishtirokchilarining 28 foizi monitoringni ”muhim, lekin yordamchi vosita” sifatida qayd etganlar. Bu yondashuv shuni anglatadiki, ekspertlarning salmoqli qismi raqamli monitoringni zarur deb hisoblasa-da, uni boshqa an’anaviy razvedka va profilaktika usullari (masalan, joylardagi bevosita ishlar) bilan uyg‘unlikda olib borish lozim degan fikrda. Jami hisobda respondentlarning 90 foizi ijtimoiy tarmoqlar monitoringini ijobiy baholashi, raqamli muhitning xavfsizlik arxitekturasidagi o‘rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi. (Diagramma №3)




Monitoringning ”samaradorligi past” deb hisoblovchilar atigi 3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 7 foiz respondent bu masalada ”javob berishga qiynalishi”ni bildirgan. Ushbu minimal ko‘rsatkichlar harbiy ekspertlar hamjamiyatida texnologik nazorat va axborot tahlili borasidagi skeptitsizm (shubha bilan qarash) juda past darajada ekanligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli monitoring milliy-etnik munosabatlar kontekstida “erta ogohlantirish tizimi” vazifasini o‘tashi zarur. Respondentlarning bergan baholari shuni tasdiqlaydiki, etnik ziddiyatlarning oldini olishda davlatning kommunikativ strategiyasi aynan ijtimoiy tarmoqlardagi kayfiyatlarni doimiy tahlil qilib borish va kutilayotgan tahdidlarga “proaktiv” (oldindan ta’sir qiluvchi) munosabat bildirish tizimiga tayanishi lozim. Bu esa o‘z navbatida, xavfsizlik organlari va axborot texnologiyalari mutaxassislarining hamkorligini yangi bosqichga ko‘tarishni talab etadi.

Ijtimoiy tarmoqlar monitoringi orqali xavfni barvaqt aniqlash jarayonning faqatgina birinchi bosqichidir. Aniqlangan axborot xurujlari yoki nizoli signallarga nisbatan davlat organlari tomonidan beriladigan munosabatning tezligi va sifati ziddiyatlarni mahalliylashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, tadqiqotimizning navbatdagi qismida respondentlarning davlat tuzilmalari (huquqni muhofaza qiluvchi tuzilamalar, AOKA va boshqalar) faoliyatining operativligiga bo‘lgan munosabati o‘rganildi va ularga ”Davlat organlari ehtimoliy nizoli axborot sabablari yuzaga kelganda qanchalik tezkorlik bilan munosabat bildiradi?” degan savol o‘rtaga tashlandi.

Olingan natijalar harbiy ekspertlar o‘rtasida davlatning kommunikativ reaksiyasi borasida qarashlar turlicha ekanligini ko‘rsatdi. Respondentlarning 35 foizi davlat

organlarining munosabatini ”zudlik bilan va oldindan ogohlantiruvchi xarakterda” deb baholaganlar. Ushbu ko‘rsatkich xavfsizlik organlarining axborot makonida ma’lum darajada proaktiv (oldindan harakat qiluvchi) strategiyaga ega ekanligini va bu mutaxassislar tomonidan e’tirof etilayotganini anglatadi.

Biroq, tahlillar natijasida davlat kommunikatsiyalaridagi ayrim tizimli bo‘shliqlar ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, respondentlarning 21 foizi munosabat ”kechikkan”, ya’ni “mish-mishlar tarqalib bo‘lgandan keyin” bildirilishini qayd etgan bo‘lsa, yana 14 foizi munosabat ko‘pincha ”rasmiyatchilik uchun bo‘lib, maqsadli auditoriyaga yetib bormasligini” ta’kidlagan. Jami 35 foiz ekspertning davlat kommunikatsiyasidan qoniqmasligi (kechikish va rasmiyatchilik) shuni ko‘rsatadiki, raqamli asrda an’anaviy “press-relizlar” uslubi tezkor tarqalayotgan destruktiv feyklar va manipulyatsiyalar bilan raqobatda samaradorligini yo‘qotmoqda. (Diagramma №4)




Ayniqsa, respondentlarning 30 foizi ushbu savolga ”javob berishga qiynalishi” diqqatga sazovordir. Bu holat harbiy soha vakillari o‘rtasida davlat organlarining axborot siyosati va uning natijalari har doim ham aniq va tushunarli emasligini yoki muayyan holatlarda muloqot kanallari yopiq qolayotganini ko‘rsatishi mumkin.

Umumiy xulosa shundan iboratki, monitoring tizimi (oldingi savolda ko‘rilganidek) yuqori baholangan bo‘lsa-da, aniqlangan xavflarga qarshi kommunikativ chora ko‘rish (reaksiya) tizimini yanada takomillashtirish zarur. Harbiy ekspertlarning fikricha, milliy xavfsizlikka daxldor axborot maydonida davlat organlari nafaqat “javob beruvchi” (reaktiv), balki voqealar rivojidan o‘zib ketuvchi (proaktiv)

axborot yetakchisiga aylanishi lozim. Zero, axborot vakuumini davlat to‘ldirmasa, uni destruktiv kuchlar to‘ldirishi muqarrar.

Davlat organlarining axborot xurujlariga munosabat bildirish tezligi va sifati ko‘p jihatdan ularning zamonaviy media makonining asosiy drayverlari - jurnalistlar va blogerlar bilan qanchalik uyg‘un harakat qilishiga bog‘liq. Zero, inqirozli vaziyatlarda rasmiy axborotning tezkor tarqalishi va jamoatchilik ishonchini qozonishda professional media hamjamiyati bilan o‘rnatilgan ko‘prik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu munosabat bilan, respondentlarning ushbu yo‘nalishdagi hamkorlikka bo‘lgan ishonchini aniqlash maqsadida ularga ”Inqirozli vaziyatlarda kuch tuzilmalari va media hamjamiyati (blogerlar, jurnalistlar) o‘rtasidagi muvofiqlashtirish darajasini yetarli deb hisoblaysizmi?” degan savol berildi. (Diagramma №5)




So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, harbiy mutaxassislarning yarmidan ko‘pi, ya’ni 56 foizi bu hamkorlikni ”vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi” deb baholaganlar. Ushbu ko‘rsatkich kuch tuzilmalari va media vakillari o‘rtasidagi aloqalar hali tizimli xarakterga ega emasligini, aksincha, muayyan voqea yoki inqiroz yuz bergandagina “situatsion” ko‘rinishda faollashishini anglatadi. Milliy-etnik xavfsizlikni ta’minlashdek nozik masalada hamkorlikning bunday “uzuq-yuluq” xarakterga egaligi, inqirozli pallada axborot boshqaruvini qo‘ldan chiqarish xavfini oshiradi.

Shu bilan birga, respondentlarning 37 foizi muvofiqlashtirish jarayonini ”a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan” deb hisoblaydi. Bu ijobiy ko‘rsatkich so‘nggi yillarda O‘zbekiston axborot siyosatida ochiqlik tamoyilining kuchaygani va ayrim kuch tuzilmalarining jamoatchilik bilan muloqot qilishda yangicha metodlarni

o‘zlashtirayotganidan dalolat beradi.[80] Biroq, ushbu fikr ko‘pchilikni tashkil etmasligi hali barcha yo‘nalishlarda ham media bilan munosabatlar birdek samarali emasligini ko‘rsatadi.

Respondentlarning minimal qismi - 7 foizi esa ”tomonlar o‘rtasida katta uzilish va ishonchsizlik mavjud” degan fikrni bildirgan. Garchi bu ko‘rsatkich past bo‘lsa-da, harbiy ekspertlar orasida media vakillariga, ayniqsa, nazorat qilinmaydigan blogerlar qatlamiga nisbatan ma’lum darajada xavfsirash yoki ularning faoliyatini milliy manfaatlar nuqtai nazaridan xatarli deb bilish kayfiyati saqlanib qolayotganini inkor etib bo‘lmaydi.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, inqirozli vaziyatlarda milliy-etnik barqarorlikni saqlash uchun davlat organlari va media hamjamiyati o‘rtasidagi munosabatlarni “vaziyatga qarab muloqot”dan “doimiy strategik hamkorlik” bosqichiga o‘tkazish zarur. Harbiy ekspertlarning fikricha, blogerlar va jurnalistlar kuch tuzilmalariga nisbatan “muxolif tomon” emas, balki axborot xurujlariga qarshi kurashda muhim “kommunikativ ittifoqchi” sifatida ko‘rilishi lozim. Bu esa har ikki tomon o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash va inqiroz paytida harakatlar algoritmini oldindan kelishib olishni taqozo etadi.

Inqirozli vaziyatlarda media hamjamiyati bilan hamkorlikni tizimlashtirish va ishonch ko‘priklarini mustahkamlash zarurati, o‘z-o‘zidan ushbu faoliyatning huquqiy va konseptual asoslarini ishlab chiqish masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Davlatning axborot makonidagi xavfsizligini ta’minlash faqatgina vaziyatga qarab chora ko‘rish emas, balki uzoq muddatli va aniq strategiyaga asoslanishi lozim. Shu maqsadda, respondentlarning istiqbolli qarashlarini o‘rganish uchun ularga ”O‘zbekistonning “Kommunikatsiya xavfsizligi strategiyasi»da nima ustuvor bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?” degan savol berildi.

Olingan natijalar harbiy ekspertlarning milliy xavfsizlikka nisbatan zamonaviy va progressiv yondashuvga ega ekanligini namoyon etdi. Respondentlarning deyarli yarmi, ya’ni 47 foizi strategiyaning eng ustuvor yo‘nalishi sifatida ”aholining mediasavodxonligini oshirish (manipulyatsiyalarni tanishni o‘rgatish)” variantini tanlaganlar. Bu juda muhim ilmiy xulosa bo‘lib, hatto kuch tuzilmalari vakillari ham axborot xurujlariga qarshi kurashda taqiqlash yoki bloklashdan ko‘ra, jamiyatda “axborot immuniteti”ni shakllantirish samaraliroq ekanligini e’tirof etmoqdalar. Ekspertlar nazarda tutayotgan ushbu yondashuv, destruktiv siyosiy

[80] Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston. 2022. b-286.

kommunikatsiyalarga qarshi eng kuchli qalqon - fuqarolarning tanqidiy fikrlash qobiliyati ekanligini tasdiqlaydi. (Diagramma №6)




Shu bilan birga, harbiy soha vakillari uchun xavfsizlikning texnik va nazorat jihatlari ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Respondentlarning 26 foizi “Kiberqalqon” (kibershit) yaratish va destruktiv resurslarni bloklash chorasini ustuvor deb hisoblaydi. Bu ko‘rsatkich milliy axborot makonini tashqi g‘arazli aralashuvlardan texnik himoya qilish zaruriyati harbiy ekspertlar ongida hamon dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda ishtirok etganlarning 18 foizi strategiyaning asosiy bo‘g‘ini sifatida ”professional siyosiy tahlilchi-kommunikatorlarni tayyorlash” zaruriyatini ko‘rsatib o‘tganlar. Bu esa axborot maydonidagi kurashlarda nafaqat texnologiya, balki intellektual salohiyat va professional kadrlar hal qiluvchi rol o‘ynashini anglatadi. Ekspertlar tushunishidacha, davlat o‘z pozitsiyasini ilmiy va tahliliy asosda xalqqa yetkazib bera oladigan mutaxassislarga muhtoj.

Qiziqarli jihati shundaki, ”proaktiv (oldindan) xabardor qilish tizimini rivojlantirish” varianti respondentlarning atigi 9 foizi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Bu holat ekspertlarning proaktivlikni alohida strategik yo‘nalish emas, balki mediasavodxonlik yoki kadrlar tayyorlashning uzviy qismi sifatida ko‘rayotgani bilan izohlanishi mumkin.[81]

Umuman olganda, so‘rovnoma natijalari O‘zbekistonning kelajakdagi kommunikatsiya xavfsizligi strategiyasi “taqiqlovchi apparat”dan “ma’rifiy va intellektual himoya tizimi”ga transformatsiya bo‘lishi kerakligini ko‘rsatmoqda. Harbiy ekspertlarning mediasavodxonlikka bergan yuqori bahosi, milliy-etnik ziddiyatlarning oldini olishda davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish uchun eng muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

[81] O‘zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi Qonuni.https://lex.uz/mact/-83472

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari va harbiy ekspertlarning tahliliy xulosalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda milliy-etnik barqarorlikni ta’minlash va kommunikatsiya xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi 6 ta eng muhim taklif va tavsiyani ilgari suramiz:

Hukumat nazorati ostida raqamli makonni 24/7 rejimida kuzatuvchi va milliy-etnik masalalarda feyk xabarlarga 15-30 daqiqa ichida rasmiy munosabat beruvchi yagona tahliliy markaz faoliyatini kuchaytirish lozim. Davlat organlari “himoyalanuvchi” pozitsiyasidan “axborot kun tartibini belgilovchi” proaktiv pozitsiyaga o‘tishi shart.

Respondentlarning 47 foizi aholining mediasavodxonligini eng ustuvor vazifa deb belgilashi, yoshlar (14-25 yosh) va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun milliy-etnik manipulyatsiyalarni tanib olish bo‘yicha maxsus o‘quv modullarini ishlab chiqishni zaruratga aylantirmoqda. Buni nafaqat ta’lim muassasalarida, balki mahalla darajasida “raqamli gigiyena” darslari shaklida yo‘lga qo‘yish, insonlarda etnosentrik millatchilik va radikal g‘oyalarga nisbatan tanqidiy fikrlashni shakllantirish zarur.

Inqirozli vaziyatlarda (etnik ziddiyat alomatlari sezilganda) davlat organlari va yetakchi blogerlar o‘rtasida axborot muvofiqlashtirish algoritmini qonuniy yoki institutsional darajada mustahkamlash. Blogerlarni “muxolif tomon” emas, balki milliy xavfsizlikning “kommunikativ ko‘ngillilari” sifatida tayyorlash va ularga tezkor, ishonchli ma’lumotlarni birinchi qo‘ldan yetkazish tizimini yaratish ham davr talabiga aylanib bormoqda.

Siyosiy tahlilchilar va tarixchi olimlar hamkorligida raqamli makon uchun “kontr-narrativ”lar (raddiyalar) bazasini yaratish. Etnik nizolarni qo‘zg‘atishga qaratilgan tarixiy manipulyatsiyalarga ilmiy asoslangan, ammo xalqchil tilda yozilgan kontentlar (videoroliklar, infografikalar) orqali javob qaytarish tizimini yo‘lga qo‘yish ham tarixiy zaruratga aylanib bormoqda.

Kuch tuzilmalari matbuot xizmatlari va strategik tahlil bo‘limlari xodimlarini maxsus psixologik va kommunikativ treninglardan o‘tkazish. Ular nafaqat harbiy bilimlarga, balki “yumshoq kuch” instrumentlarini qo‘llash, ijtimoiy tarmoqlar psixologiyasini tushunish va xalq bilan emotsional muloqot o‘rnatish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Davlatning targ‘ibot-tashviqot ishlari umumiy xarakterdan individual xarakterga o‘tishi kerak. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar va migrantlar uchun mo‘ljallangan platformalarda (Telegram-guruhlar, ish qidirish saytlari) millatlararo do‘stlik va barqarorlik mavzusini ularning hayotiy muammolari yechimi bilan bog‘lagan holda (masalan, “tinchlik bo‘lsa - barqaror daromad bo‘ladi” formulasi asosida) yetkazish

strategiyasini qo‘llash. Ushbu takliflar majmuasi O‘zbekistonning kelajakdagi ”Kommunikatsiya xavfsizligi strategiyasi” uchun nazariy va amaliy poydevor bo‘lib xizmat qiladi hamda milliy-etnik ziddiyatlarning raqamli muhitda avj olishiga yo‘l qo‘ymaydi, degan fikrdamiz.

**XULOSA**

O‘tkazilgan tadqiqot va respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy O‘zbekistonda milliy-etnik barqarorlikni ta’minlash an’anaviy xavfsizlik choralaridan ko‘ra ko‘proq samarali siyosiy kommunikatsiya strategiyalariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Harbiy mutaxassislar va soha ekspertlarining xulosalari raqamli makondagi destruktiv kuchlar, ayniqsa diniy radikalizm va etnosentrizm g‘oyalari milliy xavfsizlikka eng katta xavf tug‘dirayotganini tasdiqladi. Tadqiqotning eng muhim ilmiy natijalaridan biri shundaki, xavfsizlikni ta’minlashda “kiberqalqon” kabi texnik cheklovlardan ko‘ra, aholining mediasavodxonligini oshirish va jamiyatda axborot immunitetini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida e’tirof etildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, davlat organlarining axborot xurujlariga nisbatan munosabati hali ham kutilgan darajada tezkor emas va ko‘pincha rasmiyatchilik xarakteriga ega. Inqirozli vaziyatlarda media hamjamiyati, jurnalistlar va blogerlar bilan hamkorlikning tizimli emasligi axborot vakuumini vujudga keltirishi mumkin. Shunga ko‘ra, milliy-etnik ziddiyatlarning oldini olishda davlatning kommunikativ siyosati “reaktiv” (javob qaytaruvchi) bosqichdan “proaktiv” (oldindan ogohlantiruvchi va boshqaruvchi) bosqichga o‘tishi strategik zaruriyatdir.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonning kommunikatsiya xavfsizligi intellektual salohiyatga ega kadrlar, davlat va jamiyat o‘rtasidagi yuksak ishonch hamda aholining axborotni saralash madaniyatiga tayanmog‘i lozim. Zero, millatlararo barqarorlik - faqat huquqiy taqiqlar bilan emas, balki sog‘lom muloqot, ochiqlik va jamiyatning axborot xurujlariga nisbatan kommunikativ chidamliligi orqali mustahkamlanadi. Ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan takliflar mamlakatning kelgusi kommunikatsiya xavfsizligi strategiyasini shakllantirishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-21 Farmoni. «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo’nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha

chora-tadbirlari to‘g‘risida» - Toshkent, 2026-yil 16-fevral, https://lex.uz/uz/docs/-8050769

3. Nye, J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. PublicAffairs. 2004.

4. Почепцов Г.Г. Теория коммуникации. - Москва.: Refl-buk. 2001.

5. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Tasvir. 2022.

6. Castells, M. Communication Power. Oxford University Press. 2009.

7. Сулейманова Г. Межэтническое согласие как фактор стабильности общества. - Ташкент.: 2021.

8. O‘zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi Qonuni. https://lex.uz/mact/-83472.

# O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSIY XULQ-ATVORINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Rasulov Bekzod Boymuratovich,
*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti*
*E-mail: lawstroy83@mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Maqolada zamonaviy O‘zbekistonda yoshlarning siyosiy xulq-atvorini shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb muammolari tahlil qilingan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati, yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan huquqiy-institutsional mexanizmlar o‘rganilgan. Shuningdek, globolashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar siyosiy ongiga ta’siri ochib berilib, ulardagi siyosiy begonalashuv, befarqlik va radikalizm xavflarining oldini olish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *yoshlar siyosati, siyosiy xulq-atvor, siyosiy faollik, raqamli texnologiyalar, siyosiy ong, fuqarolik jamiyati, yoshlar tashkilotlari.*

***Аннотация:*** *В статье анализируются актуальные проблемы формирования и развития политического поведения молодежи в современном Узбекистане. Изучены молодежная политика, реализуемая в стране, а также правовые и институциональные механизмы, направленные на повышение социально-политической активности подрастающего поколения. Также раскрыто влияние процессов глобализации, цифровых технологий и социальных сетей на политическое сознание молодежи, разработаны научно-практические предложения и рекомендации по предотвращению рисков политического отчуждения, индифферентности и радикализма в их среде.*

***Ключевые слова:*** *молодежная политика, политическое поведение, политическая активность, цифровые технологии, политическое сознание, гражданское общество, молодежные организации.*

***Annotation:*** *The article analyzes the pressing problems of the formation and development of youth political behavior in modern Uzbekistan. It examines the youth policy implemented in the country and the legal and institutional mechanisms aimed at enhancing the socio-political activity of the younger generation. Furthermore, the impact of globalization processes, digital technologies, and social networks on the*

*political consciousness of youth is revealed, and scientific-practical proposals and recommendations are developed to prevent risks of political alienation, apathy, and radicalism among them.*

***Keywords:*** *youth policy, political behavior, political activity, digital technologies, political consciousness, civil society, youth organizations.*

**Kirish.**

Ma’lumki, yoshlar mamlakat rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va jamiyat rivojining asosiy tayanchi hisoblanadi. Yoshlar iqtisodiyot, huquq yoki ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha muayyan bilim va kunikmalarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda siyosiy bilim va madaniyatga ega bo‘lishi talab etiladi. Ularning jamiyat ijtimoiy hayotiga chuqur kirib borishi siyosiy xulq-atvoriga chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoning ta’sir kuchi ularda jamiyat va davlat boshqaruviga tobora qiziqishining ortishiga, yangicha demokratik fikrlash ko‘nikmalarini egallash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz aholisining qadriyatlar tizimidagi muhim o‘zgarishlar fuqarolar ijtimoiy va siyosiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi uchun yuksak bilim va madaniyat talab etiladi.

O‘zbekiston yoshlaridagi ayrim stereotipik qarashlar – siyosatga daxldorlik xissini yetarli emasligi, ayrim yoshlarning siyosiy jarayonlarga mutlaqo befarqligi, siyosiy bilimlarning yetarli emasligi, ta’lim dasturlarida siyosiy bilimlar uchun yetarli imkoniyat yaratilmaganligi ushbu maqolani yozishga undadi.

Yoshlarning siyosiy ongi dinamik va qarama-qarshidir. Ularning saylovdagi xatti-harakatlari ijtimoiy-demografik guruh sifatidagi xususiyatlari, shuningdek, siyosiy rejim va milliy yoshlar siyosatining o‘ziga xos jihatlari bilan belgilanadi.

Yoshlar ko‘pincha kamsitish va chetlanishga duch keladi, bu holat ayniqsa yosh ayollarda yaqqol seziladi. Shu sababli, yoshlarning siyosatga befarq ekanligi haqidagi stereotip keng tarqalgan bo‘lib, bu ularga qaratilgan rivojlanish dasturlari asosan saylovlarda ovoz berishga undash va saylovoldi zo‘ravonliklarining oldini olishga qaratilishiga olib keldi. Biroq, tadqiqot natijalari yoshlarning tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatib beradi. Yoshlarning saylov jarayonlaridagi salohiyatini oshirishga yordam berish orqali, maqsad saylov davridagi zo‘ravonliklarni boshqarishga qaratilgan qisqa muddatli, reaktiv yondashuvlardan voz kechib, ularning oldini olishga qaratilgan keng qamrovli va yoshlarni to‘liq qamrab oluvchi strategiyalarga e’tibor qaratishdir. Bu yondashuv tinchlikni saqlashga va saylov jarayonlarida zo‘ravonlik xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

**Mavzuni o‘rganish darajasi.** BMTning jahon yoshlari hisobotlari, Xalqaro IDEA, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy ishlar departamenti (UNDESA) tomonidan tashkil etilgan ACE (saylov bilimlari tarmog‘i) tadqiqotlari mavzuni yoritishda muhim manbalar bo‘lib xizmat qildi.

Yoshlarning siyosiy xulq-atvori va uni rivojlantirish masalasi xorij olimlaridan Tomaž DEJELAN, Rojer Xart, Rut Bekmans, Manuela Matzinger, Golovin Dmitriy Alekseevich, K.G.Ustinkina, Malkevich A., N.I. Snegireva o‘rganilgan. Xususan, Rus olimi N.I. Snegireva ta’kidlaganidek, yoshlarning elektoral madaniyatini shakllantirish uchun mas’uliyat siyosiy partiyalar zimmasiga ham yuklanadi. Biroq, bu institut ko‘pincha yoshlarni faqat saylovlar arafasida eslaydi.[82] Malkeivich zamonaviy Rossiyada yoshlarning saylov faolligini oshirish muammolarini, Rut Bekmans va Manuela Matzingerlar[83] turli yosh guruhlarining saylovlarda ishtirok etish darajasini ilmiy tahlil qiladi. K.G.Ustinkina Rossiyada yoshlarning siyosiy jarayonlarda kam ishtirok etishini tadqiq qiladi. Uning fikricha, o‘zlarini siyosiy hayotdan ixtiyoriy ravishda chetlatadigan ko‘plab yoshlar saylov jarayonidagi ishtirok hokimiyat tuzilmalari qarorlariga ta’sir qilishning bir shakli ekanligini tushunmaydilar, bu esa ba’zi hollarda nafaqat voqealarning borishini to‘g‘rilaydi, balki uni tubdan o‘zgartiradi.[84]

**Metodologiya.** Mavzuni yoritishda qiyosiy tahlil, sotsiologik so‘rovnoma kabi metodlardan foydalanildi.

**Mavzu muhokamasi.**

Demokratik jarayonlarda ishtirok etish – bu shunchaki ovoz berish emas, balki keng qamrovli tushunchadir. Yoshlarning ishtiroki ularga nafaqat yoshlarga oid masalalar, balki barcha muhim qarorlarni qabul qilishda ma’lumotlarga ega bo‘lish va ularga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini beradi. Bu jarayon imkoniyatlarni kengaytirish, yangi ko‘nikmalarni o‘rganish va huquqlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Siyosiy ishtirok esa, asosan, odamlarning o‘z hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan qarorlarni shakllantirish va ularda qatnashish uchun o‘z fikrlarini rivojlantirish va ifodalashga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli faoliyatdir. Yoshlar o‘z jamoalarida tinchlik o‘rnatish, siyosiy yetakchilarni iqlim va’dalari uchun javobgarlikka tortish va eng zaif qatlamlarga yordam berish kabi ko‘plab sohalarda faollik ko‘rsatadi.

---

[82] Н.И. Снегирева Обособенностях формирования молодежного электорального поведения. ВЕСТНИК ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ. № 11 (ноябрь) 2021, DOI 10.20339/AM.11-21.110

[83] Rut Bekmans, Manuela Matzinger, Yoshlarning saylov jarayonlaridagi ishtiroki. Saylov boshqaruvi organlari uchun qo'llanma. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va Yevropa Komissiyasi. 2017 yil mart

[84] К.Г.Устинкина, Электоральное поведение российской молодежи. Проблемный анализ и государственно-управленческое проектирование. Выпуск 1 2014, ст.139-145

Biroq, ko‘plab jamiyatlarda yoshlarning rasmiy siyosatdagi ishtiroki past darajada bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, ular ko‘proq norasmiy jarayonlar va muqobil platformalar, ya’ni siyosiy partiyalar va rasmiy institutlardan tashqarida, o‘z maqsadlariga erishish uchun birlashishni afzal ko‘radilar. Yoshlarning saylovlardagi faolligi va ta’sirini to‘g‘ri tushunish uchun ularning fuqarolik tashabbuslari va ijtimoiy harakatlari kabi norasmiy ishtirok shakllarini, shuningdek, ishtirok etmaslikning sabablarini ham o‘rganish muhim.

Yevropada olib borilgan tadqiqot natijalari yoshlarning saylovlarda ishtirok etish tendensiyasida pasayish kuzatilganligini isbotlaydi.

1-rasm. Yevropada yosh guruhlari bo‘yicha siyosiy ishtirok[85]




Manba: Yevropa qadriyatlarini o'rganish, 7-to'lqin (2020)

Yoshlarning institutsional siyosatdagi ishtirokining kamayishi, shuningdek, Yevropaning barcha demokratik mamlakatlarida kuzatilgan partiyaga a’zolikning pasayishida ham namoyon bo‘ladi[86]. Bir qancha tadqiqotlar yoshlar orasida partiyaga a’zolikning kamayib borayotganini aniq ko‘rsatdi (masalan, Cross and Young 2008; Hooghe et al. 2004; Seyd and Whiteley 2004, Deželan 2015), bu siyosiy partiyalarning yollash va safarbarlik funksiyasiga jiddiy ta’sir qiladi va yoshlarning siyosiy vakilligiga juda salbiy ta’sir qiladi. Buning yana bir ko‘rsatkichi – bugungi kunda yoshlar o‘rtasida unchalik ko‘p uchramaydigan siyosiy partiya va tashkilotlar faoliyatida yoshlarning ishtirok etishidir. 15-29 yoshli yoshlarning atigi besh foizga yaqini siyosiy partiyalar va siyosiy tashkilotlar faoliyatida qatnashadi (qarang Deželan 2015). Xuddi shunday

[85] Tomaž DEJELAN, Yevropa demokratik jarayonlarida yoshlarning ishtiroki. https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2023/745820/IPOL_STU(2023)745820_EN.pdf

[86] Van Biezen va boshq. 2012, 38

pasayish ishtirok etishning boshqa an’anaviy shakllarida ham kuzatilishi mumkin, masalan, saylovoldi tashviqoti tadbirlarida ishtirok etish, davlat amaldorlari bilan aloqa qilish, siyosiy guruhlarda faol ishtirok etish va hokazo (Moyser 2003 179; Deželan 2014; Deželan 2015; Deželan and Moxon 2021).[87]

Bugungi kunda dunyo miqyosida parlament a’zolarining atigi 2,6 foizi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir va bu yosh deputatlarning 1 foizdan kamrog‘ini ayollar tashkil etadi. Dunyo miqyosida yoshlarning saylov huquqiga ega bo‘lishi va saylanish huquqi (ya’ni, lavozimga nomzod bo‘lishi) o‘rtasida o‘rtacha to‘rt yildan ortiq farq bor. Bu shuni anglatadiki, yoshlar ma’lum bir yoshda ovoz bera olsalar-da, saylanish uchun ular yana bir necha yil kutishlariga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, yoshlarning saylanish imkoniyatlariga jins, irq, millat, nogironlik, ijtimoiy-madaniy me’yorlar va moliyaviy resurslar kabi omillar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar turli mamlakatlarda yoshlar uchun siyosiy jarayonlarga kirishni yanada murakkablashtirishi mumkin.[88]

Hozirgi vaqtda yoshlarning siyosiy faolligi borasidagi vaziyat murakkab sabablarga ega. Garchi yoshlar an’anaviy siyosiy yo‘nalishlarda kam ishtirok etsa-da, bu an’anaviy faollik turlari yoshlarning bugungi fuqarolik tushunchasiga mos keladimi, degan savol tug‘iladi. Aslida, 19-20-asrlarda shakllangan siyosiy institutlar va jarayonlar bugungi yosh avlodning siyosiy qarashlariga mos kelmasligini yaxshi bilamiz (Norris 2002; Loader va boshq. 2014; Pickard 2019; Dalton 2009).

O‘zbekiston yoshlarining siyosiy jarayonlarga qiziqishini oshirishdagi asosiy muammolar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Saylovlarda ishtirok etishning afzalliklari va ovoz berishning ahamiyati haqida tushuntirish ishlarining yetarli darajada olib borilmayotgani.
- Yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish uchun maxsus seminarlar, treninglar va saylovoldi tadbirlarining cheklanganligi.
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosiy ma’lumotlarni tarqatish usullarining zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi.

Muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro tajriba va amaliy strategiyalarni o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bu borada saylov jarayonlariga to‘siq bo‘luvchi omillarni kamaytirish, fuqarolik ta’limini kuchaytirish va innovatsion mexanizmlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratish lozim.

[87] Tomaž DEJELAN, Yevropa demokratik jarayonlarida yoshlarning ishtiroki. https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2023/745820/IPOL_STU(2023)745820_EN.pdf

[88] Yoshlarning siyosiy faolligini tushunish. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, https://www.youthforum.org/files/UPDATED_UN_REPORT_TBS_Accessible_Version_090622.pdf

Demokratik jamiyatlarda yoshlarning saylov jarayonlaridagi ishtiroki masalasining chuqur tahlili bir qator muhim jihatlarni ochib berdi. Global miqyosdagi kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida saylovlarda faol ishtirok etish darajasi nisbatan past bo‘lsa-da, bu ularning siyosiy jarayonlarga nisbatan befarq ekanligini anglatmaydi. Aksincha, ushbu holatning asosiy sabablari institutsional va madaniy to‘siqlar, shuningdek, rasmiy siyosiy tuzilmalarda yoshlarning munosib vakillik qila olmasligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ayniqsa, O‘zbekiston kontekstida, yoshlar siyosati uchun mustahkam huquqiy baza yaratilganiga qaramay, bu sohada hali ham o‘z yechimini kutayotgan vazifalar mavjud. Mavjud qonunchilik asosida yoshlarning siyosiy savodxonligini oshirish va ularni rasmiy jarayonlarga faol jalb etish bo‘yicha yanada aniq va maqsadli amaliy mexanizmlarni joriy etish zarur. Ushbu choralar yoshlarning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga, ularning siyosiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Yoshlarning siyosiy xulq-atvori va madaniyatini rivojlantirish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Quyida ushbu yo‘nalishdagi asosiy tavsiyalar keltirilgan:

**Huquqiy va institutsional islohotlar.** Yoshlarning rasmiy siyosiy hayotdagi ishtirokini rag‘batlantirish maqsadida, siyosiy lavozimlarga saylanish uchun yosh chegaralarini xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko‘rib chiqish va ro‘yxatdan o‘tish tartibini soddalashtirish muhimdir. Bu yoshlarga siyosatda faol o‘rin egallash imkoniyatini kengaytiradi.

**Ta’lim sohasidagi choralar.** Maktablar va oliy ta’lim muassasalarida amaliy fuqarolik ta’limini joriy etish zarur. Shuningdek, yoshlar uchun siyosiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan doimiy treninglar va seminarlar o‘tkazish ularning siyosiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Elektoral afzallikning mohiyati ongli tanlovdir. Shuning uchun jamiyatning vazifasi yoshlarning rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi, ularning umumiy ta’lim va elektoral madaniyat darajasini oshirish, saylov faoliyatini amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo‘lgan maxsus bilimlarni shakllantirish uchun sharoit yaratishdir. Ochiq-oydinki: ta’lim darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, elektoral faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlik darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.[89]

**Texnologik yechimlardan foydalanish.** Yoshlarning onlayn faolligini institutsional jarayonlarga integratsiya qilish, masalan, onlayn muhokamalar va so‘rovlar o‘tkazish orqali siyosiy jarayonlarga jalb etish lozim. Ijtimoiy tarmoqlar

[89] К.Г.Устинкина, Электоральное поведение российской молодежи. Проблемный анализ и государственно-управленческое проектирование. Выпуск 1 2014, ст.139-145

orqali maqsadli va shaffof ma’lumotlar tarqatish esa yoshlarning norasmiy siyosiy faolligini rasmiy jarayonlar bilan bog‘lashga yordam beradi.

**Kommunikatsiya va ishonchni mustahkamlash.** Hukumat organlari va siyosiy partiyalarning yoshlar bilan ochiq va shaffof muloqotini yo‘lga qo‘yish, ularning fikr-mulohazalarini tinglash va takliflarini inobatga olish mexanizmlarini yaratish siyosiy jarayonlarga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

**Nodavlat tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash.** Yoshlar tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining siyosiy ta’lim va ishtirokni kuchaytirishdagi rolini oshirish, ularning faoliyatini moliyaviy va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yoshlar faolligining institutsional asosini mustahkamlaydi.

**Xulosa.**

Har qanday strategiya O‘zbekistondagi yoshlarning hozirgi holatini chuqur tahlil qilishga asoslanishi kerak. Ularning qadriyatlari, ehtiyojlari va siyosatga bo‘lgan munosabatini aniqlash, samarali dasturlarni ishlab chiqishda asosiy omil hisoblanadi. Bu tahlil yoshlarni siyosatdan uzoqlashtirgan sabablarni (masalan, ishonchsizlik, siyosiy ongsizlik, va hokazo) aniqlash va ularni bartaraf etish uchun muhimdir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, keng qamrovli va tizimli islohotlarni talab qiladi. Bu faqatgina saylov oldidan o‘tkaziladigan tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarning ishonchini qozonishga va ularga o‘z kelajagini qurishda to‘laqonli ishtirok etish imkoniyatini berishga qaratilgan uzoq muddatli jarayon bo‘lishi kerak. Ushbu tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilgan strategiya O‘zbekistonda yoshlarning nafaqat son jihatdan, balki sifat jihatdan ham faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.I. Snegireva Obosobennostyax formirovaniya molodejnogo elektoralnogo povedeniya. VESTNIK VЫISSShEY ShKOLЫ. № 11 (noyabr) 2021, DOI 10.20339/AM.11-21.110

2. Rut Bekmans, Manuela Matzinger, Yoshlarning saylov jarayonlaridagi ishtiroki. Saylov boshqaruvi organlari uchun qo'llanma. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va Yevropa Komissiyasi. 2017 yil mart

3. K.G.Ustinkina, Elektoralnoe povedenie rossiyskoy molodeji. Problemnыy analiz i gosudarstvenno-upravlencheskoe proektirovanie. Vыpusk 1 2014, st.139-145

4. Tomaž DEJELAN, Yevropa demokratik jarayonlarida yoshlarning ishtiroki. https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2023/745820/IPOL_STU(2023)745820_EN.pdf

5. Yoshlarning siyosiy faolligini tushunish. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, https://www.youthforum.org/files/UPDATED_UN_REPORT_TBS_Accessible_Version_090622.pdf

# ГАРМОНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ГРАЖДАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Джалилов Бахтиёр Хидаевич
*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека*
*djalil.sardor@mail.ru*

***Аннотация.*** *В данной статье представлен научно-теоретический анализ вопросов обеспечения человеческого достоинства и личных, политических, экономических и культурных прав в современном гражданском обществе, раскрывается роль принципа "за человеческое достоинство" в развитии гражданского общества, его соответствие гуманистическим идеям, унаследованным от нашего времени. предков и его значение как приоритетного направления государственной политики. Кроме того, рассматриваются комплексные национальные программы, направленные на сокращение бедности, а также механизмы их реализации в политическом, экономическом, правовом и социальном измерениях. Кроме того, раскрываются признание прав человека высшей ценностью, ответственность государства за защиту граждан, а также демократические реформы, проводимые в Новом Узбекистане на основе принципа "Государство существует для народа", и их суть.*

***Ключевые слова****: гражданское общество, демократия, культура, ценности, справедливость, прогресс, мир, свобода, стабильность.*

***Аннотация.*** *Ушбу мақолада замонавий фуқаролик жамиятида инсон қадр-қиммати ва шахсий, сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳуқуқларини таъминлаш масалаларининг илмий-назарий таҳлили келтирилган, "инсон қадр-қиммати учун" тамойилининг фуқаролик жамиятини ривожлантиришдаги ўрни, унинг бизнинг давримиздан мерос бўлиб қолган гуманистик ғояларга мослиги очиб берилган. Аждодлар ва унинг давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатидаги аҳамияти. Бундан ташқари, қашшоқликни камайтиришга қаратилган кенг қамровли миллий дастурлар, шунингдек уларни сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий ва ижтимоий йўналишларда амалга ошириш механизмлари кўриб чиқилмоқда. Бундан ташқари, инсон ҳуқуқларининг энг олий қадрият сифатида эътироф этилиши, давлатнинг фуқароларни ҳимоя қилишдаги*

*масъулияти, шунингдек, янги Ўзбекистонда "давлат халқ учун мавжуд" тамойили асосида амалга оширилаётган демократик ислоҳотлар ва уларнинг моҳияти очиб берилган.*

***Калит сўзлар:*** *фуқаролик жамияти, демократия, маданият, қадриятлар, адолат, тараққиёт, тинчлик, еркинлик, барқарорлик***.**

***Abstract.*** *This article provides a scholarly and theoretical analysis of the issues of ensuring human dignity and personal, political, economic, and cultural rights in modern civil society, elucidating the role of the principle of "for human dignity" in the development of civil society, its harmony with the humanistic ideas inherited from our ancestors, and its significance as a priority area of state policy. Furthermore, comprehensive national programs aimed at reducing poverty, as well as the mechanisms of their implementation across political, economic, legal, and social dimensions, are examined. In addition, the recognition of human rights as the supreme value, the responsibility of the state in protecting citizens, and the democratic reforms being carried out in New Uzbekistan on the basis of the principle of "The state exists for the people" and their essence are revealed.*

***Keywords****: civil society, democracy, culture, values, justice, progress, peace, freedom, stability*

В современном гражданском обществе обеспечение человеческого достоинства и личных, политических, экономических и культурных прав человека имеет первостепенное значение. Принцип "за человеческое достоинство" стал основным критерием всех реформ, предусматривающим создание равных возможностей для полной реализации своего потенциала каждым человеком. Такой подход, гармонирующий с гуманистическими идеями, унаследованными от наших предков, рассматривается как одно из основных направлений сегодняшней стратегии развития. В результате была разработана и последовательно реализуется уникальная национальная программа, направленная на сокращение бедности за короткий промежуток времени. Эта программа реализуется на основе комплексного комплекса мер, охватывающих политические, социальные, экономические, правовые и экологические аспекты, и решает проблему на основе системного подхода. Это практическое выражение обеспечения интересов человека в рамках гражданского общества. В гражданском обществе права человека признаются высшей ценностью, а государство выступает в качестве субъекта, ответственного за обеспечение правовой и социальной защиты граждан. В то же время, в Новом Узбекистане

построение свободного, процветающего общества было определено в качестве приоритетной задачи при строгом соблюдении международных норм и принципов в области демократии, прав и свобод человека. На пути к построению ориентированного на людей и справедливого государства осуществляются последовательные реформы, основанные на идеях “Государство существует для людей” и “Сначала люди, затем общество и государство” [1]. Общечеловеческие ценности — это концепция, выражающая систему ценностей универсального значения, которые считаются общим стандартом ценности для всех людей, наций и государств по всему миру. Общечеловеческие ценности представляют собой исключительно широкое и многогранное понятие [2]. Общечеловеческие ценности не сводятся исключительно к понятиям, имеющим обще социальное содержание, таким как свобода, раскрепощенность, мир и счастье. Интерпретировать их исключительно в рамках достижений культуры также недостаточно, поскольку такой подход не позволяет в полной мере раскрыть их многогранную сущность. В то же время конкретные национальные, этнические и другие специфические системы ценностей не могут заменить общечеловеческие ценности. Анализируя систему общечеловеческих ценностей и форм их проявления, по сути, означает изучение сложной социальной системы, существующей в диалектической взаимозависимости, а также отношений между ее составными частями. Эти ценности образуют целостную систему, общую для всех людей, живущих на определенном этапе общественного развития, и проявляются в неразрывной и необходимой взаимосвязи с другими социальными принципами. Формы выражения общечеловеческих ценностей носят относительный характер, и эта относительность не всегда очевидна. В ходе исторического развития, под влиянием общественных нужд и запросами общества, на первый план выходят определенные формы ценностей: например, свобода и независимость в условиях оккупации, патриотизм, когда независимость находится под угрозой, интерес к историческому и культурному наследию в периоды национального пробуждения и потребность в мир и стабильность во время войны. Таким образом, в ходе социальных процессов определенные формы ценностей становятся более актуальными, в то время как другие относительно отходят на второй план, но все они сохраняют свое значение в рамках единой системы [3]. Сегодня существует ряд причин, по которым общечеловеческие ценности остаются общим стандартом для всех: во-первых, растущее осознание того, что наша планета является самым распространенным, но бесконечно малым пространством в безграничной Вселенной для всех людей

на земле, независимо от их расы, национальности, вероисповедания и других природных условий. -исторические и социальные особенности; во-вторых, растущая потребность в наиболее распространенных духовных стандартах в условиях социального разнообразия, политического и идеологического плюрализма, а также различных потребностей, интересов, целей, устремлений, поведения и деятельности, которые соответствуют требованиям прогресса; в-третьих, тот факт, что в результате столкновения с такими угрозами, как оружие массового уничтожения, ядерная война, экологический кризис и моральная деградация, будущее человечества и судьба общего генофонда населения нашей планеты оказались под угрозой, а также сохранение цивилизаций, к которым они относятся. вопрос о том, к какому поколению принадлежит человечество, приобрел первостепенное значение; в-четвертых, это объясняется растущим признанием того, что независимо от того, в каких социальных системах и государствах живут люди, главной целью везде является человек - его жизнь, интересы, права и свободы, а также универсальностью глобально значимых технологий, научных достижений и возможностей их применения во всех начинаниях обеспечить осмысленную, изобильную и процветающую жизнь людей, а также необходимость глобального сотрудничества для реализации этих возможностей. Люди сравнивают, размышляют, делают выводы и оценивают свою собственную практическую деятельность и деятельность окружающих их людей, а также свое поведение в той или иной области с точки зрения общечеловеческих ценностей [4]. В заключение хотелось бы отметить, что в современном гражданском обществе человеческое достоинство и обеспечение личных, политических, экономических и культурных прав признаются одной из важнейших приоритетных областей. Принцип “во имя человеческого достоинства” стал основным критерием всех реформ, направленных на создание равных возможностей для полной реализации своего потенциала каждым человеком. Этот подход, гармонично сочетающийся с гуманистическими идеями, унаследованными от наших предков, стал неотъемлемой частью сегодняшней стратегии развития. В результате были разработаны и последовательно реализуются комплексные национальные программы, направленные на сокращение бедности, по всем политическим, экономическим, правовым и социальным направлениям. В то же время признание прав человека высшей ценностью в гражданском обществе возлагает на государство ответственность за обеспечение надежной правовой и социальной защиты граждан. В Новом Узбекистане последовательно углубляются демократические реформы на основе

принципа “Государство существует для людей”. В этом процессе общечеловеческие ценности, являясь важным стандартом общественного прогресса, играют решающую роль в обеспечении единства человечества, мира, свободы и устойчивого развития.

## Список литературы

1. Мирзиеев Ш.М. Современность и новый Узбекистан. – Ташкент: Изд-во “Узбекистан”, 2024. -с.44.

2. Назаров К.К. Энциклопедия мировой философии. Том 2. – Ташкент: Издательство Национального общества философов Узбекистана, 2023. -с.361.

3. Ахмадов М. “Проблемы достижения единства национальных и общечеловеческих ценностей в мировоззрении молодежи Нового Узбекистана”. ФАРМИ, том 4, № 11, 2024. -С.140–44.

4. Общечеловеческие ценности //https://oyina.uz/uz/teahause/2417

5. Собирович, Т. Б. (2020). Стратегия обновления национальной духовности Узбекистана. Международный журнал прикладных исследований, 6(5), 147-151.

6. Турдиев Б. С. (2019). Роль национальной гармонии в стратегии духовного обновления. Научный вестник Наманганского государственного университета, 1(6), 229-233.

7. Собирович Т. Б., Норман З. Д. М. (2023). Гармония национальных и общечеловеческих ценностей в Узбекистане. Гармония, 7(1), 08-16.

# JINOYAT PROTSESSIDA SUD MUHOKAMASI BOSQICHIDA JABRLANUVCHI VA FUQAROVIY DA'VOGARLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH UCHUN MALAKALI YURIDIK YORDAM KO'RSATISH KAFOLATLARI

Hasanov Abdulmannon Mamatmurodovich
*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi*
*E-mail: abdulmannonkhasanov76@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Sud muhokamasi bosqichida jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogar manfaatlarini himoya qilish amaliyotda ko'pincha protsessual tengsizlik, vakilga kech murojaat qilish va materiallar bilan to'liq tanishish imkonining cheklanishi sababli zaiflashadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi jinoyat protsessida malakali yuridik yordam ko'rsatish kafolatlarining mazmunini aniqlash, sud muhokamasida ularning ishlash mexanizmini ochib berish va huquqlarni himoya qilishdagi bo'shliqlarni ko'rsatishdan iborat. Metodologik asos sifatida normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy huquqshunoslik, sud amaliyoti sharhi va tizimli yondashuv qo'llandi. Jinoyat-protsessual normalar, jabrlanuvchi hamda fuqaroviy da'vogar ishtirokini tartibga soluvchi qoidalar va vakilning huquqiy maqomi mazmunan taqqoslandi. Tahlil sud majlisida himoya huquqi ko'pincha faqat rasmiy xabardor qilish bilan cheklanib qolishini, advokatning faol pozitsiyasi esa nizoli masalalarni aniqlash, dalillarni baholash va fuqaroviy da'vo manfaatlarini asoslashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, protsessual kafolatlar bir xil darajada ishlamasligi, ayniqsa bayonnomaga e'tiroz bildirish, iltimosnoma kiritish va sud harakatlariga munosabat bildirishda tafovutlar borligi aniqlandi. Ilmiy hissa sifatida sud muhokamasi bosqichida jabrlanuvchi hamda fuqaroviy da'vogar uchun "erta axborot berish — vakilga kirish — faol sud nazorati" zanjiri konseptual model sifatida asoslab berildi. Xulosa shuki, malakali yuridik yordamni faqat advokat ishtiroki emas, balki protsessual imkoniyatlarning real kafolati sifatida mustahkamlash zarur.*

***Kalit so'zlar:*** *bepul malakali yuridik yordam, jabrlanuvchining himoya huquqi, advokat ishtiroki, jabrlangan shaxs, sud muhokamasida tenglik va tortishuvchanlik prinsipi, adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquq, protsessual muvozanat, qiyosiy-huquqiy tahlil.*

***Аннотация:*** *На практике защита интересов потерпевшего и гражданского истца на стадии судебного разбирательства часто ослабляется из-за процессуального неравенства, позднего обращения к представителю и ограниченного доступа к полным материалам. Цель данного исследования – определить содержание гарантий квалифицированной юридической помощи в уголовном процессе, выявить механизм их действия в судебном разбирательстве и указать на пробелы в защите прав. В качестве методологической основы использованы нормативно-правовой анализ, сравнительная юриспруденция, обзор судебной практики и системный подход. По содержанию проведено сравнение уголовно-процессуальных норм, правил, регулирующих участие потерпевшего и гражданского истца, а также правового статуса представителя. Анализ показал, что право на защиту в суде часто ограничивается формальным уведомлением, а активная позиция адвоката имеет решающее значение в выявлении спорных вопросов, оценке доказательств и обосновании интересов гражданского иска. Также было установлено, что процессуальные гарантии не работают в равной степени, особенно в областях обжалования протокола, подачи ходатайства и ответа на действия суда. В качестве научного вклада была обоснована концептуальная модель цепочки «раннее информирование – доступ к представителю – активный судебный контроль» для потерпевшего и гражданского истца на этапе судебного разбирательства. Вывод состоит в том, что квалифицированную юридическую помощь следует укреплять не только как участие адвоката, но и как реальную гарантию процессуальных возможностей.*

***Ключевые слова:*** *бесплатная квалифицированная юридическая помощь, право потерпевшего на защиту, участие адвоката, пострадавшее лицо, принцип равенства и состязательный характер судебного разбирательства, право на справедливое судебное разбирательство, процессуальный баланс, сравнительно-правовой анализ.*

***Abstract:*** *In practice, the protection of the interests of the victim and civil plaintiff at the stage of the trial is often weakened due to procedural inequality, late appeal to a representative, and limited access to full access to materials. The purpose of this study is to determine the content of guarantees of qualified legal assistance in criminal proceedings, to reveal the mechanism of their operation in court proceedings, and to indicate gaps in the protection of rights. As a methodological basis, normative and legal analysis, comparative jurisprudence, review of judicial practice, and a systematic approach were used. Criminal procedural norms, rules regulating the*

*participation of the victim and civil plaintiff, and the legal status of the representative were compared in content. The analysis showed that the right to protection in court is often limited to formal notification, and the active position of the lawyer is crucial in identifying disputed issues, evaluating evidence, and substantiating the interests of the civil claim. It was also found that procedural guarantees do not work to the same extent, especially in the areas of objection to the protocol, filing a petition and responding to court actions. As a scientific contribution, the chain of "early information - access to a representative - active judicial control" for the victim and civil plaintiff at the stage of the trial was substantiated as a conceptual model. The conclusion is that qualified legal aid should be strengthened not only as the participation of a lawyer, but also as a real guarantee of procedural opportunities.*

***Keywords:*** *free qualified legal aid, the victim's right to defense, the participation of a lawyer, the injured person, the principle of equality and adversarial nature in court proceedings, the right to a fair trial, procedural balance, comparative legal analysis.*

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari sud hokimiyati mustaqilligini hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash bilan bir qatorda fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish imkonini berdi.

Shu bilan birga “Yangi O‘zbekiston — yangi sud” tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirishni, sohaga ilg‘or xalqaro standartlarni joriy etishni talab etmoqda.

Mazkur islohotlar nafaqat aybdor shaxsning huquq va erkinliklarini sud orqali himoyalashni, balki jinoyat natijasida jabrlangan shaxslarning ham huquq va manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutishi bilan o’ziga xos hisoblanadi.

MDH davlatlarining aksariyatida jumladan, O’zbekistonda ham jinoyat ishlari asosan jabrlanuvchilarga zarar yetkazgan holda jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi qonunlarimizda mustahkamlangan normalardan ham ko’rishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, bu yerda V.Osipkinning "Rossiya Federatsiyasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar sharoitida, xalqaro tashkilotlar va hamjamiyatlarning kuchli bosimiga duchor bo'lgan holda, afsuski, jabrlanuvchilarga zarar yetkazgan holda, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarning manfaatlarini

ustuvorlashtirishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda[90]" degan fikriga qo'shilish mumkin.

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilgan xalqaro huquqiy hujjatlarda sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning huquqlari va majburiyatlari yetarlicha batafsil bayon etilgan, shu bilan birga jinoiy ta'sirga uchragan shaxslarning huquqlari va majburiyatlarini ta'minlovchi zamonaviy qoidalar hali yetarli emas nazarimizda.

O’zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, ayblanuvchilar va gumon qilinuvchilarning huquqlarini himoya qilish institutlari qonun chiqaruvchilar va turli olimlarning diqqat-e'tibori tufayli umuman olganda yetuklikka erishgan, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish qoidalari esa zamonaviy talablarga javob bermaydi. Ushbu tadqiqotda jabrlanuvchilar masalasini, ularning jinoyat protsessining asosiy bosqichlarida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vakolatlarini to'liq o'rganishga va ularning huquqiy maqomini yaxshilash bo'yicha takliflarni ilgari surishga harakat qiladi.

Sud muhokamasi bosqichida jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogarning himoya huquqi amaliyotda torayib borayotgani JPKning 55, 56, 57 va 62-moddalarini izchil qo‘llash zaruratini kuchaytirdi[91]. Oliy sud Plenumi qarorida taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipini majburiy mezon sifatida belgilagan bo‘lsa-da, sud majlisida jabrlanuvchilarga malakali yuridik yordam ko’rsatish har doim ham to‘liq kafolatlanmayapti[92]. Shu sababli mazkur tadqiqotda sud muhokamasi bosqichidagi protsessual kafolatlar, jabrlanuvchi huquqlari va fuqaroviy da’vogar maqomining o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi.

Sh.J.Qodirov jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogarning teng protsessual subyekt sifatidagi talqini, yuqorida ko‘rsatilgan natijalar bilan uyg‘un holda, himoya huquqini faqat da’vo bildirish bilan cheklamaslikni asoslagan hamda jabrlanuvchini mustaqil manfaat egasi ekanligi haqida so’z yuritgan, shuningdek, jabrlanuvchi manfaatlarini protsessual muvozanat bilan bog‘lagan bo‘lsa, bu tahlil o‘sha bog‘liqlikning xalqaro darajadagi tasdig‘ini ko‘rsatadi, uning fikriga ko’ra, jabrlanuvchi manfaatlarini ta’minlashda huquqiy bo‘shliq aynan vakillik va xabardor qilish mexanizmlarida

[90] V.L.Grigoryan. Himoya va himoya faoliyati jinoyat protsessining tuzilishini va uning maqsadlariga erishishni belgilovchi omillar sifatida. 2006-yil. Dissercat.uz

[91] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Lex.uz.

[92] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Jinoyat ishlari bo‘yicha sud muhokamasida taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsiplarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida"gi qarori.2022.

saqlanib qolinadi[93]. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, muammo sud muhokamasi bosqichida malakali yuridik yordam kafolatlarini tizimli aniqlashtirishda jamlandi.

Mazkur tadqiqotda sud muhokamasi bosqichidagi jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarlarning protsessual maqomi hamda malakali yuridik yordam kafolatlari o'rganildi. Shu sababli tadqiqotning maqsadi ikki yo'nalishda belgilanadi: himoya huquqini kuchaytiruvchi normativ mexanizmlarni aniqlash va sud amaliyotidagi cheklovlarni bartaraf etish yo'llarini asoslash. Shuning uchun JPK normalarini tahlil qilib, sud amaliyotida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarga takliflar ishlab chiqishda xorijiy davlatlarning ham qonunchiligini o'rganish maqsadga muvofiq.

A.A.Holiqovning fikriga ko'ra jabrlanuvchiga malakali yuridik yordam ko'rsatish kafolatlarini faqat advokat ishtiroki emas, balki protsessual axborot va vaqtida murojaat qilish imkoniyati bilan bog'lagan. Uning fikriga ko'ra, sud muhokamasi bosqichida himoya huquqi vakilning borligi bilan emas, uning mazmuni bilan o'lchanishini, ya'ni sud muhokamasida malakali yuridik yordam kafolatlari faqat vakil tayinlash emas, balki vaqtida xabardor qilish va uchrashuv imkoniyati bilan to'ldirilganda ishlashini ta'kidlagan. Uning tadqiqotida malakali yuridik yordam mazmuni xabardor qilish, ishtirok va e'tiroz bildirish kafolatlari tahlil qilingan[94]. Demak, yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda milliy norma himoya vakolatini beradi, ammo uning amaliy samarasi tashkiliy kafolatlarga bog'liqligicha qolmoqda.

Shu asosda tadqiqotning ilmiy yangiligi adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqni ta'minlashda ishtirokchilarning malakali yuridik yordamdan foydalanishi zarur hollarda belgilangan tartibda davlat tomonidan faqat sudlanuvchiga emas balki protsessning boshqa ishtirokchilariga ham bepul malakali yuridik yordam ko'rsatilishini jinoyat protsessual qonunchiligi normalari bilan kafolatlashga oid takliflarni ilgari surish maqsad qilingan.

D.Mirzayevning fikriga ko'ra, jabrlanuvchi hamda fuqaroviy da'vogarning teng protsessual subyekt sifatidagi mavqeini asoslab, ularning himoya huquqi vakolatli vakillik bilan mustahkamlanishini hamda jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarning manfaatida advokat ishtiroki dalil taqdim etish va savol berish taktikasini

[93] Sh.J.Qodirov. Jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalari // Yuridik fanlar axborotnomasi. — 2021. — №3. — B. 45-52.

[94] A.A.Xoliqov. Sud muhokamasida jabrlanuvchiga malakali yuridik yordam ko'rsatishning protsessual kafolatlari // Yurisprudensiya. — 2023. — №4. — B. 31-39.

kuchaytirishini ko‘rsatgan. Advokat ishtiroki bo‘lmagan holatda iltimosnoma va e’tirozlar ko‘pincha protsessual jihatdan sust ifodalanishini ko‘rsatgan[95].

Bu holat JPKning jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogar huquqlarini amalga oshirishga doir imperativ normalari bilan mos tushadi. Xuddi shu fikrni amaliyotdan quyidagilarni misol keltirish orqali qo’llab quvvatlash mumkin.

Masalan, jinoyat protsessida Jinoyat kodeksining 165-moddasi ya’ni tovlamachilikka oid jinoyat ishi sud muhokamasi bosqichida sud tergovi jarayonida sudlanuvchi bir nafar lekin jabrlanuvchilar ko’pchilik (taxminiy 20 nafar) sudlanuvchi manfaatini to’rt nafar malakali advokatlar himoya qilmoqda. Sudlanuvchiga dastlabki tergov tomonidan jabrlanuvchilarga yetkazilgan moddiy zarar 5 milliard so’m. Xuddi shu jarayonda himoyachilarning maqsadi ayblanuvchiga nisbatan ayblovni asossizligini isbotlash, zararni kamaytirishga erishish, ayblanuvchining xatti-harakatlarida tovlamachilik emas balki firibgarlik jinoyati borligini yoki umuman bu holatda jinoyat tarkibi yo’qligini isbotlashga erishish hisoblanadi. Lekin himoyachiga ega bo’lmagan jabrlanuvchining huquqiy ongi sud tergovida himoyachilar tomonidan unga berilayotgan savollar maqsadi va oqibati qaysi nuqtaga ketayotganligini anglab yetmaydi. Agarda davlat ayblovchisi har bir jabrlanuvchiga berilgan savollar yuzasidan tushuntirish bermoqchi bo’lsa, jabrlanuvchining himoyachining savollariga berilayotgan javoblari natijasida sudlanuvchining harakatlari tovlamachilik emas balki firibgarlikka yoki umuman jinoyat tarkibini bermasdan fuqarolik huquqiy munosabatga aylanib ketishi ehtimolini ochiqlasa, himoyachilarning haqli e’tiroziga sabab bo’ladi. Yoki ushbu holatda ba’zi jabrlanuvchilarning unga yetkazilgan zararni qoplaganligi sababli sudlanuvchiga xayrixoh bo’lgan javoblarni berishi (misol uchun sudlanuvchi tomonidan unga nisbatan qo’rqitish yoki mulkiy manfaatdor bo’lish holati bo’lmaganligini aksincha aldov natijasida mulkini talon taroj qilganligini yoxud o’zaro kelishgan holda pul mablag’larini sudlanuvchi ixtiyoriga o’tkazganligi haqida sudlanuvchi himoyachisi savollariga javob berishi) ish natijasiga ta’sir qiladi. Mazkur holatda davlat ayblovchisi ayblovni quvvatlash maqsadida himoyachi savolini takrorlamagan holda savol mazmunini o’zgartirgan holda jabrlanuvchi javobini ayblovga moslashga harakat qiladi, biroq ushbu holatda ham himoyachilar davlat ayblovchisining savollarini mazmuni bir xilligini kutilayotgan javob avvalgisiga monand ekanligini yoki yo’naltiruvchi savol sifatida savolni yo’qqa chiqarmoqchi bo’lib o’z e’tirozlarini raislik etuvchiga bildiradi. Afsuski, bu jarayon qanday kechayotganligini raislik etuvchi, sudlanuvchining himoyachilar va davlat

[95] D.D.Mirzayev. Jinoyat protsessida jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogar huquqlarini himoya qilishda advokat ishtirokining ahamiyati // Yuridik fanlar axborotnomasi. — 2024. — №1. — B. 57-64.

ayblovchisining huquqiy ongi va madaniyati yetsada, biroq jabrlanuvchi ish mazmuni kimning foydasiga hal etilayotganligini tushunib yetmasdan qoladi. Unga na suddan oldin, na suddan keyin, na sud jarayonida tushuntirib bo'ladi. Shu sababli ham malakali yuridik yordam bilan ta'minlash jabrlanuvchining ham adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Bu muammolarning ahamiyati dastlabki tergovda bilinmasligi mumkin. Chunki jabrlanuvchi tergovda individual shaklda so'roq beradi. Tergovchining maqsadi haqiqatni aniqlash bo'ladi, shu nuqtayi nazardan savollar beradi. Biroq, sudlanuvchining himoyachilari esa sud tergovida jabrlanuvchining huquqiy ongi yetishmasligidan foydalanib qolishga harakat qiladi. Ularning maqsadi ayrim hollarda haqiqatni aniqlash emas balki himoyasi ostidagi shaxsga qo'yilgan ayblovni sindirish bo'ladi.

Jabrlanuvchi xotirjam sudda qatnashadi sababi tergovda bergan so'roqlari yetarli deb o'ylaydi. Biroq Jinoyat protsessual qonunchiligiga ko'ra sud faqat sud tergovida isbotlangan dalillarga tayanadi. Shu sababdan jabrlanuvchining sud tergovida bergan ko'rsatuvlari juda ham muhim. Buning oqibatida aybdor shaxs jazodan qutulib qolishi, adolat tarozisi pallasi jinoyatning asl jabrlanuvchisi foydasiga hal bo'lmasligiga natijada, adolatli sudlovga bo'lgan ishonch pasayishiga olib keladi. Oqibatda jinoyatning aybsiz guvohi aybdorga, haqiqiy aybdor yoki asl jabrlanuvchi fuqarolik munosabati ishtirokchilariga aylanib qolishi mumkin.

Nazariy jihatdan olingan xulosalar jinoyat protsessida protsessual kafolatlar tizimini jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogar manfaatlari kesimida aniqlashtiradi. Amaliyotchilar ushbu yondashuvdan sud majlisida iltimosnoma, dalil taqdim etish va vakillik masalalarini rasmiylashtirishda foydalanishlari mumkin. Doktrinal tahlil va sud amaliyoti sharhi normativ asoslarni aniqroq ochishga xizmat qiladi.

B.Normatov fuqaroviy da'vogar maqomini sud muhokamasi bosqichida alohida protsessual qatlamga ajratgan[96]. Bu ikki yondashuv birlashganda, malakali yuridik yordam vakillik emas, balki protsessual muvozanatning tarkibiy kafolatiga aylanadi. Shuning uchun doktrinal markazda huquqiy norma, huquqiy munosabat va huquqiy subyekt bir-biridan ajralmagan holda talqin qilish to'g'ri deb hisoblanadi.

Qiyosiy huquqshunoslik usuli orqali mazkur muammoli holatni yanada aniqroq ochish mumkin. Xususan, P.Baranov bepul yordamning qamrovi MDHdagi kabi umumiy emas, ammo vakilning taktika tanlovi va dalil taqdim etishdagi roli kuchliroq

[96] B.B.Normatov. Jinoyat ishlarini sud muhokamasi bosqichida fuqaroviy da'vogarning protsessual maqomi // Falsafa va huquq. — 2022. — №2. — B. 88-94.

ko‘rinadi. Uning fikriga ko’ra, Rossiya modelida jabrlanuvchining malakali yordamga bo’lgan huquqi bevosita protsessual kafolat hisoblanadi[97].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston jinoyat protsessual qonunchiligida vakillikni, xabardor qilishni va dalil taqdim etishni bir butun kafolatlar tizimi sifatida mustahkamlashi lozim. Milliy qonunchilik normasida xalqaro standartlar bilan to‘liq uyg‘unlashmagan nuqta aynan sud nazorati va vakillikning sudda qatnashish shartlarida ko’rinadi.

Biroq, mavjud adabiyotlar sud muhokamasi bosqichida fuqaroviy da’vogar manfaatining zarar qoplash logikasi bilan cheklanishini to‘liq bartaraf etmaydi. Nazariya va sud amaliyoti orasidagi tafovut, ayniqsa, iltimosnoma berish va e’tiroz bildirishda seziladi.

Konstitutsiyaviy kafolatlar sud muhokamasi bosqichida jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogar manfaatlarini protsessual subyekt darajasida himoyalashga tayanch bo‘ladi[98]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasi sud himoyasiga murojaat qilishni, 55-moddasi esa huquq va erkinliklarning sud orqali himoyasini mustahkamlaydi. Shu asos JPKdagi ishtirok etish, iltimosnoma berish va dalil taqdim etish huquqlarini faqat deklarativ emas, balki majburiy protsessual mexanizm sifatida talqin qilishni talab etadi. Bunday yondashuv malakali yuridik yordamni oddiy maslahat emas, balki himoya huquqining tarkibiy elementi sifatida ko‘rsatadi.

JPKning jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogarga doir normalari ushbu konstitutsiyaviy asosni protsessual shaklga keltiradi.

Shuningdek, JPK 42-, 56- va 57-moddalar jabrlanuvchi hamda fuqaroviy da’vogarning sud muhokamasida qatnashishi, iltimosnoma kiritishi va dalillarni taqdim etishini belgilaydi.

I.Qosimov dalil taqdim etish huquqi vakillik bilan qo‘shilgandagina tortishuv prinsipi real mazmun olishini asoslagan[99].

Shu yerda huquqiy bo‘shliq ko‘rinadi: JPK vakilning ishtirokini tan olsa-da, sud muhokamasida malakali yuridik yordamni ko’rsatishni boshlashning minimal standartlarini batafsil tushuntirilmagan.

Advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun institutsional asos beradi. Qonunning 6 va 7-moddalarida advokatning mustaqilligi, sir

[97] Баранов П.П. Право потерпевшего на квалифицированную юридическую помощь в уголовном судопроизводстве // Журнал российского права. — 2021. — №7. — С. 112-121

[98] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023. Lex.uz.

[99] I.I.Qosimov. Sud muhokamasi bosqichida jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogarning dalillar taqdim etish huquqi // Yuridik fanlar axborotnomasi. — 2021. — №4. — B. 22-29.

saqlashi va vakolatlari belgilangan bo‘lib, ular jabrlanuvchi hamda fuqaroviy da’vogar vakilligining sifat mezonini shakllantiradi.

Shuningdek, xalqaro huquq standartlari milliy qonun normalariga qo‘shimcha mezon qo‘yadi. M.Abdurahmonov jabrlanuvchi manfaatlarini himoya qilishda xalqaro standartlar sudga kirish, tenglik va samarali vosita talabini birlashtirishini asoslarini ilmiy asoslashga harakat qilgan[100].

Plenum qarori tortishuv va teng huquqlilik prinsiplarini amaliyotda qo’llash tartibini belgilaydi. U jabrlanuvchi hamda fuqaroviy da’vogarning sud majlisida faol pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi, biroq malakali yuridik yordamning kechiktirilgan taqdimini alohida protsessual buzilish sifatida nomlamaydi.

Normativ-huquqiy tahlilda ochilgan kafolatlar shuni ko’rsatadaki, qiyosiy tekshiruvda uch xil institutlashuv darajasi mavjud. Smirnov va Kalinovskiy esa sud himoyasi faqat protsessual huquqni e’lon qilish emas, balki uni amalga oshirish ketma-ketligini kafolatlash orqali yuzaga chiqishini ko‘rsatgan va ularnig tahliliga ko’ra, MDH modelida jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogar ko‘proq protsessning yordamchi qatnashchisi sifatida tasavvur qilinadi, shu sababli malakali yuridik yordamning sud muhokamasida qatnashish bosqichi torayadi[101].

V.Lazareva sud muhokamasida huquqlarni ta’minlash sudning tashkiliy intizomi bilan chambarchas bog‘liqligini qayd etgan, uning fikriga ko’ra, Yevropa yondashuvida sud muhokamasi bosqichi ichida vakil ishtiroki, xabardor qilish va sudda qatnashish bir-birini to‘ldiruvchi huquqiy norma sifatida qurilgan[102].

J.Roberts va M.Hof qiyosiy-huquqiy tahlilda aniqlangan vakilga sud muhokamasiga qatnashishdagi tafovutlar sud muhokamasi bosqichida malakali yuridik yordamni faqat deklarativ kafolat darajasida qoldirayotganini ko‘rsatadi. Qiyosiy nuqtai nazardan jabrlanuvchi huquqlari kuchli bo‘lgan tizimlarda bepul yuridik yordam va sud muhokamasiga qatnashish kafolati bir paketda ishlashini ko‘rsatgan hamda vakillik darajasi oshgan tizimlarda jabrlanuvchining sudga kirish imkoniyati kengroq bo‘lishini ko‘rsatgan. Jabrlanuvchi teng protsessual subyekt deb tan olinganda, himoya huquqi faqat da’vo vositasi emas, balki tortishuvni ta’minlovchi majburiy va

[100] M.M.Abdurahmonov. Jinoyat ishlarida jabrlanuvchi manfaatlarini himoya qilishning milliy va xalqaro standartlari // Jurnal pravovыx issledovaniy. — 2022. — №2. — S. 73-81.

[101] Смирнов А.В., Калиновский К.Б. Уголовный процесс: учебник. — М.: Норма, 2023. — 784 с

[102] Лазарева В.А. Обеспечение прав потерпевшего в судебном разбирательстве по уголовному делу // Государство и право. — 2022. — №5. — С. 95-104

dispozitsiyali mexanizmga aylanadi. Natijada jabrlanuvchi huquqlari kengaygan tizimlarda sudga chaqirilish kafolati alohida standartga aylanishini ta’kidlagan[103].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinoyat protsessual qonunchilikka malakali yuridik yordam ko’rsatish institutini alohida bob sifatida kiritish, malakali yuridik yordam ko’rsatish tartibi, kimlar ushbu huquqdan foydalanishi, sudning xabardor qilish maburiyati borligi, sudda qatnashish shartlari, dalil taqdim etish huquqi, vakilning dalil taqdim qila olishi vakolati, vakilning protsessual maqomi va jabrlanuvchining himoyachisining protsessual maqomi, qanday hollarda bepul yuridik yordam ko’rsatish tartibi, jabrlanuvchining himoyachidan voz kechish tartibini belgilash hamda sudlanuvchi va jabrlanuvchi teng protsessual huquqlarga ega ekanligi kabi normalarni belgilash taklifi ilgari suriladi.

Jinoyat protsessual kodeksining 410-moddasi 2-qismida, sudlanuvchi sud majlisiga kelmasa, ishni muhokama qilish keyinga qoldirilishi lozimligi belgilangan.

Biroq, JPKning 411-moddasi 1-qismida, jabrlanuvchi sud majlisiga kelmasa, sud jabrlanuvchining ishtirokisiz ishdagi barcha holatlarni to’la aniqlash hamda uning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish mumkin yoki mumkin emasligiga qarab, jinoyat ishini muhokama qilish yoki keyinga qoldirish masalasini hal etishi ko’rsatilgan.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, sudlanuvchi va jabrlanuvchining adolatli sud muhokamasiga bo’lgan huquqi mutanosibligi o’rtasidagi farqni ko’rishimiz mumkin.

Shu sababli jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyatidan jabr ko’rgan shaxs ya’ni jabrlanuvchi (vafot etganda qonuniy vakil) sudga kelmaganda ishni muhokama qilish keyinga qoldirilishi haqida imperativ normani belgilash lozim.

Xuddi shuningdek, jabrlanuvchi vakilidan himoyachi maqomiga o’zgartirish yoki jabrlanuvchi advokati ta’rifiga o’zgartirish, sud muhokamasidagi ishtirokini majburiy qilib belgilash ham maqsadga muvofiq. Sud tomonidan xabardor qilish shartini belgilash masalalarini ko’rib chiqish lozim bo’ladi.

Ashvorts va Redmayn sud muhokamasida protsessual muvozanat vakilning faol ishtiroki bilan emas, balki sudning uni ta’minlash majburiyati bilan mustahkamlanishini nazariy jihatdan yoritgan, uning fikriga ko’ra anglo-sakson yondashuvida jabrlanuvchi ishtiroki ko‘proq protsessual eshitilish bilan cheklanadi.

[103] J.V.Roberts, Hough M. Understanding Victims' Rights in Criminal Justice: A Comparative Perspective // International Review of Victimology. — 2024. — Vol.30. — №2. — P. 145-162

Anglo-sakson tizimida malakali yuridik yordam ko‘proq sud amaliyoti va advokatlik standartlari orqali ishlaydi[104].

Yuqoridagi olimlar va tadqiqotchilarning tahliliga ko’ra, O‘zbekiston amaliyoti uchun eng maqbul yechim — vakil ishtirokini iltimosnomaga emas, xabardor qilish majburiyatiga bog‘lash hisoblanadi. Bunda JPKning tegishli normalari, advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik va Oliy sud plenumining tortishuvlilik haqidagi qarori bir zanjirga ulanadi. Shu asosda ushbu tahlilda huquqiy bo‘shliq va uni yopish yo‘llari aniqroq ko‘rsatiladi.

Birinchi bo‘shliq vaqtida xabardor qilishga taalluqlidir: JPKning jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogarga doir normalari protsessual chaqiruv mazmunini belgilasa-da, yuridik yordam zarurligi haqida alohida eslatma bermaydi. Ikkinchi bo‘shliq vakilga kirish bilan bog‘liq, chunki advokat ishtirokini boshlash vaqti sud muhokamasida kechikib qolishi mumkin. Bu holat protsessual tenglikni susaytiradi, chunki taraflar tortishuvi amalda teng qurolga aylanmaydi. Mazkur nuqsonlar yuqorida ko‘rsatilgan natijalar bilan mos keladi, biroq ular normativ kodifikatsiya emas, balki dispozitsiya aniqligini talab qiladi.

Institutsional mexanizm sifatida sudlar huzurida navbatchi advokatlar ro‘yxatini elektron xabardor qilish tizimi bilan bog‘lash taklif etiladi; bu yechim vakillik uzluksizligini ta’minlaydi.

Sud muhokamasi bosqichida advokat qatnashuvi, xabardor qilish va protsessual muvozanat bir-birini to‘ldiruvchi kafolatlar sifatida namoyon bo‘ldi.

JPKning 55, 56, 57 va 61-moddalari jabrlanuvchi hamda fuqaroviy da’vogarga malakali yuridik yordamni real protsessual vositaga aylantiradi, biroq amaliyotda bu zanjir uzilishi mumkin. Shu sababli himoya huquqi faqat deklarativ norma emas, balki sud majlisida faol vakillik, iltimosnoma berish va dalil taqdim etish orqali ishlaydigan huquqiy norma sifatida mustahkamlanishi lozim.

Ilmiy taklif shundan iboratki, jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogar birgalikda teng protsessual subyektlar sifatida talqin qilinishi, shuningdek, sudlanuvchi va jabrlanuvchi huquqlari tengligi amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilindi. Mazkur yondashuv huquqiy doktrina, advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik va Oliy sud Plenumi qarori o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir tizimga keltiradi. Natijada sud muhokamasida himoya huquqi, vakolatli vakillik va sud muhokamasida qatnashish kafolatlari alohida emas, yagona protsessual mexanizm ekanligi asoslandi.

[104] A.Ashworth, Redmayne M. The Criminal Process. — Oxford: Oxford University Press, 2021. — 512 p

Shu asosda JPKga jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogarga sud majlisi sanasi bilan birga advokat jalb etish tartibi yozma ravishda bildirilishini aniq kiritish taklif etiladi. Ikkinchi taklif sifatida, sud majlisida vakil ishtirokisiz berilgan muhim bayonotlar bo‘yicha sudning tekshiruv majburiyati imperativ norma bilan belgilanishi lozim. Sud amaliyotida esa bayonnomaga xabardor qilish, vakillik va iltimosnoma bo‘yicha alohida qayd kiritish standartlashtirilsa, protsessual bo‘shliq qisqaradi.

Navbatdagi bosqichda sud muhokamasida malakali yuridik yordamning rad etilish holatlari bo‘yicha yurisprudensiya tahlili va huquqiy munosabatlar dinamikasi alohida o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, fuqaroviy da’vogar manfaatlari bilan jabrlanuvchi huquqlarining kesishgan nuqtalarida sud nazoratining qaysi modeli samaraliroq ekani aniqlanishi kerak.

Qisqa qilib xulosani jamlaganda, jinoyat protsessual qonunchilikka malakali yuridik yordam ko’rsatish institutini alohida bob sifatida kiritish, unda malakali yuridik yordam ko’rsatish tartibi va mexanizmi, kimlar ushbu huquqdan foydalanishi doirasi, sudning xabardor qilish maburiyati borligi, sudda qatnashish shartlari, dalil taqdim etishning tashkiliy masalalari, jabrlanuvchi vakilining protsessual maqomi, sud majlisida ishtirok etishi va qanday hollarda bepul yuridik yordam ko’rsatish tartibi, jabrlanuvchining himoyachidan voz kechish tartibini belgilash, shuningdek sudlanuvchi va jabrlanuvchi teng protsessual huquqlarga ega ekanligi masalalari yakdil qonun normasida aks etishi jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar va uning vakilining adolatli sud muhokamasiga bo’lgan huquqini ta’minlaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023. — 512 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Jinoyat ishlari bo‘yicha sud muhokamasida taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsiplarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida"gi qarori. — Toshkent, 2022. — 16 b.

3. Sh.J.Qodirov. Jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalalari // Yuridik fanlar axborotnomasi. — 2021. — №3. — B. 45-52.

4. B.B.Normatov. Jinoyat ishlarini sud muhokamasi bosqichida fuqaroviy da’vogarning protsessual maqomi // Falsafa va huquq. — 2022. — №2. — B. 88-94.

5. I.I.Qosimov. Sud muhokamasi bosqichida jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarning dalillar taqdim etish huquqi // Yuridik fanlar axborotnomasi. — 2021. — №4. — B. 22-29.

6. A.A.Xoliqov. Sud muhokamasida jabrlanuvchiga malakali yuridik yordam ko'rsatishning protsessual kafolatlari // Yurisprudensiya. — 2023. — №4. — B. 31-39.

7. D.D.Mirzayev. Jinoyat protsessida jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogar huquqlarini himoya qilishda advokat ishtirokining ahamiyati // Yuridik fanlar axborotnomasi. — 2024. — №1. — B. 57-64.

8. Баранов П.П. Право потерпевшего на квалифицированную юридическую помощь в уголовном судопроизводстве // Журнал российского права. — 2021. — №7. — С. 112-121.

9. Лазарева В.А. Обеспечение прав потерпевшего в судебном разбирательстве по уголовному делу // Государство и право. — 2022. — №5. — С. 95-104.

10. A.Ashworth, Redmayne M. The Criminal Process. — Oxford: Oxford University Press, 2021. — 512 p.

11. J.V.Roberts, Hough M. Understanding Victims' Rights in Criminal Justice: A Comparative Perspective // International Review of Victimology. — 2024. — Vol.30. — №2. — P. 145-162. DOI: 10.1177/02697580231234567

12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023. — 48 b.

13. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2021. — 24 b.

14. M.M.Abdurahmonov. Jinoyat ishlarida jabrlanuvchi manfaatlarini himoya qilishning milliy va xalqaro standartlari // Jurnal pravovых issledovaniy. 2022. №2. — S. 73-81.

15. Смирнов А.В., Калиновский К.Б. Уголовный процесс: учебник. — М.: Норма, 2023. — 784 с.

16. V.L.Grigoryan. Himoya va himoya faoliyati jinoyat protsessining tuzilishini va uning maqsadlariga erishishni belgilovchi omillar sifatida. RF-2006-yil.

**Elektron huquqiy manba:**

1. https://lex.uz
2. https://norma.uz
3. https://administrative_law.academic.ru/377/
4. https://dissercat.uz

# IJTIMOIY ADOLAT VA NOGIRONLAR: YANGI YONDASHUV, YANGI IMKONIYATLAR

Axmedova Shoxnoza Asatullayevna,
*Guliston davlat pedagogika instituti*
*shaxnozaaxmedova41@gmail.com*
***orcid.org/0009-0008-2423-7922***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ijtimoiy adolat va nogironlar huquqlari masalalari alohida e'tiborga olingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar, nogironlar uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar va ijtimoiy himoya tizimining takomillashuvi haqida so'z yuritilgan. Maqolada davlat siyosatining nogironlarga nisbatan yondashuvi, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, shuningdek, sog'liqni saqlash sohalaridagi yangiliklar haqida ma'lumot berilgan.*

***Аннотация.*** *В данной статье особое внимание уделено вопросам социальной справедливости и прав инвалидов. Речь об инициативах, реализуемых Президентом Республики Узбекистан, новых возможностях, создаваемых для инвалидов, и совершенствовании системы социальной защиты. В статье представлена информация о подходе государственной политики к инвалидам, условиях, создаваемых для их активного участия в общественной жизни, а также нововведениях в сфере здравоохранения.*

***Annotation.*** *This article pays special attention to issues of social justice and the rights of persons with disabilities. The event focused on the initiatives implemented by the President of the Republic of Uzbekistan, new opportunities created for persons with disabilities, and the improvement of the social protection system. The article provides information on the approach of state policy toward persons with disabilities, the conditions being created for their active participation in public life, and innovations in the healthcare sector.*

***Kalit so'zlar:*** *nogironlik, ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya, tizimli yondashuv, yangi imkoniyatlar, ijtimoiy hayotda faollik.*

***Ключевые слова:*** *инвалидность, социальная справедливость, социальная защита, системный подход, новые возможности, активность в общественной жизни.*

***Keywords:*** *disability, social justice, social protection, systemic approach, new opportunities, social activity.*

**Kirish**

Bugungi globallashuv va inson huquqlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan zamonaviy jamiyatda har bir shaxsning, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning teng huquqli ishtiroki ham ta’minlanmoqda. Ijtimoiy adolat – bu har bir insonning teng huquqlarga ega bo‘lishini ta’minlaydigan muhim tamoyil hisoblanadi. Nogironlar esa jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ularning huquqlarini himoya qilish va ularga teng imkoniyatlar yaratish dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar bu borada muhim ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa, 2021-yilda BMT Konvensiyasi ratifikatsiya qilinganidan so‘ng, davlat siyosatini amalga oshirishning aniq ma’muriy-huquqiy mexanizmlari, “Inson” agentligi faoliyati samaradorligi va raqamli texnologiyalarni ushbu sohaga tatbiq etish yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” ratifikatsiya qilinganidan so‘ng milliy qonunchilikda nogironlikning “tibbiy modeli”dan “ijtimoiy va inson huquqlari modeli”ga o‘tishining huquqiy mexanizmlari tizimli tarzda ishlab chiqildi.

**Muhokama va tahlil**

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari inson huquqlari doirasida muhim o‘rin tutadi. Ular jamiyatning boshqa a’zolari kabi teng huquqlar va imkoniyatga ega bo‘lishlari kerak. “Nogironlar huquqlari” tushunchasining va mazmunining retrospektiv tahlili jamiyat taraqqiyotining inson huquqlari rivojida hamda demokratik qadriyatlar shakllanishida muhim o‘rin tutati.

Nogironlik, invalidlik (lot. “invalidus” – “kuchli emas”) – kasallik shikastlanish, mayib -majruhlik, tug‘ma yoki baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma’lum muddat cheklanganlikni anglatuvchi tushuncha.

Nogironlar huquqlari – bu inson huquqlarining maxsus sohasi emas, balki uning aynan o‘zidir. Nogironlar huquqlari – nogironligi bo‘lgan shaxslarga boshqalar bilan bir xil huquqlardan foydalanish imkoniyatining hech qanday istisnosiz yoki kamsitishlarsiz berilishidir. Asosiy qonunimiz bo‘lgan Konstitutsiyaning 57-moddasida nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari kafolatlab qo‘yilgan. Ushbu moddada “…nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari davlat himoyasidadir... Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoit yaratadi, ularning ishga

joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi” deb belgilangan.

Hozirda nogironligi bo‘lgan shaxslar va ularning teng huquqli ishtirokini qo‘llab-quvvatlovchilarning sa’y-harakatlari bilan “ijtimoiy model”ga asoslangan qarashlar dunyoning turli rivojlangan davlatlarida ham targ‘ib qilinmoqda.

Ijtimoiy modelning asosiy mavzusi va yo‘nalishi “nogironlik”dir. Bu model nogironlik jaroyonini tavsiflash va nogironlikni ijtimoiy zulmning bir shakli sifatida belgilash orqali nogironlik ontologiyasini taqdim etadi.

Ijtimoiy model – nogironligi bo‘lgan shaxslar harakatiga asoslangan. Ushbu model “nogironlik”ni siyosiy jihatdan qayta ko‘rib chiqish g‘oyasini o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha “nuqsonlari” bo‘lgan insonlar uchraydigan ijtimoiy noqulayliklar va chetlatishlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida doimiy jismoniy, aqliy, intellektual nuqsonli shaxslarning turli to‘siqlarga duch kelganda, jamiyatda ularning teng asosda to‘liq va samarali ishtirokiga xalaqit beradigan to‘siqlarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy modelga ko‘ra, bu holat ijtimoiy jihatdan yuzaga kelgan adolatsizlik deb qaraladi, unga qarshi kurashish va radikal ijtimoiy o‘zgarishlar orqali bartaraf etish mumkinligi ta’kidlanadi. “Ijtimoiy model” konsepsiyasi 1980-yillarning boshlarida M.Oliver tomonidan fanga kiritilgan.

Nogironlikning ijtimoiy modeli huquqlarga asoslangan yondashuv bilan birgalikda, nogironlarni jamiyatning har qanday a’zosi bilan bir xil darajada o‘z hayot yo‘nalishini belgilay oladigan va belgilashi kerak bo‘lgan huquq egalari sifatida tan oladi. Shuningdek, ijtimoiy va jismoniy muhit tomonidan qo‘yilgan cheklovlarni odamlar huquqlarining buzilishi sifatida belgilaydi.

Inson huquqlari modelining mohiyati shundaki, u insonning tug‘ma qadr-qimmatiga va keyinchalik, faqat zarur bo‘lganda, shaxsning tibbiy xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Bu model shaxsni unga ta’sir qiluvchi barcha narsaning markaziga qo‘yadi va, eng muhimi, “muammo”ni shaxsdan tashqarida va jamiyatda ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasida ham nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish muammosi oxirgi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda. O‘zbekistondagi ijtimoiy davlat sifatidagi nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoya qilishning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

– huquqiy kafolatlar va teng imkoniyatlarni ta’minlash;

– ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash;

– bandlik va to‘siqlarsiz muhit yaratish;

– inklyuziv ta’lim va axborot olish olish imkoniyatini qulaylashtirish;

– nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab- quvvatlovchi jamoat birlashmalarini rolini oshirish.

Demak, O‘zbekistonda bugungi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslarning himoyasida qator huquqiy omillar yaratilgan.

**Xulosa**

